Omanova M.A., Qodirova M



# O'ZBEK ADABIYOTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Omanova M.A. Qodirova M.

# O‘ZBEK ADABIYOTI

FANIDAN

O‘QUV QO‘LLANMA

Oliy o‘quv yurtlarining O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan

Toshkent – 2021

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

**Mualliflar:**

**Omanova M.A.**– Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

**Qodirova M.** – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Yakubov I.A.** – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi professori, f.f.d.

**Tojiboyeva O.** – Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU dotsent v.b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori, PhD

Ushbu o‘quv qo`llanma O‘zbek iston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi 2020-yil 06.10dagi 522-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zbek adabiyoti tarixi) fan dasturi asosida tayyorlangan.

Ushbu qo'llanmada "O'zbek adabiyoti" fani XX asr – yangi o'zbek adabiyoti namoyondalaridan G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri sifatida, Oybek – XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi, Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi, Hamid Olimjonning hayot va ijod yo'li, Mirtemir hayoti va ijodi, Zulfiya. hayot va ijodi, Said Ahmad ijodiy merosi, Odil Yoqubovning hayot va ijod yo'li, Pirimqul Qodirov – taniqli prozaik, adabiyotshunos olim, Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, Abdulla Oripovning hayoti va ijodi, O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi, Tog'ay Murodning hayoti va ijodi keltirib o`tilgan.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

"O'zbek adabiyoti" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanma o'quv jarayoninig nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to'liq aks ettirgan. Bu talabalarning fanni qulay va oson o'zlashtirishlariga yordam beradi, o'z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratadi. O'zbek adabiyotini o'qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o'zgartirib, o'zbek adabiyotini o'rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o'rta maktabda, akademik litsey va kollejda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish, o'zbek adabiyotining boy imkoniyatlaridan o'z mutaxassisligi bo'yicha foydalanish, fikrni to'g'ri , aniq, mantiqli ifoda etishga o'rganish ko'zda tutiladi. Bu esa "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI"da ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'yicha "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash"ga to'la mos keladi.

Ushbu qo'llanma kasbiy malakaning shakllanishi va ko'nikmalarini hosil qilishda milliy ruhni anglash, o'zbek adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarga doir ma'lumotlarni qamrab oladi. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy barkamol avlodni yetishtirish, ularni ajdodlar

yaratgan adabiy merosga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda talabalar kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda ushbu fan muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning adabiyot va san'atni rivojlantirishga oid qarorlari, ma'ruza va nutqlari, xususan 2017-yil 18-apreldagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbek iston Milliy bog'ida "Adiblar xiyoboni"ni barpo etish to'g'risidagi Qarori va 2020-yilning 20-may kuni mazkur xiyobonga tashriflari paytida bildirgan fikrlari metodologik asos vazifasini o'tadi.

"O'zbek adabiyoti" fanini to'liq o'zlashtirish talabalar adabiy-estetik didini yuksaltirish barobarida ularda ilmiy tadqiqot olib borish malakasini shakllantirish uchun ham zamin hozirlaydi.

# 1-MAVZU: YANGI O‘ZBEK ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, YETAKCHI BELGILARI. YANGI O‘ZBEK ADABIYOTINI DAVRLASHTIRISH

## REJA:

1. Adabiyot — xalq mulki
2. Yangi o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari
3. Yangi o‘zbek adabiyotini davrlashtirish

**O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron resurslar ro‘yxati:**


1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: Sharq, 2008.
3. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T.: 2010.
4. Yo‘ldoshev Q. Yopiq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. –T.: Yozuvchi, 2000.


## KIRISH

Adabiyot — xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga ega. Inson bor ekan, adabiyot ham bo‘ladi. Adabiyotning o‘lmasligini ta‘minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning biri adabiyotning g‘oyat buyuk tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyati bo‘lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yasholmaydi: u — doimo tarbiyaga, doimo ma’rifatga va badiiy zavq olishga muhtoj. Ana shunga ко‘ra, tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega bo‘lgan yetuk asarlarga aslo zavol yo‘q.

Bunga qarama-qarshi holda quruq zamonasozlik ruhida yozilgan hamda hukmron mafkura va siyosatning istagi bilan maydonga kelgan, badiiyati bo‘sh asarlarning umri qisqa bo‘ladi. Bunday asarlar davr sinovlariga bardosh berolmay, tezda unutiladi. Afsuski, XX asrda yaratilgan asarlar orasida ana shunday “mahsulot”lar oz emas. Xayriyatki, adabiyotimizda davr sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o‘tgan, hozirgi kunlarda ham kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilib kelinayotgan ajoyib asarlar ко‘p.

Sodda qilib aytganda, XX asrda yaratilgan o‘zbek adabiyoti namunalarining nuqsonidan yutug‘i, yomonidan yaxshisi ko‘p. **Professor Naim Karimov** bu haqda fikr yuritib, haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi:

“XX asr — insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o‘chirishga urinish bema’nilikdir... XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi” (XX asr mening taqdirimda. — “Jahon adabiyoti” jurnali, 2001-yil, yanvar, 24-bet.)

Atoqli munaqqid **Ozod Sharafiddinov**:

“XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi, deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romannavislikda ham, she’riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o‘nlab uchratish mumkin”, — deb yozgan edi. (Sharafiddinov Ozod. Uch cho‘qqining biri. — “O‘zAS”, 2001-yil, 23-noyabr)

XX asr adabiyotiga berilgan bunday adolatli bahoni **Umarali Normatovning** quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi:

“Hech qaysi soha XX asrda adabiyotchalik millat taqdiri, ijtimoiy adolat, inson erki, sha’ni, himoyasi yo‘lida izchil, muntazam kurash olib borgan emas. “O‘tkan kunlar” romani, Cho‘lpon she’riyati, Fitrat dramalaridan tortib, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari, Shavkat Rahmonning mardonasiga qadar eng yetuk badiiyat namunalarini ko‘z oldingizga keltiring — el-yurt qayg‘usi, millat erki, ozodligi, mustaqilligi g‘oyalarini bu qadar yonib aks ettirilgan boshqa biror sohani topolmaysiz! Mustaqillik g‘oyasini, mafkurasini birinchi galda XX asr buyuk so‘z

ustalari tayyorladi, degan qarashga to'la qo'shilaman. XX asr adabiyotining millat badiiy zavqi, go'zallik tuyg'usini shakllantirishdagi xizmatlari esa beqiyosdir". ( XX asr mening taqdirimda. — "Jahon adabiyoti" jurnali, 2001-yil, yanvar, 17-bet. )

XX asrda so'z san'ati sohasida erishilgan ana shunday yutuqlarni avaylab-asrash, bu davrda yaratilgan asarlarni tanqidiy o'rganib, keng targ'ib etish, ularni tom ma'noda xalq mulkiga aylantirish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir. Biror yozuvchi ijodi yoki muayyan bir badiiy asarga baho berganda, o'sha adib yashagan yoki o'sha asar yozilgan davrning talabi bilan izohlanadigan ayrim nuqsonlarga qarab emas, balki badiiy saviyaga qarab hukm chiqarish, xulosaga kelish kerak.

Chunki, adabiyot ham, yozuvchi ham o'zi yashagan jamiyatdan chetdan turishi mumkin emas. Afsuski, sho'rolar davrida adabiyotning maqsad va vazifalari tor tushunilib, bir tomonlama talqin etildi. Badiiy asarni baholashda; adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, badiiy mahoratga taalluqli tomonlari, adabiyot so'z san'ati ekanligi кo'pincha inobatga olinmadi. Natijada, so'z san'atining sifatiga jiddiy putur yetdi. Badiiy yuksak asarlar ozayib, "o'rtamiyona", sayoz asarlar кo'payib ketdi.

Mustaqillik davrida adabiyotimiz so'z san'atining gullab - yashnashiga g'ov bo'luvchi turli to'siqlardan, birinchi navbatda, kommunistik mafkura va sotsrealizm tazyiqidan qutildi. Adabiyotning erkin rivojlanishi, yangi-yangi badiiy ufqlarni zabt etishi uchun yo'llar ochildi. Ana shuning uchun ham adabiyotimizning kelajagi yanada porloq, badiiyat xazinasi yangi-yangi ajoyib asarlar bilan boyishi aniq, deb baralla aytish mumkin.

**XX asr o'zbek adabiyoti yangi o'zbek adabiyoti,** deb ataladi. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo'sini o'zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar galereyasi ham o'zgardi. Oldinlari badiiy adabiyot inson ruhiyati tebranishlarinigina aks ettirgan bo'lsa, endilikda xalq turmushining ichiga chuqurroq kirib borib, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muammolarni hal etishga urina boshladi. Avvallari badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega

kishilar qahramon qilib olingan bo'lsalar, XX asrga kelib, adabiy personajlar, ko'proq, oddiy kishilar orasidan qidiriladigan bo'ldi.

Ayni vaqtda, yangi o'zbek adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizning qonuniy merosxo'ridir. Shu bilan birga, uning yangi zamondagi davomi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish yo'llari, taraqqiyot bosqichlari bilan avvalgi adabiyotimizdan farq qilib, ajralib turadi.

Yangi o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayotining o'ziga xos badiiy tarixi — yilnomasidir. Uning asosiy tasvir obyekti borliq hayot — yangi voqelikdir. Binobarin, bu adabiyotning mavzu va mundarijasi yangidir. U bevosita yangi hayotni aks ettiradi.

Bu adabiyot hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va ular haqida o'z fikrini obrazli qilib aytadi. Ko'p qirrali hayotning hech bir muhim voqea-hodisasi yo'qki, u adabiyotimizda o'z ifodasini topmagan bo'lsin.

Yangi o'zbek adabiyotining mavzular doirasi va g'oyaviy mazmuni yangi bo'lgani singari uning asosiy qahramonlari ham yangidir. Bu adabiyotning asosiy qahramonlari, ko'p hollarda, ishchilar, dehqonlar, ziyolilardir. Bu qahramonlar orqali adabiyotda xalqimizning oliyjanob fazilatlari, uning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati, jamiyatni rivojlantirish yo'lida olib borgan kurashlari ochib beriladi.

Bu adabiyot yangi davrning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan yangi adabiyot edi. Shuning uchun ham XIX asrning yetmishinchi yillaridan boshlab o'zbek adabiyotida ilk bor asrlar mobaynida amal qilib kelingan estetik an'analar buzildi.

Shunisi muhimki, yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining barcha bosqichlarida yangi turdagi qahramon — **zamon kishisi obrazini yaratish** yozuvchilarning diqqat markazida turdi. Zotan, bu adabiyotda turli yillarda yaratilgan asosiy qahramonlar o'z davrining farzandlari bo'lib, jamiyat tarixining turli davrlaridagi hayot va insoniy munosabatlarni aks ettiradi.

Xullas, yangi o'zbek adabiyoti voqelikni haqqoniy ko'rsatish orqali kishilarni ezgulik ruhida, vatanparvar, xalqparvar, mehnatsevar, yuksak axloq-odobli qilib tarbiyalash, ularga estetik zavq berishga harakat qilib keldi.

To‘g‘ri , adabiyotimizning taraqqiyoti silliq kechgani yo‘q. Yangi o‘zbek adabiyoti o‘z yuksalish tarixining hozirgi bosqichiga yetib kelguncha ancha murakkab ijodiy yo‘lni bosib o‘tdi. Turli to‘siq-g‘ovlarga duch keldi. Natijada, adabiyotda madhiyabozlik, voqelikni bo‘yab bezab aks ettirish, o‘tmishni nuqul qora bo‘yoqlarda tasvirlash singari xato va nuqsonlarga ham yo‘l qo‘yildi.

Aytish kerakki. endigina paydo bo‘lib qo‘llanila boshlagan yangi o‘zbek adabiyoti atamasini tushunish borasida ham adabiyotshunoslik ilmida bir xillikka erishilgan emas. Chunonchi, darsliklarda yangi o‘zbek adabiyotining chegarasi ancha keng belgilanadi: “Alohida estetik hodisa sifatida XIX asrning 70- yillaridan e’tiboran paydo bo‘lgan yangi o‘zbek adabiyoti hozirgacha bo‘lgan vaqt mobaynida o‘z taraqqiyotida quyidagi bosqichlarni bosib o‘tdi:

a) ma’rifatchilik adabiyoti;

b) jadid adabiyoti;

d) sho‘rolar adabiyoti;

e) mustaqillik davri adabiyoti.

Bu bosqichlarning har birida yangi o‘zbek adabiyoti o‘ziga xos sifat va xususiyatlarga ega bo‘lgan”.

Biz darslik mualliflarining o‘ziga xos qarashlarini inkor etmagan holda yangi o‘zbek adabiyoti chegarasini XX asr boshidan olish va uning taraqqiyot bosqichlarini belgilashda shu vaqtga qadar qo‘llanilib kelingan yo‘ldan borishni ma’qul ко‘rdik.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi hozirgi kun talablari asosida, bir butun holda, har tomonlama tahlil etilgan yirik ilmiy asarlar kam.

N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharofiddinov singari yetakchi mutaxassislar tomonidan shu mavzuda yaratilgan kitoblar esa yetarli emas. Bu olimlarning “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” deb nomlangan darsligi (“O‘qituvchi” nashriyoti, 1999-yil atigi 3000 nusxada chop etilgan, xolos. Holbuki, bunday kitoblarga talab juda katta.) Darhaqiqat, XX asr o‘zbek adabiyotida erishilgan olamshumul yutuq va tajribalarni, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan ba’zi xato va

kamchiliklarni ilmiy asosda maxsus o'rganib umumlashtirish va keng targ'ib etish yetuk mutaxassislar tavyorlashda muhim ahamiyatga molik.

**XX asrning 20-30 yillari adabiyotidagi yetakchi tamoyillar.** Ushbu davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy manzarasi. Shaxsga sig'inish illatlari va adabiyoti. Turkiston muxtoriyati va uning fojiali qismati. Adabiyotda ikki oqimning vujudga kelishi. Proletar-yo'qsil va milliy uyg'onish adabiyoti.

A.Fitratning adabiy-madaniy merosi. Jadidchilik g'oyalari "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlarining dasturi sifatida. Fitrat – prozaik. Fitrat – dramaturg. Fitrat-yirik adabiyotshunos va tilshunos olim.

H.H.Niyoziy. Hamza – ma'rifatparvar shoir. Hamza – dramaturg. "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" jadid dramasi sifatida.

A.Qodiriy o'zbek adabiyotining atoqli vakili ekanligi. A.Qodiriy hajviyoti. A.Qodiriy – birinchi o'zbek romannavis. "O'tgan kunlar" milliy uyg'onish davri adabiyotining namunasi va cho'qqisi sifatida.

A.Cho`lpon. Jadid g'oyalari va inqilobgacha bo'lgan ijodi. Davr ziddiyati va Cho'lpon she'riyati. Cho'lpon she'riyatining badiiy qiymati-obrazli topilmalari.

G'.G'ulom. Adibning 20-yillar she'riyati, 30-yillar ijodi. G'.G'ulom prozasi. "Hikoyalar", "Kulgi hikoyalari" to'plamlaridagi asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Oybek hayoti va ijodi. Adibning adabiy merosi haqida ma'lumot. 20-yillar Oybek lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Oybekning 30-yillar lirikasida davr g'oyalarining ustuvorligi. Oybek – romannavis, tarjimon, adabiyotshunos olim.

H.Olimjon ijodida qarama-qarshi yo'nalishning mavjudligi. H.Olimjon – baxt va shodlik kuychisi. H.Olimjon – tarjimon, adabiyotshunos.

A.Qahhor hayoti va ijodi. A.Qahhor – hikoyanavis, romannavis va tarjimon. Adibning estetik qarashlari.

U.Nosir hayoti haqida ma'lumot. Uning fojeali qismati va ijodiga bo'lgan yangicha munosabat. U.Nosir dostonlari davr ziddiyatining o'ziga xos oynasi. U.Nosir dramaturg.

**Ikkinchi jahon urushi va urushdan so'nggi davr o'zbek adabiyoti**

Urush davrida adabiyotning janriy kengayishi. Publitsistika janrining jonlanishi. Janr rang-barangligiga e'tiborning kuchayishi.

M.Shayxzoda hayoti va ijodi. Shoirning 30-yillar she'riyati. Tragediyada zohiriy va botiniy konflikt. Shayxzoda – yirik adabiyotshunos olim, mohir pedagog sifatida.

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Shoir ijodida davr tasviri. Mirtemir – tarjimon.

Zulfiya she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Shoira she'riyatida hijron motivi. Baxt va sevgi, g'am-hijron shoira lirikasining qo'sh qanoti ekanligi.

**60-80-yillar o'zbek adabiyoti**

50-yillarning ikkinchi yarmi va 60-yillarning boshlarida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar. 60-70-yillar o'zbek adabiyotida ikki yo'nalish – an'anaviy sho'ro adabiyotiga xos xususiyatlar bilan bir qatorda milliy o'zlikni anglashi intilish tendensiyasining paydo bo'la boshlashi.

A.Muxtorning qisqacha tarjimayi holi. A.Muxtor ijodiy merosi haqida ma'lumot. A.Muxtor ijodidagi asosiy xususiyatlar, uning kuchli va ojiz jihatlari.

S.Ahmad hayoti va ijodi haqida ma'lumot. S.Ahmad – hikoyanavis, romannavis.

O.Yoqubov publitsistik va ocherkchiligining o'ziga xosligi. O.Yoqubov asarlarida ma'naviyat masalasi – bosh pafos sifatida. O.Yoqubov romanchiligi.

P.Qodirov qissalarida inson yaratuvchanligining badiiy talqini. P.Qodirov adabiyotshunos olim va munaqqid.

E.Vohidov she'riyatida inson ma'naviy olamining o'ziga xos bo'yoqlarda aks etishi. E.Vohidov she'riyatida an'ana va novatorlik "Yoshlik" devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari.

A.Oripov hayoti va ijodi. A.Oripov she'riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik. A.Oripov – tarjimon.

O'.Hoshimov hikoyalarida ma'naviy ruhiy olam talqining o'ziga xosligi. "Dunyoning ishlari" qissasida Ona siymosining badiiy talqini.

Sh.Xolmirzayev hayoti va ijodi. Sh.Xolmirzayev – hikoyanavis. Ramziy va fantastik tasvirning realizm bilan uyg'unlashuvi tasvirning o'ziga xosligi sifatida.

T.Murod hayoti va ijodi. Adib ijodida milliylikning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi. Asarda sujet va kompozitsiya yaratishdagi novatorlik.

**1900-1930-yillardagi o'zbek adabiyoti**

XX asr boshlariga kelib xalqimiz taqdirida tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, 1917-yil fevral to'ntarilishi Turkistonga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Bu yillardagi adabiy jarayon ham hayotdagi singari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu davrda xilma-xil mafkuraviy, badiiy-uslubiy oqimlarning yuzaga kelishi (masalan, nazariy romantik oqim, sentimental oqim, hajviy oqim, realistik oqim). Hamza, Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi adiblarning yangi adabiyot rivoji, yangi adabiyot estetik tamoyillarni ishlab chiqishdagi xizmatlari katta bo'ldi. Biroq umuman olganda, bu davr adabiyotining yetakchi yo'nalishlaridan birini ulkan to'ntarishdan iborat bo`lgan inqilobni, yangi jamiyatni boshqarayotgan sho'rolarni madh etish tashkil etadi. Fozil Yo'ldosh, Po'lkan shoir, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, Cho'lpon va A.Avloniyning qator she'rlari, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjonning yangi tuzumni ulug'lovchi asarlari ana shular jumlasiga kiradi. Mustabid tuzum o'z g'oyalarini himoya qilish, xalq ongini o'zgartirishda adabiyotning roli benihoya ekanini inobatga olib, uni o'z yo'rig'iga solishga juda katta kuch sarfladi. Oradan sal o'tib, 30-yillarning avvalidayoq sotsialistik realizm metodi zamiridagi adabiyot deb nomlanajak adabiyotning nazariy va g'oyaviy mezonlariga shu 20-yillarda asos solindi.

20-yillar adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri klassik adabiyot, ayniqsa folklordan o'rganishning kuchayganligidir. Aytish mumkinki, folklor, ma'lum darajada hatto yozuv adabiyotidan ham ilgarilab borib, hayot voqealarini yirik asarlarda birinchi bo'lib aks ettirdi. Va nihoyat, tarixiy mavzuning yetakchi o'rin olishi bu davr adabiyotining muhim xususiyatidir. Boshqacha aytganda, zamonaviy mavzu yoritilganda ham, o'tmish hayotidan olib yozilganda ham tarixiylik va xolislikka amal qilish bu bosqich adabiyotining muhim tamoyilidir.

Adabiyot maydoniga yigirmanchi yillarda kirib kelgan G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Olimjon, Mirtemir, S.Abdulla kabi ijodkorlar qatoriga M.Shayxzoda, U.Nosir, Zulfiya kabi bir qator yoshlar kelib qo'shildi.

Bu ijodkorlar ijodining aksariyati davr talablari asosida yaratilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek adabiyotini boyituvchi asarlar ham ko'plab yaratildi. Jumladan, o'zbek she'riyatida G'.G'ulom, H.Olimjon, Oybek, U.Nosir kabi ijodkorlarning sevgi-muhabbat, Vatan madhi, tabiat mavzusida yaratgan. asarlari bugungi kun kitobxonlari uchun ham qimmatlidir,

Ta'kidlash zarurki, 30-yillar o'zbek adabiyotining janrlar doirasi kengaydi. Ko'plab dostonlar, sarbast, erkin vaznda yaratilgan butun bir she'riyat vujudga keldi. Bu hol keyinchalik o'zbek she'riyatining janriy imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qildi. Nasrda ham o'ziga xos yutuqlarga erishildi. A.Qodiriy boshlab bergan realistik tasvir nasrning barcha janrlarida ustivor tamoyilga aylana boshladi.

Xususan, hikoyachilikda A.Qahhor ijodi o'zining butun murakkabligi bilan alohida ajralib turadi. Adib tomonidan yaratilgan "Bemor", "Anor", "Millatchilar" kabi ko`plab satirik xarakterdagi hikoyalari, "Sarob" romani bugungi kunda ham jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bulardan tashqari Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Qutlug' qon", A.Qodiriyning "Obid ketmon" kabi roman va qissalari o'zbek nasrini boyitishga katta xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, 30-yillar o'zbek xalqi taqdirida qanday mudhish iz qoldirgan bo'lsa, uning adabiyoti va san'atida ham shunday asorat qoldirdi.

Bu davrda xalqimizning eng iste'dodli ijodkorlari – A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, U.Nosir kabi ko'plab adiblar qatag'on qurboni bo'ldilar.

Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, H.Olimjon kabi ko'plab shoir va yozuvchilar esa hokim mafkura g'oyalarini kuylashga mahkum etildi.

Biroq bu kabi tazyiqlarga qaramasdan, 30-yillarda ham xalqimiz ma'naviyatini boyituvchi ko'plab san'at asarlari yaratildi.

## 2-MAVZU: G'AFUR G'ULOM O'ZBEK ADABIYOTINING YETUK NAMOYANDALARIDAN BIRI SIFATIDA

(1903-1966)

**REJA:**

1. G'afur G'ulomning hayoti va ijodi.
2. G'afur G'ulom she'riyati
3. G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri sifatida

**G'afur G'ulom** (1903–1966) – buyuk o'zbek yozuvchisi va shoiri. 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ilgan. Dastlabki savodni ota-onalari G'ulom aka va Toshbibi ayadan oldi. Biroq beshafqat taqdir yoshligida uning boshini ko'p ham silamadi. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qolgan G'afur G'ulom avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim olgan. "Shum bola" (1936) avtobiografik qissasida ijodkorning bolaligi, asr boshidagi Toshkent hayoti tiniq tasvirlangan. Otadan (1912), onadan (1918) erta ajragan G'afur bolaligidayoq yetim qoldi. Qashshoqlik va yetishmovchilik deb ataluvchi tilsim ming-minglab bolajonlar qatori kelajakning buyuk shoiri –"o'ninchi yillarning sargardon"ini ham o'z quchog'iga oldi. Etikdo'z kosibga qarashdi, kunduz kunlari singillarini boqib, kechqurun qo'shni mahalladagi tegirmonda qorovullik qildi. Sariboy degan boyning ko'shkin bog'ini qo'ridi. Ko'p yillar o'tgach, shu boy eshigidagi xizmatlarni G'afur G'ulom o'zining "Shum bola" qissasiga ustalik bilan singdirib yubordi.

G'afur G'ulom – O'zbekistonning taniqli yozuvchisi. G'ofur G'ulomning she'riyati va nasrida o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang – she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar.

G'ofur G'ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o'zbek adabiyoti rivojida beqiyos o'rin tutgan. G'afur G'ulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va

boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga mohirona tarjimasi bilan mashhur. Uning otasi savodxon bo'lgan. U o'zbek va tojik mumtoz adabiyotini o'qigan, rus tilini bilgan, o'zi ham she'rlar yozgan. Uning uyiga Muqimiy, Furqat, Asiriy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan.

1916-yilning kuzida G'afur o'qishga kiradi. Onasining vafotidan so'ng (otasi avvalroq vafot etgan), u ishlashga majbur bo'lgan. Ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi, so'ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919-yildan 1927-yilgacha u o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo'lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi.

1923-yildan G'.G'ulomning adabiy faoliyati boshlanadi. She'rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. 1923-yil yozilgan "Feliks farzandlari" she'rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi, "Maorif va o'qituvchi" oynomasida esa "Go'zallik qayerda" nomli ikkinchi she'ri nashr qilinali. Birin-ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi: "Dinamo", "Xitoy suratlari", "Biz sizlar bilan tirikmiz", "Jonli qo'shiqlar", "Sizga", "Sovg'a", "Tong qo'shig'i", "Qo'qon" dostoni va boshqalar. G'afur G'ulomning 1930-yil boshlarida yozilgan she'rlarida yangi shakllarga burilish seziladi, bunga mumtoz rus tilini o'rganashi ham muhim darajada ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, sanoatning o'sishi, Turksib temir yo'l magistralining qurilishi kabi uning ona yurtida sodir bo'layotgan ajoyib o'zgarishlarni ta'riflash uchun yangi lug'at boyligi, yangi she'riy bo'yoqlar, yangi ohang va vazn talab etilgan. "Dinamo" (1931), "Tirik qo'shiqlar" (1932) — yosh shoirning yo'nalishi yorqin namoyon bo'lgan birinchi she'riy to'plamlari. Shoirning boqiy hayot, mangu ko'k daraxt haqidagi "Qish va qor" (1929), "Non" (1931), "Toshkent" (1933), "Qutbda saylovlar" (1937), "Men – Yahudiyman" (1941), "Qish" (1941), "Xotin" (1942), "Afsuski, afsusni qo'shib ko'mmadi" (1945), "Bog'" (1934), "Qayg'u" (1942), "Kuz keldi" (1945), "Kuzgi ko'chatlar" (1948) kabi she'rlarida umuminsoniylik, insonparvarlik mavzulari o'z aksini topdi.

Ko'pgina she'rlarida **sharq donishmandi - ota timsoli** mavjud: "Sen yetim emassan" (1942), "Qayg'u" (1942), "Biri biriga shogird, biri biriga ustod" (1950), "Sizlarga - yoshlar" (1947), "Bahor taronalari" (1948) va boshqalar. "Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari va "Shariat nayranglari" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tavsirlangan.

"Netay" qissasi — keng ijtimoiy umumlashmalarga boy ajoyib asar. Sujet asosiga haqiqiy voqea qo'yilgan. So'nggi Buxoro amiri Peterburgga safari chog'i Toshkentda to'xtaydi. Amir mamnun va xursand bo'lishi uchun boylar hamma narsa qiladi. Uning huzuriga ermak uchun Netay ismli qizni keltirishadi. Oddiy ishchilar timsoli yoqimli tarzda ifodalangan - urug'lar va ularning ayollari hayotning qiyinchiliklariga qaramay, ma'nan boy va juda ta'sirchan bo'lgan Netay ismli o'n yashar qizni boqib olishadi. Qissada G'afur G'ulomning o'ta serqirraligi va iqtidorining moslashuvchanligi va nasr texnikasidan mohirona foydalana olishi namoyon bo'lgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiki G'ofur G'ulom "Navoiy va bizning davr" (1948), "Folklordan o'rganaylik" (1939) tadqiqotlarini, "Jaloliddin dramasi haqida" (1945), "Muqimiy" (1941) maqolalarini yaratgan. O'z davrining dolzard asari yosh avlodni tarbiyalashdagi qudratli kuch haqida so'zlovchi "Yo'ldosh" dostoni bo'lgan. Fuqarolik urushida yaqinlari Yo'ldoshdan ayriladi. Boshqa yetim bo'lib qarovsiz qolgan bolalar kabi, bu bolakayga ham davlat g'amxo'rlik qiladi — ular uchun boshpana bo'lgan internatlar va bolalar uylari yaratishadi. Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari o'z Vatani mustaqilligi himoyasi uchun doim tayyor turishadi. Dostonda katta mahorat va iliqlik ila Yo'ldoshning otasi bilan uchrashuvi aks etilgan, o'z qarziga vafoli insonlar siymosi chuqur va keng ochib berilgan.

Vatan himoyachisi mavzusi G'afur G'ulomning 1941-1945-yillardagi keyingi ijodida yanada rivojlandi va chuqurlashdi. U odamlarni "bor sabri, bor iqtidori"ni fashistlar ustidan g'alabaga qaratishga chorlaydi. Shoir urushdan keyingi davrlardagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'zbek ayolining o'rnini tarannum etadi. "Ikki



Nizo... ...mli
T...
kutub...

akt" dostonida u qishloqlarning qayta joylashuvini madh etarkan, o'zbek dehqonchiligi va ularning kelajak orzu tuyg'ularini ifodalaydi. Doston o'zining chinakan hayot haqiqatiga sadoqati bilan kuchlidir. Bu yerda o'zbek dehqonchiligining tarixiy ishonchli surati chizilgan. Ushbu mavzu "Qo'qon" dostonida ham yangraydi. O'z vaqtida u xalqda ommabop bo'lgan va qishloq xo'jaligini mustahkamlash kurashida targ'ibot vazifasini bajargan.

G'afur G'ulom qisqa, o'tkir sujetli hikoyalar ustasi sifatida ham taniqli bo'lib, hikoya uslubi o'rnida u yozuvchining savol-javoblari bilan to'ldirilgan jonli do'stona bahs-munozara shaklida, mualliflik nutqi va kitobxonga erkin yuzlanish orqali foydalanadi. G'afur G'ulom tomonidan 30-yillarda yaratilgan ko'plab nasriy asarlar yangi insoniy munosabatlarga bag'ishlangan. U asarlarida yoritgan asosiy muammo va yechimlar – bu insonning axloqiy tarbiyasi, uning ma'naviy va madaniy rivoji sari kurashdir. Muallif o'zining nasriy asarlarida yorqin ijobiy timsollar yaratadi. "Yodgor" qissasidagi katta qalb egasi bo'lmish ijobiy qahramon Jo'ra begonaning farzandini tarbiyalaydi. Aynan oddiy insonning begona bolaga bo'lgan munosabati orqali muallif Jo'raning yuqori axloqiy darajasini ko'rsatib bergan.

G'afur G'ulom ko'plab asarlarini bolalarga bag'ishlagan. "Shum bola" asari nisbatan omadli hisoblanadi. Qahramon o'zining fojiali hayoti haqida o'zi so'zlaydi. Bola uyidan mahsulotlarni olib chiqib ketayotgan vaqtda onasi jazolaganligi tufayli, uyidan xolasinikiga qarab qochadi. Ammo, bu yerda ham bolaning omadi kelmaydi: u tasodifan tog'asining bedanasini o'ldirib qo'yib, bu uydan ham ketadi. Shunday qilib, u darbadar va ovoralik qilishni boshlaydi. Yozuvchi o'z e'tiborini shum bolaning xavotirlari va ichki kechinmalarini tasvirlashga qaratadi. Tashqi hodisalar, narsalar va kichik qahramonni o'rab turgan barchasini tasvirlash inson tuyg'ularini chuqur namoyon qilishda xizmat qiladi. Bunga barchasi bo'ysunadi — voqea bayonotining nuqtai-nazari, manzara va asarning timsoliy negizi. G'afur G'ulom o'zining juda yaxshi she'rlarini bolalar va o'smirlar uchun bag'ishlagan: "Ikki bolalik", "Bilaman", "Seni Vatan kutmoqda" Urush yillarida G'afur G'ulom "Sen yetim emassan", "Seni kutyapman, o'g'lim!", "Vaqt", "Kuzatish", "Ayol", "Bizning

ko'chada ham bayram bo'lajak" kabi ajoyib she'rlar yaratgan. "Seni kutyapman, o'g'lim!" she'rida shoir front ortida o'zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g'alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi. Mushkul kunlarda insonlarning bolalarga bo'lgan muhabbati buyuk ma'no kasb etgan. Bu - ota-onasini yo'qotib, oddiy odamlarning sidqidildan qilgan g'amxo'rligi haqida so'z boruvchi ajoyib "Sen yetim emassan" she'rida yaqqol seziladi.

Shoirning urush yillarida yozilgan "Bahaybat", "G'alabachilar qo'shig'i", "Vaqt", "Xotin" she'rlari yuqori fuqarolik she'riyatining namunalari hisoblanadi. Ular "Sharqdan kelmoqdaman" to'plamidan joy olgan. Urushdan keyingi yillar G'ufur G'ulom bir qator she'riy to'plamlarini nashrdan chiqaradi: "Yangi she'rlar", "O'zbek iston olovlari", "Onalar", "O'zbek xalq g'ururi", "Tong qo'shig'i", "Yashasin, tinchlik!", "Bu – sening imzoying". Ushbu to'plamlardan joy olgan she'rlarda shoir tinchlik davrining muhim savollariga javob topishga, o'zbek xalqining mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatishga intiladi. Asarlarining qahramonlari — dunyo ishlari va osoyishta mehnat bilan band sobiq askar.

G'afur G'ulom — tinchlik, do'stlik va xalq baxtining jo'shqin kurashchisi. Shoir tinchlik uchun kurashga bag'ishlangan to'plam yaratgan. Ulardan eng yaxshilari: "Dunyo minbaridan", "Yashasin, tinchlik!", "Bun – sening imzoying" va boshqalar. G'afur G'ulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga mohirona tarjimasi, shuningdek, adabiyotshunoslik va publitsistik maqolalari bilan mashhur. G'afur G'ulomning dunyo qarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakovskiy asarlari katta ta'sir ko'rsatgan. G'afur G'ulom o'zining maqolalaridan birida shunday yozadi: "Men... rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning ko'plab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin "men uchun vazn, lug'at, timsol, she'rning ohang tuzilishi sohalarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan" Mayakovskiyning shogirdiman, deyishni istayman". Mayakovskiy satirasidagi darg'azab, tanqidiy kinoya, lirikasidagi bag'oyat ulkan tuyg'u kuchidan tashqari, men

o'zimda... uning usullarining dovyurak notiqlik kuchini, metaforalar jasorati, mubolag'alar ifodaliligini jamdashga harakat qildim. Hatto, usulli, ohangli va ma'no ifodaliligini oshiruvchi she'r qurilishidan ham o'zbek she'r tuzimida foydalanishimga to'g'ri keldi". Bular G'afur G'ulomning ko'plab she'rlarida namoyondir, masalan: "Turksib yo'llarida", "Ona yer", "Yashasin, tinchlik!".

G'afur G'ulom ijodining urushdan keyingi davri o'zbek adabiyoti rivojida muhim o'rin egalladi. Urushdan avvalgi davrlarda uning she'rlarida urushdan oldin ular tomonidan yaratilgan narsalarni qo'lda qurol bilan himoya qilayotgan, yerda tinchlik istayotgan odamlarning ichki kechinmalari va o'y-xayollari tasvirlangan. Shoirning urushdan keyingi davr lirikasi uning urush yillar lirikasining mantiqiy davomi va rivoji hisoblanadi, "Unutma, Vatan seni kutmoqda!" va "G'alaba bayrami" she'rlari — shoirning mazkur ikki ijodiy davrining bog'lovchi halqasi kabidir.

G'afur G'ulom 1966-yil 10-iyul kuni vafot etgan. Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. O'zbek iston, 100003, Toshkent shahri, Arpapay ko'chasi, 1 manzili bo'yicha yozuvchining uy-muzeyi faoliyat ko'rsatib keladi.

## 3-MAVZU: OYBEK HAYOTI VA IJODI

(1905-1968)

**Oybek – XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili**

**Reja:**

1. Oybekning hayot yo'li.
2. Oybekning "Qutlug' qon" romani tahlili
3. Oybekning "Navoiy" romani tahlili

**Tayanch iboralar:** Oybek – XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, Oybekning "Qutlug' qon" romanida obrazlar tizimi, "Navoiy" romani tahlili

XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yilning 10-yanvarida Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o'rta maktabda, 1922–1925-yillarda esa Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil oldi. So'ngra O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qishini davom ettirdi. 1930-yili universitetni tugatib, shu yerda siyosiy iqtisoddan dars berdi.

Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib keladi. Shoirning "Dilbar – davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra" (1933) dostonlari o'z davrining she'riy yilnomalaridir. U tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratadi. Oybek she'riyati nihoyatda go'zal; o'zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasvir san'at vositalarida yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, u bir she'rida:

Yor ketdi, ko'zim bulog'i qoldi,
Siynamda tirik firoqi qoldi.
Ishq xotirasi kabi sochimning

Yoshlikda ko'paygan oqi qoldi... deydi.

Oybek mohir shoir bo'lgani kabi yetuk romannavis ham edi. U yaratgan "Qutlug' qon", "Navoiy", "Ulug' yo'l", "Oltin vodiydan shabadalar", "Quyosh qoraymas" kabi epik polotnolar o'zbek realistik nasri taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi. O'zbek xalqining 1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'oloni yozuvchining "Qutlug' qon" (1940) romanida zo'r mahorat bilan realistik ifodalangan; "Navoiy" (1944) romanida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazi yaratilgan. "Oltin vodiydan shabadalar" (1949) asarida xalqimizning urushdan so'nggi davrdagi yaratuvchilik mehnati, "Quyosh qoraymas" (1958) romanida Ikkinchi jahon urushi fojialari o'z ifodasini topgan. Adibning "Ulug' yo'l" (1967) asari esa "Qutlug' qon" romanining mantiqiy davomi bo'lib, unda yozuvchi xalq milliy ongining shakllanishini ko'rsatadi.

Oybek 1949-yilda Pokistonga sayohat qilgan. Adib qardosh xalq hayotini, kurash va intilishlarini "Pokiston xotiralari" ocherklarida, qator she'rlari, "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar" dostonlarida, nihoyat, "Nur qidirib" qissasida tasvirlagan. Adibning "Bolalik xotiralarim" avtobiografik qissasi 1963-yilda yaratilgan. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zidir.

Oybek iste'dodli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi, tarjimon va jamoat arbobi hamdir. O'zbek kitobxoni Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini, Lermontovning "Maskarad", Molyerning "Tartyuf" dramalarini, shuningdek, antik adabiyot namunalarini Oybek tarjimasida o'qishga muyassar bo'lgan.

Oybek 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylanadi va 1950-yilgacha akademiyada ijtimoiy fanlar bo'limining raisi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi bo'lib ishlaydi. U yuqori malakali filologlar tayyorlashda katta hissa qo'shgan ustozdir.[1]

---

[1] Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2016.

Yozuvchi asarlari o'zbek adabiyotining olamshumul shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Adibning 20 jildlik to'la asarlari majmuasi nashr etilgan. Shu ma'noda uning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mustahkam o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek 2000-yil o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

O'zining roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiy-publitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she'rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan atoqli so'z san'atkorlaridan biri Oybek bolalar adabiyotiga ham munosib hissa qo'shgan ulkan adibdir. U yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga samarali ta'sir etib, yosh avlod estetik didining shakllanishida katta rol o'ynamoqda. "Yosh yo'lchi" (1925), "Gunafsha" (1926), "Bolalikni eslab" (1926), "Shaharcha bolalariga" (1934), "Shoirning bolaligi" (1937), "Eski va yangi bolalik" (1937), "Odobli Tursun", "Ahmadjon bog'bon" (1971) kabi she'riy kitoblari, "Zafar va Zahro" (1953), "Haqgo'ylar" (1976), "Bobom" (1957) kabi dostonlari, "Alisherning yoshligi" (1975) qissasi, "Globus" (1981) hikoyalar to'plami, "Bolalik" kabi asarlari, ayniqsa, xarakterlidir.

Yozuvchi Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro'zg'orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o'tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma-tom oshib varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo'lsa, oshiq o'ynar, xo'roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug'larining bog'lariga "mehmon"ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezlarida esa o'zida yo'q sevinib, dor o'yini, xalq qiziqchiliklarini, ko'ngilochar tomoshalarni ko'rishga muyassar bo'lar edi. Keyinchalik, "Shaharcha bolalariga", "Shoirning bolaligi" she'rlarida shu manzaralar o'z aksini topadi.

Oybekning bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan she'riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik,

jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o'sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzusiga aylanadi.

Shoir g'oyaviy-badiiy kuchli she'rlar bilan birga, bolalar va o'smirlar hayotini tasvirlovchi hikoyalar ham yozdi. 1981-yilda adibning "Globus" nomli to'plami bosilib chiqdi. Bunda Oybekning shu vaqtgacha e'lon qilinmagan "Gulnor opa" (1930), "Fanorchi ota" (1930), "Singan umid" (1930), "Tillatopar" (1930) hikoyalari ham chop etilgan.

Oybek buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi "Alishering yoshligi" qissasini (1967) yozdi.

Ulug' Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi: "Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo'r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, adabiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi... U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari, hamisha xushfe'l, rahmdil, oliyjanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim."

Oybek 1928-yildan boshlab Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganishga kirishdi. U dastlab, Navoiy ijodiga doir ko'pgina ilmiy maqolalarni o'qib o'rganadi. Keyinroq "Navoiy", "Guli va Navoiy" dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Navoiy" romanida ulug' shoir va mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi. Buyuk shoirning bolaligi haqidagi qissasining yozilish tarixini adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova shunday izohlaydi: "Alishering yoshligini qalamga olish niyati adib qalbida qirqinchi yillarning boshlarida tug'ilgan bo'lib, "Navoiy" romanini yozish davrida bu ishtiyoq yanada kuchaygan edi. Tili, uslubi jihatdan mazkur romanga yaqin bu qissa 1967-yilda tugallangan bo'lsa-da, o'ziga

nisbatan g'oyatda talabchan adib uni qaytadan ishlash maqsadi bo'lgani uchun e'lon qilishga oshiqmadi".

"Alisherning yoshligi" qissasida Hirotdagi (taxminan 1447–1452 yillar) tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o'zaro taxt uchun kurashlari va shu davrda o'tgan Alisherning bolalik (to'rt yoshdan boshlab) yillari haqida hikoya qilinadi. Qissada Alisher obrazining takomili o'sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Hukmron doira orasida mavqeyi ancha baland bo'lgan G'iyosiddin va Gulbegim bekaning oiladagi samimiyliklari, o'zlarini sipo ham oqilona tutishlari farzandi Alisherning ham jismoniy, ham aqliy tomondan kamolotida muhim bo'lganligi haqqoniy tasvirlanadi.

Badiiy tildagi va tasvir yaratishdagi adib mahorati qissaning xalqchillik ruhini ta'minlagan, shu zaylda Oybek "Alisherning yoshligi" qissasi orqali xalqimizning uzoq o'tmishdagi hayoti haqida ham yosh kitobxon ongida haqqoniy taassurotlar hosil qila olgan.

Adibning "Bolalik" qissasi markazida yosh Musaning boshidan kechirgan sarguzashtlari yotadi. Musa obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o'zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo'lgan davrdagi xarakteri sho'xlik, tegajog'lik, tinib-tinchimaslik va o'yinqaroqlikdan tashqari, ochiq ko'ngil, dangalchi, o'tkir zehnliligi Oybekona tasvirga ega. "Bolalik" qissasida Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o'rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri o'z shaxsiy qiyofalariga ega. Qodir ko'rinishdan mo'min-qobilga o'xshab tuyulsa-da, ammo jahldor. Ahmad oshiqboz, tentakroq, Hoji mardikorning o'g'li quvgina, Sobir kichkina bo'lsa ham pishiqqina. Ularning turmush tarzi turlicha. Kattaroq bolalar oshiq, chillak o'ynaydilar, kichik bolalar esa tol novdalaridan ot qilib minadilar. Bu borada Turg'un obrazi fe'l-atvoridagi sergaplik, toqatsizlik, shartakilik bilan birmuncha ajralib turadi. Oybek o'sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma'lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.[2]

---

[2] Jumaboyev Mamasoli. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 2013.

## Oybekning "Qutlug' qon" romani tahlili

«Qutlug' qon» romani til va badiiy mahorat jihatdan diqqatga sazovordir. Asarda adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalangan. Obraz xarakterini, personaj tilini tabiiy va jonli qilib tasvirlagan. Shunga ko'ra romandagi har bir obrazning o'z ichki va tashqi dunyosi bor, o'z xarakter va individual tili bor. Masalan, Abdushukur tilidan ishlatilgan "g'olibo maqsad", "kaminaning g'oyaviy hayoti", "e voh, zavoli Turkiston", "milliy sarmoya", "o'z boylarimiz – musulmon boylarimiz" singari so'z va iboralar individual tus bergan. Asar haqida fikr yuritgan olim Homil Yoqubov shunday degan edi: "Badiiy asarda personaj nutqi singari maullif nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Bu jihatdan romanning tili ibratlidir".

Romanda personajlar tili singari muallif nutqi ham katta mahorat bilan ishlangan. Asarda Oybek jonli xalq tili boyliklari: Xalq maqollari, hikmatli so'zlar va obrazli iboralardan, shuningdek o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a, majoz kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Bundan tashqari, yozuvchi xalq maqol va hikmatli so'zlar darajasida turuvchi "yer sotgan – er bo'lmaydi, er – yer sotmaydi', 'jabrning to'qmog'iga toqat yo'q", "xalq o'z ishini o'zi biladi", "o'tinsiz qozon qaynamaydi" singari sermazmun, chiroyli jumlalar va obrazli iboralar yaratgan.

"Qutlug' qon" romani sujet va kompozitsiya jihatdan ham tahsinga loyiqdir. Unda asar g'oyasini va obrazlar xarakterini ochishga xizmat qilmaydigan tasvirlar, oshiqcha voqea va epizodlar yo'q. Yozuvchi voqealar tasvirini ortiqcha cho'zmaydi. Voqeadan voqea chiqarish va ularni tabiiy tarzda bir-biri bilan bog'lash orqali asosiy sujet chizig'ini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, sujetni xarakter yaratish ishiga mohirona xizmat qildiradi.

Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, roman ayrim qusurlardan ham holi emas. Asarda o'sha davr taqazosiga ko'ra sotsialistik realizm talabiga binoan rus inqilobchi Petrov obrazi sun'iy ravishda kiritilgan, uning Yo'lchiga ko'rsatgan ta'siri

ideallashtirilgan. Jadid Abdushukur esa bir tomonlama tasvirlanib, o'quvchida yoqimsiz taassurot qoldirishga urunilgan.

Roman asosida yotgan ziddiyat chizig'i, asosan, Yo'lchi bilan Mirzakarimboy o'rtasida tortilib, boshqa personajlar bu har ikkala tevaragida guruhlasha boshlaydilar. Oybek go'yo tog'a bilan jiyan o'rtasida boshlangan bu "xonaki" ziddiyatni shunday mahorat bilan tasvir etib va rivojlantirib boradiki, u pirovardida 1916-yil qo'zg'oloni voqealari bilan uzviy ravishda tutashib ketadi. Shu ma'noda romanning asosiy qahramonlari butun o'zbek xalqi uchun ahamiyatli bo'lgan katta ijtimoiy masalalarni olg'a sura oluvchi kuchga aylanadilar.

Oybek asar qahramonlari obrazini yaratishda ikki xil yo'lakdan borgan. U Yo'lchi va Gulnor obrazlari mohiyatini ochishda ular hatti-harakatlari tasviriga e'tiborini qaratgan bo'lsa, Mirzakarimboy o'zining insoniy mohiyatini o'z so'zlari bilan ochadi. Bu so'nggi tasvir usuli Yormat obrazini yaratishda yozuvchiga yordamga keladi.

Asarning tili va uslubini belgilashda Oybek Abdulla Qodiriy izidan emas, ko'proq yozuvchi Cho'lpon orqasidan borgan ko'rinadi. Yozuvchining tasvir uslubida ritm muhim rol o'ynaydi. Oybek, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida bo'lgani kabi, asar muqaddimasi (ekspozitsiyasi)ga katta o'rin ajratadi; voqealar g'oyat sust rivojlanib boradi. Ammo qahramonlar obrazi yorqinlashib, kurash maydoni bir qadar yorishgach, harakat keskin rivojlanib ketadi. Bunday o'rinlarda tasviriy tafsillar ham, peyzaj ham qahramonlarning nuqtalari ham nihoyatda qisqaradi.

**Asar mazmuni va obrazlar tizimi**

Har bir yozuvchi o'z xalqi va sinfi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan davrining ziddiyatli tasviriga alohida e'tibor qiladi. Oybek o'zining "Qutlug' qon" romanida o'zbek xalqining ijtimoiy zulmga qarshi hayot-mamot kurashiga otlanganligini ko'rsatgan, unga o'zbek xalqi manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashgan. Bu asarda qahramonlar xarakterlari ana shu kurash jarayonida ochilgan,

toblangan. Bundan tashqari, asar g'oyasi ham kurashlar zaminida jozibali, yorqin, ta'sirli, emotsional tarzda ochilgan.

Oybek "Qutlug' qon" romanini 1937-yillarda yoza boshladi. Oybek "bu romanni yozishda men hech qanday manbaa, materiallar to'plamadim, chunki bu asarni men yozish uchun bolaligimdan hayotni kuzatishni sevganligimdanmi, ko'nglimdan, xotiramdan "Qutlug' qon" romani quyilib kelaveribdi. Romanni qisqa fursatda yozib tugatdim", – degan edi.

1940-yilda chop etilgan "Qutlug' qon" romani – badiiy jihatdan yetuk asar. Una mamlakat o'tmishidagi hayot haqiqati mohirona ko'rsatilgan. O'zbek xalqining 1917-yil to'ntarish arafasidagi og'ir hayoti, ozodlik yo'lida olib borgan kurashlari keng va atroflicha tasvirlangan.

Oybekda bunday g'oyaviy-tematik asos dastlab asar qahramonlari sifatida xalqning ilg'or vakillarini tanlashda ko'rindi. Qahramonlarning rivojlanishiga, olg'a qarab harakat qilishda tasvirlash ham mana shu g'oyaviy yo'nalishdan kelib chiqadi. Oybekni birinchi galda xalq ichidan chiqqan kishilar xarakterida asta-sekin, evolyutsion suratda maydonga chiqib. Ma'lum vaqtdan so'ng shu kishilarni ozodlik uchun kurashuvchilarga aylantirgan o'zgarishlar qiziqtiradi. Oybek xarakterlar o'sishi va shakllanishini o'tkir qarama-qarshiliklar kurashining natijasi sifatida beradi. Demak, «Qutlug' qon»da xarakterlar ta'sirida muallifni asosan ikki masala bo'lib, qahramonlarning xarakterlarida yuz bergan yangi sifat o'zgarishlari; ikkinchisi – oqibat natijasida qahramonlarning xarakterlaridagi o'zgarishlarni vujudga keltiradigan qarama-qarshi kuchlar kurashidir. Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek, "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir".

"Qutlug' qon" romanida xotin-qizlarning rang-barang obrazlari berilgan. Yozuvchi, albatta, bu obrazlarni xalq ichidan tanlab oladi. Ular orasida, ayniqsa, Gulnor timsoli o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Adib Gulnor obrazi orqali o'sha davrdagi xotin-qizlarning achchiq taqdirini, fojeali qismatini umumlashtirib, tasvirlab bergan. Asarni o'qish davomida biz shunga amin bo'lamizki, o'zbek xotin-

qizlarining achchiq taqdiri, fojeali qismati, o'sha davrning og'ir turmush tarzi, qiyinchiliklari, itoatkorliklari yozuvchi tomonidan yorqin va ta'sirli mohirona aks ettirilgan. Buni biz hali bir xotin-qizlarning obrazlarini tahlil qilib bilamiz.

Gulnor – sodda va samimiy inson. Uning o'zi ham, so'zi ham, odob-axloqi ham, yurish-turishi ham go'zal. Unda notabiylik va soxtalik yo'q, ammo Gulnor huquqsiz. U Yo'lchini jonidan ortiq sevadi; uning qalbi to'la pok muhabbat. Romanda Gulnorning kechinmalari, turli ruhiy-psixologik holatlari yorqin bo'yoqlarda tabiiy va jonli qilib ifodalangan. Gulnorda o'zbek qizlariga xos go'zallik, ibo-hayo, kamtarlik, o'zgalarning ko'nglini og'ritmaslik, ular bilan dardlashish, mehnatkashlik xusuiyatlari jamlangan. Gulnor yuqorida aytganimizdek, o'sha davr xotin-qizlari kabi u ham huquqsiz, shu sababli u Yo'lchini jondan ortiq sevgani holda otasining qistovi bilan qari chol Mirzakrimboy bilan turmush qurishga majbur bo'ladi. Otasi uni "yaxshi yashaysan, yaxshi yeb, yaxshi kiyinasan" deb o'zi xizmat qilayotgan boyga ikkinchi xotin qilib beradi. Gulnor o'zining taqdirini bunday hal bo'lishini onasidan eshitib dong qotdi. "Bundan ko'ra o'lganim yaxshi ayajon, menga o'lim tilang" deyishi sevgi to'la qalbiga birdan qora bulutlar kela boshlaydi. Gulnor uch kunni jahannam azobida o'tkazadi. Onasidan mash'um xabarni eshitgandan buyon tinmay yig'laydi, qaynoq ko'z yoshlari bilan yuz-qo'llarini yuvib qayg'u alangasida tutaqib yonadi. Mirzakarimboyga xotin bo'lish uning hayotiga shu vaqtgacha bir lahza kelgan edi, Gulnor, balki, bunchalik o'rtanmagan bunchalik vahimaga, sarosimaga tushmagan bo'lar edi. Gulnorning ichki kechinmalarini adib mahorat bilan tasvirlagan: "Qiz o'z qalbini Yo'lchiga bag'ishlagan edi. Agarda butun vujudini, butun "men"ligini u yigitning ishqi to'ldirmagan bo'lsa edi, kambag'al qizlarning boshidan, ayniqsa ularning go'zallari boshidan ko'p vaqt chamanlar barbod qilib kechgan do'l bo'roni kabi, bu dahshatli ofatni, u, ehtimol, bir taqdir, bir zaruriyat, bir o'lim kabi daf etilmas hodisa deb tushunar, balki kamtarinlik bilan bo'ynini bukkan bo'lar edi. Gulnor nima qilsin? U yaralarini kimga ochsin? Ostonadan xatlab chiqishga haddi yo'q. Uyda hamma narsa unga yod, hamma narsa kar, otasi begona, hatto onasi ham begona kabi". Gulnor taqdirining bunchalik

beshavqatligidan kuyinadi. O'z sevgani Yo'lchiga yetisholmasligidan aziyat chekadi. Uni boylik qiziqtirmaydi, balki sevgani Yo'lchi bilan xarobada bo'lsa ham kamtaringina hayot kechirishni orzu qiladi. Ammo nima qilsin? Gulnor ham taqdir hukmiga tushib oxir-oqibat Mirzakarimboyga turmushga chiqadi.

**Asarda xotin-qizlar ruhiyati talqini**

Bundan keyingi hayot, Mirzakarimboydagi turmush Gulnor uchun haqiqiy jahannam kabi. Bu uydagi hamma narsa unga yot, uydagi narsa-buyumlar, zeb-ziynatlar u uchun begona, yot sovuq ko'rinadi. Gulnor butun yuragi bilan Yo'lchiga maftun, uning ko'ksini baxtsiz sevgi to'ldirgan. Gulnor uchun umrining eng mas'ud, eng unutilmas, eng yorqin damlari endi Yo'lchi bilan birga kecha-kunduz birga yashagan xarobagina hujrada garchi ming tahlika, qo'rquv ostida qamalib o'tirishga, nihoyat tutilishga to'g'i kelgan bo'lsa ham o'sha go'zal shirin tuyg'ular bo'lib qoladi. Gulnorni Mirzakarimboyning boyligi-yu, obro'si qiziqtirmasa ham, tabiiyki, boyning farzandlari Gulnorni "shumqadam" deb uni yo'q qilish payiga tushishadi va oxir-oqibat Gulnorning zahar to'la hayotini yana zaharlab o'ldirishadi. U o'layotgan chog'ida ham boylarning zulmidan nolib, sevgilisi Yo'lchini eslaydi, uning oxirgi gaplari quyidagi jumlalarda juda ta'sirli qilib keltirilgan: – Aniq u... Umrim zaharlangandi, endi qutulaman. Bular hammani zaharlaydi. U qamoqda... Hammani zaharlaydi bular, hammani. Oyi o'laman. Yo'lchini ko'rmadim armonim shu oyi kechiring...

Xullas, Gulnor hayoti fojea bilan tugaydi. Adib Gulnorning ichki dunyosini dardi, his-tuyg'ulari, ko'ngil kechinmalarinigina emas, balki uning atrofida kechayotgan keskin sinfiy kurashlar belgilagani, Gulnor ham o'sha davr hukmiga tushganini ruhiy psixologik holatlarni yorqin bo'yoqlarda tabiiy va jonli qilib ifodalagan.

Gulsumbibi – Gulnorning onasi. Gulsumbibi asarda o'zi bir olam sifatida namoyon bo'ladi. U – mushfiq, mehribon ona, Gulsumbibi har narsadan odamgarchilikni ustun qo'yadi. Qizini tushunadi, u yig'lasa yig'laydi, kuysa kuyinadi

va ayaydi. Shu sababli u boyning mulkiga uchmaydi, qizini Mirzakarimboy xotinlikka olmoqchi ekanini eshitgach, ruhan qiynalib ich-ichidan eziladi. Birinchi kun qizi bilan birga yig'lashadi, lekin u taqdir temirini sindirishdan ojiz ekanini tez anglaydi. Erining rayiga qarshi borishdan foyda yo'qligini biladi va ko'nikadi. Uning yuragi qanchalik iztirobda, azobda bo'lmasin lekin u endi qizining ko'z yoshlarini tindirish uchun faqat nasihat qiladi, yupatadi, otinoyi, eshonoyilardan eshitgan "kitob" so'zlarini gapiradi: "Bu dunyoda alamzada, dardkash bo'lgan xotinlarni qiyomatda Bibi Fotimaning o'zlari jannatga boshlar ekanlar", – deb qizini noiloj ovutadi. Ona bola bu musibatdan qattiq kuyinadi. Gulsumbibi qizining taqdiridan nolib: "Sho'rim qursin, kampir xotinni uzatganday to'rtta-beshta xotin bilan birga malikaday qizimni olib chiqarmishman, eshigimga karnay-surnay bilan, bir to'da yigit bilan kuyovim kelsa, ustidan sochiq sochilar, kuyovimning boshiga jig'a taqsam, degan orzularim bor edi... Domla imon bilan so'fi kelib nikoh uqirmish, man o'lgur qizimni yetaklab "yor-yor" yo'q, shovqin-suron yo'q, suv quyganday jimgina chiqararmishman, shappayib..." Gulsumbibi obrazida o'sha davr onalariga xos itoatkorlik ham, zahmatkashlik va mehribonlik ham yorqin aks etgan.

Unsin – Yo'lchining singlisi. Bu qiz o'n besh – o'n olti yoshlar orasida bo'lgan qoramtir, lekin toza, sog'lom yuzli, ko'zlari bolalarcha o'ynoq, sho'x, jingalak sochli, bo'ychan, qishloqcha sodda, samimiy bir qiz bo'ladi. Unsin obrazini akasiga mehribon singil, dardkash dugona, mehnatkash, kamsuqum, kamtargina qiz sifatida ko'ramiz. Unsin ham davr qiyinchiliklarini hali yoshgina bo'lishiga qaramasdan erta tatib ko'radi. Onasidan erta ayrilib, akasiga ergashib shaharga keladi, Mirzakarimboynikida u ham akasi singari xizmatkor bo'ladi. U mehnatdan qochmaydi, balki boylardan qochadi. Chunki bu uydagi muhit uni bug'adi. Mirzakarimboyning kelinlari unga yaxshi munosabatda bo'lmaydi, uni cho'riga aylantirib oladilar. Bu uyda unga yagona bir sirdosh, dardkash Gulnor bo'lib qoladi. Ular ikkalasi bir-biriga bog'lanib, suyanib qoladilar. Yo'lchi boyning uyiga singlisining holidan xabar olish uchun kelganida Unsin akasidan uni bu yerdan olib ketishni so'raydi, sababi boyning o'g'li Salim boyvachcha tegajog'lik qilayotganini,

bu uyatsiz odamlardan har balo kutish mumkinligini va Gulnordan ayrilgisi kelmasa ham Salimboyvachchaning ko'ziga qayta ko'rinmasligini aytadi. Uyatchan, sodda, samimiy singlisini bu zulmkorlar qo'lidan tezroq qutqazish uchun uni bu uydan olib ketadi. Unsin ham o'sha davr ijtimoiy muhitiga asardagi boshqa xotin-qizlar singari tushadi. Davr qiyinchiliklarini Shokir ota, Robiya xola va akasi qatori boshidan o'tkazadi. Shokir otaga mahsi tikishda yordamlashib, uning og'irini yengilltashida, birovga boqimanda bo'lib qolmaslikka tirishadi. O'zining soddaligi, halolligi, pok qalbi bilan yon atrofdagilarning mehrini qozonadi.

Xushro'ybibi – Yo'lchining onasi. Asarda bu obraz mehnatkash, kamtarin, mehribon ona, davr qiyinchiliklaridan zahmat tortgan, kambag'allik yukida aziyat chekkan obraz sifatida gavdalanadi. Eri vafot etgandan so'ng moddiy yordamga muhtoj bo'lib qoladi va tog'asi Mirzakarimboy huzuriga o'g'li Yo'lchini yuboradi. Vaholanki, bu tog'a ma'naviy dunyosi ham nopok va qarindoshlik tuyg'usidan ham mahrum edi. U "Xotin erning quli, xotinning ko'ngliga, rayiga qarab ish ko'rgan erkak – odam emas", – deydi. Xushro'ybibi obrazi asarda kam ko'rinadi ammo o'quvchida yaxshi taassurot qoldiradi.

Lutfiniso – Mirzakarimboyning xotini. Bu obrazning xarakteri uning gap so'zlaridan yaqqol bilinib turadi. Lutfinisoni ijobiy obraz deb ololmaymiz, chunki bu obraz o'ta manman, o'zini hammadan ustin qo'yadigan, kambag'allarni mensimaydigan boy bir dimog'dor xotin sifatida gavdalanadi. U asar boshidanoq o'quvchida unga nisbatan salbiy taassurot qoldiradi. Yo'lchi qishloqdan onasi berib yuborgan qurutlar solingan xaltani jirkanibgina, ushlagisi ham kelmay nevaralariga qarata "bu tosh qurut jig'ildonlaringni teshib yuboradi-ku", deb Yo'lchini noqulay vaziyatga soladi. Lutfiniso o'zi boy bo'lgani uchun u kambag'allarning har nimasini masxara qilishga, ularni har jihatdan o'zlaridan past tutishga, kamsitishga odatlangan xotin bo'ladi. Lutfiniso Gulsumbibi va Gulnorni juda ozoda, pokiza ekanliklarini ko'rpa-yostiqlari eski bo'lishiga qaramay, har vaqt toza tutilishini juda yaxshi bilsa-da, ularga yaqin bo'lmaslikni qizi Nuriga tayinlab shunday deydi: Ux, bay-bay,

o'zing bilasan, bolam, ko'p o'tirma... Ha tag'in, –onasi juda sekin pichiraydi, bit-miti kirmasin ehtiyot bo'l!"

Lutfinisoning shu so'zlari orqali uning naqadar dimoqdor boylikka, pulga, zebu-ziynatga o'ch xotin ekanini ko'ramiz. Bundan tashqari Lutfiniso qizi Nuri uchun bir dunyo sandiq-sandiq zebu-ziynat yig'adi, qizining baxtini shu matoqlarda deb biladi. Nurining baxtini shu boyliklar bilan o'lchaydi. Adabiyotshunos T. Boboyev xarakter haqida gapirib, "Xaraker, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o'z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan insonning aniq tasviri." Romanda Lutfiniso bilan uning qizi Nurinisoning xarakteri deyarli bir xil. Ular har ikkalasi ham o'zlarining baxtidan boshqa hech kimning baxtini o'ylamaydigan, hatto ona-bola ikkisi Gulnorni g'iybat qilishib, "Gulnor bilan Yo'lchi o'ynash" deya unga tuhmat qilishdan ham toymaydilar. Xullas, Lutfiniso obrazi uncha-munchani nazar-pisand qilmaydigan ayol.

Romanda Mirzakarimboyning qizi – Nuriniso obrazi ham bor. Gulnor go'zallik va samimiylikning ramzi bo'lsa, Nuriniso ichki qoralik va shumlikning, battollik va yomonlikning, behayolik va urushqoqlikning, o'jarlik va xudbinlikning timsolidir. Nurining qiliqlari va hatto harakatlari uning so'zlaridagi behayolik, yengiltaklik bu obrazning salbiy ekanligidan dalolat beradi. Boy qizi bo'lgani uchun hamma narsani o'z bilganicha oxirini o'ylamay o'lchayveradi. U dastlab Yo'lchini ko'rganidan keyin unga o'z muhabbatini izhor qiladi. Xilvatda u bilan uchrashib, quchoqlash va o'pishga sodda dil qishloqi Yo'lchini majbur qiladi. Bu bilan u yigitning his-tuyg'ularini o'yinchoq qiladi. Nurining dardi, es-hushi faqat erga tegish onasi singari sep uchun mol-dunyo yig'ish bo'ladi. Nuri keyinchalik boshqa bir xuddi o'zlari singari boy yigitga turmushga chiqadi va hech nima bo'lmagandek Yo'lchiga to'yini maqtaydi. Nuri ham onasi Lutfiniso singari pulga, mol-dunyoga o'ch makkora, ma'naviy qiyofasi xunuk obraz.

Oybekning obraz yaratish mahorati xuddi shu Nuri timsolida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yo'lchi bilan Gulnor o'rtasidagi sof va musaffo sevgiga g'ov bo'lishga intilgan, inson burchi va qadr qimmatini oyoq-osti qilgan, o'zi baxtli

bo'lmaganidek, ularni ham baxtsiz bo'lishini istaydigan Nurining ma'naviy qiyofasini juda go'zal chizib bergan. Zotan, yozuvchi har bir obrazning o'z fe'l-atvoriga, o'z ruhiyatiga xos bo'lgan shunday qiliq va harakatlarni topib ishlatadiki, bular shu vaziyatga butunlay mos tushadi va g'oyat tabiiy tarzda namoyon bo'ladi. Chunonchi, Nuri o'z to'yidan mamnun, balki xursand, tezroq erga tegish istagi kuchliligida to'y kuni o'zga uyga kelin bo'lib, ota uyini tark etayotgan bo'lsa-da, soxtagina, nomiga ko'z yosh qiladi. Uning bu kabi xatti-harakati onasi Lutfiniso vafot etgandan keyin har doim ota uyiga kelishdan, qo'shnilar ko'rishi uchun ko'chaga kirgandan uvvoz solib kirib kelishlari, Nurida samimiylik tuyg'usidan nishon ham yo'qligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra asardagi obrazlarning tilidan uning kimligi – fe'l-atvori, ong tushunchasi, ichki va tashqi tushunchasi yaqqolroq namoyon bo'ladi. Romanda Gulnor, Nuriniso, Lutfiniso, Xushro'ybibi, Unsin obrazlaridan tashqari yana bir epizodik obrazlar ham ustalik bilan yaratilgan.

Asarda **epizodik obrazlardan** Gulandon, Tursunoy, Oysara, Sharofat, Mariya, Robiya xola, Saodat kampir, Anna Mariya kabi obrazlar mavjud. Bu obrazlarning har birining tabiati o'ziga xos ma'naviy qiyofasi. Xatti-harakati va tashqi ko'rinishi jihatdan bir-biridan yaqqol farq qiladi.

Romandagi Gulandon obraziga to'xtaladigan bo'lsak, bu obraz taqdir-taqazosi bilan boshidan ko'p qiyinchiliklarni kechirib, yaxshi-yomon odamlarga duch kelib, oxir hammasiga qo'lsiltab hayot kechirish uchun buzuqlik yo'liga kirib ketgan bir obraz sifatida ko'ramiz. Gulandon bunday turmushga nafrat qilar, bu iflos doiradan, faxsh uyasidan qutilishni istar, ukalarini sog'inar, ularni o'z bog'iga olib har qanday mashaqqatlarga chidab, tiriklik toshini o'z qo'li bilan aylantirishni orzu etardi, lekin u mirza yigitga aldanib, Toshkentga kelganidan buyon u butun nafratiga qaramay, faxshning mast qiluvchi dudiga istar-istamas, ko'proq qayg'udan, alamzadalikdan o'rgana boshlagan edi. Hasratini dutor va qo'shiq bilan eritishga tirishar edi, “Dutor bo'lmasa, bu zindonda yuragim yorilib o'lar edim, bir qarichlikdan dutorni sevar edim. Bir qo'shni kelinchakdan o'rgangan edim. Ko'p chala berma, buzilib ketasan, – derdi onam boyaqish, aytgani keldi... Lekin ayb dutorda emas...”

Tursunoy va Sharofat obrazlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bular Mirzakarimboyning kelinlari, ya'ni Hakimboyvachcha va Salimboyvachchalarning xotinlari. Ular ham qaynonasi singari kambag'allarga past nazari bilan qaraydigan, Mirzakarimboy Gulnorga uylanganidan keyin Gulnorni umuman xushlamaydigan obrazlardir.

Asarda Saodat kampir obrazi yozuvchining unga bergan ta'rifidanoq uqib olamiz. "Saodat kampir uchun yoshiga qaramay, hali egilmagan, oriq lekin suyakli, qiyg'ir burunli, harakatlaridan shijoatli va chaqqon ekani bilingan erkaksimon bir xotin edi. Uning kichik ko'kishroq ko'zlari og'ir mehnat, jafokashlik, sabr va qanoat bilan to'lgan hayotining baxtsizlikka qiyinchiliklarga qaramay, o'z g'ururini yo'qotmagan uzun umrining tarixini jonli ifoda qilar edi".

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki "Qutlug' qon" romanidagi xotin-qizlar obrazi yozuvchi tomonidan obrazlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ularning xarakterlari, yurish-turishi, so'zlari, xatti-harakatlari, xulq-atvori va tashqi ko'rinishlari orqali yorqin tasvirlarda aks ettirilgan. Yozuvchi o'sha davr ijtimoiy muhit, zamondagi qiyinchiliklar, xotin-qizlarning erksizligi, huquqsizligini romandagi voqea-hodisalarda qahramonlarning davr taqazosiga ko'ra bu ko'ylarga tushishi haqqoniy tarzda aks ettirib bera olgan. Romandagi xotin-qizlarning har biri o'ziga xos xarakterga, xulq-atvorga egaligi holda hech biri takrorlanmas, bir-biridan yaqqol farq qiladi. Romandagi obrazlar ya'ni qizlar boy-kambag'al bo'lgani kabi ikki toifaga ijobiy va salbiy obrazlarga ajratsak ham bo'ladi. Chunki yuqoridagi obrazlar tahliliga to'xtalar ekanmiz, o'z-o'zidan ularni ikki toifaga ajralganini ko'ramiz. Yozuvchi faqatgina bu obrazlarning xarakterini ochib bermay, balki, ijtimoiy muhitni yorqin yoritishda xotin-qizlar obrazidan ham foydalanib ko'rsatib bergan.

"Qutlug' qon" romanida Shoqosim, Qoratoy, O'roz, Shokir ota, Qambar, Yormat, Unsin kabi obrazlar ham jonli, to'laqonli bo'lib chiqqan. Bu obrazlar romanda o'z mavqega ega. Ular bosh qahramon Yo'lchi xarakteridagi yetakchi xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladilar. Adabiyotshunos H.Umurov xarakterlar ruhiyati haqida shunday degan edi: "xarakter va uning psixologiyasi tahlili

adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omlidir... Romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmlarini tashqi qiyofa, holat va xatti-xarakatlarida ko'rinishini tasvirlash, ya'ni dinamik prisip asosiy mezonidir."

Romanda ayniqsa, Mirzakarimbiy obrazi ustalik bilan puxta ishlangan. Mirzakarimbiy – aqlli, tadbirkor shaxs. Uning qilmishlari – jirkanchli, niyati – buzuq. Mahalla baqqolining o'g'li bo'lgan Mirzakarimbiy halollik bilan emas, balki qarovul-u xizmatkorlarni shafqatsiz, ularning ish haqidan urib qolish orqali mashhur millioner boy darajasiga ko'tarilgan. Mirzakarimboyning ma'naviy dunyosi ham nopok. U – qarindoshlik tuyg'usidan mahrum. U moddiy yordamga muhtoj qarindoshi Xushro'ybibi haqida yomon so'zlar aytadi. Yo'lchiga: "...odam bo'lmoqchi esang, onang zoriga quloq solma!" – deb nasihat qiladi. Mirzakarimboy o'z jiyani Yo'lchiga zulm, adolatsizlik va insofsizlik qiladi. Bu qari chol, hatto jiyanining sevgilisi – nabirasi qatori qiz Gulnorga uylanishdan ham tortinmaydi. Mirzakarimboy Yo'lchiga nasihat qilgan bo'lib, o'zining hayot va odamlar haqidagi "falsafa"sini bayon etadi. Mirzakarimboyning "falsafa"siga ko'ra: "Pul – hamma narsaning otasi. Pul belga quvvat, boshga toj. Puldor odam – qanotli odam. Bu qanot bilan Mag'ribdan Mashriqqa uchasan, har yerda oshna-og'ayni, do'st-yor topasan". Mirzakarimboy: "Men do'stlarga sira ishonmayman...", "Xotin erning quli, xotinning ko'ngliga, ra'yiga qarab ish qilgan erkak – odam emas", – deydi. Yuqorida keltirilgan misollardan Mirzakarmiboyning yirtqich qiyofasi, uning odamgarchilikdan mahrum ekanligi yaqqol anglashiladi.

"Qutlug' qon" romani til va badiiy mahorat jihatidan ham g'oyatda diqqatga sazovor. Asarda adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalangan. Obraz xarakterini, personaj tilini tabiiy va jonli qilib tasvirlagan. Shunga ko'r, romandagi har bir obrazning o'z ichki-tashqi dunyosi bor, o'z xarakteri va individual tili bor. Masalan, Abdushukur tilidan ishlatilgan "g'olibo maqsad", "kaminaning g'oyaviy hayoti", "evoh, zavoli Turkiston", "milliy sarmoya", "o'z boylarimiz – musulmon boylarimiz" singari so'z

va iboralar, bu obraz tiliga individual tus bergan. Romanda personajlar tili singari muallif nutqi ham katta mahorat bilan ishlangan. Asarda Oybek jonli xalq tili boyliklari: xalq maqollari, hikmatli so'zlar va obrazli iboralardan, shuningdek o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a, majoz kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan.

## Oybekning "Navoiy" romani

L.Bat, Mirkarim Osim va Oybek XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy haqida nasriy asarlar bitganlar. Oybekning ushbu romanida Alisher Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi ijtimoiy hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Oybek bu asarning yaratilishi haqida o'z tarjimayi holida quyidagicha yozgan edi: "Navoiy obrazi mening ko'pgina lirik she'rlarimda paydo bo'ldi va nihoyat, 1942-yilda "Navoiy" romanini tamomladim". Bu asar turli muhokamalardan so'ng 1944-yilda nashr etilgan.

O'zbek xalqi tarixida XIV-XV asrlar alohida o'rinni egallaydi. Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan yangi va qudratli o'zbek davlatchiligiga asos soladi. Sharqning hozirga qadar iftixori bo'lib kelgan mahobatli inshootlar – me'moriy obidalar bino etildi. Adabiyot, san'at va fan keng taraqqiy etdi. Ana shu taraqqiyotning timsoli va natijasi sifatida Alisher Navoiyning buyuk asarlari yaratildi. Navoiy faqat buyuk shoir bo'libgina qolmay, XV asrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayotiga ham katta ta'sir o'tkazdi.

**Asarning asosiy qahramonlari:** Navoiy, Nizomulmulk, Majididdin, Mo'min Mirzo, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon (Navoiyning "Sizlarda Iskandarning soyasi ham yo'q. Sizlar uning navkarlariga ham arzimaysizlar" degan nadomati unga qarata aytilgan), Jomiy kabi tarixiy shaxslar, Arslonqul, Sultonmurod, Dildor, To'g'onbek, Shayx Bahlul, Valibek, Sohib Doro, Xo'ja Afzal, Darveshali (Navoiyning "Siz g'oyat soddasiz. Yolg'iz zohirga qarab hukm qilasiz. Zolimlar borki, bang xayolotini elga karomat deb sotadilar, johillar borki, kitob qo'ltiqlab, olimlik da'vo qiladilar. Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo'lgan, yolg'iz xalq manfaatini o'ylagan, oliy ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so'lur" degan gaplari

unga aytilgan), Zayniddin, Alovuddin Mashhadiy va boshq. Ayrim tarixchilarda agar Husayn Boyqaro bo'lmaganida Navoiy shoir sifatida bunday yuksaklikka erishmagan bo'lardi, degan fikr bor. Ehtimol, bu fikrda haqiqat urug'lari yo'q emasdir. Ammo eng muhimi shundaki, agar Navoiy bo'lmaganida Husayn Boyqaro ham davlatni va avom (xalq)ni idora etishda bu darajada muvaffaqiyat qozonmagan, Husayn Boyqaroning o'zi ham, xalq ham, davlat ham allaqachonlar ichki nizolar va urushlarning qurboni bo'lgani bo'lardi. Shu so'zlarning o'zidanoq roman markazida Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari turishi yaqqol ko'rinib turibdi. Shubhasiz, **Oybekning asosiy maqsadi** Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratishdir. Oybekning talqinicha, Navoiy siymosining ana shu uchala qirrasini o'zaro birlashtirib turadigan "magnit maydoni" uning insonparvarligidir. Oybek Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratish uchun asarga tarixiy shaxslar obrazi bilan birga badiiy to'qima obrazlarni ham kiritgan. Bular, birinchi navbatda, Navoiyning shogirdi Sultonmurod, uning do'sti Arslonqul va uning sevgilisi Dildordir. Bular roman voqealaridan oddiy xalq vakillari sifatida ishtirok etib Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini ochishga ko'maklashadi. Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod, Nizomulmulk, Majididdin singari o'nlab qahramonlar esa Oybek asariga to'ppa-to'g'ri tarix sahifalaridan kirib kelgan. Oybek bu qahramonlar obrazini yaratishda tarix haqiqatiga suyangan.

Shoir va tarjimon A.Naumovning yozishicha, Oybek u bilan suhbatida "Navoiy" romanining yaratilish tarixi haiqda so'zlab, unga: "Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar", – degan ekan. Adibning bu fikri nafaqat tarixiy shaxslar, balki to'qima obrazlarga ham taalluqlidir. O'sha suhbatdoshning yozishicha, Oybek unga yana bunday so'zlarni aytgan: "Mening stolim ustida o'rta asrlardagi Hirotning o'zim chizgan xaritasi yotardi. Men Hirotda uyqu og'ushiga ketib, Hirotda uyg'onar edim, faqat kechalarigina men yashayotgan Toshkent tushimga kirardi". Oybekning bu so'zlari

uning roman yozishga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishgani, asar konfliktini tashkil etuvchi kuchlar va bu kuchlarning vakili bo'lgan shaxslarni aniq-tayin tasavvur etganidan guvohlik beradi. Roman XV asrdagi Movarounnahr hayotidan olingan. Bu hol adibning shu davrdagi tarixiy sharoitni, Navoiy va Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy, Navoiy va xalq o'rtasidagi munosabatlarni badiiy mujassamlashtirishni taqozo qilgan, albatta. Oybek shu mavzularni badiiy yoritish jarayonida Navoiy obrazining eng muhim qirralarini ochishga intilgan.

"Inson barcha maxluqotlarning tojidir. U sharafli, sof, go'zal yashamog'i kerak" – Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatida butun faoliyati shu narsani amalga oshirishga qaratilgan. Bu, Navoiy yashagan davr uchun, hatto undan keyingi davrlar uchun ham bir xayoldir. Shu ma'noda Navoiy – xayolparast. Bunday oliy g'oyalar, oliy maqsadlar faqat xayolparastlarning ko'nglida, shuuridagina tug'iladi.

Husayn Boyqaro – Amir Temurning munosib avlodi. U qilich tutishni ham, mamlakatni idora qilishni ham, hatto g'azal yozishni ham yaxshi bilardi. Lekin u, romanda aytilganidek, "qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga moyil". Sharq podsholariga xos bo'lgan ana shu xislat bilan xalqning "sharafli, sof, go'zal" yashashi haqidagi Navoiyning orzu-istaklari o'rtasida tubsiz bir jarlik bor. Navoiy Husayn Boyqaroni bolalik kezlaridan boshlab yaxshi bilgani uchun unga ishonadi; uni eng odil, aql-zakovatli, davlatpanoh va xalqparvar temuriy podsholardan biri, deb biladi. Yana shuni ham yaxshi biladiki, Husayn Boyqaroning atrofida uning zaif tomonlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanadigan, uni chalg'itadigan, hatto o'zi bilan podsho o'rtasidagi iliq munosabatlarga soya taashlaydigan kimsalar oz emas. Afsuski, Sulton Hysayn podsho bo'lsa-da, Ollohning "xom sut ichgan" bandalaridan biri bo'lgani uchun ba'zan xushomadgo'ylar-u ig'vogarlarning zo'r mahorat bilan to'qigan to'ridan chiqa olmaydi. Xazinani to'ldirish muammosi unga xalq dard-u tashvishlaridan ko'ra muhimroq bo'lib tuyuladi. Navoiy saroydagi xudbin va ig'vogar kimsalar tufayli Husayn Boyqaro bilan uning farzandlari o'rtasida chiqqan nizolarni, dastavval, xalq va davlat manfaatidan kelib chiqib, bartaraf etgan. U ota bilan farzand o'rtasida sulh

o'rnatish uchun Badiuzzamon huzuriga borganida, shahzoda o'g'lining xoinlarcha o'ldirilgani tufayli sulhga rozi bo'lmagan.

Oybek asarda ezgulik bilan yomonlik mavzusini turli taqdirlar va voqealar tasviri orqali yoritar ekan, yomonlik jazolanmay qolmaydi, degan qat'iy e'tiqodidan kelib chiqib, Majididdinning ham, Nizomullmulkning ham, To'g'onbekning ham sharmandali o'lim topganini bo'rttirib tasvirlaydi. To'g'ri, adib romandagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri Arslonqulning ham vafotini chetlab o'tmagan. Ammo uning yurt mudofaasi paytidagi o'limi asl qahramonning, vatanparvarning o'limi bo'lsa, To'g'onbeklarning o'limi itlarning o'limi edi. Oybek bu razil insonlar hayotining fojiali yakun topganini avlodlarga ibrat bo'lsin degan maqsadda: "Itga – it o'limi" degan xalq hikmatining asossiz emasligini ko'rsatish uchun atayin tasvirlangan.

Navoiy temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan tarixiy davrda yashab, ijod etdi. Temur va temuriylar tufayli laxtak-laxtak bo'lib yashayotgan turkiy qabilalar birlashib, qudratli va bepoyon o'zbek davlati vujudga keldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, xuddi shu davrda fan, adabiyot va san'at o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Me'morchilik va hunarmandchilik mislsiz darajada taraqqiy etdi. Ammo Amir Temur vafotidan keyin qudratli o'zbek davlati parchalanib, shahzodalar o'rtasidagi urush va nizolar avj oldi. Oybek o'zbek xalqi tarixining shu murakkab va faromush davrlarini ko'z oldiga keltirgan holda Navoiy tili bilan Badiuzzamonga bunday deydi: "Men aminmanki, siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, bu muborak yurtda hayot o'chog'i sovirilur". Oybekning bu so'zlarni Navoiy tili bilan aytishdan yoki bu so'zlarni Navoiyga ayttirishdan maqsadi o'zbek yurtining XV asrdan boshlangan va asrlar mobaynida davom etgan o'zaro urushlar natijasida XIX asrning 60-yillariga kelib, Rossiya tomonidan osongina bosib olingani va mustamlakaga aylanganini aytishdir.

Oybek romanda Navoiy siymosi va u yashagan tarixiy davrni tasvirlash orqali zamondoshlarini o'tmishdagi achchiq voqealardan saboq, xalq va vatan manfaati

yo'lida yashab, ijod qilgan ulug' siymolar va ularning ajoyib fazilatlaridan esa ibrat olishga chaqiradiki, xuddi shu narsada asarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati yotadi.

Shunday qilib, romanda, bir tomondan, Navoiy – Boyqaro – Jomiy – Sultonmurod – Xalq, ikkinchi tomondan esa, Arslonqul – Dildor sujet chiziqlari tasvirlanadi. Adib bu har ikkala sujet chizig'ini shunday ustalik bilan birlashtirib yuborganki, kitobxon ularni yaxlit badiiy qatlam sifatida ijro etadi.

Xullas, Oybek ulug' o'zbek shoiriga bag'ishlangan romanini shunday shohi ipaklar bilan tikkanki, bunda adibining tanlangan mavzu va qahramonga bo'lgan muhabbati yaqqol sezilib turadi. Oybek ham Navoiyga nisbatan tuygan ulkan hurmati va muhabbati bilan buyuk shoir siymosiga va umuman, u haqdagi romanga ajib bir go'zallik bag'ishladi.

## 4-MAVZU: ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI

(1907 -1968)

**A.Qahhor – hikoyanavis. A.Qahhor – romannavis. "Sarob" romani tevaragidagi bahslar. A.Qahhor – tarjimon.**

**Reja:**

1. Abdulla Qahhorning hayot yo'li.
2. Abdulla Qahhorning ijodiy merosi.
3. A.Qahhor – hikoyanavis.
4. A.Qahhor – romannavis.

**Tayanch iboralar:** Adibning hayoti va ijod yo'li. A.Qahhor – hikoyanavis. Qahhor – hikoyachilik maktabi, "Sinchalak" dovrug'ining sirlari. Komediyalari va qissalari. "Sarob" romani tevaragidagi bahslar.

Abdulla Qahhor – o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri. U 61 yil umr ko'rdi, shundan qirq yildan ortiqrog'ni ijodga bag'ishladi. U ko'plab hikoyalar, qissalar, dramalar va romanlar yozdi. Bu asarlarning ko'pchiligi adabiyotimiz mulkiga aylanib qoldi. O'z vaqtida uning asarlari Yevropa va Osiyo xalqlarining tillariga ko'plab tarjima etilar, qo'shni o'lkalarda keng tarqalar edi. Shu tarzda, Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosda shuhrat qozonishida ham katta xizmat qildi. Uning el-yurt oldidagi xizmatlari haqida gapirganda, ayniqsa, o'zbek adabiy tilining rivojiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash kerak.

Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentyabrida hozirgi Xo'jand, Qirg'iziston viloyatining Asht tumanidagi qishloqlardan birida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi usta bo'lgan. Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Oqqo'rg'on kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechdi. Bu qishloqlar bir-biridan deyarli farq qilmas, uch-to'rtta kazo-kazolarni aytmasa, oddiy xalq, fuqaro erta-yu kech mehnat bilan band - paxta ekib, bug'doy yetishtirib, bog' parvarishlab

umr o'tkazar edi. Ammo asriy uyqudan endigina uyg'onib, hali o'zlariga kelolmay turgan bu odamlarning hayoti, murakkab turmushi zehni o'tkir, ziyrak Abdullaga katta ta'sir ko'rsatdi. Bolalikda ko'rgan kechirganlari keyinchalik badiiy lavhalarda, yorqin obrazlarda adib asarlarida qaytadan gavdalanadi.

Abdulla o'n yoshga kirganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga kiradi, lekin ko'p o'tmay, oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'on maktabida Abdulla Qo'qonlik Muhammadjon qorining qo'liga tushadi, Muhammadjon qori ilg'or fikrli odam edi. Uning maktabida bolalar partada o'tirib dars tiglardilar. U geografiya, tabiat, matematika kabi ilmlarni ham o'qitgan. Ayniqsa, shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish uyg'otishga uringan. Ehtimol, shu sababdandir, Abdulla Qahhor umrining oxirigacha Sa'diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o'rni kelganda parchalar keltirib, fikrini dalillar edi.

1917-yili Abdulla Qahhor oilasi Qo'qonga ko'chib o'tadi. Bu yerda Abdulla Qahhor yangi ochilgan «Istiqbol» maktabiga o'qishga kiradi. Ko'p o'tmay internatga aylantiriladi. Internatda o'qib yurgan kezlaridayoq yosh Abdullaning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashadi. 1922- 1924 yillari Abdulla adabiyotga qiziqa boshlaydi. Bu yillari u Qo'qon politexnikumida o'qidi, umrida birinchi marta Pushkin, Gogl, Turgenev, Tolstoy asarlaridan xabardor bo'ldi. Texnikumda chiqadigan «Bilim yurti» devoriy gazetasida she'r va maqolalari bilan tez-tez qatnashib turdi.

1923-yilning dekabr oyida «Mushtum» jurnalida Abdulla Qahhorning birinchi feletoni bosildi. Shundan keyin u respublika matbuotida «Guliyor», «Yalangoyoq», «Norin shilpiq», «Mavlon kufur», «Nish» kabi taxalluslar bilan tez-tez feletonlar, hajviy she'rlar, hikoyalar e'lon qila boshladi. 1925-yili «Qizil O'zbek iston» gazetasi rahbariyati uni Toshkentga ishga taklif etdi. Endi o'n sakkiz yoshli havaskor yozuvchi respublika gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishlay boshladi. Gazeta Abdullaning yozuvchi sifatida ulg'ayishida katta o'rin tutdi. Keyinchalik Abdulla Qahhorning o'zi bu haqida aytib o'tadi. Abdulla Qahhorning o'zi maqolalarida tug'ilgan joyini Qo'qon deb ko'rsatadi. Lekin uning rafiqasi Kibriyoxonimning

guvohligicha, Farg'ona bo'ylab qilingan safar vaqtida Ashtdagi bir joyga borganlarida adib «Mening tug'ilgan joyim shu», deb ko'rsatgan gap to'g'rida minnaddorlik bilan shunday yozgandi: «O'zbek qizil matbuot oti, birinchi navbatda, gazetalar qayerda «yilt» etgan «umidli yosh qalamkash»ni ko'rib qolsa, darrov redaktsiya yoki redaktsiya atrofiga TS tortib, amaliy ishda tarbiyalash, jurnalist qilib yetishtirish payida bo'lar edi. Hozirgi keksa yozuvchilarimiz, jurnalistlarimizning deyarli hammasi gazeta va jurnallar qanoti ostida o'sha «umidli yosh qalamkashlar»dan yetishib chiqqan deyish mumkin. «Qizil O'zbek iston» gazetasining ko'zi tushgan ko'p «umidli yosh qalamkashlar»dan biri men bo'ldim. «Mushtum» jurnali, xotin-qizlar gazetasi «Yangi yo'l» da birin-ketin ko'rinishim bilanoq redaktsiya meni ishga taklif qildi».

Gazetachilik mehnati Abdulla Qahhorning hayot haqidagi tasavvurlarini boyitdi, uni hamisha hayot nafasini sezib turishga, uning tomir urishini his etishga o'rgatdi, qalamini qaratdi. Ammo chinakam yozuvchi bo'lish uchun bularning o'zi kifoya emas edi. Yozuvchi hayot TS faktlarini besh qo'lday bilishdan tashqari, ular orasidagi aloqalarni ham ko'ra olishi, mohiyatiga kirib, umumlashtirish quvvatiga ega bo'lmog'i kerak. Buning uchun esa, chuqur bilim ham talab qilinar edi.

Abdulla Qahhor 1926-yili O'rta Osiyo Davlat Universitetining ishchilar fakultetiga o'qishga kiradi va uni tugatib yana jurnalistlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Bu yillari uning o'nlab hajviy she'rlari va ellikdan ortiq feletoni bosildi...

20-yillarning ikkinchi yarmida Abdulla Qahhor feletonning o'zi bilan ish bitmasligini, rang-barang hayot materiallarini bitta janrga sig'dirib bo'lmasligini anglab, hikoyada ham kuchini sinab ko'ra boshlaydi.

Abdulla Qahhorning ijodi 1924-yildan boshlangan. Dastlab "Mushtum" jurnalida, "Yangi Farg'ona" gazetasida uning hikoya, felyeton, xabarlari bosildi. Abdulla Qahhorning dunyo yuzini ko'rgan birinchi kitobi 1932-yili bosilib chiqqan

«Qishloq hukm ostida» degan kichik qissadir. Shundan so'ng uning «Olam yasharadi» va «Tangrining kulgisi» degan hikoyalar kitoblari chop etildi.

Yozuvchining "Olam yasharadi" nomli birinchi hikoyalar to'plami 1935-yilda chop etilgan. 30-yillarda adibning uchta "Hikoyalar" to'plami (1935,1938,1939) kitobxonlar qo'liga tegdi.

30-yillar avvalida Abdulla Qahhor O'rta Osiyo Davlat Universiteti pedagogika fakultetida o'qiydi, so'ng Til va adabiyot institutining aspiranturasiga kiradi. Keyin «Sovet adabiyoti» jurnalida ishlaydi, xuddi shu yillarda uning tarjimonlik faoliyati ham avj oladi. Gogol va Chexov asarlarining tarjimasi maydonga keladi. Ular Abdulla Qahhorga xos tarjima san'atining namunalari bo'lib qoldi. Shubhasiz, tarjimonlik faoliyati uning san'atkorlik imkoniyatlarini kengaytirib, yangi janrlarni o'zlashtirishiga yo'l ochdi. Shu bilim va tajriba asosida Abdulla Qahhor 1930-yili, ya'ni 23 yoshida «Sarob» romanini yoza boshladi, uni 1934-yili tugatdi. «Sarob» - o'zbek nasri rivojida katta hodisa bo'ldi.

Urush yillarida yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari e'lon qilindi. "Asror bobo", "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar", "Oltin yulduz" kabi o'nlab hikoya va qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozliklari, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan "Qo'shchinor chiroqlari" (1951) romani jamoalashtirish mavzusiga bag'ishlangan.

U o'zining "Shohi so'zana" (1951), "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" (1962), "Ayajonlarim" (1967) komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayniqsa, "Shohi so'zana" pyesasida dramaturg qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish mavzuini zo'r mahorat bilan yoritdi. Pyesa respublikamiz va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarida muvaffaqqiyatli namoyish qilindi. Yozuvchining "Sinchalak" (1958), "O'tmishdan ertaklar" (1965), "Muhabbat" (1968) qissalari o'zbek nasrining taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

U "O'tmishdan ertaklar" qissasi uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. O'zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida M. Gorkiyning "Mening

dorilfununlarim", N. V. Gogolning "Revizor", L. N. Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani (I, II kitoblari) va boshqa bir qator asarlarni o'z ona tillarida o'qishga muvaffaq bo'lganlar.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.[3]

**A.Qahhor – hikoyanavis. Qahhor – hikoyachilik maktabi**

30-yillarning o'rtalarida Abdulla Qahhorning hikoyanavislik san'ati barq urib gulladi. U shunday hikoyalar yaratdiki, ular bugun ham o'zining badiiy quvvatini yo'qotgani yo'q.

Abdulla Qahhor ijodidagi bu ko'tarilishning dastlabki belgilari "Maston" hikoyasida namoyon bo'la boshlagan edi. Bu hikoyaning markazida o'z taqdirini yangilash uchun kurashuvchi qahramonona xarakter turadi. "Maston"da ichkarining asriy kishanlaridan xalos bo'lishga intilgan, o'z erki, baxtini o'ylab, yangi hayot yo'liga chiqishni orzu qilgan o'zbek ayolining xarakteri ochiladi. Maston qishloqdan shaharga o'qishga boradi. U dugonasi Turg'unoyni ham birga ketishga ko'ndiradi. Turg'unoy otasi o'lib, noilojlikdan ko'chada qolmaslik uchun erga tegishga majbur bo'lgan. Ammo erkinlik lazzatini tatib ko'rgan Maston uni yangi hayot sari boshlaydi. Albatta, yangi hayotga, erkka, baxtga erishishning o'zi bo'lmaydi, unga olib boradigan yo'l og 'ir va xatarli. Bu yo'l mardlikni, bardoshni talab qiladi. "Maston" hikoyasining o'ziga xos tomoni shundaki, unda ramziy tasvirlar ham paydo bo'ladi va ular hayot haqiqatini ifodalashda, yozuvchining g'oyaviy maqsadini ochishda katta ahamiyat kasb etadi. Maston bilan Turg'unoy tun bo'yi yo'l yurib, kimsasiz dasht vahimasini yengib o'tishadi. Ancha mahorat bilan tasvirlangan shu lavhalarda hikoya qahramonining xarakteri ochiladi. Maston katta maqsad yo'lida

[3] Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.

dadil harakat qila oladi. U irodali, bardoshli ayol. O'zini ojiz, nochor, mushtipar deb emas, haqiqiy inson deb biladi.

Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o'tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir.

Yaqin o'tmishdagi o'zbek voqeligi "Anor", "O'g'ri", "Bemor", "Tomoshabog'", "Millatchilar" kabi hikoyalarda aks etgan. Keyinchalik esa, adib o'tmish mavzusida yana "Dahshat" hikoyasini yaratdi. Shuningdek, "O'tmishdan ertaklar" qissa deb atalgan bo'lsada, mohiyat e'tibori bilan ayrim-ayrim hikoyalardan tashkil topgan. Shuning uchun ularni ham adibning o'tmish haqidagi asarlari qatorida tahlil qilish mumkin.

"Bemor" – Abdulla Qahhorning o'tmish haqidagi boshqa hikoyalari kabi hajmi kichkina, "mushti" hikoya. Undagi voqea ham oddiy – Sotiboldining xotini og'rib qoladi-yu, vafot etadi. Odamning kasalga chalinishi, vafot etishi tabiiy hol. Ammo san'atkorning sehrli qalami ostida shu oddiy va tabiiy hodisani tasvirlagan hikoya kichkina odam taqdirini ochib bergan, uning fojiali ahvolini ko'rsatgan aybnomaga aylangan. Sotiboldi ham, uning xotini ham g'ayriinsoniy tartiblarning, ijtimoiy adolatsizlikning, tengsizlik va qashshoqlikning qurboni. Ehtimol, Sotiboldining xotini tuzukroq muolaja qilinganida tuzalib ketishi mumkin edi. Ammo "doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oqposhshoning surati solingan yigirma besh so'mlik pul keladi". Ertalabdan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib, savat to'qiydigan Sotiboldi esa, juda nari borsa baqqoldan yigirma tanga qarz olishi mumkin. Chor-nochor Sotboldi xonaki tadbirlarga murojaat etadi, xotinini "o'qitadi", xipchin bilan savalatadi, chilyosin qildiradi. Sotiboldining "ko'ngilga armon bo'lmasin" ma'nosidagi bu harakatlari cho'kayotgan odamning somon parchasiga yopishishini eslatadi. Sotiboldi – qahri qattiq dunyoning tajovuzi oldida himoyasiz, nochor, notavon. U faqat talvasaga tushishi, boshini har tomonga urishi, yig'lab-siqtashigina mumkin, qo'lidan boshqa narsa kelmaydi. Zulmat

dunyosida, tengsizlik olamida, fojia qarshisida nochorlik, ilojsizlik, ojizlik birgina Sotiboldining qismati emas. Hikoyada shunday detal bor: talvasaga tushib, gangib qolgan Sotiboldi qo'shnisi – kampirni yordamga chaqiradi: "Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi". Bemor, Sotiboldigina emas, sho'ringqurg'ur kampir ham taqdir zarbalari oldida ojiz, notavon. Sotiboldilar fojiasining butun dahshati har kuni saharda Xudodan onasining dardiga shifo so'rab duo qiladigan to'rt yashar "begunoh go'dak" orqali yanada chuqurroq ochiladi. Hikoya finalida onasining jonsiz jasadi yonida ma'sum go'dakning uyqusirab, "xudoyo ayamdi daydiga davo beygin" deb qilgan iltijosi bizga go'dak qalbining nidosi emas, insonni shunchalar xor etgan, tilsiz, notavon qurbonga aylantirgan, uni xurofot va bid'at chilvirlari bilan bog'lab tashlagan dunyoga qarshi yuragimiz qa'ridan chiqqan la'nat nidosidek tuyuladi.

"O'g'ri", "Anor" kabi hikoyalarda ham Sotiboldiga o'xshagan nochor, notavon, ojiz odamlarning fojiali qismati ko'rsatilgan. Muhimi shundaki, bu hikoyalar vaqt sinoviga dosh berdi. Bugun ham ularning ohori to'kilmagan. Ular bugun ham katta qiziqish bilan o'qiladi va kitobxon yuragini larzaga soladi. Abdulla Qahhor hikoyalarining g'oyaviy mazmuni mafkuraning tor qoliplaridan tashqariga chiqadi. Adib o'z hikoyalarida umumbashariy masalalarni qo'ygan. Gap shundaki, kichik odamlar, o'z mehnati bilan chor-nochor, qo'l uchida tirikchilik qiladigan odamlar, taqdir zarbalari oldida ojiz bandalar, hayot girdobiga tushib qolib, undan qutulish yo'lini topolmay sarson-u sargardon bo'ladigan kishilar faqat o'tmish tuzumidagina bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa emas. Bunday odamlar ijtimoiy tuzumda va hatto undan keyin keluvchi boshqa tuzumlarda ham bo'ladi. Adabiyotning asosiy vazifalaridan biri esa doimo ana shu ojiz va notavon odamlarga jamiyatning e'tiborini tortish, nochor va baxtsiz kishilarga nisbatan rahm-shafqat tuyg'ularini uyg'otish bo'lgan. Fransuz Gyugoni yoxud rus Chexovni buyuk qilgan sabab ham shu emasmi? Abdulla Qahhor san'atkorlik qalbi bilan adabiyotning shu muqaddas vazifasini yaxshi sezgan va o'z qalami bilan odamlar yuragida ezgu hislar uyg'otishga intilgan emasmi?

Abdulla Qahhorning o'tmish haqidagi eng barkamol hikoyalaridan biri "Dahshat"dir. Bu hikoyani yozish niyati adib yuragiga 50-yillarning boshida tushgan edi. Deyarli o'n yil mobaynida u hikoyani o'yladi, pishitdi, xayolida obdon ishladi. Hikoya o'zbek lar o'rtasida ancha keng tarqalgan oddiy bir latifa asosiga qurilgan. Biroq yozuvchi iste'dodining kuchi bilan bu latifaga favqulodda hayotiy mazmun baxsh etadi. "Dahshat"ning o'tmish haqidagi boshqa hikoyalardan farqi shundaki, adib adolatsizlik va tengsizlik qurbonlarini, ojiz, notavon, mute' odamlarni emas, o'z haq-huquqi, erki uchun jur'atsizgina bo'lsa-da kurash yo'liga kirgan, bu yo'lda har qanday dovyurak odamni ham dahshatga soluvchi qabriston vahimasidan cho'chimagan, nihoyat, bu yo'lda qurbon bo'lgan Unsinni qahramon qilib olgan. Unsin – Olimxon dodhoning sakkizinchi xotini. U eng kichik xotin, binobarin, eng suyukli xotin. Shunday ekan, u dodhoning dargohida davrini surib yashayverishi mumkin. Biroq Unsin uchun bu xonadon go'ristondan ham xunukroq va dahshatliroq ko'rinadi. U hayotini xavf ostiga qo'yishdan cho'chimay, bu xonadondan qutulishga, o'zining Ganjiravoniga ketishga ahd qiladi va kurashda halok bo'ladi. "Dahshat" hikoyasining ajoyib tomonlaridan biri shundaki, undagi xarakterlar, ayniqsa, Unsin xarakteri psixologik jihatdan chuqur dalillangan, sujet puxta ishlangan, voqealar tabiiy ravishda biri-birining ichidan chiqib kelaveradi, har bir epizod bir halqa, lekin ular bi-birlari bilan tutashib, yaxlit uzilmas zanjirni tashkil etadi.

Abdulla Qahhorning ikkinchi guruh hikoyalari mazmuni va materialiga ko'ra zamonaviy hikoyalardir. Ularni ham, o'z navbatida, ikki toifaga ajratish mumkin. Bularning bir toifasi hajviy, ikkinchi toifa hikoyalar esa, izchil realistik uslubda yozilgan asarlar, Abdulla Qahhor ijodining boshlanishidayoq hajvga moyil ekanini namoyish qilgandi. Keyinchalik "Qishloq hukm ostida", "Sarob" kabi asarlarida ham hajviy lavhalarga, hajviy tasvirga anchagina o'rin bergan. Lekin shunday bo'lsa-da, uning hajviyot bobidagi iste'dodi butun bo'y-basti bilan 30-yillardagi hikoyalarida namoyon bo'ldi. Bular "Mayiz yemagan xotin", "Jonfig'on", "Munofiq", "Adabiyot muallimi", "San'atkor", "O'jar", "Qizlar" kabi hikoyalardir. Bir vaqtlar adabiyotshunoslar adibning bu hikoyalarini keskin tanqid ostiga oldilar va

unga turli-tuman siyosiy ayblar qo'ydilar. Ularning tasdig'icha, Abdulla Qahhor bu hikoyalarida sho'ro kishilarining nuqsonlarini, ijtimoiy tuzumning kamchiliklarini tanqid qilgan, binobarin, u ijtimoiy realizm metodidan chekingan, sho'ro voqeligini buzib ko'rsatgan. Bunday tanqid hech qanday real zaminga ega emas.

Ha, Abdulla Qahhor bu hikoyalarda turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan, lekin bu nuqsonlar ijtimoiy nuqsonlari emas, har qanday jamiyatda bo'lishi mumkin bo'lgan umumbashariy illatlardir. Odamzod mavjud ekan, baxillik, chalamullalik, ochko'zlik, maqtanchoqlik, xudbinlik va boshqa shunga o'xshash qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo'lishi mumkin, lekin shundan qat'iy nazar u insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo'lishiga xalaqit beradi. Jahon adabiyoti qadim-qadimlardan beri ularga qarshi kurashib kelgan.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hajviy xarakterlar g'oyat yorqin chizilgan. Xarakterlar doim harakatda, qilmishlari orqali ochiladi. Adib yaratgan obrazlarda, ayniqsa, portret, nutqiy ta'rif muhim o'rin tutadi, ayni chog'da, psixologik portretda ham keng foydalaniladi. Masalan, "Munofiq" hikoyasini olaylik. Avvalo, hikoyaning 30-yillar oxirida yozilganini alohida ta'kidlash kerak. Hikoya qahramoni Nizomiddinov "siyosiy hushyor" odam, u birga ishlaydigan odamlarning har bir gap-so'zidan yashirin ma'no izlaydi va shu asosda ularga siyosiy ayblar qo'yadi. Boshqacha qilib aytganda, shamolning esishiga qarab har tomonga egilaveradigan, subutsiz, ig'vogar bu odam juda keskin qadarda fosh etiladi. U kitobxonda faqat nafrat qo'zg'aydi , xolos. Holbuki, 30-yillarning oxirida bunday odamlarning oshig'i olchi edi. Ular muayyan idoralarning panohida edilar va ularga til tekizish mumkin emasdi. Abdulla Qahhor qo'rqmay bunday odamlarni hajv qilgan. Adib uning xarakterini chizar ekan, Nizomiddinovning tashqi qiyofasidagi ikki narsaga – "ketmonnusxa shapkasi-yu", "enli kamariga" kitobxon diqqatini jalb etadi. Bu detallar obrazni jonlantirish bilan birga, Nizomiddinovning qanaqa odam ekaniga ham ishora qiladi

Abdulla Qahhorning hajviy hikoyalari tilining mukammalligi bilan ham ajralib turadi, Bu g'oyat muhim, chunki realistik metod adabiyotning asosiy materiali

bo'lmish tildan ham realistik tamoyillar asosida foydalanishni taqozo etadi. Xalqning jonli tilidan uzoq, balandparvoz, sun'iy til bilan jonli xarakterlar yaratib bo'lmaydi, personajlar ichki dunyosini, psixologiyasini aniq ifodalash qiyin, nutqiy tavsiflar g'ayritabiiy chiqadi. Abdulla Qahhor butun ijodi davomida izchillik bilan tilning hayotiyligiga intildi va hikoyalarida bunga erishdi. Adibning tili sodda, ravon va tabiiy. Muallif nutqi xuddi xalqning jonli tilidek ravon oqadi. Yozuvchi tilda puxta va original obrazlilikka intiladi. Bu obrazlilik badiiy tasvir vositalaridan, xalq maqollari va matallaridan keng va unumli foydalanish evaziga maydonga keladi. Ko'p o'rinlarda yozuvchining o'zi ham shaklan ixcham, mazmunan tagdor iboralar qo'llaydiki, ular adibnikimi yo xalqnikimi ekanini ajratib bo'lmay qoladi.

Personajlar nutqini ishlashda ham yozuvchi qahramonning har bir jumlasi uning ruhiy holatiga, madaniy saviyasiga, bilimiga, tabiatiga mos bo'lishiga erishadi. Personajlar nutqiga qarab, ularning kasb-korini, biografiyasini, qanaqa odam ekanini bemalol aytib berish mumkin. Nutqiy tavsif asar mazmunini kitobxonga yetkazish bilan birga, unda kuchli hissiy holat tug'diradi, qalbida ulkan estetik zavq uyg'otadi.

Abdulla Qahhor ijodining oxiriga qadar ham hajviy hikoyalar yozishdan to'xtamadi. Har jihatdan kitobxonga manzur bo'lgan "To'yda aza" hikoyasi bu fikrimizni tasdiqlaydi.

Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining ko'pchiligi urush yillarida va urushdan keyingi davrda yaratilgan. Bular "Ko'k convert", "Qizil convert", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar", "Asror bobo", "Beshik", "Mahalla", "Nurli cho'qqilar" kabilardir. Albatta, ularning hammasi ham bir xil darajada badiiy yuksak emas. Ularning ichida mazmunan sayozroqlari ham, uncha pishiq ishlanmaganlari ham bor. Lekin shu bilan birga, hech shubhasiz, adabiyotimizning oltin fondidan o'rin oladiganlari ham bor. Bu gap, ayniqsa, "Ming bir jon" va "Asror Bobo" hikoyalariga taalluqdir.

"Ming bir jon" insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulug'laydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning ko'nglida umid

chirog'ini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi, umr yo'lidagi har qanday g'ovlarni sabot va bardosh bilan yengishga o'rgatadi.

"Asror bobo" ham oddiy inson sha'niga aytilgan madhiyaga o'xshaydi. Hikoyadagi voqea ikkinchi jahon urushi yillarida kechadi. Hikoya qahramonlari – keksayib, urush mushkulotlaridan munkayib qolgan chol bilan kampir. Adib shu ikki qariya timsolida o'zbek larning og'ir sinov yillarida favqulodda kuch bilan namoyon bo'lgan go'zal insoniy xislatlarini badiiy tahlil qiladi. Asror bobo ham, Qobil bobo ham oddiy, suyagi mehnatda qotgan odamlar. Biroq ularning orasida o'z-o'zini anglash jihatidan ham, hayotga munosabat jihatidan ham osmon bilan yercha farq bor. Ular tub ma'noda ikki dunyo odami.

Asror bobo Nikolay zamonida tegirmonchilik bilan tirikchilik qilgan. Oqpodsho mardikor olaman deganda, "oqposhshoning devori yiqilgan bo'lsa, o'zining yurtidan mardikor olsin, biz bormaymiz" deb qochgan. Ko'p sargardonlikdan keyin kolxozga kirgan. Abdulla Qahhor bu hikoyada ham boshqa hikoyalaridagi kabi qahramon tarixini, biografiyasini mufassal ochmaydi. Biz Asror boboning kolxozdagi hayoti bilan mutlaqo tanishmaymiz. Adib bu hayotda e'tiborga loyiq hech narsa yo'qdek, uni chetlab o'tgan. Urush boshlangan kundanoq Asror bobo qizg'in faoliyat ko'rsata boshlaydi. Muhimi shundaki, u birovning ko'rsatmasi bilan emas, qalb da'vati bilan, oriyatining kuchi bilan shunday yo'l tutadi. Yurt boshiga kulfat tushganda u ishga yaramas ekanman deb, kurk tovuqqa o'xshab bir chekkada pusib yotishdan or qiladi. Asror bobo qishloqda choyxona ochadi, frontdan kelgan jangchilar bu erda qishloq aholisi bilan uchrashadi, gazeta-kitob o'qiladi, frontdagi ahvol muhokama etiladi. Asror bobo qilayotgan ishlar shu qadar zo'rki, raykom (tuman hokimi) kotibi unga baho berib: "Asrorqul ota rayonimizda eng katta agitator... Ota shu yerda turib, Berlinga o't qo'yib yotibdi", – deydi.

Hikoyada yozuvchi Asror boboning vatanparvarligini, yuragida o'ti borligini ko'rsatish bilan cheklanmaydi, balki uning qalbining go'zalligini, ma'naviy boyligini, yaqinlariga, do'stlariga mehribonligini ham yorqin tasvirlagan. Asror bobo Yodgorning nobud bo'lgani haqidagi xabarni uzoq vaqt kampiriga bildirmaydi, uning

azob chekishini, qayg'urishini, kuyib kul bo'lishini istamaydi. Uning bu ishida, yozuvchi aytganidek, "og'ir musibatning hamma dard-alamiga o'z qalbini tutib berishda' chinakam oliyjanoblik bor.

"Asror bobo" hikoyasida yozuvchining psixologik tahlil san'ati yuksak darajada ko'rinadi. Ayniqsa, boshiga og'ir musibat tushgan, dardini bir-biridan yashirishga uringan, bir-biriga suyanib qolgan, bir-birining insoniy qadrini teran hurmat qiluvchi chol-u kampirning ruhiy holatlari, o'zaro munosabatlari g'oyat tabiiy va hayotiy ifodalangan. Bularning hammasi "Asror bobo" hikoyasini o'zbek adabiyotining katta yutuqlaridan biriga aylantirgan.

Abdulla Qahhor yaratgan hikoyalar son jihatdan uncha ko'p bo'lmasa-da, badiiy saviyasi jihatidan shu qadar salmoqliki, bu sohada adib orttirgan ijodiy-estetik tajriba shunchalik kattaki, hech ikkilanmay hikoyanavislikda Abdulla Qahhor maktabi mavjud ekani haqida gapirish mumkin. Bu maktab bugun ham faol amal qilmoqda. Abdulla Qahhor hikoyalari vaqt sinovidan o'tib, bugun ham yashashda davom etmoqda.

## "Sarob" ning mashaqqatli qismati va badiiyati

Abdulla Qahhor yangi milliy adabiyotimizning ikkinchi avlodi sanalmish Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, Mirtemirlar safida turib ijod etdi. Safdoshlari kabi A.Qahhorning qizg'in ijodiy faoliyati XX asrning eng fojiali paytida, mudhish 30-50-yillar sharoitida, mustabid yakkahokim mafkura, sovet adabiy siyosati ta'siri va tazyiqi ostida kechdi. Bu hol yozuvchining ijodiy taqdirida talay, noxush asoratlar qoldirdi. Ayni paytda Alloh bergan benazir iste'dod, noyob shaxsiy fazilatlar – o'ziga xos o'tkir nigoh, fuqoralik tuyg'usi, qat'iyat, iroda-bardosh, haqgo'ylik, halollik va shijoat tufayli zamonasi talotumlaridan yuqori ko'tarila oldi. Adibning dilbar hikoyalari unga katta shuhrat keltirdi. "Sichalak", "O'tmishdan ertaklar" qissalari, "Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari" romanlari, "Shohi so'zana", "Tobutdan tovush" komediyalari, o'nlab o'tkir publisistik chiqishlari, adabiy-tanqidiy maqolalari,

zargarona tarjimalari asr adabiyoti, ma'naviy-madaniy hayoti tarixida yorqin va o'chmas iz qoldirdi.

Yozuvchining yana bir romani "Sarob" kitob bo'lib, chiqqandan bo'yon to hozirga qadar uning tevaragida qizg'in bahs-munozaralar davom etib keladi. U haqda ko'pgina nohaq ta'nalar ham aytilgan. Adib tarjimayi holida shunday yozadi: "Sarob" ni to'rt yilda yozib tugatdim. Uni kitobxon qabul qildi, lekin ba'zan arzon shuhratparastlik, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri jaholat natijasi bo'lgan tanqid nayza ko'tarib qarshi oldi. Bu narsa hatto farosatli odamlarni ham chalg'itdi. Tanqid shu paytga qadar "Sarob"dan nuqul siyosat izladi. Romandagi odamlarning dardi-dunyosini, oh-u zorini eshitadigan bir azamat topilmadi".

Bu roman birinchi galda xazon bo'lgan muhabbat, uvol bo'lgan umr dostonidir. Ikki ko'rkam yoshning bir-biriga munosib, aslida baxt uchun tug'ilgan, ammo shaxsiyatidagi, tabiatidagi ojizliklar, qolaversa, jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli hayotda o`z o'rnini baxtini topolmagan navqiron avlodning achchiq fojiyali qismati, ruhiy iztiroblari, oh-zorlari to'g'risidagi asardir.

U.Normatov mana shunday yozadi: "Romanda Saidiy bilan Munisxonni halokatga olib kelgan ruhiy ma`naviy omillar, jumladan, ular tabiatiga xos xudbinlik, shaxsiyatparastlik, shuhratparastlik haqida ko'p yozildi. Buning uchun muayyan asoslar bor, albatta. Yetakchi qahramonlar, birinchi galda, Saidiy xarakteri, ruhiyati, xatti-harakatlari, qismati sinchiklab kuzatilsa, tabiatiga xos eng xarakterli jihat unda qat`iyat, sabot, "shaxsi butunlik", mustaqil fikrlash va ish tutishning yetishmasligida ekaniga iqror bo'lasiz"[4]

Romanning yozilishi uchun hayot va voqelik hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qilganini Abdulla Qahhor o'z tarjimayi holida maxsus ko'rsatib o'tadi. Saidiy, Munisxon, Murodxo'ja domla va boshqa tipdagi personajlarni yozuvchi hayotda

---

[4] Normatov U. Mafkuraviy-siyosiy tazyiq va iste`dod qudrati / Ustoz ibrati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – B. 16.

ko'rgan. Oldin o'tgan adiblarning tajribasi esa shunday odamlar to'g'risida ham asar yozish mumkinligiga uni ishontirgan va realistik metodning yo'llarini ko'rsatgan[5]

O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy roman janrining to'ng'ich namunasi "O'tkan kunlar"dek buyuk badiiy entsiklopedik asarni yaratgan bo'lsa, undan so'ng, Abdula Qahhor *"psixologik roman"* janrining ilk namunasi "Sarob"ni yaratdi. Chunki, asarda ikki o't orasida qolgan qahramonning og'ir kechmishi, dil qiynoqlari badiiy taftish etiladi. Unda "sovet mafkurasini" qabul qilish kerakmi, yoki "Mustaqil Milliy Turkiston muxtoriyati"ni tuzish kerakmi? – degan savol o'rtasida sarson bo'lgan qahramon Saidiyning psixologik holati va alal-oqibat hayoti fojia bilan yakunlangan murakkab shaxs tragizmi mahorat bilan talqin qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu roman yozuvchining o'z dastxati bilan bitgan bitikka ko'ra 1930-1934-yillarda yozib, tugatilgan. Bu haqda Otabek Jo'raboyev ilmiy tekstologik tadqiqotda matnostida "Sarob"ning 1937-yilgi nashr variantida 1930-1934-yil sanasi qo'yilmaganligini, keyingi ikki nashrda, ya'ni 1957, 1967-yilardagi nashrda shu sanalar qo'yilganini ko'rsatgan.[6]

Mustaqillik yillarida adabiyotga qarashlar o'zgardi, asarlarga berilgan baholar yangilandi. Shu jarayonda Abdulla Qahhor haqida ham har xil fikrlar aytildi. Bular ichida ma'qullari ham, shoshma-shosharlik bilan o'ylamay aytilganlari ham bor. Shu jumladan, "Sarob" haqida ham shunday fikrlar aytildiki, ular asarning har qanday qimmatini rad etishga qaratilgan edi. Shu aytilganlardan ayon bo'ladiki, "Sarob" murakkab roman. Albatta, u har xil bahslar, munozaralar qo'zg'atishi mumkin. Albatta, har qaysi davr kitobxoni uni o'zicha o'qib, o'zicha uqib, o'zicha talqin qilishi mumkin. Bularning bari tabiiy va qonuniy bir hol.

Oshkoralik davriga qadar Abdulla Qahhor haqidagi ishlarning ko'pchiligida "Sarob" romani millatchilik mafkurasini fosh etishga qaratilgan deyilardi. Biroq bunday qarash "Sarob" romanining matnidan, badiiy to'qimasidan kelib chiqqan

[5] U.Normatov. Haqiqat va Sarob. Yozuvchi P.Qodirov bilan suhbat. /U.Normatov. Ustoz ibrati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – B. 100.

[6] Qahhor A. Sarob / Tanlangan asarlar. 3-jildlik. 2-jild. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 392. Izoh: Biz ham har uchala nashrni ko'zdan kechirib, mutoala qilib, shu holatga guvoh bo'ldik. – ta'kid bizniki. – Marhabo Qo'chqorova.

emas, balki hukmron mafkura qoliplaridan tug'ilgan, davr siyosatiga moslashish oqibatida maydonga kelgan edi. Abdulla Qahhorning bir xususiyati bor: u o'zi yoqtirmagan qahramonlar tasvirida ham imkoni bor darajada xolis bo'lishga, ularni jonli inson sifatida ko'rsatishga, o'zi parda ortida turib, qahramonlarni o'z-o'zicha harakatlantirishga intiladi.

Bunday tasvir, adibning o'z subyektiv xohish va istaklaridan yuqoriroq tura olishi chinakam realizmning zaruriy belgilaridan biridir. Bu esa, keyinchalik ayrim tanqidchilarga Abdulla Qahhorni salbiy qahramonlarga nisbatan xayrixohlikda ayblashga asos bo'ldi. Lekin masala bunda ham emas. Roman matnini sinchiklab ko'zdan kechirilsa, bosiqlik bilan tahlil qilinsa, millatchilikni fosh etish adibning asosiy g'oyaviy niyati bo'lmagani ayon bo'ladi. Hatto Saidiy uchun ham millatchilik asosiy, yetakchi, doimiy sifat emas, u yo'l-yo'lakay millatchi bo'lgan va uni halokatga olib keladigan omil ham millatchilik emas. Har holda Saidiy, birinchi navbatda, xudbinlik qurboni bo'ladi. Bunga amin bo'lmoq uchun Saidiy obrazi bilan yaqinroqdan tanishmoq lozim.

Saidiy o'ziga to'q badavlatgina oiladan chiqqan. Uning otasi "shirkatga bir korxona ochmoqchi bo'lib, anchagina temirchilarni to'pladi, bu ishga talay sarmoya ham xarjladi-da,ish boshlamasdan sinib yer bilan yakson bo'ldi va o'zini osdi". Yetim qolgan Saidiy sho'ro hukumatining tarbiyasini ko'radi, maktabda o'qiydi, oliy o'quv yurtida talaba bo'ladi. Saidiyning iste'dodi bor. Endi uning taqdiri o'z qo'lida, o'z qo'lidagina emas, uning kelajagi porloq, undan ko'p narsalar kutsa bo'ladi. Ammo bu umidlar ushalmaydi, chunki muhit oz bo'lsa-da uni zaharlab ulgurgan edi: u o'ziga bino qo'yib, boshqalarni mensimay, odam o'rnida ko'rmay o'sgan. Uning xudbinligi romanning boshidayoq ochiladi: keksa professor talabalardan birini kamsitib, "Siz universitetga munosib emassiz, borib ketmoningizni choping" deganda, "tor oyoq kiyimini yechib tashlaganday yayradi va shu professorni yaxshi ko'rdi". Xudbinlik o'zining alohidaligiga, favquloddaligiga ishonish, o'zini dohiy, boshqalarni omi hisoblash, o'z shaxsiga mahliyo bo'lib, butun olamni shunga moslashtirishga intilish Saidiyda yana bir xavfli kasalni shuhratparastlikni avj

oldiradi. Abdulla Qahhor Saidiydagi bu illat qanday kurtak yoza borganini hayotiy detallarda, psixologik jihatdan asosli lavhalarda tasvirlaydi. Birinchi hikoyasi bosilib chiqqan Saidiyning ahvoli-ruhiyati romanda shunday tasvirlangan: "Ko'chaga chiqsa, xuddi birov muborakbod qilayotganday, Saidiy shu kuni ovqatga ham bormadi. Holbuki, ertasi fakultetda hatto Munisxon ham bu haqda indamadi. Kim qarasa, Saidiyning ko'ziga darhol jurnal kelar, qayerda ikki kishi gaplashib turgan bo'lsa , xuddi "Qalandar" haqida gaplashayotganday bo'lar; "s" harfi bo'lmagan so'zlar ham qulog'iga "Saidiy" bo'lib eshitilar edi".

Xudbinlik va shaxsiyatparastlik Saidiyda o'qishga ham, do'stlariga ham, atrofdagi hayotga ham loqaydlik tug'diradi va uni hayotda biron katta maqsaddan, olijanob ezgu niyatdan mahrum qilib qo'yadi, faqat Munisxonni sevib qolganidan keyingina unda muayyan niyat paydo bo'ladi, hayoti ma'no kasb etgandek bo'ladi. U nima qilib bo'lsa ham Munisxondek qizga munosib bo'lishga, uning ko'nglidan o'rin olishga, unga erishishga intiladi. Bunga esa "olamshumul" adib bo'lib, ko'p pul topadigan, Munisxonning har bir istagini bajo keltiradigan boyvachcha bo'lib erishish mumkin. Shundan so'ng olamga mashhur adib bo'lish istagi uning jamiki xatti-harakatiga yo'nalish beradi, ammo hadeganda bundan natija chiqavermaydi. Bu Saidiyning hayotdan, muhitdan noroziligini ko'paytiradi. Shunday vaziyatda Saidiy Salimxonlar, Abbosxonlar qo'liga tushadi. Ular Saidiyning xudbinligidan ustalik bilan foydalanadilar.

Abdulla Qahhor romanda Saidiyning ma'naviy inqirozini juda yaxshi ochgan. Saidiy o'z quvvati bilan "olamshumul" adib bo'lolmagach, boshqa yo'l bilan "shuhrat" orttirishga kirishadi. "Endi kun-u tun kitob o'qish, o'rganish kerak emas, faqat ulug'larning ko'ziga tez-tez ko'rishib tursa kifoya. Buni esa, ko'proq ishni osonlashtiradi. O'z o'rnida bo'shatilgan ikki juft shisha unga yigirma juft kitobdan ortiqroq foyda yetkazar edi". Saidiyning qurshovi, oshna-og'aynilari uning o'ziga o'xshagan jamiyat itqitib tashlagan qalang'i-qasang'ilar bo'lib qoladi. Bora-bora ijodda ham mustaqillik yo'qoladi: endi u Abbosxon bergan mavzular, sujetlar asosida asarlar yozib, Abbosxonga kerakli g'oyalarni targ'ib qiladi. Saidiyning hayotdan

ko'zlagan maqsadi, ideali ham o'zgaradi: endi u mashhur yozuvchi bo'lishdan ham ko'proq zodagonlarcha maishatni qo'msaydi: "U olamshumul yozuvchi, amerikalik muharrir singari har kuni bir ustunlik narsa yozib, yiliga o'n ikki ming oltin maosh oladi; turli mamlakatlardan frank, dollar, rupiyalar kelib turadi. Shundan so'ng bu serg'avg'o, seraziyat shahardan ketib, Shimoliy Amerika adibi Toro singari tabiat quchog'iga kiradi; vodiyning eng bahavo, eng go'zal yeriga solgan qasrida o'tirib, xotini Ariadnaning royalda qilgan mashqiga quloq berar ekan, butun vodiy va undagi o'tlab yurgan qo'y -qo'zilar, yilqilar, tog' yonbag'irlarida o'sgan pista, archa, ko'm-ko'k o'lanlar va ularning orasidan ilonizi bo'lib oqqan ariq va ariqchalar ko'rinib turadi. Uning qasri orqasida yer yuzidagi "hamma mevalardan topiladigan katta bog' bo'ladi. Saidiy oltinning kuchi bilan bu bog'da lbtos gullari, xurmo va apelsin daraxtlari o'stiradi".

Bu orzu Saidiyning nechog'li meshchanlik botqog'iga botganini, uning xudbinligini eng so'nggi nuqtaga borib yetganini yaqqol ko'rsatadi. Ammo Saidiyning bunday xomxayollari real hayot bilan to'qnashuvda chilparchin bo'ladi. Saidiyning o'zi shunchaki jo'n, xashaki yozuvchiga aylanadi, hatto birovlarning qalam haqini o'g'irlab kun ko'ra boshlaydi. O'zicha osmonda bilib yurgan Saidiyning chinakam bahsini Ehson beradi: "Bilishimcha, talanti shiradan tozalangan Rahimjon hozir shalag'i chiqqan aravaday Murodxo'ja domlaning tomorqasida ag'anab yotibdi".

Abdulla Qahhor Saidiyning ma'naviy fojiasini psixologik jihatdan juda chuqur asoslaydi. Saidiyning asarlari bosilib, o'zi Abbosxonlar davrasiga kirgan, ya'ni katta orzusi yo'lida dastlabki qadamini qo'ygan bo'lsa ham, nimadandir ko'ngli to'lmay, doimo g'ash bo'lib yuradi. Murodxo'ja domlaga ichki kuyov bo'lib, mo'may pul topadigan bo'lganda ham, dang'illama hovlilar-u katta ro'zg'orning egasi bo'lib olganda ham unga "bu kun ko'rish tariqasi mustahkam emas, va'daga asoslangan ish, muz ustiga solingan uyday" ko'rinadi. U borgan sari o'zining yashashga iqtidorsizligini chuqurroq his etadi. Bora-bora o'zining meshchanlik ideali puch, soxta ekanini tushunadi, uning tirikchiligi, yashash tarzi mantiqan shunday xulosaga

olib keladi: "Bas, endi hayot bozoridan xarid qilib bo'lding, endi bemahalga qolmasdan qayt, bemahalga qolsang, quvg'in yeysan. Asaldan tortib maygacha hammasini tatib ko'rgansan. Shu tomog'ingdan bir qultum may o'tdi nima bo'ldi-yu, million shisha may o'tdi nima bo'ldi? Seni uch kun ortiqroq umr ko'rishga majbur qiladigan nima qoldi? Shunday ekan, nima qilib o'tiribsan, tur tezroq".

"Sarob' romanida bosh qahramon Saidiy bilan turli iplar orqali bog'lanadigan bir guruh personajlar bor. Ular turli ijtimoiy toifalarga mansub. Yozuvchi bularning har biri uchun esda qoladigan individual xususiyatlar, takrorlanmas belgilar topa olgan. Mana, Salimxon. U Ufada Madrasayi Oliyda tahsil olgan, sho'ro tuzumini jon-jahdi bilan yomon ko'radi, maorif sho'basiga ishga kirib olgan. Salimxon aqlli, tadbirkor odam. U sho'rolarga qarshi har bir ishini puxta o'ylab qiladi, ko'pincha boshqalarning qo'li bilan ish yurgizib, o'zi suvdan quruq chiqadi.

Abbosxon - mashhur tanqidchi. U ham sho'ro tuzumiga qarshi pinhona kurashida adabiyotdan, matbuotdan foydalanadi. U Saidiyning shuhratparastligidan foydalanib, uning ijodini o'zi istagan yo'lga solishga intiladi.

Romandagi salmoqli personajlardan yana biri Murodxo'ja domladir. U ham sho'ro hukumatini dil-dilidan yomon ko'radi, tezroq uning yemirilishini istaydi. Murodxo'ja domla o'zini siyosiy arbob qilib ko'rsatishga urinsa-da, aslida mol-mulkidan, boyligidan ayrilib qolmaslik uchun jon-jahdi bilan kurashadigan uddaburon va hiylakor shaxs. U juda makkorlik bilan Saidiy uchun o'rgimchak uyasidek tuzoq to'qiydi, uni domiga ilintirgach, so'nggi tomchisigacha Saidiyning shirasini so'rib oladi. Saidiy topadigan mo'may puldan bahramand bo'lish uchun yolg'iz qizini o'rtaga soladi. Saidiyning omadi ketib, chaqasi kamayib qolganda esa, qizini undan ajratib olish payiga tushadi.

"Sarob" romanida muhim o'rin tutuvchi yana bir obraz – Munisxon obrazidir. U ham badavlat xonadonning qizi. Uning ham dunyoga munosabati –takabburlik, boshqalarni mensimaslik, o'zini hammadan yuqori deb bilish asosiga qurilgan. Xudbinlik kasali Munisxon xarakterida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. U benihoya go'zal, shuning uchun erta-yu kech o'ylagani – erkak zotini asir qilish.

Munisxon muhiti nimasi bilandir kitobxonda iliq tuyg'ular uyg'otuvchi bu juvonni halokatga olib boradi. Hayotda biron tayinli maqsadga ega bo'lmagan, sevgi, muhabbat nima ekanini bilmaydigan, akasi Salimxonning siyosiy manfaatlari tufayli Muxtorxonga turmushga chiqqan Munisxon oxir pirovardida buzuqlik ko'chasiga kiradi. Yozuvchi Munisxon fojiasini ham psixologik jihatdan dalillab bergan.

"Sarob" romanida Ehson, Kenja, Shafrin kabi ijobiy obrazlar ham bor, ammo ular ikkinchi o'rinda turadi. Adib butun e'tiborini Saidiy obrazining tasviriga bag'ishlagani uchun bu personajlar mustaqil xarakter darajasiga yetib borgan emas.

Shunday qilib, "Sarob" romani hayotiy mazmunining teranligi, yetakchi qahramonlarining insoniy jozibasi, psixologik tahlilning chuqurligi, sujet va kompozitsiyaning pishiqligi, tilining xalqchilligi, tasvir vositalarining o'ziga xosligi bilan o'zbek adabiyotida realizmning qaror topishiga katta hissa qo'shdi. Xuddi shu sifatlari tufayli "Sarob" san'at asari darajasiga ko'tarildi.

# 5-MAVZU: HAMID OLIMJON HAYOTI VA IJODI
## (1909-1944)

**Reja:**

1. Hamid Olimjonning hayoti va ijodi.
2. She'riy asarlari.
3. Hamid Olimjon baxt va shodlik kuychisi.

**Tayanch iboralar:**

Hamid Olimjonning adabiy merosi, shoir ijodining o'rganilishi, hayot va ijod yo'li, shoir lirikasining g'oyaviy badiiy xususiyatlari, o'zbek xalq ijodi va Hamid Olimjoning liroepik asarlari, shoir ijodining ahamiyati.

Lirika — har bir milliy adabiyotning xalq ommasi tomonidan sevib o'qiladigan turi. Biz o'zbek adabiyoti deganda, birinchi navbatda, Navoiy g'azallarini, rus she'riyati deganda Pushkin she'rlarini ko'z oldimizga keltiramiz va bu g'azal-u she'rlar qulog'imiz ostida jaranglay boshlaydi.

XX asrda o'zbek she'riyati an'anaviy aruz vaznidan xalq ijodi uchun xarakterli barmoq vazniga o'tganida, Cho'lpon "Go'zal" singari so'lim she'rlari bilan yangi o'zbek lirikasini boshlab berdi. Uning barmoq vaznida yozilgan lirik she'rlari o'zbek adabiy tilining imkoniyatlari kengligini, o'zbek she'riyatining esa shakl va vositalarga boyligini namoyish etdi. Cho'lpondan keyin o'zbek lirikasining eng yaxshi namunalari uning izdoshlari tomonidan yaratildi.

O'zbek lirikasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirlar orasida Hamid Olimjon ijodi alohida ajralib turadi.

Hamid Olimjon faqat lirik shoirgina bo'lib qolmay, "Oygul va Baxtiyor", "Semurg'", "Zaynab va Omon", "Roksananing ko'z yoshlari" singari dostonlari, "Muqanna" she'riy tragediyasi bilan ham mashhur. U ayni paytda tarjimon va adabiyotshunos ham bo'lgan.

## Shoirning hayot va ijod yo‘li

Hamid Olimjon 1909- yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ildi. To’rt yoshida otasi vafot etgach, bobosi qo‘lida tarbiyalandi. Azim bobo xatli-savodli kishilardan bo‘lib, mashhur baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li jizzaxlik do‘st-yorlari huzuriga mehmon bo‘lib kelganida uning uyiga ham tushar va shunday kunlarda Abdulhamid bobosi pinjida o’tirib, baxshining do‘mbira jo‘rligida aytgan doston va termalarini butun vujudi quloq bo‘lib tinglar edi. Bo‘lajak shoirning onasi Komila aya esa xalq ertaklarining “kon”i bo‘lib, Abdulhamidning adabiyotga bo‘lgan havasi shu ikki manbaning ta’sirida oshgan.

Bo‘lajak shoirning shakllanishida yana bir muhim omil bor. Bu 1916-yil Jizzax qo‘zg‘olonidir. Jizzax shahrining to‘pga tutilishi, Abdulhamid yashagan qo‘rg‘onning yer bilan yakson etilishi, boshqa jizzaxliklar qatori, ular oilasining ham cho‘l-u biyobonga haydalishi uning murg‘ak ongida iz qoldirmay qo‘ymadi. U bolalik kezlaridayoq dunyoda sharqirab oqqan soy-u beg‘ubor osmondan boshqa zulm va zo‘ravonlik ham borligini ko‘rib, sezib o‘sdi.

Abdulhamid 1918-1923-yillarda Jizzaxda ochilgan to‘liqsiz o‘rta maktabda, 1923-1928-yillarda Samarqanddagi o‘zbek bilim yurtida, 1928-1931-yillarda O‘zbek iston pedagogika akademiyasida o‘qib, oliy ma'lumotli bo‘ldi. U dastlabki mashq sbe'rlarini 1925-yilda, bilim yurtida o‘qib yurgan kezlarida yoza boshladi. “Kimdir” deb nomlangan ilk she’ri esa 1926-yili “Zarafshon” gazetasida bosildi. Ko‘p o‘tmay, u Hamid Olimjon imzosi bilan kattagina “Ko’klam” she’rlar to‘plamini e’lon qildi (1929). Shundan keyin uning “Tong shabadasi” hikoyalar to’plami (1930), “Olov sochlar” (1931), “Poyga” (1932), “She’rlar”, “Daryo kechasi” (1936), “Baxt” (1940) kabi she’riy kitoblari e’lon qilindi. Hamid Olimjon urushgacha bo‘lgan davrda iste’dodli shoir sifatida shuhrat qozondi.

1931- yili Hamid Olimjon pedakademiyani tugatib, Toshkentga ko‘chib keldi. “Yosh leninchi” gazetasida, “Qurilish” va “O‘zbek iston sho‘ro adabiyoti” jurnallarida mas’ul kotib lavozimida xizmat qildi. 1932 -1937- yillarda, “millatchi” sifatida ishdan haydalguniga qadar Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida

ishladi. Qatag'on to'lqinlari biroz susaygach, 1938-yilning boshlarida Hamid Olimjon o'quv-pedagogika nashriyotiga ishga olindi. O'sha yilning noyabrida yangi tashkil etilgan Navoiy komitetiga mas'ul kotib bo'lib ishga kirdi. 1937-yil aprelida esa O'zbek iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining kotibi etib tayinlandi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan Rossiya, Ukraina va Belorussiya kabi dushman bosib olgan yoki bosib olishi mumkin bo'lgan respublikalardan ko'plab yozuvchi, adabiyotshunos va tarixchi olimlar, institut va nashriyotlar O'zbek istonga ko'chirib keltirildi. Hamid Olimjon shu yillarda o'zining katta tashkilotchilik iste'dodini namoyish etib, bu ijodiy kuchlardan o'zbek adabiyotining rivojlanishi yo'lida, mumtoz va zamonaviy o'zbek yozuvchilari asarlarining rus tiliga tarjima va nashr etilishida samarali foydalandi.

Hamid Olimjon ijodi ayni gullab-yashnagan bir davrda, 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati natijasida vafot etdi.

Hamid Olimjonning adabiy merosi, she'riyatdan tashqari, hikoya va ocherklar, "Muqanna" va "Jinoyat" pyesalari, adabiy-tanqidiy maqolalar va tarjimalardan iborat bo'lib, ular shoirning o'n jildlik "Mukammal asarlar to'plami"da e'lon qilingan.

**Hamid Olimjonning she'riy asarlari**

Hamid Olimjonning she'riy ijodi 30-yillarning boshlarida shakllanib, shu davr ruhini o'ziga singdirgan. Uning "Temir qonun", "Nima bizga Amerika?", "Baxtlar vodiysi" singari she'rlari va "O'lim yovga" dostonida sinfiy kurash, sotsialistik qurilish ishlari avj olgan davr o'z aksini topgan.

Lekin 30-yillarning o'rtalariga kelib, Hamid Olimjon ijodida "ko'ngil lirikasi" namunalarining paydo bo'lishi bilan uning lirik iste'dodi chaman gullari bilan ochila boshladi. Hamid Olimjon shu davrda yaratilgan eng yaxshi she'rlari bilan o'zbek lirikasiga go'zal insoniy tuyg'u va kechinmalar, tabiat manzaralari tasvirini olib kirdi, o'zbek she'riyatining badiiy imkoniyatlarini boyitib, unga hamidona musiqiy latofat va joziba bag'ishladi.

Hamid Olimjon lirikasi o'zbek shoirlarining keyingi avlodi uchun badiiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi. "O'rik gullaganda" Hamid Olimjon lirikasining

eng mashhur namunalaridan biri "O'rik gullaganda" she'ridir. Bu she'rning badiiy tomonlarini yoritishdan avval uning yaratilish tarixi to'g'risida bir og'iz so'z aytish joiz, deb o'ylaymiz.

1937- yilning mart oyida Hamid Olimjon O'zbek iston hukumat delegatsiyasi tarkibida Qozog'istonga borgan. Qardosh respublikaning o'sha kezlarda bo'lib o'tgan tantanalarida ishtirok etib, o'sha yerda "Qozog'iston" degan mashhur she'rini yozgan va o'qib bergan. Keksa qozoq oqini bilan uchrashib, uning baxt va saodat sohilidan chetda kechgan hayoti bilan tanishgan.

Hamid Olimjon qardosh do'stlar diyorida bo'lgan kunlarda Olma-ota qalin qor gilami ostida, chirsillama qish havosi bilan nafas olayotgan edi. Shuning uchun ham mart oyining so'nggi kunlarida Toshkentga qaytgan shoir o'z hovlisidagi bir tup o'rikning chaman bo'lib ochilib turganini ko'rib, ilhom og'ushiga g'arq bo'ladi:

*Derazamnmg oldida bir tup*
*O'rik oppoq bo'lib gulladi.*

She'rning bu dastlabki satrlarida shoir o'ziga qattiq hayajon bag'ishlagan, hatto eng mashhur she'rining maydonga kelishiga sababchi bo'lgan voqeani shunday tasvirlaydi. Bu tasvirda shoirni qurshagan his-hayajondan bironta belgisi ham yo'q. Bayt, xuddi gazeta xabaridek, quruq faktning qaydidan iborat. Lekin Hamid Olimjon she'rning keyingi bandlarida o'rikning gullab turgan manzarasini chizar ekan, shoirona latif obrazlar va ifodalardan foydalanadi. Natijada she'rga sekin-asta bahor nafasi kirib kela boshlaydi:

*Novdalarni bezab g'unchalar*
*Tongda aytdi hayot otini*
*Va shabboda qurg'ur ilk sahar*
*Olib ketdi gulning totini...*

Erta bahorda ochilgan o'rik gullarini ko'rganmisiz? O'rik gullaridagi pushti bargchalarning bahor shabadasida uchib, chor atrofga to'ziganini-chi? Tevarak-atrofni to'ldirib yotgan pushti bargchalarni ko'rganingizda, bu manzarani tabiatning

go'zal bir holati sifatida idrok etganmisiz yoki u sizda ma'yusona va hazin bir kayfiyat uyg'otganmi?..

Hamid Olimjonning lirik qahramoni yer bilan bitta bo'lib sochilib yotgan gul bargchalarini ko'rib, noxush xayollarga beriladi. Uning nazarida, gul bargchalarining kuz xazonidek sochilib yotishi dilga qandaydir g'ashlik bag'ishlaydigan manzaradir. Lirik qahramon "shabboda qurg'ur"ning "gulning toti"ni olib qochishiga allaqanday shubha bilan qaraydi.

Ehtimol, Hamid Olimjon shu she'rni yozayotgan paytida to'rt yoshida, murg'ak bolalik paytida otasidan judo bo'lganini eslagandir. Ehtimol, boyagi baxt nimaligini ko'rmay ulg'aygan qozoq oqini uning yodiga kelgandir. Har qalay, shoir har bahorda yellarning "gul toti"ni olib qochishini xayoldan o'tkazib, bunday yozgan:

*Mayli, deyman va qilmayman g'ash,*
*Xayolimni gulga o'rayman;*
*Har bahorga chiqqanda yakkash,*
*Baxtim bormi, deya so'rayman.*

Hamid Olimjonning shu yillarda yozgan she'rlarida baxt va saodat mavzusi yetakchilik qiladi. Uning uchun shu davr lirikasida "baxt" va "saodat" so'zlaridan faolroq, jozibaliroq, lazzatliroq so'z bo'lmagan. Aslini olganda, ota-onasi va aksar qarindosh-urug'larining umri qayg'u va alamda kechgan, o'zi esa endigina yigirma sakkiz yoshga kirgan yigit uchun baxt eng muhim hayotiy masala, "Baxtim bormi?" degan savol esa "Kelajagim qanday? Hayot menga kulib boqadimi?" degan jumboq bilan baravardir. Shuning uchun ham tabiat tasviriga bag'ishlangan bu she'rda 1937-yildagi Hamid Olimjon uchun eng muhim masala baxt masalasi birinchi o'ringa chiqadi. O'rik gullari bilan shoirning, lirik qahramonning baxti bir olmaning ikki tarafiga aylanib qoladi-qo'yadi. Lirik qahramonni hayajonlantirgan, qiynagan savolga nafaqat shabboda, balki qushlar ham, nafaqat qushlar, balki hamma narsa "Baxting bor!" deb roz aytgandek bo'ladi, Faqat baxtni maqtagan ovoz u yurgan bog'larni to'ldirib yuboradi:

*Mana senga olam-olam gul,*

*Etagingga sig'ganicha ol.*

*Bunda tole har narsadan mo'l.*

*To o'lguncha shu o'lkada qol.*

*Umrida hech gul ko'rmay yig'lab*

*O'tganlarning haqqi bor senda.*

*Har bahorni yig'lab qarshilab*

*Ketganlarning haqqi bor senda...*

Ana shu tarzda chaman bo'lib ochilgan o'rik gullari baxt mavzusi bilan tutashib, katta falsafiy ma'no kasb etadi.

She'r yana yuqoridagi ikki satr bilan tugab, o'zaro qoliplangan.

Bu she'rda olg'a surilgan baxt mavzusidan, tabiat manzarasi tasviridan tashqari, bizni o'ziga jalb etuvchi yana bir narsa bor, bu — she'rga badiiy joziba bag'ishlab turgan shakl, musiqiy ohang va yoqimli bir ruhdir. She'rning har bir bandidagi **a-b-a-b** tarzida uyushgan qofiyalar, bahor va gullar so'zlarining so'nggi bo'g'inlaridagi ohangdosh tovushlaraing badiiy matn davomida leytniotiv o'laroq takrorlanib turishi (*takror, beor, bormi, bor, bor, bahor; sahar, har, bo'lar, yuzlarimni, yellar, chiyillar, qarshilar, so'ylar, bog'larga, to'lar, narsadan, o'tganlarning, qarshilab, ketganlarning* va hokazo), so'zidagi **b, h, r** tayanch tovushlarining butun misraga sochilib, bahor "vals"ini chalishi (Har bahorda shu bo'lar takror...), ayrim misralarda tasodifan uchrashgan, ammo badiiyat qonunlari asosida shakllangan tovush tovlanishlari ("mayli deyman va qilmayman g'ash", "yuzlarimni silab siypalab" va hokazo) Hamid Olimjon she'riga ajib bir musiqiy tarovat va joziba bag'ishlaydi.

Mazkur she'rning badiiy latofati ham xuddi shundadir.

Hamid Olimjon lirikasining durdonalaridan yana biri "Ofeliyaning o'limi"dir, She'r hozirgi o'zbek Milliy teatri sahnasida "Hamlet" spektaklining qo'yilishi munosabati bilan 1936-yilda yozilgan. O'zbek sahnasining go'zal yulduzlaridan biri Shohida Mahzumova mazkur spektaklda Ofeliya obrazini shunday qoyilmaqom qilib yaratgan ediki, Hamid Olimjon, shoira Zulfiyaning aytishicha, uning ijrosidan uzoq vaqtgacha qattiq hayajonda yurgan. Ammo she'rni o'qir ekanmiz, unda ijrochini

emas, balki Ofeliyaning o'zini butun go'zalligi, dardlari, armonlari va fojiasi bilan ko'rgandek bo'lamiz.

She'r to'rt qismdan iborat. Birinchi qismda shoir es-hushidan ayrilib, bir dasta oppoq gulni quchib yurgan Ofeliyaga qarab: "orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo...", degan so'zlar bilan murojaat etadi. Bor-yo'g'i to'rt satrdan iborat bu birinchi qismdan keyin shoir Ofeliyaning baxtsiz qismatiga sherik bo'lgan, uning g'am va alamdan bichilgan libosiga kirib olgan kishidek falakdan zorlanadi, unga husn va chiroy berish bilan birga hayotini azob va uqubat bilan zaharlagan zamondan shikoyat qiladi, shu zamonga, tabiatga g'azab o'tlarini sochadi:

*Javob berib ko'r -chi, nomard tabiat.*
*Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!*
*O'zing gunohkorsan, osiysan behad,*
*Nechun yaratding-u o'tlarga otding?*
*Hali sevishmoqda shumidir ma'no?*
*Faqat azob bordir qismatda, nahot?*
*Nahotki, sevgiga shudir tamanno?*
*Nahot go'zal uchun faqat, faqat dod!..*

Lirik qahramonning ko'ksini to'ldirib yuborgan hislar shunday olovlanib, ko'kka sapchiydiki, natijada unda paydo bo'lgan zamondan, tabiatdan norozilik motivlari katta ijtimoiy sado kasb etib, taqdirga qarshi isyon darajasiga qadar ko'tariladi.

She'rning uchinchi qismiga Hamlet obrazi kirib keladi. Shoir Hamletga ham Ofeliya obrazi orqali yondoshadi. Ofeliyaning muhabbati unga hayot va qanot bag'ishlagan paytlarni eslaydi. Uning do'zax o'tlarida kuyib yonayotgan hozirgi holatiga achinadi:

*Faqat netmak kerak, bordir na chora,*
*Sevguvchi yurakni qurshasa balo?*
*Butun olam ko'zga esa qorong'u,*
*Balolarga Hamlet esa mubtalo?*

*Shubha otashida yonar tafakkur,*

*Dunyo bir g'amxona, "Dunyo zindon",*

*Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur,*

*Zanjirdadir sevgi, qafasdadir jon.*

Ushbu she'r Hamid Olimjonning boshqa lirik she'rlaridan shu narsa bilan farqlanadiki, unda his-tuyg'u va kechinmalar kurashidan iborat lirik sujet bilan birga fikrning harakati, olovlanishi, isyonga aylanishi va so'nib, itoat shakliga kirishini ko'ramiz. Yana shu narsa e'tiborga sazovorki, his-tuyg'u bilan kechinma qaysi bir yerda tugab, so'ng o'z o'rnini fikrga bo'shatib bermaydi; ular yonma-yon harakat etadi va his-tuyg'u fikr bilan payvandlashib ketadi. Mana, nihoyat, she'rning so'nggi, to'rtinchi qismi. Yovuzlik, adolatsizlik o'z ishini qilgan Ofeliya halok bo'lgan. Lirik qahramonni qurshagan isyon o'ti ham... o'chgan.

*Ko'ngil gulshanini qopladi xazon,*

*Yo'qoldi shunchalik bebaho sevgi.*

*Shu bo'ldi bokira, dunyo ko'r magan*

*U yoqut lablarning qora taqdiri.*

*Sevgi ko'klarida uchuvchi lochin*

*Arshidan yiqildi va ko'hna dunyo*

*Butun armonlari kul qilgan otash*

*O'zi bo'lib qoldi sevgiga gado.*

Shoir nazarida, Ofeliyaning o'limi bilan go'yo dunyoda muhabbat daraxti bir umrga qurigandek, Tohir va Zuhralar, Romeo va Julyettalar dunyoga boshqa kelmaydigandek bo'lib tuyuladi. "Butun armonlarni kul qilgan" bu ko'hna dunyo, shoir nazarida, sevgining gadosi bo'lib qoladi,

Bu she'r kitobxonni, "O'rik gullaganda" she'ridek, badiiy tomonlari bilan, musiqiy latofati bilan emas, balki his-tuyg'u va kechinmaning to'xtovsiz ravishda kuchayib, olovlanib borishi bilan maftun etadi. Shoir Ofeliyaning o'limini tasvirlash bilan dunyoda muhabbatdan go'zal va buyuk narsa yo'qligini o'z qalbining, lirik qahramon qalbining shunday to'lqinlari bilan tasvirlab beradiki, biz pirovardida

she'rni o'lgan muhabbatga marsiya emas, balki qasida sifatida idrok etamiz. She'rning hayotbaxsh qudrati ham shundadir.

Sevgi Hamid Olimjon ijodining yetakchi mavzularidan biri. Agar shoirning bir qator she'rlarida rafiqasi Zulfiyaxonimga nisbatan muhabbati tasvirlangan va bu she'rlar ham Hamid Olimjon lirikasining go'zal na'munalaridan hisoblansa, "Ofeliyaning o'limi" va "Sevgi" she'rlari bu qadar avtobiografik asosga ega emas. Shoir bu she'rlarida sevgi mavzusini boshqa kishilar taqdiri orqali yoritadi.

Hamid Olimjonning Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan she'rlaridari biri "Sevgi" deb atalgan. Bu she'rda tasvirlanishicha, lirik qahramon, xuddi xalq dostonlarining qahramonlari singari, urush maydonlarida jang qilayotgan yori ortidan harb so'qmoqlariga yo'l oladi.

Biz yuqorida "Sevgi" she'rida tasvirlangan yigit va qiz obrazini folklor asarlari qahramonlariga bejiz muqoyasa qilmadik. Negaki, bu she'rni bugun, oradan oltmish yildan ziyod vaqt o'tgandan so'ng, boshqa tarixiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sharoitda yashayotgan kitobxon tushunishi uchun unda Hamid Olimjonning folklor poetikasiga xos unsurlardan samarali foydalanganligini, albatta, e'tiborga olishi lozim.

Avvalo shuni aytish kerakki, Hamid Olimjonning urush davri lirikasida jiddiy o'zgarish ro'y berdi. Bu davrda uning she'rlarida barmoq vaznining xalq og'zaki she'riyatiga xos ko'rinishlaridan tashqari, xalq ijodiga xos Alpomish, Go'ro'g'li, Avaz obrazlari paydo bo'ldi, xalqona ohang va milliy ruh, ayniqsa, kuchaydi.

"Sevgi" she'rining asosini tashkil etgan lirik sujet yorning urushda jon olib, jon berayotgan yigitni izlab, yo'lga chiqishi, turli qiyinchilik va xavf-xatarlarga duch kelishi folklor asarlariga xos sujet chizig'idir. To'g'ri , urush yillarida o'zbek ayollari ham, mashhur snayper Zebo G'aniyeva singari, frontga borganlar. Lekin Zebo singari frontchi qizlarda frontdagi erlariga hamroh va madadkor bo'lish emas, balki dushmanga qarshi kurashish, vatanni ozod etish istagi ustuvorlik qilgan. Hamid Olimjonriing talqinicha, she'rda tasvirlangan yor sevgan yigiti yoki eriga madadkor bo'lish, uni o'z muhabbati taftida saqlash istagi bilan frontga yo'l oladi. Bunday

talqin, boya aytganimizdek, xalq qahramonlik dostonlariga xos an'anadan foydalanishning yorqin namunasidir.

Lekin Hamid Olimjonning ustaligi shundaki, u Ikkinchi jahon urushida nafaqat bepoyon mamlakatning taqdiri, balki oshiq va ma'shuqalar muhabbatining taqdiri ham hal bo'layotganini aytadi. Shoir frontga yo'l olayotgan yigit tili bilan qizga bunday so'zlarni aytadi:

*Butun yoshligimiz jangdadir butun,*

*Jangda yechilmoqda sevgi qismati.*

*Jangdadir yigitlar, jangdadir qizlar,*

*Havoda uchadi mahbublar xati.*

Yigit vatanparvarlik ruhidagi shunday so'zlarni aytib, "Agarda qaytmasam shu mendan yodgor", deb qizga "bir tutam gul" beradi.

Gul — romantik she'riyatning doimiy obrazlaridan biri. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyotda ham gul muhabbat timsoli sifatida ishtirok etib kelgan. Hamid Olimjonning romantik ruh bilan yo'g'rilgan she'riyatida ham gul o'zida shunday ma'noni anglatadi. Lekin sujetning rivojlanishi bilan gul urushning dahshatli guldiraklari ostida kitobxon nazaridan qochadi.

Dushman qattol, urush dahshatli edi. Sevimli yigitisiz yashashni yashash deb hisoblamagan yor (Menga ne kerakdir bu yolg'iz qolish ? Sensiz, ololmasman aslo men nafas) uning ortidan urush maydonlari sari yo'l oladi:

*Orqangdan qolmasdan jo'nadim jangga,*

*Qo'zi ketgan kabi qo'y ning izidan,*

*Go'y o quyosh oyni kuzatganiday,*

*O't bo'lib orqangdan kezmakdaman man.*

*Sen otash ichida urasan javlon,*

*Dushman qolmasin deb sevgan elimda.*

*Men ham qasos olib to'kmoqdaman qon,*

*Elim va yorimning nomi dilimda.*

Shoir ana shu satrlarda yor ma'naviy olamining yuksakligini, intilishlarining el va yurt taqdiri bilan bog'liqligini nafis bir yo'sinda, kitobxonni ishontirarli bir tarzda ochadi. Biz Ikkinchi jahon urushining oshiq va ma'shuqalar muhabbati uchun sinov maydoni emasligini unutib qo'yamiz, yorning ruhiy olami va intilishlaridagi pokizalik va ulug'vorlik bizda unga nisbatan hurmat tuyg'ularini uyg'otadi. Hamid Olimjon yigit va qiz taqdiri bilan bog'liq dramatik voqealar tasviri orqali kitobxonga urushning dahshatli voqea ekanligini ham eslatib turadi. U oshiq va ma'shuqaning jang maydonlarida uchrashishi tarixiy haqiqatga soya tashlashi mumkinligi uchun tasvir oqimiga davr haqiqati bilan bog'liq motivni kiritadi.

Yor, g'oyibona bo'lsa -da, yigitga bunday so'zlarni yo'laydi:

*Senga yuborganim otashin bo'sa*
*Yengil shabbodadek uchar havoda,*
*Jang bo'lgan joylardan labingni izlar*
*Va ba'zan darbadar kezar samoda.*
*Balki uchrashmasmiz biz endi mangu,*
*Bo'samiz ham qolar balki sargardon,*
*Lekin sevishganlar qaytmas o'limdan,*
*Lekin mangu qolar ikki tomchi qon.*

Agar she'rni diqqat-e'tibor bilan o'qisak, unda romantik tasvir bo'yoqlari bilan birga realistik unsurlar ham o'qtin-o'qtin ko'r inib turadi. Hamid Olimjon badiiy tasvirning bu ikki usulini o'zaro uyg'unlashtirib yuboradi.

Millionlab kishilar halok bo'layotgan urushda yigitning ham, qizning ham omon qolishi mahol. Yor, sevimli yigiti singari, o'limdan qo'rqmaydi, aksincha, "o'zidan qo'rqmagan erlar qoni" "zafar yorlari"ni yoritishi mumkinligidan o'ziga yupanch oladi.

Xullas, yor muqarrar o'limning anqib turgan nafasi oldida umidbaxsh tuyg'ularga burkanadi. O'zining va yigitning qoni behuda ketmasligiga ishonadi:

*Bug'doy boshog'iday ko'kka intilib,*
*Men shunda tuproqdan ko'tararman bosh.*

*Sening qonlaringdan o'sar qizil gul,*

*Yoqutga aylanar soylardagi tosli.*

She'r muqaddimasida zikr etilgan gul obrazi ana shu tarzda yana jilva beradi, ammo bu safar u jangda to'kilgan qondan unib chiqqan gul shaklida ko'z oldimizda gavdalanadi.

Hamid Olimjon urush davrining qonli muhri bosilgan bu she'ri bilan insonga xos buyuk fazilat sevgi va muhabbatni ko'klarga ko'taradi.

Biz Hamid Olimjonning "Sevgi" she'rida oliyjanob tuyg 'ular favvorasi otilib turganini ko'ramiz. Bu, nafaqat yorga, balki, birinchi navbatda, taqdiri xavf-xatar ostida qolgan vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularidir. She'rning lirik qahramoni (yor) qoni vatan ozodligi yo'lida to'kilajagini o'zi uchun baxt va sharaf, deb biladi. "Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz, g'alaba kunida bo'lurmiz biz ham", deb umid qiladi u.

Bu satrlarda har ikkala vatanparvar oshiq va ma'shuqaning e'tiqodi o'z ifodasini topgan.

Ming afsuslar bo'lsinki, hozirgi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda Hamid Olimjonlar jo'shib kuylagan muhabbat gullari o'zining bahoriy ifori va ajabtovur ranglarini yo'qotib bormoqda. Lekin kelajagiga ishongan, o'z vatanining ravnaqi yo'lida mehnat va kurashga tayyor avlodlar uchun muhabbat, xuddi vatanparvarlik, insonparvarlik, ezgulik, mehr va muruvvat singari, abadiy qadriyatlar bo'lib qolishi lozim.

Hamid Olimjon so'zi bilan aytiladigan qo'shiqlar orasida "Kuygay" qo'shig'i alohida e'tibotga sazovor.

Ayrim adabiyotshunos olimlar "Kuygay"ni Hamid Olimjonning aruz vaznida yozgan birdan bir she'ri, deb hisoblaydilar. Holbuki, shoir 1942- yilda "Muqanna" she'riy tragediyasini tugatganidan keyin o'sha kezlarda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida tashkil etilgan musiqali drama teatri uchun mazkur asarning musiqiy nusxasini tayyorlab bergan va bu asarga aruz vaznida bitilgan bir qancha g'azallarni kiritgan. "Kuygay" g'azali ham "Muqanna" musiqali dramasi uchun

yozilgan qo'shiq matni bo'lib, u spektaklda Guloyim va Muqannaning dueti tarzida ijro etilgan.

"Kuygay" qo'shig'i "Muqanna" musiqali dramasiga kuy bastalagan mashhur o'zbek kompozitori va hofizi Yunus Rajabiy hamda uning farzandi Hasan Rajabiy ijrosida xalqimiz o'rtasida mashhur bo'lgan. Hamid Olimjonning bu mashhur g'azali hozir ham ko'plab xushovoz xonandalar ijrosida aytilib keladi. G'azal bunday misralar bilan boshlangan:

*So'zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay,*

*Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda xubob kuygay.*

*Kamondek qoshlaring, kipriklaringdin o'q otar doim,*

*Sening yoding bilan tinmay hama noz-u itob kuygay.*

g'azal aruz she'riy tizimining hazaji musammani solim (mahzuf) bahrida yozilgan bo'lib, undagi uzun va qisqa hijolar tartibi quyidagi shaklga ega:

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoil

V_ _ _ V_ _ _V_ _ _V_ _

Hamid Olimjonning bu g'azal uchun 15 hijolik aruz vazni bahrlaridan birini tanlashida, bizningcha, mumtoz o'zbek ashulalarining mohir ijrochisi Yunus Rajabiyning, shuningdek, Muqanna va Guloyim partiyalarini ijro etgan artistlarning ovoz diapazoni e'tiborga olingan. Shuning uchun ham yorning go'zalligini sharaflovchi, yigitning unga bo'lgan beadad muhabbat tuyg'ularini ifodalovchi so'zlar shodasining xiyla uzun bo'lgani sezilib turadi. Ammo g'azal o'qish uchun emas, balki qo'shiq sifatida, aniqrog'i, duet sifatida ijro etish uchun yozilganini unutmaslik lozim. Qolaversa, yor husn-jamolini tasvirlovchi poetik obrazlar (sifatlash, o'xshatish, istiora)ning mubolag'a chashmasiga botirib olinganligi va ma'no-mazmunning teranligi g'azalga ayricha badiiy latofat bag'ishlab turadi.

Hamid Olimjonning lirik she'rlariga xos lirizm uning fuqarolik g'oyalari bilan to'y ingan she'rlarida ham jilva berib turadi. Tuyg'ulari noziklashgan, poetik so'zi va uslubi musiqiylik, tasviriylik, ravonlik va yorqinlik kasb etgan shoir 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab fuqarolik g'oyalarini tarannum etuvchi she'r,

ballada va dostonlarida ham badiiy kamolotga erisha boshladi. Uning bunday asarlarida ham kitobxon didi va diliga oziq beruvchi ruh, uning didi va dilini munavvar etuvchi nur paydo bo'ldi. Hamid Olimjon Navoiy va Pushkin gulshanidagi nektardan ruhiy ozuqa olib, hassos shoir sifatida ulg'aydi.

Agar Hamid Olimjonning she'riy ijodini nazardan o'tkazsak, shoirning o'zbek she'riyatiga xos barcha vazn tizimlari (erkin, barmoq, aruz), she'riy shakl (she'r, g'azal, mustahzod, qasida, ballada, she'riy ertak, doston) va vositalardan mohirona foydalanganini ko'r amiz. Shoir o'zbek she'riyatining bu badiiy imkoniyatlaridan samaralari foydalanibgina qolmay, uni yanada kengaytirdi, odatda "Muqanna", "Jaloliddin Manguberdi" singari tragediyalarning ijodiy tarixi to'g'ri sida so'z borganda, ularning Ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlarida kurashayotgan va mehnat jabhalarida faoliyat olib borayotgan xalqni jasorat va qahramonlikka chorlash maqsadida, davrning ijtimoiy buyurtmasi sifatida yozilgani aytiladi.

**"Muqanna" dramasi** singari tragediyalarning ijodiy tarixi to'g'risida so'z borganda, ularning Ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlarida kurashayotgan va mehnat jabhalarida faoliyat olib borayotgan xalqni jasorat va qahramonlikka chorlash maqsadida, davrning ijtimoiy buyurtmasi sifatida yozilgani aytiladi. Ammo Hamid Olimjon ijodining tadqiqotchilari bergan ma'lumotga ko'ra, shoir Muqanna qo'zg'oloniga bag'ishlangan sahna asarini yozishga 1937-yildayoq kirishgan va hatto o'sha yili asarning birinchi pardasini yozib tugatgan. To'g'ri, 1937-yilda shoir ustida ham qatag'on bulutlarining to'planishi bilan u asar ustidagi ishni to'xtatib qo'ygan va 1942-yilning boshlarida asarga qayta kirishib, o'sha yilning 12-fevralida birinchi pardaning yangi nusxasini yozib tugatgan. 1942-yil 31-mayda esa asar ustidagi ish uzil-kesil yakunlangan.

Mutaxassislarning fikricha, Hamid Olimjonda ushbu asar g'oyasining paydo bo'lishi S.Ayniyning "Muqanna qo'zg'oloni" tarixiy ocherki bilan bog'liq. Ustozning shu ilmiy asaridan turtki olgan shoir "Muqanna" tragediyasi ustida ishlash jarayonida Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi", G.A.Ibrohimovning "Islomning kelib

chiqishi va sinfiy mohiyati" (M., 1940) singari tarixiy manba va ilmiy kitoblardan tashqari, Qur'onni ham puxta o'rganib chiqqan.

Hamid Olimjonning "Muqanna" tragediyasini urush yillarida yozishi undan o'n uch asr muqaddam bo'lib o'tgan xalq ozodlik harakatiga shu davrning "ko'z"i bilan qarashni, shu davrdagi siyosiy-ijtimoiy sharoitni, davr g'oyalari va ma'naviy ehtiyojlarini e'tiborga olishni talab etdi. Binobarin, shoir, birinchi navbatda, vatan ozodligi yo'lida kurashgan va shu kurashda qurbon bo'lgan Muqanna va uning safdoshlari qahramonona obrazlarini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.
Hamid Olimjon tarixiy haqiqatdan kelib chiqib, asarga, Muqannadan tashqari, uning safdoshlari - G'irdak, Bog'iy, Xishriy, Hakim, Kulartagin singari tarixiy shaxslar va shu bilan birga oddiy xalq ommasining Otash, Gulobod va Guloyin singari vakillarining to'qima obrazlarini ham olib kirgan. Bu har ikkala toifadagi obrazlar o'zaro aloqaga kirishib, muallifga tarixiy davr haqiqatini o'z badiiy niyati doirasida mujassamlashtirish imkonini bergan.

Asar ekspozitsiyasidayoq biz yaqin kelajakda ro'y berajak dramatik voqealar shabadasini sezamiz. Otashparastlar diniga mansub qullardan biri – Otash va uning oila a'zolari-xotini Gulobod va qizi Guloyinning boshida zulm qamchisi o'ynab turibdi. Istilochilarning xalqni musulmon diniga tinchlik va bardoshlik bilan sekin-asta emas, balki tahdid va zo'ravonlik bilan o'tkazishi ularda qattiq qarshilik uyg'otadi. Otash endi faqat o'zining emas, balki butun el-yurtning ham qullik kishanlariga o'ralganini ko'rib, iztirob chekadi. Gulobod Feruzning bosqinchilarga qulluq qilib, masjid qurganidan norozi. Ularning qizi Guloyin esa otashparastlikka ham, bosqinchilar olib kelgan dinga ham loqayd.

Mahalliy xalq zo'rlik bilan musulmon diniga o'tkazilayotgan bir paytda Muqannaning o'z maslakdoshlari bilan kelib, vatandoshlarini zulm va zo'ravonlikka qarshi kurashga undashi bilan tragediyaning tuguni boshlanadi. Va bu tugun rivojlanib, ikki ijtimoiy kuch o'rtasidagi kurash o't olib ketadi.

**Muqanna va Guloyin obrazi.** Muqanna aksar tarixiy manbalarda soxta payg'ambar sifatida tasvirlangan. Narshaxiy singari tarixchilar o'zlari mansub

bo‘lgan ijtimoiy qatlamning dunyoqarashidan kelib chiqib, Muqannani qandaydir lo‘ttiboz sifatida talqin etganlar. Holbuki, Muqanna qo‘zg‘oloni feodal jamiyatning turli-tuman qatlamlarini o‘zida birlashtirgan ulkan xalq harakati edi. Bu harakat o‘zidan yuz yil muqaddam O‘rta Osiyo va Movarounnahr cho‘llariga o‘tkazilgan hamda mahalliy xalqning qoni bilan sug‘orilib turgan islomning hali nimjon niholini tag-tomiri bilan sug‘urib tashlashiga oz qolgan. Milliy ozodlik kurashi bayrog‘i ostida o‘tgan bu harakat arab bosqinchilari olib kelgan davlat tuzumini qariyb o‘n besh yil mobaynida larzaga keltirib turgan.

Muqannaning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo‘lib, Muqanna uning laqabidir. ‘Niqobli kishi” ma’nosini anglatuvchi bu laqab, aftidan, unga xalq tomonidan berilgan. Muqanna marvlik bo‘lib, otasi singari Abu Muslim huzurida sarxang (ofitser) bo‘lib xizmat qilgan. Narshaxiyning aytishicha, u keng bilimli, turli fanlar va “sirli san’atlar”dan xabardor kishi bo‘lgan. U o‘z atrofiga xalq ommasini to‘plash va uning muhabbatini qozonish niyatida o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan. Manbalarda aytilishicha, Muqanna odamlarning: “Boshqalar faqat payg‘ambarlik da’vosini qilgan edilar. Nega endi sen xudolik da’vosini ham qilyapsan?” degan savoliga: “Boshqalar faqat vujuddan iborat edilar. Men esa boshdan-oyoq ruhdan iboratman va istagan qiyofada, hatto Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad, Abu Muslim sifatida paydo bo‘lishim mumkin”, degan. Hamid Olimjon asarda shu tarixiy haqiqatdan aynan foydalangan:

*Xalq:*

*–Kimsan o‘zing? Sen kimsan?*

*Muqanna:*

*–Sizni bosgan jarohatlarga malham.*
*Agar xudo kerak bo‘lsa, xudo ham,*
*Odam ham man, ozodlikdir shiorim,*
*Hurriyatdir topinajak ollohim!..*
*Menga kelsin barcha jabr ko‘rganlar,*
*Uyi kuyib, ko‘cha-ko‘yda yurganlar.*

*Muhammadi, Isosi ham o'zimman, Ibrohimi,*

*Musosi ham o'zimman.*

Muqanna xalq ommasiga qanday so'zlar bilan murojaat etmasin, uning maqsadi bitta-yurtga bosib kelgan, o'z dinini zo'rlab o'tkazmoqchi bo'lgan bosqinchilarga qarshi kurash, xalq va mamlakatni qullikdan ozod etish. Hamid Olimjon nemis fashizmi sovetlar mamlakatiga hujum qilgan Ikkinchi jahon urushi yillarida ana shu maqsadini badiiy mujassamlantirish uchun Muqanna qo'zg'oloni mavzusiga murojaat etgan.

El-yurtni bosqinchilardan ozod qilish vazifasini o'z zimmasiga olgan Muqanna faqat sarkardalik, xaloskorlik qobiliyatini namoyish etibgina qolmay, xalq ommasi haqida qayg'uradi, uning jarohatlariga malham bo'lishga urinadi. Dramaturg Muqanna obrazining bu qirralarini turli dramatik vaziyatlarda izchil ravishda ochib boradi. Ezgu maqsad yo'lida birlashgan ommani parokanda qilishning sinalgan usullaridan biri rahnamo haqida turli "mish-mish"larni tarqatishdir. Muqanna atrofida birlasha boshlagan ommaning ayrim vakillari ham ig'vogarlarning "mish-mish"lariga uchib, uning niqob taqib yurishiga shubha bilan qaray boshlaydilar. Voqea dramatik tus olib, xalq harakati o'rtasiga nifoq urug'lari sochila boshlaydi. Shunda Muqanna bunday so'zlar bilan xalqqa yurakdan murojaat etadi:

*Yo'q, men sizman, xuddi sizning o'zingiz,*

*Bu ko'zlarim xuddi sizning ko'zingiz.*

*Sizni yo'ldan agar ozdirsa jinlar,*

*Peshonamda paydo bo'lar ajinlar.*

*Aqlingizga taraddud solsa changal,*

*Biling-ko'zim ko'r bo'ladi shu mahal...*

*Meni ko'rmak istasangiz siz agar,*

*Bir tashlangiz o'zlaringizga nazar.*

Muqanna o'zini xalqning bir zarrasi, deb his etadi va bu so'zlari bilan xalqdagi gumon va shubha bulutini tarqatib, uning bosqinchilarga qarshi yana bir tan, bir jon bo'lib kurash olib borishiga rag'bat uyg'otadi.

Hamid Olimjon bu asar ustida ishlayotgan kezlarida urush davrining taqozosi bilan yuqorida tahlil etganimiz “Sevgi” she’rini ham yozgan. “Muqanna” tragediyasida va bu she’rda garchand turli tarixiy davrlar bilan bog‘liq mavzular yoritilgan bo‘lsa-da, ular o‘rtasida muayyan yaqinlik ham bor. Agar “Sevgi” she’rining lirik qahramoni, yuqorida ko‘rganimizdek, jang maydonlarida dushman bilan olishayotgan yori ortidan ergashib, u bilan yonma-yon turib jang qilishni orzu qilgan bo‘lsa, bu asarda ham shunday o‘tyurak ayol obrazining mavjudligini ko‘ramiz.

Hamid Olimjon Guloyin siymosida siyosiy va mafkuraviy aqidalar to‘riga ilinmagan, cho‘ri bo‘lsa ham o‘zini erkin qushdek his etuvchi, pokiza, yorug‘ orzular va intilishlar bilan yashayotgan qiz obrazini yaratgan. Guloyin otasining: “Biz hali ham topinamiz otashga. Sen-chi, qizim?” degan savoliga javoban bunday so‘zlarni aytadi:

*...Shuncha yillar otashgohga topindim*
*Va bilmadim, ilohim kim, tangrim kim?*
*Qayg‘usi yo‘q biror kunni ko‘rmadim,*
*Biror soat men baxtiyor bo‘lmadim.*
*Ixtiyorni bersang agar menga sen,*
*Ozodlikka topinardim yolg‘iz men.*

Guloyin o‘zidagi ana shu erksevarlik fazilati tufayli Muqanna siymosida nafaqat xaloskori, balki o‘z orzularining ushalishiga yordam berajak yorqin siymoni ham ko‘radi, uni sevib qoladi va uning muhabbatini qozonadi.

Dramaturg Guloyin obrazini rivojlantira borar ekan, uning Battol va Feruz singari xoinlarni larzaga soluvchi qilich sohibi, mard va jasur ayol darajasiga ko‘tarilganini ishonarli tasvirlaydi. Muqannaning bunday qizni sevmasligi, unga uylanmasligi, u bilan birga ozodlik uchun kurashmasligi mumkin emas. Hamid Olimjon Muqanna bilan Guloyinning bir-birlarini tushunishi, bir-birlarini sevishi va bir-birlari tufayli ma’naviy yuksakliklarga ko‘tarilishi tasviriga alohida e’tibor beradi:
*Muqanna: – Yuraklarni sher qiladi so‘zlaring.*

*Guloyin: – Hech bir narsa bo'lolmaydi senga teng.*

*Meni yolg'iz sen angladíng, azizim!*

*Muqanna: – O'zing so'yla, teng bo'ladi senga kim?*

*Guloyin: – Sen bir dunyo, men unda bir nahrman.*

*Muqanna: – Ko'karadi dunyo o'sha nahrdan.*

*Guloyin: – Sen bir bog'san, men-chi unda bitta gul.*

*Muqanna: – O'sha bog'ni yana go'zal qilar ul.*

*Guloyin: – Men so'laman, bor bo'lasan sen doim.*

*Muqanna: – O'zing so'yla, quruq cho'lda yashar kim?*

*Guloyin: – Sen tengi yo'q bog'bonsan bu chamanda.*

*Muqanna: – Shuning uchun men sendaman, sen menda.*

*Guloyin: – Ikkimizni bo'lib bo'lmas hech qachon.*

*Muqanna: – Chunki bizda ikki tan-u bitta jon.*

Muhabbat mavzusining bunday yuksak pardada tasvirlanishi va romantiklashtirilishi asarga o'zgacha bir latofat bag'ishlabgina qolmay, qahramonlarning yuksak ma'naviy kamolotga erishgan holda ozodlik uchun kurash olib borganlarini va bu kurash ular e'tiqodining porloq natijasi ekanini ko'rsatadi. Guloyin xoin qilichidan halok bo'ladi. Ammo uning qoni ozodlik yo'lida to'kilgan va boshqalarni kurashga yanada chorlagan hayotbaxsh qon edi.

Dramaturg K.Yashin o'sha yillarda "Muqanna" spektakliga yozgan taqrizida Guloyinni jahon adabiyotining Laurensiya, Neston-Darijon obrazlariga qiyos qilgan ediki, bu tasodifiy emas.

* * *

"Muqanna" tragediyasi to'g'risida bahs borganda, uning nafaqat urush yillarida, balki sovet mafkurasi diniy e'tiqodga qarshi o't ochgan davrlarda yozilganini unutmaslik lozim. Xuddi shu narsa asar qahramonlarining musulmon dini sha'niga aytgan so'zlarida o'z ifodasini topgan. Lekin bu qahramonlar otashparastlar diniga mansub bo'lganlari uchun ularning Qur'on yoki islom dini sha'niga aytilgan so'zlarini muallif dunyoqarashining ifodasi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi.

Zeroki, dramaturg asarda Muqanna qo'zg'oloni misolida o'zbek xalqining uzoq asrlar mobaynida har qanday zulm va zo'ravonlikka, bosqinchilikka qarshi, erk va hurriyat uchun olib borgan qahramonona kurashini tasvirlashnigina o'ziga maqsad qilib olgan.

Yuqorida "Muqanna" tragediyasidan keltirilgan parchalardan shu narsa ravshan ko'rinadiki, Hamid Olimjon lirikasida qanday oliyjanob insoniy tuyg'ularni kuylagan bo'lsa, "Muqanna" singari yirik asarlarida ham ijodining shu estetik tamoyiliga sodiq qolgan. Uning uchun inson o'zida eng avvalo ezgu insoniy fazilatlarni eltishi, uning yuragida tabiatga, vatanga, kishilarga hurmat va muhabbat porlab turishi, u inson degan ulug' nomni pokiza saqlashi lozim. Hamid Olimjon nazarida, eng yuksak insoniy tuyg'ulardan biri bu – muhabbatdir. Yorni seva olmagan, go'zallikni, hayotdagi muqaddas qadriyatlarni qadrlay bilmagan kishining vatanni ham sevishi mahol. Shu ma'noda muhabbat, Hamid Olimjon talqinida, insonning qanday inson ekanligini anglatuvchi ulug' bir mezondir.

Hamid Olimjon XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga dastavval lirik shoir sifatida katta hissa qo'shdi. Uning urush yillarida yozgan ikki dramatik asari, ayniqsa, "Muqanna" tragediyasi o'zbek dramaturgiyasida katta voqea bo'ldi. Bundan tashqari, u adabiyotshunos olim sifatida ham o'zbek xalq og'zaki ijodi, ham mumtoz o'zbek adabiyoti, ham XX asrning birinchi choragidagi o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni yaratdi. Uning bu sohadagi ishlari orasida Fozil Yo'ldosh og'zidan yozib olingan "Alpomish" dostonini nashrga tayyorlaganligi va Alisher Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, ayniqsa, ahamiyatlidir. Shuningdek, Hamid Olimjon rus adabiyotining bir qator go'zal namunalarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilib, ularni xalqimiz va madaniyatimizning qimmatbaho mulkiga aylantirdi.

## 6-MAVZU: MAQSUD SHAYXZODA
## (1908-1967)

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi.
2. Maqsud Shayxzodaning she'riyati haqida.
3. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari.

Hurmatli talabalar! Sizlar har yili ulug' bobokalonimiz, buyuk shoir va mutafakkir hazrati Alisher Navoiy sharafiga bag'ishlab adabiy kechalar o'tkazganingizda u zotni ta'riflab "G'azal mulkining sultoni" deb ataysiz. Ana shu ta'rifni ilk bor qo'llagan ijodkor shoir Maqsud Shayxzoda bo'ladi.

O'zbek adabiyotining XX asrdagi ulkan vakillaridan biri Maqsud Mas'um o'g'li Shayxzodadir. U ikki xalqning – o'zbek va ozarbayjon xalqlarining farzandidir. Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Otasining kasbi shifokorlik bo'lib, she'riyatni nihoyatda sevgan, farzandlariga ham adabiyotga muhabbat tuyg'usini singdirgan inson edi. Shayxzoda tug'ilgan shahrida maktab ta'limini olgach, Ozarbayjon poytaxti Bokudagi Oliy pedagogika institutiga sirtdan o'qishga kiradi. 1925-yildan muallimlik qila boshlaydi. 1928-yili u hurfikrliligi, ya'ni Ozarbayjonni mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikirlari uchun ayblanib, Toshkentga badarg'a qilinadi. Ayni shu davrdan boshlab to umrining so'ngiga qadar Shayxzodaning butun hayoti O'zbekiston bilan bog'lanadi. U avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir, 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan hayoti so'ngigacha (umrining oxirigacha) Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti O'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi bo'lib ishladi.

Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan e'lon qilina boshlandi. 30-yillarda shoirning "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat"

nomli to'plamlari dunyo yuzini ko'radi. Ana shu to'plamlari bilan Shayxzoda o'zbek adabiyotida o'ziga xos shoir sifatida tanildi va tan olindi.

Shoirning ijodi 40-yillarda, Ikkinchi jahon urushi davrlarida, ayniqsa, avj pardalarga ko'tarildi (ayniqsa, rivojlandi ). Butun insoniyatga tahdid solayotgan fashizmni yo'q qilish, hayotni, tiriklikni, shon-u sharafni (tinchlikni) saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga da'vat etish shoirning o'sha yillari chop etilgan "Kurash nechun", "Jang va qo'shiq", "Kapitan Gastello", "Ko'ngil deydiki" kabi to'plamlarining bosh mavzusi bo'ldi. Shu yillarda Shayxzoda ijodining yana bir mumtoz namunasi **"Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasi** yaratildi.

Siz tariximiz to'g'risidagi hikoyalardan yaxshi bilasizki, o'lkamizni XIII asrlarda Chingizxon qo'shinlari bosib olmoqchi bo'lganida, xalqimizning mard o'g'lonlaridan Jaloliddin Manguberdi dushmanga qarshi qattiq kurash olib boradi. o'z vatani mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Mana shu tarixiy shaxs siymosi va shonli o'tmish sahifalarini badiiy haqqoniylik bilan tasvirlash "Jaloliddin Manguberdi" dramasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pyesa Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatrida (hozirgi o'zbek Milliy akademik drama teatri) sahnalashtiriladi. Botir lashkarboshi Jaloliddin siymosini sahnaga buyuk aktyor Shukur Burxonov olib chiqadi.

Shayxzoda urushdan keyingi yillar tinch hayot va yaratuvchilik zavqini tarannum (kuylagan she'rlardan) etgan she'rlardan iborat "O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", "Chorak asr devoni" kabi to'plamlarini nashr ettiradi. 1957-yili qadim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va nihoyatda ehtirosli tuyg'ularga boy "Toshkentnoma" dostonini yozadi.

Tarixiy mavzulardagi izlanishlarini davom ettirib 1960-yilda **"Mirzo Ulug'bek" tragediyasi**ni yaratadi. Bu asar o'zbek dramaturgiyasi rivojida juda katta o'rin tutadigan pyesadir. Asarda Buyuk bobokalonimiz, dunyo falakshunos olimlari ichida e'tirof topgan, ulug' Amir Temurdan so'ng temuriylar nasabini olamga tanitgan Mirzo Ulug'bek siymosi asarda muhabbat va ulug'vorlik bilan tasvir etiladi. Uning inson va shoh, shoh va olim, ota sifatidagi siymosi falsafiy (badiiy

teranlikda) teranlikda, badiiy baquvvat she'riy satrlarda ochib beriladi. Bu obrazni ham Shukur Burxonov katta mahorat bilan ijro etgan.

Mazkur asarlar yaratilishidan avvalroq, 50-yillarning boshlarida Maqsud Shayxzoda ham "qatag'on" siyosatining qurboni bo'lib, "xalq dushmani" degan tuhmatlar bilan qamaladi. 50-yillarning o'rtalarida qatag'onchilik qoralanib, ko'p halol insonlar qatori Shayxzoda ham ozod etilgach, u irodasini bukmay, qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'ldi. She'rlar, doston va dramatik asarlar bilan birga Shekspir, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat kabi jahon adabiyoti namoyandalari ijodidan tarjimalar qildi. Olim sifatida Alisher Navoiy she'riyati haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar yaratdi.

Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik "Asarlar"i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topib, 2001-yili "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

YAXSHILAR QADRI

*Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!*
*"Salom" degan so'zning salmog'in oqlang.*
*O'lganda yuz soat yig'lab turgandan, —*
*Uni tirigida bir soat yo'qlang!*

**Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi**

Jaloliddin Manguberdi – tarixiy shaxs. Xorazm shohi Muhammadning o'g'li. U umrining so'nggi yilida Xorazmshohlar davlati hukmdori esa-da, Chingiz boshliq mo'g'ul bosqinchilarining quvg'ini tufayli, hayotiningg bu davridagi asosiy qismini lashkarlari va saltanati bilan yurt sarhadlaridan olisda o'tkazishga majbur bo'lgan. Jaloliddin mo'g'ul qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar bergan, Vatan ozodligi uchun kurashlar olib borgan, lekin kuchlar teng bo'lmagani bois chekingan. 1231-yilda qaroqchi kurdlar qo'lida halok bo'lgan.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan mana shu jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalantirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo'lgan buyuk siymodir.

Vatanparvarlik hissiyoti jo'sh urib yozilgan Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi 1945-yilda Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatri tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgniga qaramay, ko'p o'tmay, sahnadan olib tashlandi. Muallifga esa o'tmishni, xonlarni, beklarni, feodalizmni oqlash va yoqlash tamg'asi yopishtirildi. Bu "aybnoma" nohaq qamalishiga ta'sir ko'rsatdi.

Dramaning ayrim parchalarigina yozilgan kezlari nashr etildi. Muallif hayotlik chog'ida, biror marta to'lig'icha chop etilgani yo'q. To'lig'icha ilk bor o'zbek tilida dramaturg vafotidan yigirma bir yil o'tgach, (1988) bosmadan chiqdi.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida ona-Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siymosi o'zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tasvirdagi qahramon tabiiyligini ta'minlovchi muhim hayotiy omillar bor, albatta. Xalqni, lashkarni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo'lidagi Jaloliddin ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin "Menga koshonadan chodir yaxshiroq" deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi. Amir Badriddin valiahdning bu mardona so'zlari ostidagi maqsad vatanparvarlik emas, taxtni egallash deb tushunib, shoh hayot bo'lishiga qaramay, "u taxtga ega bo'lmoqchi' deb ig'vo boshlaydi.

Jaloliddin – qahramon shaxs. U jasur sarkarda, elni, yurtni g'animga qarshi birlashtirayotgan, tashabbusi bilan lashkarni ulug' g'alabalarga ilhomlantirayotgan va bu yo'lda ibrat ko'rsatayotgan valiahd bo'lishiga qaramay, ayni vaqtda, oddiy inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Jaloliddin bilan singlisi Sultonbegim o'rtasidagi oddiy

insonlarga xos bo'lgan aka-singillik mehr-oqibatlari shu qadar samimiy va go'zal tasvirlanadiki, kishining havasi keladi.

Vatan va xalq taqdirining eng qaltis pallalarida ularni bosqinchilardan himoya qilish uchun otlangan Jaloliddinning bu yo'ldagi shijoatini, jur'atini, jasoratini ko'rsatar ekan, dramaturg o'z qahramonining valiahd va hukmdor sifatidagi xususiyatlaridan ko'ra oddiy inson sifatidagi iztiroblarini, har qanday insonga begona bo'lmagan ayrim mas'uliyatli holatlardagi ikkilanishlarni badiiy tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Bu esa qahramon xarakterining ishonarli, jonli va hayotiy chiqishini ta'minlaydi.

Dushman qo'liga tushib azoblangandan ko'ra, o'limni afzal bilib, hatto dunyodagi eng aziz zot – onasi va farzandlari daryoga cho'ktirilishini ma'qul ko'rgan Jaloliddin Manguberdi va mard Temur Malikning tarixiy haqiqat ruhi bilan yo'g'rilgan siymolari dramaturg Maqsud Shayxzoda qalami ostida ko'z o'ngimizda tirik insondek gavdalanadilar.

Dramaturg Chingizxon obrazini mahorat bilan yaratadi. Shunisi muhimki, u bu obrazni qora bo'yoqlarga chaplab tashlamaydi. Tarixiy haqiqatga rioya qilgan holda, bu shaxsning Jaloliddin va Temur Malik qahramonligi jasoratiga tan berganligini ifodalashni unutmagani holda, uning tabiatidagi bosqinchilik, yovuzlikni, pokiza insoniy tuyg'ularni oyoq osti qilish singari xususiyatlarni to'laqonli badiiy gavdalantiradi:

*Adolat yo insof? Nima degan u?*
*Tupurdim bularga, ming katta tfu!*

Chingizxonning bu fikri uning dunyoqarashini juda aniq ochib bera olganidek, mana bu mulohazalari uning ruhiy dunyosiga bir ochqich bo'la oladi:

*Muhabbat! Bu so'zni kimlar to'qigan?*
*Go'l shoir yozgan-u, tentak o'qigan.*

Yuqoridagi qahramonlar, asosan, tarixiy qahramonlardir. Asarda ular bilan yonma-yon dramada muallif badiiy taxayyulining mahsuli bo'lgan Elbors pahlavon, Yaroqbek, Navkar, No'yon, Tabib chol singari to'qima qahramonlar ham ishtirok

etadilar. Ko'rinib turibdiki, Jaloliddin Manguberdi dramasining asosini, mevalarini yetakchi qahramonlarini tarixiy shaxslar tashkil etadi. Lekin to'qima personajlarning zimmasidagi yuk ham oz emas. Elbors pahlavon va Chol qiyofalarida, asosan, xalq, xalq vakillari qiyofasi, kuchi mujassamdir. Elbors pahlavon, aslida cho'pon. U qaltis vaziyatlarda Jaloliddinning yonida bo'ladi. Unga ko'makka keladi. Sarkardani zaharlashga intilgan tabib og'usidan saqlab qoladi. Bosqinchilar bilan ayovsiz janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatadi.

Maqsud Shayxzoda bu obrazlarga muhim ma'no yuklar ekan, yurtimizdagi XIII asr tarixiy hodisalarini gavdalantirishdan tashqari, Vatan bosqinchilariga oyoqosti bo'lishida, xalq boshiga azob-uqubatlar yog'ilishida, mustaqillikning qo'ldan ketishida mana shunday xiyonatlarning o'rni oz emas, degan achchiq, lekin muhim degan ma'nolarga ham ishora qilmoqchi bo'ladi. Shunday ekan, ushbu drama Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari asosiy qahramonlari bilangina emas, Badriddin, Yaroqbek, Sulton Muhammad Alovuddin singari personajlari bilan ham bizni ogohlikka chaqiradi. Mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek e'zozlashga da'vat etadi, xalqni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasi badiiy jihatdan teran asardir. Asar monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylik yo'q, ular voqealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyligi va haqqoniyligidan kelib chiqadi.

Bu asarga qadar dramaturgiyamizda "Abulfayzxon" singari tragediyalar mavjud edi. Shunga qaramay, mazkur asar o'zining tug'ilishi va shakli jihatidan Sofokl davridagi qadimgi Yunon mumtoz tragediyalaridagi fazilatlarni o'zida namoyon etuvchi dastlabki o'zbek dramalaridan biridir, deyish mumkin. Birinchi pardadagi xos vazifasini ijro etuvchi umumiy yallalar, sipohlar yallasi, soqchilar qo'shig'i, sahnaga, shuningdek, alohida xushovoz personajlarining olib kirilishi, ikkinchi pardada jarchilar va masxarabozlardan foydalanish, xalq obrazini ifodalovchi personajga murojaat etilishi va boshqalar shunday deyishga asos beradi.

Qadimgi mumtoz yunon tragediyalaridagi bu xususiyatlar, mohiyat e'tibori bilan qaraganda, o'zbek dramaturgiyasida ilk bor qo'llanishidir.

Bunday xususiyatlar dramaturgiyamiz jahon dramaturgiyasidagi rang-barang, murakkab shakl va tuzilishlarni o'tgan asrning o'rtalaridayoq o'zlashtirish salohiyatiga ega bo'lgan san'atkorlarimiz bo'lganini ko'rsatadi. Dramatik asarni she'riy shaklda yozish muallifdan katta poetik mahoratni talab etadi. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" she'riy dramasi ana shunday katta san'atkorlik bilan yozilgan poetik asardir.

## Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi

Mirzo Ulug'bek – Amir Temurning suyukli nabirasi, ya'ni to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzoning farzandi, u bobosi Temurning barcha yurishlarida ishtirok etgan. Buyuk olim va hukmdor haqida tarixiy ma'lumotlar juda ko'p. Shulardan biri Alisher Navoiyning "Majolis un-nafoyis" asaridir. Shoir bu asarning yettinchi majlisini temuriy shohlar, sakkizinchi majlisini Husayn Boyqaroga bag'ishlaydi. Maqsud Shayxzoda mazkur asarni yaratishda jiddiy tayyorgarlik ko'rgani, dramani yozishda behisob ilmiy-tarixiy manbalarga murojaat qiladi.

Adib asarda Ulug'bek yashagan davrni, u hukmronlik qilgan siyosiy muhitini ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalantirgan. Mirzo Ulug'bek hayotida ko'p voqealar yuz bergan. U oliy hukmdor, buyuk olim sifatida ko'p narsalarni o'z boshidan kechirgan. M.Shayxzoda asarga asosan ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritishga jazm qilgan.

Asar bilan tanishganimizda bizda ikki xil tuyg'u paydo bo'ladi. Mirzo Ulug'bek bir tomondan qattiqqo'l, butun Xurosonni o'z qo'lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko'rishga tayyor hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko'radigan, biroq saroydagi fisq-u fasod, ig'vo ishlar oldida ojiz bir inson sifatida tasvirlanadi.

Dramada Ulug'bek qiyofasi uning ko'proq asardagi boshqa qahramonlar orqali ochiladi: masalan, Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat fidoyisi kabi xislatlari namoyon bo'lsa, Abdulatif Mirzo, uning mahrami Abbos, Qozi Miskin kabi saltanat dushmanlari, ig'volarga bo'lgan munosabatida mutaassiblikka qarshi kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochiladi.

Mirzo Ulug'bek hukmdor, katta saltanat egasi bo'lganiga qaramay, avvalo, insoniy fazilatlardan begona bo'lmagan, o'z farzandiga mehribon ota. Shu o'rinda marhum shoir Muhammad Yusufning Mirzo Ulug'bek xotirasiga bag'ishlab yozgan quyidagi misralari go'yo Ulug'bek tilidan aytilganini aytmasdan ilojimiz yo'q.

*Sezmay qoldim o'shanda chog'im*

*Yulduzlarda ekan nigohim*

*Bilmadim ne edi gunohim*

*Men dardimni kimga aytaman*

Maqsud Shayxzoda tarixiy dramatik asarlar ustasi. Ayniqsa, uning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi tarix va haqiqat bilan yaqindir.Unda Mirzo Ulug'bek buyuk va adolatli shoh, xalqparvar hukmdor, ilm ahli va ma'naviy meros g'amxo'ri, buyuk olim sifatida gavdalanadi. Mirzo Ulug'bek-Amir Temurning suyukli nevarasi. U buyuk Temur saltanatini saqlay olmaganidan afsuslanadi va Temur ruhidan madad so'raydi.

O'z taxtini Abdulatifga topshirayotgan dam u xalqqa, ilm ahliga adolat qilishni, buyuk merosga, ahli ayol nomusiga ziyon keltirmaslikni so'raydi. O'z o'g'illaridan mehr ko'rmagan Ulug'bek Ali Qushchini "farzandi arjumandim" deb ataydi.

*Madrasada va rasadga yetmagay zavol!*

*Kutubxonam, kitoblarim saqlansin omon!..*

Bugun Mirzo Ulug'bek qalblarda va tillarda mehr bilan tilga olinadi. Bugun ham "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali yulduzlar ilmi uchun muhim manba hisoblanadi.

Har tun yulduzlar nuri ila bu ulug' siymoni yod etamiz...

*Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim,*

*Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.*
*Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand,*
*Donishmandlar tepasida sulton sanaldim.*
*Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,*
*Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim.*

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Maqsud Shayxzoda qachon va qayerda tug'ildi?
2. Maqsud Shayxzodaning Toshkentga kelish qolish sababini tushuntiring.
3. M.Shayxzoda o'z ijodini necha yoshida boshlagan va uning dastlabki she'rlari qachon nashr etilgan?
4. Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub dramatik asarlarni sanab bering.
5. M.Shayxzodaning 1958-yilda yozilgan dostoni qanday nomlanadi?
6. M.Shayxzodaning tarixiy mavzudagi dramalarini sanab bering
7. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidagi Ulug'bek obrazi haqida gapiring.
8. "Jaloliddin Manguberdi" dramasida qaysi tarixiy davr aks ettirilgan?
9. Dramadagi qaysi qahramonlar tarixiy, qaysi qahramonlar badiiy to'qima ekanini bilasizmi?
10. Jaloliddinning qahramonligi va vatanparvarligi qaysi fazilatlarda ko'rinadi?

## 7-MAVZU: MIRTEMIR HAYOTI VA IJODI

( 1910-1978 )

**Reja:**

1. Mirtemirning hayot va ijod yo'li.
2. She'riy asarlari.
3. Shoir ijodida shaxsiy kechinmalar ifodasining lirik tasviri.

**Tayanch iboralar:**

O'zbek she'riyatining bobodehqoni, Mirtemir she'riyatidagi xalqchil ruh, "Surat" lirik qissasi – XX asr o'zbek dostonchiligining noyob namunasi.

Har bir shoir yoki yozuvchining o'z ovozi va uslubi bo'lganidek, asosiy mavzular doirasi ham bo'ladi. Mirtemir she'riyatining mavzular doirasi qanchalik keng bo'lganiga qaramay, unda oddiy xalq hayoti tasviri yetakchilik qiladi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Mirtemir, ayniqsa, hayotining so'nggi yillarida xalqqa xos iroda, sabr-bardosh, kenglik, mehr va muhabbat timsoli bo'lgan Patti, Norbuvi, Toshbu singari ajoyib ayollarga bag'ishlangan she'rlarini yaratdiki, bu asarlar o'zbek she'riyatining oltin xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Mirtemir bu va boshqa she'rlari bilan o'zbek she'riyatidagi realistik yo'nalishni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixidan milliy shoir sifatida mustahkam o'rin egalladi.

### Shoirning hayot va ijod yo'li

Mirtemir 1910-yili, Bug'doy o'rog'ida, Turkiston shahriga qarashli Iqon qishlog'ida dunyoga keldi. Otasi dehqon va chorvador, ona tomondan bobosi esa mulla va maktabdor edi. Mirtemir shu bobosining qo'lida xat-savod chiqardi. Keyin shu qishloqdagi Asfandiyor degan "No'g'oy domla"ning maktabida o'qidi. 11 yoshida Toshkentga kelib, Almaiy nomidagi ish maktabiga joylashdi. Oradan ikki yil o'tgach, Yangi shahardagi o'lka o'zbek bilim yurtiga o'qishga kirdi.

Mirtemir bilim yurtida o'qib yurgan kezlarida she'riyatga qiziqib, 1926-yilda yoshlar gazetasida "Tanburim tovushi" degan dastlabki she'rini e'lon qildi. 1928-yili esa uning nomini yoshlar orasida mashhur qilgan "Shu'lar qo'ynida" degan ilk she'rlar to'plami nashr etildi.

Mirtemir 1929-yili bilim yurtini bitirib, Samarqanddagi Pedagogika akademiyasiga o'qishga kiradi. Ayni paytda u O'zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyevga to'rtinchi kotib etib tayinlanadi. Yosh shoir Y.Oxunboboyev bilan turli safarlarda birga bo'lib, uning nutq matnlarini yozib berishda ishtirok etadi. Ammo "Zafar" (1929), "Qarashlar", "Kommuna", "Bong"(1932) singari to'plamlari ketma-ket nashr etilgan, she'riyat muxlislari o'rtasidagi shuhrati tobora ortib borayotgan Mirtemirni ko'ra olmagan ayrim shoir va tanqidchilar uning "feodal oila"da tug'ilgani, ocherklarida Cho'lpondan ko'chirmalar keltirgani va boshqalar haqida matbuotda "chirmanda chaladilar". Hasadchilarning yosh shoirga qarshi boshlagan xurujlari natijasiz qolmaydi. NKVD xodimlari 1932-yil 7-avgust kuni 22 yashar Mirtemirni Samarqandda qamoqqa oladilar. Shoirni Y.Oxunboboyevning shaxsiy kotibligi ham NKVD changalidan saqlab qololmaydi.

Samarqandda qamoqqa olingan Mirtemir etap bilan Toshkentga yuboriladi. U Qo'yliqdagi mehnat-tuzatuv lagerida ekanligida jajji qizi ham, onasi ham vafot etadi. (Mushtipar onayizorning so'nggi kunlarini ko'rmagan, uning oldidagi farzandlik burchini o'tay olmagan shoir shu mudhish voqea ta'sirida bizni hamon larzaga soluvchi "Onaginam" degan mashhur she'rini yozgan.) Mahbus 1934-yilning o'rtalarida Moskvadagi Dmitrov lageriga etap bilan yuboriladi va Moskva-Volga kanali qurilishida ishlaydi. Yosh shoirning Sovet davlati oldida birorta ham aybi yo'q edi. Shuning uchun u 1935- yilning boshlarida afv etilib, ona yurtiga sog'-omon qaytadi. Lekin Mirtemir qalbiga yoshlik yillarida kelib sanchilgan tig' shoirning butun hayotiga chuqur iz qoldirib ketadi.

Mirtemir 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sharoit taqozosi bilan ko'proq tarjima bilan shug'ullanadi hamda A.S.Pushkin va T.G.Shevchenko she'rlarini, Sh.Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni (A.Umariy bilan

hamkorlikda) va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Ayni paytda “Ajdar” (1935), “Dilkusho”, “Suv qizi” (1937), “Oysanamning to‘yida” (1938), “Qorqiz” (1939) kabi dostonlarini yozadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Mirtemir O‘zbekiston radio qo‘mitasi (1941) va O‘zbekiston Davlat nashriyotida (1942) muharrir, Opera va balet teatrida adabiy emakdosh (1943-44), 50-60- yillarda esa O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, Badiiy adabiyot nashriyotida muharrir vazifalarida xizmat qiladi.

Mirtemirning adabiy merosi she’riyat, dramaturgiya (“Birinchi prezident” pyesasi), publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar hamda tarjima asarlarini o‘z ichiga oladi.

Mirtemir o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga, birinchi navbatda, shoir sifatida katta hissa qo‘shgan. Uning she’riy ijodi esa she’rlar, qo‘shiqlar va dostonlardan iborat. Shu bilan birga, Mirtemir yuqorida tilga olingan tarjimalaridan tashqari, A.S.Pushkinning. “Ruslan va Lyudmila”, M.Y.Lermontovning “Ismoilbek”, “Savdogar Kalashnikov haqida qissa”, N.A Nekrasovning “Rusiyada kim yaxshi yashaydi?" dostonlari, H.Hayne, M.Gorkiy, Pablo Neruda, Nozim Hikmat, Abay, Mahtumquli, Berdaq, Samad Vurg‘un asarlari va “Manas” qirg‘iz eposi, kitobini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girib, adabiyotimiz xazinasini tarjima asarlar bilan boyitgan.

O‘zbek iston xalq shoiri Mirtemirga vafotidan keyin 2002-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berilgan. Mirtemirning she’riy asarlari Lirik she’riyat shoir qalbining kundaligidir. To‘g‘ri, lirik she’riyatning bu qoidasiga hamma shoirlar ham rioya qilavermaydilar. Lirik she’riyat shoir qalbining kundaligi bo‘lishi uchun shoirda lirik iste’doddan tashqari, samimiylik, o‘z ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlarni, ruhiy hayotining to‘lqinli holatlarini haqqoniy aks ettirish, tabiat va jamiyatda ro‘y berayotgan voqealarni o‘z yuragidan o‘tkazish madaniyati bo‘lishi darkor.

Mirtemir, ayniqsa, urushdan keyingi davrlarda lirik kechinma tasviriga katta e’tibor berib, ajoyib lirik durdonalar yaratdi.

**Lirik she'rlar.** Mirtemirning 70-yillarda yozgan she'rlaridan biri "O'zim bilaman..." deb nomlanadi. Shoir bu she'rda ifodalangan mazmunni pardalash maqsadida, sarlavhadan keyin "Tagorga ergashib...", deya she'rga izoh bergan. Bu she'r 1974-yilda yozilgan va Mirtemirning Moskvadagi mehnat-tuzatuv lageriga etap qilib yuborilgani va Sovet davlati qatag'on siyosatining dahshatli manzaralariga guvoh bo'lganiga shu yili qirq yil to'lgan edi.

Shuni aytish kerakki, jahon adabiyotida ham, o'zbek she'riyatida ham shunday asarlar borki, mualliflar bu asarlarda o'z hayotlari bilan yoki o'zlari ishtirokchisi bo'lgan muhim voqealar bilan bog'liq sirlarni qandaydir "shifrlangan" obrazlar va so'zlar yordamida ifodalaganlar. Cho'lponning "Kleopatra" mansurasi yoki "Raqamlik sevgi" she'ri shunday asarlar jumlasiga kiradi. Mirtemir ham ushbu she'rda ana shunday usuldan foydalangan:

*Qulog'imda yangrar doim bir nido,*
*Xo'rsinaman, ko'z yoshimni silaman.*
*Shu nidoga ne sababdan jon fido —*
*Bitta o'zim bilaman.*

She'r shunday satrlar bilan boshlanadi. Bu satrlarda shoir nimani, kimni, qanday nidoni nazarda tutmoqda? Nega qulog'ida yangrayotgan bu nidodan xo'rsinib, ko'z yoshlari silib oqmoqda?

Va nega u, mayli, shoirmi yo uning lirik qahramonimi, bu nidoga jonini fido qilmoqda? Bu savolga aniq javob berish oson emas. Bu satrlarda shoir hayotining siri yashirinib olgan.

Lekin bizga shu narsa ma'lumki, shoir Toshkentdagi mehnat-tuzatuv lagerida bo'lganida onasi og'ir kasallikka chalinib, vafot etgan. U chalingan kasallik yuqumli bo'lgani uchun doktorlar ona jasadini maxsus qabristonda yashirin ravishda dafn etganlar. Mahbuslikda yashayotgan, onasining dafn marosimida ishtirok eta olmagan va hatto uning qabri qayerdaligini bilolmay qolgan shoir butun umr bo'yi armonning zaharli suvini ichib yashagan. Ehtimol, shoirning qulog'i oldida farzandini ko'ra olmay, hayotdan "dod" deb ketgan ana shu onaning nidolari yangrab turgandir. Butun

umri davomida "onaginam", deb faryod chekib o'tgan shoirning boshqa har qanday nidoga jonini fido qilishi mumkin emas.

She'rning ikkinchi bandida ifodalangan fikr-tuyg'ular ham bizning ana shu taxminimizning to'g'riligini tasdiqlagandek bo'ladi.

She'rning uchinchi bandiga kelib, mavzu an'anaviylashadi, she'rga shoirning orzu-umidini o'zida mujassamlantirgan mavhum bir obraz kirib keladi. Shoir yozadi:

*Oylar o'tar, tonglar o'tar, umr o'tar,*

*Olislarni ko'zlab-ko'zlab jilaman.*

*Mening qalbim kimni kutar, qon yutar*

*Bitta o'zim bilaman.*

Shoir bu siymoni ko'klam kabi kutishini, uning kelishiga umidvor ekanini aytadi, hatto "Umidvorman, ishonmay ne qilaman?" deydi u, xo'sh, bu satrlarda ifodalangan kimsa kim bo'ldi? Onammi? Uning tirilib kelishimi? (Eslang: dunyoga qaytib kelishimga ko'zim yetsaydi... Jon bergan onamni ko'rishimga ko'zim yetsaydi...")

Yo'q, onaning tirilib kelishini kutish oqillik belgisi emas.

Unday bo'lsa , kim? Sohibjamol yormi?

Yo'q. Yoshligimmi? Ehtimol...

She'rni o'qir ekansiz, ana shu tarzda o'zingizga o'zingiz savol berasiz-u, javob berishda o'y lanib qolasiz. Umuman, yuksak she'riyatning vazifasi sizga ikki karra ikkining to'rt bo'lishini aytish emas.

She'r sizning fikr va tuyg'ularingizga g'ulg'ula solishi, o'ylatishi, hayratlantirishi lozim.

Mirtemirning lirik she'rlari orasida muhabbat mavzusiga bag'ishlanganlari oz emas. Ammo bu she'rlarning aksarida, xuddi mumtoz she'riyatdagi kabi, umumlashgan, muayyan qirralardan xoli bo'lgan an'anaviy, yana aniqroq aytsak, kitobiy yor obrazi tasvirlanadi. Shu kabi she'rlar orasida yor obrazi ozgina bo'lsa-da, aniq va tayin sifatlar kasb etgan "Men seni..." singari she'rlar ham bor.

Men seni ranjitmayman, va lekin tinchitmayman..." satrlari bilan boshlanuvchi bu she'r 1960-yili Qirg'izistonda yozilgan. Bu she'rning badiiy jihatlariga nazar tashlashdan avval uning ijodiy tarixiga to'xtab o'tish joiz.

1960-yilda qardosh yozuvchilar o'rtasida adabiy aloqalarning yaxshi yo'lga qo'y ilgani bois Mirtemir qirg'iz yurtiga borib. qardosh yozuvchilarning mehmoni bo'lgan va shu yerda o'zining "Qirg'iz she'rlari" turkumini yoza boshlagan. O'zbekona tanti tabiatli shoir biror joyga garchand mehmon bo'lib borgan bo'lsa -da, ko'proq mehmonlarga dasturxon yozish va ular ko'nglini olishni sevgan. Bunday paytlarda shoirning sayohatga birga borgan xotiniga aslo tinim bo'lmagan... men seni ranitmayman Va lekin tinchitmayman..." Bu so'zlar bilan boshlangan she'r shoirning xotini Yorqinoyga, Turkistonliklar tili bilan aytganda, To'rash kelin oyiga bag'ishlangan.

Hozirgina ko'rganimizdek, she'rning asosiy qismi yetti hijoli satrlardan tashkil topgan. Ammo o'qtin-o'qtin she'riy oqimga o'n to'rt hijoli satrlar ham kirib keladi. Garchand bu satrlar ham yetti hijoli turoqlardan tashkil topgan bo'lsa-da, fikr va tuyg'uning tugal holga kelishi va qofiyalanish tartibiga ko'ra, yetti hijoli she'riy nutqning davomi bo'la olmaydi. Bu o'n to'rt hijoli satrlar shoir tuyg'ularining favorasi o'laroq otilib chiqadi va o'ziga xos lirik kechinma vazifasini o'taydi.Yuqorida keltirilgan satrlardan keyin fikr va tuyg'u to'lqini unday mavjlanib ketadi:

Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda,
Ey, sochlari to'lqini tun singari sim-siyoh.
Xol kabi paydo bo'lgum yonog'ing yo qoshingda,
Ey, izlari g'ubori ko'zlarimga to'tiyo...

Yorni ulug'lovchi yetti hijoli yengil va jo'shqin satrlardan keyin muhabbat tuyg'ularining bunday po'rtanasi she'riy oqimni to'lqinlantirib yuboradi, Bu hol shoir yoki lirik qahramon qalbidagi tuyg'ularni yanada baland pardada ifodalash imkonini beradi. "Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda" satridagi alliteratsiyasi xuddi lirik qahramonning bo'zlayotgan holatiga jo'rlik qilayotgandek

tuyuladi. Keyingi: ***"Ey sochlari to'lqini tun singari sim-siyoh"*** satridagi s tovushi bo'z so'zidagi **z** tovushining so'nib borayotganini anglatsa, tovushining, yot kishilar nazaridek, oraga suqilib kirishi bilan lirik qahramon bo'zlashdan to'xtaydi. Endi bu banddagi so'nggi satrga e'tibor bering: ***itlari be'etibori ko'zlarimga to'ti'yo..."*** Bu satrda shoir yorni baland pardada ulug'labgina qolmay, o'zini yoki lirik qahramonni ham yor qadriga yetuvchi, uni ilohiylashtira biluvchi inson, yuksak ma'naviy olam sohibi sifatida namoyish etadi.

She'rni o'qir ekanmiz, yor va lirik qahramon obrazlari yonma-yon gavdalanishda davom etadi. Agar yor lirik qahramon yoki shoirning unga bo'lgan munosabati orqali o'zining munavvar qirralarini namoyish etsa va tobora yuksalib borsa, lirik qahramon yorga bo'lgan o'ta madaniy munosabati bilan bizda hurmat tuyg'ularini uyg'otadi.

O'tgan asrning o'rtalarida o'zbek shoirlari xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rniga, surat va siyratlariga e'tibor qarata boshladilar. Zulfiyaning "Paranjili ayol bilan uchrashuv" maqolasidan keyin xotin-qizlarning ildamlab ketayotgan davrdan orqada qolayotganlari, ijtimoiy hayotdan uzilganlari ma'lum bo'ldi.

"Xotin-qizlar masalasi" jamiyatning og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib turgan vaqtda Mirtemir respublika bo'ylab qilgan ijodiy safarlarining birida parda yopinib yurgan ayoilarni ko'rib, o'zining **"Pardalik" (1962)** degan she'rini yaratdi.

Shoir shu ayolga bag'ishlangan she'rini gina-qudrat bilan, zamonning ilg'orlab ketgani haqidagi safsataga yaqin gaplar bilan emas, balki samimiy so'zlar va samimiy tuyg'ular bayoni bilan boshlaydi:

*Seni izlab keldim...*

*Sog'inganman-da.*

*Esingdami bahor, beg'ubor kunduz,*

*O'ylamagan joyda bo'ldik yuzma-yuz...*

Bu satrlarni o'qir ekansiz, shoirni she'rda tasvirlangan ayol bilan ilgaridan tanish bo'lgan, deb o'ylaysiz. Yo'q, shoir (she'rning lirik qahramoni) yurtimiz shaharlarining birida ketayotib, uni ilk marotaba ko'rib qoladi. Ayol yuziga parda

tutgan holda beparvo borardi. Ammo shu payt "qadimdan tegajoq, shaydoyi shamol" daf'atan esib, ayolning yuzidagi pardani ko'tarib yuboradi. Lirik qahramonning ko'zlari esa bu nodir go'zallikni ko'rib qamashadi:

*Bir nafas ko'zingga tushdi ko'zginam,*

*Hayhot, u ko'zlarda hayrat, qora cho'g' ko'zlar cho'g'i nogahoniy o'q...*

*Bir o'zim turib qoldim behushday men ham.*

*Sendaqasin sira ko'rmagan edim na qadim Samarqand, na Turkistonda,*

*Na bedor o'qigan yuzlab dostonda...*

Shoir bu parda tutgan sohibjamol ayolga ta'na toshlarini otmaydi, balki uning go'zalligidan olgan taassurotini uning ustidagi kiyimlar-u zebi zargaronlarning yarashganligini tasvirlashda, ya'ni sharaflashda davom etadi. Kutilmaganda, ustiga o'sha kezlarda jamiyatning malomat toshlari yog'ilayotgan ayol Mirtemir she'rida, xuddi Petrarka yoki Shekspir sonetlarida kuylangan ayol singari, viqor to'la qiyofasi bilan gavdalanib, biz kitobxonlarni ham maftun eta boshlaydi:

*Yo'q, bu bezaksiz ham tengsizsan, tengsiz.*

*Ha, sen bezaksiz ham shundoq suluvsan,*

*Sen bahorgi tushsan, buloq suvisan.*

*Bundaqa chiroyga arzir cho'ksang tiz...*

Cho'lpon 1919-yilda, xuddi Mirtemir singari, sohibjamol bir qizni tasodifan ko'rib qolib, o'zining eng latif she'rlaridan biri – "Go'zal" she'rini yozgan edi. Mirtemirning bu she'ri ham ana shunday oniy uchrashuvning abadiy yashaydigan she'riy suratidir,

She'rning lirik qahramoni "asov jayronday" bir zumda g'oyib bo'lgan go'zallikni yana ko'rishni istab, "Qaydasan, suluv?" deb so'roqlaydi. Ammo shu lahzaning o'zida o'zbekona madaniyati tutib, unga bunday so'zlarni yo'llaydi:

*...Yo'q, hayotdan haqing ol, demoqchiydim.*

*Yorqin shu yillarning so'lim bog'ida,*

*Yorqin erta kunning tongi chog'ida*

*Sen ham erka bir soz chal, demoqchiydim...*

Mirtemirning bu she'ri garchand tirik go'zallik bilan tasodifiy uchrashuv natijasida, hali taassurot olovi sovimagan bir paytda yozilgan bo'lsa-da, har bir so'z va har bir poetik obraz o'zining ohori to'kilmagan ranglari bilan tovlanib turadi. Shoir **a-b-b-a** tarzida qofiyalangan band tizimiga butun she'r davomida rioya qilib, faqat his-hayajonda sodir bo'lgan o'zgarishni ko'rsatish niyatida ikki o'rinda vaznni "kesib" tashlaydiki, bu shoirning sevimli badiiy usullaridan biridir.

Boshqa shoirlar singari Mirtemirning she'rlari ham turli omillar ta'sirida tug'ilgan. Ba'zan shunday bo'ladiki, biror kishining yo joyning nomi shoirga bir olam ilhom bag'ishlab, uni she'r yozishga undaydi.

Mirtemirning "Pardalik" she'ri bilan birgalikda yozilgan **"Qarqaralik" she'ri** buning yorqin misolidir.

Qarqara Qozog'istonning Qarag'anda viloyatida joylashgan shahardir. Shoir Qozog'istonda o'zbek adabiyoti haftaligi o'tgan 1962-yilning may oyida shu antiqa ismli manzilda ham bo'lgan.

Shu joyning g'aroyib va turli qofiyalarga esh nomi shoirga, ayniqsa, manzur bo'lgani sababli u qarqaralik qizga bag'ishlab she'r yozgan va bu she'rda "qarqara" so'ziga ohangdosh turli-tuman so'zlarni qofiya sifatida keltirib, o'zini qofiya ustasi sifatida namoyish etgan.

To'g'ri , shoirning maqsadi o'zining qofiya topish borasidagi iste'dodini ko'z-ko'z qilish emas. Ammo: "She'rda biror so'zni o'ynata olmagan shoir shoir emas", degan so'zlarni tez-tez takrorlovchi Mirtemir bu she'rda "qarqara" so'zini, xuddi sirk artisti singari, "o'ynatib yuborgan".

*Qarqaralik, qaydin kelding qoshimga,*
*Qaydagi savdoni solding boshimga.*
*Qaydagi savdoni solsang boshimga,*
*Qota ko'rma qatron mening oshimga!*
*Qosh ustiga qo'ndiribsan qarqara,*
*Qora soching qora tunda sharshara,*
*To'lqinida koshki o'zim cho'milsam...*

*Shaydoyingman gar qarama, qarqara.*

Bu va keyingi satrlar garchand qarqaralik qizga shaydolik hislari bilan to'yingandek tuyulsa-da, aslida ushbu she'r uchun bu hislar emas, balki "qarqara" bilan bog'liq so'z o'yinlarining, bayram kechasidagi mushaklar singari, porlab va tovlanib turishi muhimdir. Lirik qahramonning qarqaralik qizga shaydoligi ham shu o'yinning bir qismini tashkil etadi.

***G'afur G'ulom qalamkash birodarlari to'g'risida yozgan maqolasida Mirtemirning erkalanib she'r yozishini yoqtirganini aytgan edi.*** Bu she'rda Mirtemir she'rlariga xos bo'lgan ana shu g'aroyib fazilat – shoirning erkalanib yozishi, lirik qahramonning erkalangan bir holda gavdalanishi yorqin ko'rinadi. Quyidagi satrlarda bu hol yanada yaqqol ko'rinadi:

*Qarqaraning o'rdagi-yey, g'ozi-yey,*

*Yozlari-yu kuzlarining sozi-yey.*

*Yo "ha"si bor, yo "yo'g'i" bor, ne bilay,*

*O'rtavordi qarqaralik nozi-yey.*

Sovet davrida yashagan shoirlar ijodida bunday lirik zam-zamalarni ko'p, deb bo'lmaydi. Davr va shu davrning tanqidchiligi dam-badam shoirlardan "grajdanlik she'riyati" namunalarini yaratishni talab etib turdi, "sof lirika" namunalari burjua lirikasi sifatida qoralandi. Shuning natijasida sovet davrida yaratilgan qanchadan-qancha she'r va dostonlar adabiyotimiz g'alviridan tushib qoldi. Boshqa shoirlarda bo'lganidek, Mirtemir ijodida ham bunday she'rlarni yo'q, deb bo'lmaydi. Ammo Mirtemir "grajdanlik g'oyalari" bilan yo'g'rilgan she'rlarida ona-vatani, yoshlik kezlari o'tgan qishloqlar va vatandoshlari obrazini yaratishga ko'proq intildi,

Shoirning ana shu yo'nalishdagi she'rlaridan biri **"Ona tilim" (1974)** deb ataladi.

Bu she'r o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishidan 15 yil avval yozilgan. Binobarin, aytish mumkinki, Mirtemir o'zbek tiliga umumxalq va umumdavlat miqyosida katta e'tibor berish, uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozimligini o'sha vaqtdayoq yurakdan his etgan. She'rning har bir satrida

shoirning ona tiliga bo'lgan shunchaki muhabbati emas, balki ona tilining qadriga yeta olmayotgan kimsalarga, hatto zamonga bu tilning tarixan qadimiyligini, boyligini, xalqning tarixi va taqdiri bilan chambarchas bog'liqligini tushuntirish istagi sezilib turadi.

***Ona tilim—onajonim tili bu,***
***Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.***
***El-u yurtim, xonumonim tili bu,***
***Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa...***

She'r ona tilini tavsiflovchi shunday umumiy so'zlar bilan boshlanadi. Ammo debochadan keyin she'rning vazni, ohangi, qofiyalash tamoyili ham o'zgaradi va shoir yuqorida bayon qilingan haqiqatni tarix qatlamlaridan olingan misollar bilan isbotlashga kirishadi:

Yobonlarning cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri
Onajonlar allasidan, Ko'z yoshidan, oq sutidan;
Jilg'alarning sho'x g'ovuri
Yigitlarning yallasidan, Suluvlarning sukutidan
— Yo'g'rilgan til — Ona tilim...

Mirtemir ona tilining paydo bo'lish va shakllanish tarixini ana shunday kuzatishda davom etadi va o'zbek tilining hozirga qadar bosib o'tgan tarixiy yo'lining o'ziga xos poetik manzaralarini gavdalantirib beradi.

Chamasi, shoir ona tili bilan bog'liq barcha dard-u armoni, g'urur va sururini bayon etishga, ifodalab qolishiga uringan. Shuning natijasida u o'zbek she'riyatida nisbatan kam uchraydigan sakkiz hijolik barmoqdan tashkil topgan she'rning bu birinchi qismidan keyin o'n to'rt hijolik barmoq vazniga ko'chgan. Ammo shoir shu vazn doirasida ham his-tuyglu va fikr to'lqinlarining taqozosi bilan she'r shakliga erkin munosabatda bo'ladi.

Umuman, Mirtemir hali o'zbek jamiyatida o'zbek tili bilan faxrlanish tuyg'usi uyg'onmagan bir paytda Navoiy va Boburlar tiliga mehr va hurmat tuyg'ularini

tarbiyalashga intilganki, ushbu she'rning ahamiyati, birinchi navbatda, shu narsa bilan belgilanadi.

Mirtemir uchun ona, vatan, xalq — mavhum tushunchalar emas. Uning uchun har bir vatandoshi, har bir qardoshi — aziz kishilar. Mirtemir ijodida xalqlar o'rtasidagi do'stlik g'oyalarining tarannum etilishi sovet davrining talabi bilangina ro'y bermagan. Uning "Qoraqalpoq daftari", "Qirg'iz she'rlari" singari turkumlariga kirgan she'rlar bilan tanishish bu fikrning odilligini tasdiqlaydi.

Mirtemir tabiatan bag'rikeng, saxiy, tanti inson sifatida doim atrofidagi yosh shoirlarga maslahat berib, mehr-muruvvat ko'rsatib keldi. U, ayniqsa, Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lgan yillarida o'z atrofiga talaygina yosh shoirlarni to'plab, ularning ijodiy ulg'ayishiga o'z hissasini qo'shdi. Shoir bu yosh qalamkash do'stlariga bag'ishlangan "Kipriklarim" she'rida (1960) ularni, adabiyotimiz baxtiga, ko'z qorachig'idek asrash g'oyasini ilgari surdi.

Mumtoz o'zbek she'riyatida kiprik, odatda, ayol go'zalligini tasvirlashda poetik obraz sifatida qo'llanib kelgan. Mirtemir Sharq mumtoz adabiyotining bu doimiy poetik obrazlaridan biriga mutlaqo o'zgacha g'oyaviy yuk bag'ishladi. U o'zi parvarishlab o'stirayotgan ijodkor yoshlarni kipriklarim deb atadiki, natijada kiprik poetik obrazi an'anaviy obraz darajasidan ko'tarilib, yangi zamonaviy mazmun bilan sug'orildi.

Modomiki, shoirning **"Kipriklarim"** she'rida kiprik obrazi bor ekan, demak, mantiqqa ko'ra, ko'z obrazi ham tasvir etilishi lozim.

Shoir yozadi:

*Quyunlarda qolganimda, changga o'ralganimda,*
*Ohangaron to'zonidan zanji qoralganimda,*
*Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,*
*O'zbekiston tonglarini bedor kutgan ko'zlarim,*
*Tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan ko'zlarim...*

Bu – oddiy ko'zlar emas, balki shoirning ko'zlari, "tonglar falsafasini yutuvchi ko'zlar"dir.

Mirtemir she'rda ana shu shoirona ko'zlar tasvirini davom ettirib, bunday mantiqiy xulosaga keladi:

*Ko'zlarimga chegarada shay askarday qo'riqchi,*

*Ko'zlarimga olis Bobur g'ussasiday yo'riqchi,*

*Ey, aziz kipriklarim.*

*Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari...*

*Kiprigimday azizlarim, nechog'lik ham suyuksiz.*

*Armonimday buyuksiz!*

Ota yoki ona o'z farzandini kiprikka muqoyasa qilishi mumkin. Mirtemir ham bir guruh yosh shoirlar avlodiga tom ma'noda ustozlik qilgani uchun ularni "kipriklarim" deb atagan. Bu obraz zamirida shoirning "kipriklar"siz ko'zlarim uzoq-yaqinni yaxshi ko'ra olmasligi mumkin, degan ajoyib bir fikri, izhori dili yotadi.

Mirtemir, yuqorida ko'rganimizdek, mashaqqatli davrda yashab, shu davrning achchiq tuzidan bebahra qolmadi, U butun umri davomida mustabid tuzumning tazyiqini ko'rib va sezib yashadi. Shuning uchun ham shoir xastalik kezlarida yozgan so'nggi she'rlarining birida:

*Majnuntol tagiga o'tqazing meni,*

*Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.*

*Majnuntol tagiga o'tqazing meni,*

*Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim*

deb nola chekkan. Agar **"Betoblikda"** deb nomlangan bu she'rdagi: "Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim" satriga e'tibor qaratsak, shoirning o'z dilidagi dard-u armonlari, orzu va havaslarini to'la bayon eta olmagani kundek ravshan bo'ladi. Mirtemirning uzoq yillar mobaynida "grajdanlik lirikasi" namunalarini yaratish bilan mashg'ul bo'lganining sababi ham xuddi shundadir.

Mirtemir doston janrida ham samarali ijod ("Surat" lirik qissasi) qildi. Bu dostonlar orasida xalq ertaklari motivlari asosida yozilganlari ham, zamonaviy mavzudagilari ham, shuningdek, "Farg'ona" singari lirik dostonlar ham bor.

Mirtemir ijodidan namunalar:

**SEN ONA...**

Alisherga alla aytib uxlatgan
Sen — ona.
Og'ushida Bobur kamolga yetgan
Sen — ona.
Torobiyni og'ir jangga jo'natgan
Sen — ona.
Olamni nurida munavvar etgan
Sen — ona.
Yig'lasa, dunyoni raso titratgan
Sen — ona.
Kulgisi saodat parvarish etgan
Sen — ona.
Dohiylar beshigin bedor tebratgan
Sen — ona.
Mehri bahorida elni yashnatgan
Sen — ona.
Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!
Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

# 8-MAVZU: ZULFIYA HAYOTI VA IJODI

(1915–1996)

**Reja:**

1. Zulfiya hayoti va ijodi
2. Zulfiya she'riyati
3. Zulfiya ijodida hijron motivlari

XX asr o'zbek she'riyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan dastlabki shoirlardan biri Zulfiyadir.

O'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentning O'qchi mahallasida degrez oilasida tug'ilgan. U xotin-qizlar bilim yurtida o'qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to'garaklarga qatnashib, she'rlar mashq qiladi.

Zulfiyaning "Men ish qizi" nomli birinchi she'ri 1931-yil 17-iyulda "Ishchi" gazetasida bosilib chiqdi. "Hayot varaqlari" nomli ilk to'plami o'n yetti yoshida nashr etildi (1932). 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi.

1938-1948-yillarda nashriyotlarda muharrir, bo'lim boshlig'i, 1950-1953-yillarda esa "O'zbekiston xotin-qizlari" (hozirgi "Saodat") jurnalida bo'lim boshlig'i, 1953–1985-yillarda esa bosh muharrir bo'lib ishladi. Zulfiya badiiy-estetik puxta she'r-dostonlari bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida o'zbek va rus klassiklari, xalq og'zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an'analarining roli beqiyos bo'ldi.

Shoira ijodi 30-yillardan boshlandi. Zulfiyaning bu davrda yaratgan she'rlarining asosiy mavzusi an'anaviy xarakterga ega bo'lib, yoshlikka xos jo'shqinlik, sevgi-muhabbat, vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Shoiraning bu davr ijodi izlanishlar mahsuli sifatida xarakterlidir.

Shoira "Temiroy" (1934), "She'rlar" (1939), "Qizlar qo'shig'i" (1939) kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, cho'llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag'ishlaydi. Ayni chog'da, mazkur to'plamlardagi she'rlari shoiraning mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Fashizm qarshi urush davri barcha ijodkorlar kabi Zulfiya qalamini ham o`ziga xos tarzda charxladi.

Bu davrda shoira ijodi romantik tuyg'ulardan qutila bordi va lirik "men" ruhiyatini realistik tarzda aks ettira boshladi. Urush davrida shoira she'riyatiga yangi nafas - hijron kirib keldi. Bu bevosita real voqelik bilan borliq motiv bo`lib, hijron keyinchalik Zulfiyaning shaxsiy hayotiga ham daxldor poetik obrazga aylandi.

Urush davrida yaratgan "Uni Farhod der edilar", "Hijron" kabi she'rlarida hijron motivishshg dastlabki qirralari namoyon bo`ladi. Bunda shoir urush fojealarini qalamga oladi.

1944-yil shoir hayotida fojeali iz qoldirdi.Uning sevimli turmush o'rtori va ustozi H.Olimjon baxtsiz hodisa tufayli halok bo`ldi.

Bu yo'qotish Zulfiya hayotida nechorlik iz qoldirgan bo`lsa, uning ijodida ham o`ziga xos tarzda o`z ifodasini topdi. Shoiraning bu davrda yaratgan "Bahor keldi seni so'roqlab", "Kechir, qoldim g'aflatda", "Ko'rganmiding ko`zlarimda yosh", "Sevgi", "Xayollar", "O'rik gullaganda", "Sog'inganda", "Tingla, bulbul" kabi turkum she'rlarida hijron va sog'inch asosiy poetik obraz darajasiga ko'tarildi. Bu she'rlarda hijron obrazining turli qirralari – fojeaviy nuqtalarining o'ziga xos suvrati chiziladi. Ta'kidlash joizki, mazkur she'rlar nafaqat Zulfiya ijodida, balki o'zbek she'riyatida hijron motivida bitilgan alohida sahifani tashkil etadi.

Urushdan keyingi yillarda shoira ijodida mavzu ko'lami kengaydi. Bu hol, eng avvalo, urush va tinchlik muammosini aks ettiruvchi asarlariga xosdir.

Shoira ijodida hijron motivi kabi muqim o'rin egallagan mavzulardan biri tinchlik uchun kurash mavzusidir. Zero, shoira urush davrida xalqimiz boshiga tushgan kulfatlarni ham, urushdan keyingi Xirosima va Nagasaki shaharlarida atom

bombasi qoldirgan asoratlarni ham o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning dahshatini qalb bilan his qiladi. Shu bois bu mavzu shoira ijodida yetakchi mavzuga aylanadi. Shoiraning “G‘oliblar aytganda”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Yuragimga yaqin kishilar”, “Mushoira” turkumiga kiruvchi she’rlari shu jihatlari bilan xarakterlidir.

Urush vaqtida “Uni Farhod derdilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944) kabi to‘plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan dalolat berdi. Bu to‘plamdagi she’rlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch, yorga sadoqat ruhida yaratilgani bilan xarakterlidir.

"Uni Farhod der edilar" dostonining asosiy pafosi ham tinchlikni ulurlash ruhini ifodalaydi.

Zulfiyaning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurol-u ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she’rlari urush davri o‘zbek she’riyatining jangovor ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

Shoiraning urushdan keyingi yillarda yaratilgan “Dalada bir kun” (1948), “Tong qo‘shig‘i” (1953) kabi she’rlar turkumi, shuningdek, “Hulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Dugonalar bilan suhbat” (1953), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Gullarim” (1959), “Tanlangan asarlar” (1959), “Hayot jilosi” (1961), “Kuylarim sizga” (1963), “She’rlar” (1963), “Kuylarim sizga” (to‘ldirilgan 2-nashri, 1965), “O‘ylar” (lirika, 2-nashri, 1969), “Lolaqizg‘aldoq” (1970), “Quyoshli qalam” (1971), “Visol” (1972), “Asarlar” (2 tomlik, 1-jild, 1974, 2-jild, 1975), “Yillar, yo‘llar...” (1975) kabi to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘shib kuylanadi.

Uning “So‘roqlaydi shoirni she’rim” (1960), “Oydin” (1953), “Quyoshli qalam” (1967) kabi ocherk va dostonlari Hamza, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralariga bag‘ishlangan.

Zulfiya Hamid Olimjonning “Semurg‘”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera liberettosini ham yaratgan.

Zulfiya "O'ylar", "Shalola" kabi she'riy to'plamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1970).

U o'ttizdan ziyod she'riy va nasriy kitoblar muallifi. Badiiy ijod sohasidagi xizmatlari uchun Davlat mukofoti, 1968-yil Javoharla'l Neru nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa xalqaro "Nilufar" mukofotiga sazovor bo'ldi (1970).

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo'ldi. U 1956-yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o'tkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur "Mushoira" (1958) asarini yaratdi.

Zulfiyaning o'n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg'iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira N.Nekrasov, M.Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira Zulfiya betakror iste'dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'ldi. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib 1999-yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

Ardoqli shoira tavalludining 100 yilligi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 31-oktyabrdagi qarori bilan (2015) keng ko'lamda nishonlandi, chinakam adabiyot bayramiga aylanib ketdi.

O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning qalamiga mansub "Xotiram siniqlari" dostoni asosida "Diydor" studiyasi tomonidan sahnalashtirilgan mazkur spektaklda shoir Hamid Olimjon va Zulfiya o'rtasidagi mehr-muhabbat, o'tgan

asrning suronli 37-yillaridagi alg'ov-dalg'ov voqealar namoyish etilgan. Zulfiya rolida — Gulbahor Yo'ldosheva. Sahnalashtiruvchi rejissor – Bahodir Yo'ldoshev.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya ijodi o'zbek she'riyatida xuddi o'zi kabi vafo va sadoqat timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Zulfiya ijodidan namunalar:

**O'RIK GULLAGANDA**

"Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi..."
Gulni ko'rib ishqparast qalbim,
Ming aytilgan darddan kuyladi.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Hijron qo'shar ekan harorat.
O'lgudayin mushtoq bo'libman —
Visolingga, yo'q chog'i toqat.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Kirib keldim shu tanish uyga.
Biz bir choqlar yashagan uyda
Tunab qoldim xayol-la birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam
Yoshlik kechgan torgina shu joy.
Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'tgan tunlardan chiroy.

Har burchagi elitar hushim,
Naqadarlik oshno, yaqin.
Xuddi tunda kamolga yetgan
Qo'shig'ingda chaqnagan chaqin.

Bunda hayot — ilhom onlari
Qalamingdan to'kilgan gavhar.
Gul bo'yini olganda shamol
Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach chanqoqlik bilan
O'qib maftun bo'lganim hayot.
"Qalay degan" bo'lib termulgan
Ko'zlaringning otashi hayot.

Hali hayot, takror o'qirkan
Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.
Yuzingdagi ulug'vor, mayin,
Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi,
Hamma yerda ko'rinar izing.
Parrandalar nag'ma kuyida
Jaranglaydi tovushing, so'zing.

Meni o'rab oldi hayajon,
Yana ortdi sevgining kuchi.
Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,
Oltinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o'rik shu kecha
Burkandi oq — oppoq chechakka.
Men qadrdon xotira bilan
Jo'nab ketdim uyimga yakka.

1947

# 9-MAVZU: SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI

(1920-2007)

**Reja:**

1. Said Ahmad hayoti va ijodi
2. Said Ahmad nasri va uning poetik xususiyatlari
3. Yozuvchi hikoyalarining tahlili, adibning obraz yaratishdagi mahorati
4. Romanlarida inson, muhit va sharoit tasviri
5. Drama va miniatyuralari

**Tayanch so ‘zlar:**

Adabiy tur, janr, adabiyot tarixi, adabiy jarayon, madaniy meros, badiiy mahorat, badiiylik, metod, qahramon, syujet, konflikt, adabiy ta’sir, poetik idrok, adabiy tanqid

**Adabiyotlar:**


1. Normatov U. Said Ahmad. – T.: 1971.
2. G‘afurov I. Prozaning shoiri. – T.: 1976.
3. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2004.
4. Karimov N. va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi.–T.: O‘qituvchi, 1999.


Said Ahmad o‘zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, realistik qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi. U, ayniqsa, satira va yumor ustasi sifatida mashhur.

Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilda Toshkent shahrida tug‘ildi. U Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika oliy ilmgohida ta’lim oldi (1938-1941). U adabiyotimizga, avvalo, jurnalist-ocherkchi sifatida kirib keldi. Adibning unib-o‘sishida matbuot muhim rol o‘ynadi. U “Yosh Lenindhi”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida, “Mushtum”, “Sharq yulduzi” jurnallarida, O‘zbekiston radio komitetida xizmat qildi.

Said Ahmad, avvalo, hikoyanavis sifatida tanildi. 1940-yilda uning birinchi hikoyalar to‘plami – “Tortiq” yuzaga keldi.

Ko'plab hikoyalarni o'z ichiga olgan bu to'plamni Said Ahmad "mashq" deydi. Lekin Yoshlarning ustozi bo'lmish Abdulla Qahhor buni qattiq tanqid ostiga oladi. U: "Said Ahmad qo'liga tambur olibmi, qulog'ini burashiga, parda bosishiga, chertishiga qaraganda tuzuk bir mashq chala oladiganga o'xshaydi, lekin hali mashq chalgani yo'q. "Tortiq"dagi hamma hikoyalar shuni ko'satadi", – deydi. Shuningdek, Abdulla Qahhor yozuvchining o'z yozganiga mas'uliyatsizlik bilan yondoshgani, hikoyada hech qanday mazmun-maqsad yo'qligini, hikoyalarning "bema'ni", "so'z bo'tqasi" bo'lib qolganini ta'kidlaydi. Qisqasi, Yosh ijodkorning adabiyotga kirib kelishi mana shunday boshlandi. Bu davrlarda u yana "Qadrdon dalalar" qissasini yozadi. Mana shular yozuvchi ijodining birinchi bosqichi mahsullari hisoblanadi (30-yillar oxiri-40-yillar boshi).

Said Ahmad ijodiy yo'lining ikkinchi bosqichi 1956-yillardan boshlanadi. Yozuvchi bu davrda bir qator hikoyalar yaratdi. Ularni mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh hikoyalarda ("Ko'klam chechaklari", "Ko'klam taronalari", "Xazina", "Iqbol chiroqlari") lirizm kuchlidir. Bularda yozuvchiishchilar hayotida uchrovchi turli voqealarni, asosan urushning odamlar turish-turmushida, qalbida qoldirgan achchiq izlarini aks ettirar ekan, o'quvchi emosiyalarini qo'zqatib yuboradi. Jumladan, "Turnalar" hikoyasidagi Sobir otaning boshidan kechirganlari, farzand dog'i tug'dirgan azob-u iztiroblari, urushdan jabr ko'rgan butun kishilar, ota-onalarning, ayniqsa, dilidagi bitmas yarasi edi. "Ko'klam chechaklari" hikoyasida ham Said Ahmad urush tufayli to'shakka mixlanib qolgan bemorning o'y-xayollari (axir u erkak edi, ayoli qiynalib pul topayotgan bir paytda to'shakka mixlanib, shipga tikilib yotishni also xohlamasdi), uning xotini qalbidagi ayollarga xos his-tuyg'ularning jo'shqinligi, bahoriyligi, shu bilan birga o'z oilasiga vafodorligini ifodalab, kitobxon qalbiga osonlikcha yo'l topa oladi.

Ikkinchi guruh hikoyalarda hajviy ruh asosiy o'ringa chiqadi. "Cho'l burguti", "Cho'l shamollari" turkum hikoyalari, "Hindcha o'yin", "Kuchukcha", "Kolbasa qori", "O'rik domla" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu hikoyalardagi xalqimizga xos so'z o'yinlari, askiya va mubolag'alar asar tilini nihoyatda jozibador qiladi.

Yozuvchining “Begona”, “Xanka va Tanka”, “Mening do‘stim Boboyev” kabi hajviy hikoyalarida hayotda uchrab turuvchi manmanlik, ig‘vogarlik, ko‘zbo‘yamachilik singari illatlar ustalik bilan fosh etiladi. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o‘zbek radio va televideniyasida quvnoq miniatyuralar teatriga asos soldi.

1964-yilda yaratilgan “Ufq” romani yozuvchi ijodiy yo‘lidagi ikkinchi bosqichning eng katta yutug‘i bo‘ldi. Bu roman trilogiya bo‘lib “Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘sag‘asida” nomli qismlardan iborat. Unda ijodkor qishloq kishilarining urush yillarida front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonliklari, o‘zbek xalqiga xos bag‘rikenglik va oriyatlilik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni aks ettirgan.

Roman shunchalik muvaffaqiyatli chiqdiki, bir paytlar Yosh yozuvchini qattiq tanqid qilgan Abdulla Qahhor 1965-yili o‘zining “Ilhom va mahorat samarasi” nomli maqolasida asarni quyidagicha ijobiy baholadi: “Said Ahmad bundan ko‘p yillar muqaddam qo‘liga tanburini olib chertganida qo’li kelishganini ko‘rib, yaxshi sozanda bo‘lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgan edik. Shu orzu ushalib kelyotibdi. “Ufq” uning ilhom va mahorat bilan chalgan mashqidir”.

Said Ahmad ijodiy yo‘lidagi uchinchi bosqich uning ijodkor sifatidagi yetuklik davridir. Bu, ayniqsa, uning **1988-yilda** yaratgan “Jimjitlik” romanida yaqqol ko‘rindi. Asarda turg’unlik davri illatlar jamiyatning zaif tomonlari, rahbarlarning o‘z obro‘larini suiiste’mol qilishlari, bu yo‘ldagi adolatsizligu poraxo‘rliklar fosh etiladi. **“Jimjitlik” romani** turg‘unlik yillarini kengroq va ko‘p tomonlama qamrab olganligi, umumiy ruhini ochib berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Asosiy e’tiborini davr mohiyatini ochishga qaratgani uchun ham muallif romaniga “Jimjitlik” degan ramziy nom qo‘ygan.

Romanning asosiy voqealari 80-yillarning boshlarida Qashqadaryo vohasidagi qishloqlarda sodir bo‘ladi. Xuddi shu davrda asar qahramonlaridan Tolibjon qariyb yigirma yillik judolikdan so‘ng ona qishlog‘iga qaytadi va uning quchog‘ida xotirjam yashamoqchi bo‘ladi. Tolibjon qanday odam? U nega jimjitlik qidirib qoldi? Bu savollarga javob qaytarish uchun muallif Tolibjonning qishlog‘ida qanday kishilar

yashashini, ulaming ma'naviy ildizlari qayerlarga borib taqalishini turli xildagi chekinishlar va afsonalar vositasida ko'z o'ngimizda namoyon qiladi. U Kiyiksovdi momo to'g'risidagi afsona yordamida qishloq kishilarining tarixiy ildizlarini go'yo asrlar qa'ridan qazib chiqargandek va bizga ko'r satgandek bo'ladi. Afsonaga ko'ra qadim zamonlarda bir kampir xalqini vabodan qutqarishga harakat qilgan. O'zaro janglarda xalq qirilib ketgach, u kiyiklami parvarishlab, odamlar-u hayvonlaming pokiza mehr-u muhabbatiga sazovor bo'lgan hamda Kiyiksovdi momo nomini olgan. Afsona bilan tanishib, biz Tolibjonning pokiza qalbli insonparvar kishilar avlodidan ekanligini anglaymiz. Agar afsona romanning asosiy voqealariga uzviyroq bog'langanda va uning Tolibjon ruhiga ta'siri yaxshiroq ochilganda, biz qahramonning qishloqqa kelgandagi ma'naviy holatini aniqroq tasavvur qilgan bo'lardik. Qanday bo'lmasin, afsona yordamida Tolibjonning palagi toza inson ekanligiga ishora qilgach, yozuvchi bizni bunga ishontirishga va qahramonning jimjitlik izlashi sabablarini badiiy tahlil etishga intiladi. Shvvuning uchun u Tolibjonning qariyb yigirma yillik hayotini chekinishlar vositasida go'yo tasavvur ko'zgusidan o'tkazadi. Ko'zguga tikilar ekanmiz, go'yo ko'z o'ngimizdan turg'unlik davrining dahshatlari, illatlari birma-bir o'tgandek bo'ladi. Oynayi jahonda go'yo Tolibjon dastlab aspiranturani tugatgan, bilimli obkom xodimi sifatida namoyon bo'ladi va katta yig'inda jumhuriyat rahbari Shavkat Rahimov oldida hayotimizdagi hamda uning faoliyatidagi nuqsonlami tanqid qilib nutq so'zlaydi. Haqiqatni aytgani uchun u uzoq muddatga chet elga ishga jo'natib yuboriladi. U erda Tolibjon xotinidan, o'g'lidan judo bo'ladi. O'zi esa kasallik changalidan zo'rg'a qutulib qoladi.

Shu tariqa romanda turg'unlik yillaridagi illatlaming bosh sabablaridan biri haqiqatning bo'g'ilishi ekanligi to'g'risidagi g'oya ilgari suriladi va u voqealaming keyingi rivoji yordamida dalillana boradi. Ular davomida, avvalo, Tolibjonning ko'plab insoniy fazilatlari ochiladi. Xususan, Shavkat Rahimovga munosabatida Tolibjonning to'g'riso'zligi, Jayrona bilan yaqinligida samimiy insoniy tuyg'ular egasi ekanligi, Yangi charx yasashida aqlining teranligi, kitoblarini qishloqqa va

yiqqan pullarini qarindoshlariga berishida beqiyos saxovati, ota-onasidan ajragan Azizbekni ko'rib ezilishlarida o'ta nozik qalbi yaqqol anglashiladi. Yozuvchiqahramonini mutlaqo benuqson qilib tasvirlamaydi. Ko'plab yuksak fazilatlariga qaramay, Tolibjon haqiqatgo'yligi tufayli qarshisidan chiqqan g'ovlar oldida go'y o dovdirab qoladi va nohaqliklarga qarshi qanday kurashishni bilmaydi. Buni Jayrona ochiqdan-ochiq uning yuziga aytadi:

– Tolibjon aka, – deydi Jayrona, – siz kurashga yaramaydigan, irodasi bo'sh odam ekansiz... Siz bir marta bosh ko'tarib erparchin bo'ldingiz. Ikkinchi bosh ko'tarishga yuragingiz dov bermay qo'ydi. Taqdirga tan berib, o'zga yurtlarda sarson bo'lib yuribsiz. Zo'ravonlikka qarshi bosh ko'tarishga ojizlik qilib qolgansiz... Men sizga qoyil emasman. Erkak odam olov bo'lib yashashi kerak. Butun irodasini, kuchini, aqlini o'zining haq ekanligini isbot qilishga sarflashi kerak.

Romanning g'oyaviy falsafasidan ayon bo'lishicha, xuddi mana shunday ojizlik, haqsizliklarga qarshilik ko'rsata olmaslik, ya'ni odamlarning kurashga noqobil qilib qo'yilganligi turg'unlik illatlarining ildiz otishiga yo'l ochgan jiddiy sabablardan hisoblanadi.

Romanda odamlarni kurashga ojiz qilib qo'ygan, haqiqatning ayovsiz bo'g'ilishiga sabab bo'lgan omillar juda keng tahlil qilingan. Buning uchun yozuvchi Mirvali va Shavkat Rahimov obrazlarini keng ko'lamli oynayi jahon ko'zgusida namoyon qilgan. Mirvali qarshimizda xuddi Tolibjon bilan yonma-yon turgandek, uning singari yaxshi ishlarga ham qodirdek, lekin mohiyatan butunlay uning aksi, zidi bo'lgan bir qiyofada gavdalanadi. Yozuvchi sovxoz direktori Mirvalini go'yo Tolibjon bilan parallel ravishda va o'zaro muqoyasa qilgan holda tasvirlab bergandek ko'rinadi. Natijada, tasvirdan Tolibjondan farqli holda, Mirvali insoniy qiyofasini butunlay yo'qotgan, shafqatsizlikda, yovuzlikda shaytonga dars beradigan, jirkanch bir mahluq qiyofasida ko'rinadi. Buni dalillovchi voqealar romanda juda ko'p. Chunonchi, Mirvali Bodomgul, Sedona kabi ayollarni yo'ldan urib, oilalarining yostig'ini quritgan, boyligidan va sirlaridan xabardor bo'lgani uchun Asqarali va Rasulbekni o'z qo'li bilan o'ldirgan; manman degan generalni dog'da qoldirgan;

zo'rlik bilan otini tortib olib, Erali chavandozni jinni qilib qo'ygan... Nihoyat, Mirvali o'z sirlaridan ogoh bo'lgan Jayronani yo'qotishga urinib, Tolibjonning o'limiga sababchi bo'ladi.

Roman falsafasidan ayon bo'lishicha, bunday dahshatlarning ildizlari turg'unlik yillaridagi jamiyatga rahbarlikda mavjud bo'lgan illatlarga borib taqaladi. Ularning mujassami sifatida romanda Shavkat Rahimov va "o'zbek paxtakorlarining otasi" qiyofalari chiziladi. Bu chizgilarda biz Shavkat Rahimovning deyarli har doim Mirvalini qo'llab-quvvatlab turganligini, o'zboshimchaliklarini bilgani holda yovuzliklar sari boshlaganini, katta unvonlar olib berganligini ravshan ko'ramiz. Ayniqsa, Tolibjonni olomon ichida tanib, Shavkat Rahimovning uni qishloqdan badarg'a qilishga fatvo berishi kitobxonni larzaga soladi va haqiqatning asl bo'g'uvchilari kimlar ekanligini aniq tasavvur qilishiga imkon tug'diradi.

Roman g'oyaviy falsafasidan anglashilishicha, jamiyatdagi illatlarning ildizlari rahbarlikning eng yuqori, ya'ni markaziy qatlamlariga borib taqaladi, chunki Shavkat Rahimovning qing'ir ishlarini, haqsizliklarini, qo'shib yozishlarini eng oliy rahbar, ya'ni "o'zbek paxtakorlarining otasi" mohir dirijyordek o'z tayoqchasi bilan boshqarib, yo'naltirib turadi. Bunga hayron bo'lgan Jayrona: "Biz qaysi mamlakatda yashayapmiz? Kimga ishonsa bo'ladi? Kimga ishonish kerak? Bu marazlardan qachon qutulamiz?" – degan savollar olovida qovriladi.

Muallif falsafasiga ko'ra bunday holning abadiy davom etishi mumkin emas, chunki Said Ahmad ko'p marta qayd qilganidek, inson tobutga qarab emas, beshikka qarab yashaydi. Shuningdek, u oyoq ostiga qarab emas, balki olis ufqlarni ko'zlab olg'a intiladi. Roman qahramoni Tolibjon ham oqibatda "bu notinch XX asrda jimjitlik qidirish... telbalik ekaniga" iqror bo'ladi. Turg'unlik cheksiz davom eta olmasligining sabablaridan biri shundaki, bizning jamiyatimizda haqiqat, adolat va ezgulik uchun kurashchilarni butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Ularning yorqin timsoli sifatida romanda Jayrona siymosi nur sochib turadi. Uning siymosi shuning uchun nurliki, Jayronaning boshi "toshlarga urilib yorilmagan, hech kimga egilmagan", mashaqqatli hayotiga esa sira "nopoklik aralashmagan". Jayrona siymosini

nurlantirgan bu fazilatlarni muallif ko'plab juda qiziqarli voqealarda ro'yobga chiqaradi. Chunonchi, o'zga yurtlarda o'lim bilan olishib yotgan Tolibjonni Jayrona yechintirib-kiyintirishdan, yuvintirishdan tortinmaydi; Mirvalining tog'lar orasidagi yashirin uyasidan uni fosh qiladigan hujjatlarni olib, yo'l topib qochishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, Jayrona o'zining ko'pqirrali bilimlariga, dunyo kezib, orttirgan tajribalariga ishonib, hech narsadan hayiqmaydi va haqiqat uchun kurash yo'lidan aslo chekinmaydi. Tanqidchilikda uning ayrim xatti-harakatlari, ayniqsa, Mirvalining qarorgohidan qochishi juda ham ishonarli chiqmaganligi qayd qilindi. To'g'ri , ayrim ishonilishi qiyin o'rinlar bo'lishi mumkin. Lekin shuni tan olish zarurki, yozuvchi Jayronaning deyarli har bir xatti-harakatini imkon boricha mukammal dalillab borishga intilgan. Balki shuning uchundir, romanda Jayrona timsolida hozirgi o'zbek ayolining yorqin, jozibador, samimiyatga to'liq va kurashchan qiyofasi gavdalangan. Mana shunday qahramonlarning xatti-harakatlari natija bera boshlaganligi va roman oxiridagi qator voqealar, xususan, "o'zbek paxtakorlari otasi"ning o'limi, Shavkat Rahimovning talvasaga tushishi va Mirvalining tubsiz jarlikka qulashi turg'unlikning umri tugab borayotganidan dalolat beradi.

Shu tariqa romanda turg'unlik jamiyatimiz tarixida o'tkinchi hodisa ekanligi, xalqimiz uning illatlaridan poklanib, adolatli hayot tomon yo'l olishi muqarrarligi haqidagi g'oya ancha ishonarli ifodalangan. Ba'zi kam-ko'stlari bo'lmaganda, roman adabiyotimizda yana ham kattaroq hodisa darajasiga ko'tarilishi mumkin edi. Bunday nuqsonlardan biri asarda qahramonlarning ruhiy olami hamma yerda ham bir xilda teran ochilmaganligidir. Fikrimizning dalili sifatida Tolibjonning ruhiy olami tahlilini eslash kifoya. Tolibjon Mirvalining o'zboshimchaligidan, qing'ir ishlaridan, yovuzligidan norozi bo'lib, ko'p marta uning oldiga boradi, lekin har gal ham deyarli hech narsa deyolmaydi, jiddiyroq harakat ham qila olmaydi. Xuddi shuningdek, o'smir Azizbek o'z yoshiga to'g'ri kelmaydigan ko'p narsalardan xabardor bo'ladi va xuddi katta kishilardek fikr yuritadi. Ayniqsa, uning onasining nopok ishlari to'g'risidagi gaplari g'ayritabiiy tuyuladi.

Hozirgi holda ham Said Ahmadning "Jimjitlik" romani jamiyatimizdagi turg'unlikning mohiyatini va undan qolgan sarqitlardan xalqimizning poklanish jarayonini ancha keng, qiziqarli hamda ta'sirchan tarzda yoritgan asarlardan hisoblanadi.

Said Ahmad shuningdek, **"Kelinlar qo'zg'oloni", "Farmonbibi arazladi", "Kuyov" kabi komediyalari** bilan ham shuhrat qozondi.

Ijodkor tarjima ishlari bilan faol shug'ullangan. U B.Polevoy, A.Musatov, O.Gonchar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Said Ahmadning hayotdagi yana bir yutug'i shundaki, taqdir unga Saida Zunnunovadek bir ijodkor ayolni umr yo'ldoshi qildi. Yozuvchi qatag'onga uchragan yillarda Saida opaga ko'p jabr-zulmlar, sitamlar o'tkazilgan bo'lsa-da, u o'z umr yo'ldoshiga sadoqatli bo'lib qoldi. Shu sababli ham bu ayol buyuk ehtirom sohibasidir.

Said Ahmad o'zining quvnoq, orombaxsh hikoyalari va salmoqli romanlari bilan o'zbek prozasi rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan ilg'or yozuvchidir.



Dràmàlàri

"Kalinlàr qo'zg'îlîni"

"Kuyov"

"Shrzîd và Gulshîd"

Qissalari

"Qadrdon dalalar"

"Hukm"

**Tàlàbàlàrgà àdib hikîyalàri nîmi yozilgàn tàrqàtmàlàr bàrilàdi. Ulàr hikîyalàrni ànàlitik, qiyosiy tipilîgik jihàtdàn tàhlil qilàdilàr.**

**"Sàrîb"**

**"Îftîb îyim"**

**"Qîràko'z màjnun"**

**"Àzrîyil o'tgàn yo'llàrdà"**

**"Ît bilàn suhbàt"**

Said Ahmadning **"Ufq" trilogiyasi** XX asr o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'idir. Asarda trilogiya janrining o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va asosiy janriy belgilari yaqqol namoyon bo'lgan.

"Ufq"ning birinchi kitobi — "Qirq besh kun" romanida xalqimizning XX asrning 30-yillarida Katta Farg'ona kanali qurilishidagi qahramononа mehnati, qudratli xalq harakati yorqin aks ettirilgan. Asarning ikkinchi kitobi "Hijron kunlari" deb ataladi. Unda xalqimizning urush davridagi og'ir hayoti, kurashi, vatanparvarligi, mardligi ehtiros bilan hikoya qilingan. Trilogiyaning uchinchi kitobi — "Ufq bo'sag'asida" urushdan so'nggi dastlabki yillardagi xarakterli voqealar, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish harakati tasvirlangan.

Demak, ko'p qirrali hayot haqiqatini keng miqyosda aks ettirish, o'zbek xalqining, xususan, qishloq kishilarining olijanob fazilatlarini ko'r satish, ularning buyuk ishlari va yuksak orzu-istaklarini ifodalash "Ufq" trilogiyasi sujetining asosini tashkil etadi. Asarda asosiy voqealar va turli taqdirlar bir-biri bilan mustahkam bogiangan holda va o'zaro aloqada aks ettirilgan. Trilogiyada xalq hayotining turli qatlamlari teran yoritilgan. Azizxon, Ikrom jon, Jannat xola, Rahmonberdi tog'a, Nizomjon, Asrora, Dildor, Inoyat oqsoqol, Tursunboy singari xilma-xil obrazlar yaratilgan. Asarda bunday badiiy to'qima obrazlar bilan bir qatorda, xalqimizning asl farzandlari: Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboyev, G'afur G'ulom kabi tarixiy shaxs obrazlari ham berilgan."Ufq"dagi qahramonlardan, ayniqsa, Ikromjon va Azizxon obrazlari har jihatdan mukammal va jonli qilib tasvirlangan. Adib Azizxon obrazi orqali Katta Farg'ona kanali qurilishi jarayonida, qirq besh kun davomida sodir bo'lgan quvonchli va unutilmas voqea-hodisalarni, xalqning haqiqatan buyuk bunyodkor ekanini umumlashtirib tasvirlab ko'rsatgan. Ikromjon obrazi vositasida esa oddiy kishilarning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati mahorat bilan tasvirlangan. Yozuvchi Ikromjon obrazini yaratishda xalqimizga xos milliy xususiyatlar va milliy xarakter belgilaridan unumli foydalangan. Ana shunga ko'ra Ikromjon milliy xarakter sifatida namoyon bo'ladi. Xalqimizga xos qiyinchiliklarga

chidash, mustahkam ıroda, hayotbaxsh ruh Ikromjonning suyak-suyagiga singib ketgan. Ikromjonning asar voqeasi so'ngida: "Yo'q, bolam, men dardga chalınmaganman. Men î'lmayman. Tik bo 'lsam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam sudralib o'sha ufqqa boraman. Ufqdan turib Yozyovonimga bir qayrilib qarayman. Ufqqa bormay î'lishim mumkin emas", — deyishi bejiz emas, albatta. Trilogiyaning "Ufq" deb nomlanishi ham, avvalo, ana shu hayotbaxsh ruhdan kelib chiqqan. Binobarin, bu asardagi ufq tushunchasi xalqimizning Ikromjon obrazida yorqin gavdalangan o'z milliy qadriyatlariga sadoqati hamda porloq kelajakka komil ishonchining ramzidir. Said Ahmad trilogiyada Ikromjon obrazini yaratishda psixologik tahlil san'atidan ustalik bilan foydalangan. Natijada, Ikrom jonning sa'y-harakatlarini, ezgu niyatlarini, ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini to'liq asoslab berishga va tabiiy qilib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Ikromjonning qochoq o'g'li Tursunboy bilan tasodifan uchrashib qolgan paytdagi ruhiy holati juda ta'sirli berilgan. Ikromjon qalbida bir paytning o'zida ham mehr-muhabbat, ham qahr-g'azab alangalanadi. U, avvalo, otalik mehri bilan Tursunboyni bag'riga bosadi. Ammo bu mehr o'rnini tezda haqli ravishda qahr-g'azab egallaydi: ota o'g'lini la'natlaydi, uni xoin sifatida o'ldirmoqchi bo'ladi. Tursunboy qochadi, ota miltig'ini o'g'liga to'g'rilab otadi va: "Xayriyat, o'q tegmadi", — deb o'ziga-o'zi taskin beradi. Trilogiyada o'zbek xalqiga xos bo'lgan bolajonlik va oriyatlilik, bag'rikenglik va fidoyilik, mehribonlik va el-yurt oldidagi burchini chuqur his etish singari xislatlar Tursunboyning onasi Jannat xola obrazida ham yorqin aks etgan.

Ikromjon aka singari Jannat xola qalbida ham bir vaqtning o'zida yakka-yu yolg'iz o'g'liga muhabbat va qahr-g'azab tug'yon uradi. Ona o'g'lini qanchalik sevmasin, baribir, uning qilmishiga chiday olmaydi. Ona iztirob, alam, or-nomus o'tida yonadi va qochoq o'g'li Tursunboyni la'natlab: "Kuch-quvvatdan qolgan otang ham qo'liga miltiq olib urushga bordi-ya! Bir oyog'ini urushga tashlab keldi-ya! Sen, shu gavdang, shu kuching bilan qochdingmi? Otangni tiriklay î'ldirding-ku, meni adoyi tamom qilding-ku! Ertaga yurtning êî'ziga qanday qarayman? Dadang qanday qılib êî'chaga chiqadi? Shuni î'ylamadingmi?!" — deb nola qiladi.

Shunday qilib, romanda xalqimizning olijanob milliy xususiyatlari va o‘ziga xos milliy xarakteri yorqin aks etgan. Ana shuning uchun ham Abdulla Qahhor: “Ufq” qochoq haqidagi roman emas, aksincha, qochoqni bag‘riga sig‘diraolmagan xalq haqidagi asardir”, — deb bu romanga yuqori baho bergan edi.

Tanqidchi Ibrohim G‘afurov esa haqli ravishda “Ufq” trilogiyasida i‘zbek milliy prozasi tasvir usullari sintezlashdi. Juda chuqur lirizm bilan sug‘orilgan bu asar epik tasvir bilan zamonaviy ilg‘or psixologik tahlilning birlashgan namunalarini beradi”, — deb yozgan edi. Trilogiyada badiiy bo‘y oqlar vositasida haqqoniy va jonli qilib ifodalangan xilma-xil obrazlar, hayotiy voqea-hodisalar, g‘oyat ta’sirli va jozibador tasvirlar ko‘p. Asar milliy tarovat bilan qondirib sug‘orilgan.

Asarda xalqimizga xos xarakter belgilari: bolajonlik, farzandlarga bo‘lgan so‘nmas mehr-muhabbat militsioner obrazida ham original bir tarzda yorqin aks ettirilgan. Asarda tasvirlanishicha, chayqovchi Inoyat oqsoqol jinoyat ustida qo‘lga tushgach, jazodan qutilish uchun o‘zini turli tusga soladi, turli usullarni qo‘llaydi. Ammo adolatli va qattiqqo‘l militsionerni na iltimos, na yalinib-yolvorish va na pora to‘g‘ri yo‘ldan chekintira olmaydi. Shunda jinoyatchi uni: “O‘g‘lingdan judo bo‘l, o‘g‘ling o‘lsin” deb qarg‘ayman, deya qo‘rqitadi. Militsioner o‘g‘lini jondan ziyod sevganidan shoshib, dovdirab qoladi. O‘g‘li hayotini o‘lim xavfidan asrab qolish niyatida o‘ylamay-netmay jinoyatchini darhol hibsdan ozod qiladi. Said Ahmad “Ufq”da hayotdagi ibratli tomonlarni, ajoyib fe’l-atvor sohiblari bo‘lgan insonlar obrazlarini mohirona tasvirlash bilan birga, salbiy jihatlarni, yaramas shaxslarni ham ro‘yi rost aks ettiradi. Asarda qochoq Tursunboy qismati, xususan, uning to‘qayzorda ota-ona hamda el-yurt mehriga zor boiib, yolg‘izlikda, xor-u zorlikda o‘lishi g‘oyat ta’sirli qilib ifodalangan.

**Tàlàbàlàrni fàîllàshtirish uchun sàvîllàr:**

1. Sàid Àhmàd hikîyalàrida àyollàr îbràzi và muhàbbàt màsàlàsi qàndày tàlqin qilingàn?

2. Àsàrlàrida ijtimîiy illàtlàr qàndày fîsh qilingàn?

3. Milliy õaraktãr yarãtishdã vã ijtimîiy illãtlãrni fîsh qilishdã kulgining rîli qãndãy tãsvirlãngãn?

4. “Jimjitlik” turg‘unlik mãnzãrãsi qãndãy ifîdãlãngãn?

5. “Ufq” trilîgiyasining bãdiiy ãdãbiyotdãgi o‘rni hãqidã nimã dãya îlãsiz?

6. Drãmã vã miniãtyurãlãrning ijtimîiy ãhãmiyati nimãdã?

7. “Qîrãko‘z mãjnun” kitîbigã kirgãn ãsãrlãridã trãgizm nimãlãrdã ko‘rinãdi?

## 10-MÀVZU: ÎDIL YOQUBÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI

(1926-2009)

**Râja:**

1. Yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. O.Yoqubov hikoyalari
3. O.Yoqubov qissalari
4. O.Yoqubov romanlari.

**Tayanch so'zlar:**

Adabiy tur, janr, adabiyot tarixi, adabiy jarayon, madaniy meros, badiiy mahorat, badiiylik, metod, qahramon, sujet, konflikt, adabiy ta'sir, poetik idrok, adabiy tanqid

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Mirzaâv I. Nasrimiz badiiy olami. – T.: 1991.
2. Mirzayâv S. XX asr o'zbâk adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 2004.
3. Karimov N. va b. XX asr o'zbâk adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.


Odil Yoqubov yuksak iste'dodi, jurnalistik va ijodiy faoliyati bilan hozirgi adabiy jarayonga samarali ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Uning qator qissalari hamda publisistik maqolalari, tarixiy va zamonaviy mavzulardagi romanlari keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi, qizg'in bahs-munozaralar markazida turdi. Adib asarlari o'zining haqqoniyligi, davming o'tkir ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy masalalarini dadil o'rtaga qo'yganligi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatni ochishga qaratilgani, insonni yashashdan maqsadi xususidagi ehtirosli bahs-mulohazalari bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'zbek romani poetikasiga ko'pgina Yangiliklar olib kirdi.

Odil Yoqubovning bu darajaga ko'tarilishida iste'dod, adabiy muhit ta'siridan tashqari, undagi adabiyotga bo'lgan cheksiz mehr hamda adib boshidan o'tgan voqealar, hayotiy tajribalari katta rol o'ynadi.

Odil Yoqubov 1927-yili Turkiston shahri yaqinidagi Qamoq (hozirgi Otaboy) qishlog'ida tug'ilgan. Xalqimizning azaliy udumlari, mo'tabar an'analari yaxshi saqlangan, tabiiy go'zalligi bilan kishini maftun etuvchi bu qishloq bo'lg'usi yozuvchining ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirdi.

Adib yozishicha, otasi Egamberdi Yoqubov 1916-yili mardikorlikka olinib, Belorussiya o'rmonlarida daraxt kesgan, rus tilini o'rganib, Toshkentda SAGUni bitirgach, Chimkent viloyatida turli lavozimlarda ishlagan. Ota farzandlari tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Oilada "Ming bir kecha", "O'tkan kunlar" singari asarlar zo'r ishtiyoq bilan mutolaa qilingan. Otasi tufayli bolaligidanoq rus tilini egallashi bo'lajak yozuvchiga rus va jahon adabiyoti, madaniyati bilan tanishishga yo'l ochgan. Keyinchalik tug'ilgan qishloqida ona tilida o'qishni davom ettirish, bilimdon muallimlarning ko'magi undagi adabiyotga bo'lgan maylni yanada kuchaytirgan.

1944-yilda o 'rta maktabni tugatib, Odil Yoqubov 1945-1950-yillarda armiya safida xizmat qildi. Yosh askar Yaponiyaga qarshi urushda ishtirok etadi. 1951-1956-yillarda u Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakulteti rus tili va adabiyoti bo'limida o'qiydi. Odil Yoqubov salkam o'n yil "Literaturnaya gazeta"ning O'zbekiston bo'yicha muxbiri bo'lib ishlaydi. Yozuvchi muxbir bo'lib ishlab yurgan kezlarini maroq bilan eslaydi. "Bu davrda, – deb yozadi u, – men gazetaning topshiriqlariga binoan respublikamizni boshdan-oyoq aylanib chiqdim, oddiy paxtakor hayoti, tashvishlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim".

Adib biografiyasiga, hayot tajribasiga oid bu faktlarni eslatishdan maqsad shuki, ular muallif asarlariga hayotiy zamin bo'lib xizmat etdi, bolalik taassurotlari, hayotda ko'rgan-kechirgan, ko'nglida chuqur iz qoldirgan voqea-hodisalar asarlarida aks etdi.

Odil Yoqubov ijodiy yo'lini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich 50-yillardan boshlanadi. Umuman, adib ijodi harbiy xizmatda yurgan kezlarida boshlangan edi. Uning matbuot yuzini ko'rgan ilk asari "Tengdoshlar" (1951) qissasi bo'ldi. "Tengdoshlar"ga qadar ham u ko'plab hikoyalar, bir roman qoralagan ekan. Yozuvchi keyinchalik yozgan "Farzandlar burchi" ocherkida ularni urushdan keyingi yillarda ancha keng yoyilgan konfliktsizlik

"nazariya"si ta'sirida yaratilgan asarlarning o'zbekcha muvaffaqiyatsiz varianti deb ataydi. "Tengdoshlar"ni "o'rtacharoq" asar sanaydi, Hamza nomli teatr sahnasida qo'yilib, tanqidchilikda ijobiy baholangan qator dramatik asarlariga ham tanqidiy yondashadi: "Mana endi bu asarlarning saviyasini ham, qimmatini ham yaxshi bilaman... Badiiy ijodning butun murakkabligini men endi shuncha xatolardan keyin tushundim", – deb eslaydi u. O'sha zaifgina dramalar qatoriga "Birinchi muhabbat", "Olma gullaganda", "Yurak yonmog'i kerak", "Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam, dilim..." kabi peyesalar kirar edi. O.Yoqubovning so'nggi yillarda yaratilgan "Fotihi Muzaffar yohud bir parivash asiri" dramasi ham bayonchilikning, G'oyalarni jar solib aytishning kuchliligi sababli adabiyotda sezilarli hodisa bo'ladigan pyesa darajasiga ko'tarilmadi.

Odil Yoqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan "Muqaddas" (1961) qissasi bilan ijodiy yo'lining ikkinchi bosqichi boshlandi. Chunki "Tengdoshlar"dan "Muqaddas" qissasiga qadar o 'tgan davr go'yoki yozuvchi uchun ijodda o'zligini topish yo'lidagi betinim izlanish, odat tusiga kirgan adabiy qoliplar bilan murosasiz olishish, kitobiylik inersiyasini yengib o'tish yillari bo'ldi. Yozuvchi "Muqaddas" qissasida hayotdan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, qalamga olgan voqealarni bor murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga yetkaza oladi. "Muqaddas" so'zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda g'oyaviy-badiiy tadqiq etgan vijdon, burch, diyonat singari tushunchalar talqinini ham o'z ichiga qamrab oladi. Adibning "Muqaddas"dan tortib "Diyonat" va "Oq qushlar, oppoq qushlar"ga qadar yaratilgan e'tiborga sazovor barcha asarlari ana shu muammo tevaragida aylanadi. Adibning "Qanot juft bo'ladi" (1968) qissasi yozuvchi ijodiy takomilida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi endi bir emas, ko'plab ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni ko'taradi.

Odil Yoqubov "Muqaddas"dan boshlab deyarli har bir asarida biror jiddiy masalani ko'tarish bilan barobar, qalamga olingan mojarolarning hayotiy ildizini, sabablarini ochishga intildi.

Odil Yoqubov asarlari xorijiy tillarga eng ko'p tarjima qilingan mashhur adiblardan biri. Masalan, "Ulug'bek xazinasi" dunyoning 57 tiliga tarjima qilingan. Ko'pgina mamlakatlarning maktab dasturlaridan o'rin olgan.

"Diyonat" romani ham dunyoning yigirmadan ortiq davlatida tarjima qilinib, chop etilgan. Shuningdek, Odil aka sho'ro davrida asarlari rus tilida "rekord" darajasida tarjima qilingan ijodkorlar sirasiga kiradi.

"Qanot juft bo'ladi" (1969) povesti vrachlar, me'morlar, ishchilar mavzui bilan birga murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal etishga bag'ishlangan. Muallif unda ravshan, esda qoluvchi obrazlar yaratgan. "Izlayman" povestida 1945-yil yapon militarizmiga qarshi kurash voqealari aks ettiriladi. U ma'lum ma'noda avtobiografik asar hamdir. Chunki, muallifning o'zi o'sha voqealarning jonli guvohi.

Yozuvchi keyingi yillarda yaratilgan "Ulug'bek xazinasi" romanida (1974) ulug' o'zbek astronomi Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatib, qarama-qarshi kuchlar orasidagi kurashlarni tasvirlaydi. Romanda Ulug'bekning iste'dodli shogirdi, mashhur olim Ali Qushchining ham ulug'vor obrazi yaratilgan.

Boshqa bir yirik asari — "Ko'hna dunyo" romanida O'rta Osiyoning ikki buyuk allomasi Beruniy va Ibn Sino hayoti va fojeali taqdiri qalamga olinadi. Ularning jahon ilmi-fani taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini umumlashtirishga intiladi.

Shuningdek, Odil Yoqubov zamonaviy mavzularda ham «Diyonat» (1973), "Oqqushlar, oppoq qushlar" (1988) kabi yirik polotnolar yaratdi. Agar yozuvchi o'zining «Diyonat» romanida adolatning nohaqlik, tubanlik ustidan g'olib kelishini ko'rsatsa, «Oqqushlar», oppoq qushlar» romanida esa turg'unlik davri illatlarini, ildizi va oqibatlarini ro'yi-rost gavdalantirib beradi. Har ikki holda ham zamondoshlarimizni ma'naviy, axloqiy pokizalikka da'vat etadi.

Odil Yoqubov respublikamiz teatrlarida namoyish qilingan «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim» (1956), «Yurak yonmog'i kerak» (1957), «Olma gullaganda» (1960) va boshqa pyesalarning muallifidir.

U mohir tarjimon, munaqqid, publitsist sifatida ham barakali ijod qilib kelmoqda. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1985) Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Ijodkor, muharrir, nosir, Yozuvchilar uyushmasi bosh kotibi vazifalarida xizmat qilib keldi. Odil Yoqubov O'zbekiston Vazirlar mahkamasi qoshidagi respublika Atamalar komitetiga rahbarlik ham qilgan.

**Savollar:**

1. Adib hikoyalarida qanday mavzular o'z ifodasini topgan?
2. Qissalarida davrning muhim ijtimoiy, ma'naviy masalalari qanday yoritilgan?
3. "Ulug'bak xazinasi" romanining fojiaviy mohiyati qanday?
4. "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar" romanlarida raspublikamizdagi 70-80-yillarda avj olgan hodisalar qanday talqin qilingan?
5. "Adolat manzili" romanida 80-yillar qatag'oni qanday aks ettirilgan?
6. O.Yoqubov ijodining inson ma'naviy hayotida va adabiyotda tutgan o'rni nimada?

## 11-MAVZU: PIRIMQUL QÎDIRÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI

(1928-2010)

**RÅJA:**

1. P.Qodirov hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. P.Qodirov qissalari.
3. P.Qodirov romanlari.

**Tayanch so'zlar:**

Adabiy tur, janr, adabiyot tarixi, adabiy jarayon, madaniy meros, badiiy mahorat, badiiylik, metod, qahramon, syujet, konflikt, adabiy ta'sir, poetik idrok, adabiy tanqid

**Àdàbiyotlàr:**


1. Shårmuhàmàdîv P. Pirimqul Qîdirîv. – T.: 1983.
2. Mirzàyàv S. ÕÕ àsr o'zbàk àdàbiyoti. – T.: O'qituvchi, 2004 .


XX asr o'zbek adabiyoti tarixida yozuvchi Pirimqul Qodirov o'ziga xos o'rin tutadi. Pirimqul Qodirov bir qator badiiy asarlar yaratish bilan adabiyot xazinasiga o'zining sezilarli hissasini qo'shdi. Ijodiy faoliyati davomida u ko'plab mazmundor badiiy, tarixiy, ilmiy, tarjima, publisistik asarlar yaratdi.

Hozirgi o'zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri yozuvchi Pirimqul Qodirov 1928-yili Tojikiston Respublikasining O'ratepa tumanidagi Kengqo'l qishlog'ida tavallud topdi.

Pirimqul Qodirovning urushdan keyingi xo'jalikni izga solish yillarida jamoa xo'jaligidan boshlangan mehnat faoliyati yo'l qurilishi, so'ng Bekobod metallurgiya zavodida ishlash bilan davom etdi.

1951-yili Toshkent Davlat dorilfununini tugatib, u Maksim Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti institutining aspiranturasiga o'qishga kirdi. "Urushdan keyingi o'zbek nasri" mavzusiga oid nomzodlik ilmiy ishini himoya qildi.

Pirimqul Qodirov 1954-1963-yillar davomida Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi qoshida o'zbek adabiyoti bo'yicha maslahatchi bo'lib ishladi. U 1965-1976- yillarda

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyoti instituti katta ilmiy xodimi vazifasini bajardi.

Adib ijodining debochasi talabalik yillarida e’lon etilib, tolibi ilmlar hayotini, ichki olamini badiiy aks ettirgan “Studentlar” hikoyasi 1950-yilda bosmadan chiqqan edi. Faqat bu hikoya juda zaif mashq bo‘lgani uchun yozuvchi Abdulla Qahhor uni juda keskin tanqid qilgan edi. Tanqiddan to‘g‘ri xulosa chiqargan P.Qodirov katta ijodiy mehnat qilib, 1958-yilda xuddi quyoshli kunda momaqaldiroq bo‘lib, chaqmoq chaqqandek, o‘zining birinchi yirik asari – “Uch ildiz” romanini nashrdan chiqaradi. “Iliqlik” deb atalgan o’sha davr ruhini, o‘zgarishlarini, yangiliklarini o‘zida mujassamlashtirgan bu roman tezda keng kitobxonlar ommasining va mashhur yozuvchilarning e’tiborini qozonadi. Xususan, 1959-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasi vaqtida dunyoga mashhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov “Uch ildiz” romanini zamon ruhini hamda kishilar ma’naviy olamini yorqin aks ettirgan asar sifatida yuqori baholagan edi. Uning ketidan “Jon shirin”, “Kayf”, “Olov” hikoyalari, “Besh yilliklar farzandi” to’plami, “Qadrim”, “Erk”, “Meros” povestlari, “Najot” afsona-ertagi, “Sarguzashtlar”, “Yayra institutga kirmoqchi” nomli qissa va hikoyalar kitoblari o‘quvchilarga taqdim etildi.

“Uch ildiz”, “Olmos kamar” romanlarida adib ijodiy mahoratining charxlanganligini ko‘rsatib, o‘zbek nasrini boyitdi. Bu har ikki roman Pirimqul Qodirov ijodining badiiy yetuklik darajasini belgilovchi asarlardir. Ayniqsa, “Qora ko‘zlar” romani 60-yillar boshidagi qishloq hayoti manzaralarini, turmush qiyinchiliklarini, murakkabliklarini, ziddiyatlarini ro‘y-rost ko‘rsatganligi bilan ajralib turadigan asar edi. Unda hozirgi kunlarga hamohang muammolar talqinini ham uchratish mumkin edi. Xususan, roman rahbarlikdagi, xo‘jalikdagi ko‘zbo‘yamachiliklarni, qo’shib yozishlarni, kishilar axloqidagi tubanliklarni hamda ularga qarshi kurashuvchilar borligini ochiq-oydin gavdalantirishi bilan deyarli barcha davrlar uchun dolzarblik qiymati kasb etadi.

Xuddi “Qora ko‘zlar” romanidagi hayot ziddiyatlarini butun keskinligi bilan yuzaga chiqarish yo‘lidan borib, P.Qodirov “Meros” qissasida paxta yetishtirishdagi

mehnatning og'irligi, mashaqqatlarga va hatto fojealarga to'liqligi to'g'risidagi haqiqatni chinakam san'at vositalari orqali ifodalashga muvaffaq bo'ldi. O'z davri uchun yozuvchining bu ishi katta jasorat hisoblanar edi. Ulkan badiiy qiymatga ham ega bo'lganligi sababli "Meros" qissasi yozuvchining adabiyot sohasidagi eng jiddiy yutuqlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Afsuski, bunday xulosani P.Qodirovning metro quruvchilari hayoti lavhalarini, ichki dunyosi qirralarini yoritgan "Erk" qissasi va "Olmos kamar" romani haqida aytish qiyindek tuyuladi. Jumladan, "Erk" qissasida muallifning muhabbat sohasida haddan tashqari keng ozodlikka chaqirishi munozarali tuyulsa, "Olmos kamar" asarida shahar hayotining juda ko'p tomonlari, xususan, metro qurilishi, Yoshlar tarbiyasi, to'y-hashamlardagi isrofgarchiliklar, oilaviy mojarolar kabi masalalar qamrab olingani holda, ular o'zaro uzviy birlashtirib yuborilmagani oqibatida roman kompozision jihatdan nomukammal chiqqan.

Yuqorida tilga olingan qissa va romanlarning deyarli hammasi zamonaviy mavzuda edi. 60-yillarning o'rtalaridan P.Qodirov ijodida Yangilik bo'lgan drama va tarixiy roman janrlariga qo'l uradi. Chunonchi, u dastlab "Insof" dramasini e'lon qilib kishilar e'tiborini o'sha davrlar uchun muhim bo'lgan axloqiy muammolarga jalb etadi va ma'naviy soflik, go'zallik g'oyalarini ilgari suradi. Faqat adibning bu asari dramaturgiya sohasidagi birinchi tajribasi bo'lganligi, ya'ni mukammallik darajasiga ko'tarilmaganligi sababli ezgu insonparvarlik g'oyalari yuksak jarangdorlik kasb etmagan edi.

P.Qodirovning o'zi asos e'tibori bilan Sharq tarixi bo'yicha mutaxassis bo'lganligi sababli keyinchalik uzoq vaqtlar mobaynida ona xalqining o'tmishi, kurashlari, qonli fojialari, buyuk shaxslari uning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Oqibatda, oldin "Yulduzli tunlar" ("Bobur"), keyin "Avlodlar dovoni" asarlari bilan Pirimqul Qodirov o'zbek tarixiy romanchiligini ustoz Oybekdan so'ng Yangi pog'onaga ko'tardi. "Yulduzli tunlar" romanida yozuvchi Zahiriddin Muhammad Boburdek murakkab tarixiy shaxs siymosini gavdalantirdi. Tarixiy faktlarni, ma'lumotlarni chuqur o'rgangan holda badiiy asar zamiriga, Bobur obraziga singdira

olishga muvaffaq bo'ldi. Pirimqul Qodirov bu romanida Bobur ichki dunyosini, butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan namoyon qilishga intildi.

Shundan so'ng yozuvchi "Avlodlar dovoni" asarini "Yulduzli tunlar" romanining davomi sifatida yozdi. Ikkinchi roman ham birinchisi singari tarixiy asar bo'lib, unda Bobur mirzo avlodlarining dovonlari murakkab hayot bosqichlarida aks etgan. Asarda, asosan, Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun mirzo va nevarasi Akbarshoh hayoti manzaralari jonlantirilgan. Pirimqul Qodirov ushbu asar haqida quyidagilarni yozadi: "Men ushbu romanni ko'pchilik kitobxonlarning talablaridan kelib chiqqan holda yozdim va shu asarni yaratish jarayonida XV-XVI asr xalqimiz tarixi, adabiyoti, madaniyatini chuqur o'rgangan holda asarimda aks ettirdim".

Bu ikki asar tarixiy ma'lumotlarga juda boy bo'lgan holda, badiiy jihatdan biroz nochordir. Yozuvchi tarixiy aniq dalillarga katta e'tibor bergani holda, asarning badiiyligini yuksaklikka ko'tara olmagan. Go'yoki yozuvchi badiiy asar yaratishni emas, tarixiy kitob yozishni oldiga birlamchi maqsad qilib qo'ygandek tuyuladi.

"Avlodlar dovoni" asari yaqinda qaytadan "Humoyun va Akbar" nomi bilan Yangi kitob holida nashrdan chiqarildi.

Pirimqul Qodirov adabiy ijodning publisistikadek ommabop janrida ham qalam tebratdi. Natijada uning ilk ocherki "Oilamiz" 1953-yili chop etildi. "Xalq tili va realistik proza", "Til va dil" nomli ilmiy-ommabop ishlari adib va olim izlanishlari mahsulidir.

Adib ssenariysi asosida zangori olov zahmatkashlari haqida "Sening izlaring" badiiy filmi qo'yilgan.

Adib tarjimon sifatida L.Tolstoyning "Kazaklar", K.Fedinning "Dastlabki sevinchlar", N.Tomsenning "Iz", X.Deryayevning "Qismat" asarlarini ona tiliga o'girdi.

"Yulduzli tunlar" romani uchun Pirimqul Qodirov 1982-yili Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Pirimqul Qodirov O'zbekiston xalq yozuvchisidir.




**Sàvîllàr:**

1. Qissàlàridà erk và sàvgi, îilà màsàlàsi qàndày àks ettirilgàn?
2. Zàmînàviy rîmànlàridà qàdr-qimmàt,mà'nàviyat màsàlàsi qàndày àks etgàn?
3. "Yulduzli tunlàr" rîmànidà Bîbur îbràzi qàndày yoritilgàn?
4. "Àvlîdlàr dîvîni" rîmànidà bîburiylàr sulîlàsining jahîndà îlib bîrgàn bunyodkîrlik ishlàri nimàlàrdàn ibîràt?
5. P.Qîdirîv ijîdining insîn mà'nàviy hayoti và àdàbiyotshunîslikdà tutgàn o'rni qàndày?

## 12-MAVZU: ERKIN VÎHIDÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI

(1936-2016)

**Ràjà:**

1. E.Vîhidîv hàyoti và ijîdi hàqidà mà'lumît.
2. Shoir lirikasi
3. "Yoshlik" devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari.
4. E.Vîhidîvning "Ruhlàr isyoni"dîstîni.

**Tayanch tushunchalar:** Erkin Vohidov hozirgi o'zbek she'riyatida "o'ziga xos sehr sohibi" * Shoir she'riyatida romantik ohang va shavqatsiz realistik ruh, rubobiy nazokat va publitsistik harorat, hajv, epik tasvirga moyillik* "Ruhlar isyoni" —falsafiy, fojeiy va qahramonlik dostoni.

**Àdàbiyotlàr:**

1. Kàrimîv N và b. ÕÕ àsr o'zbàk àdàbiyoti tàriõi. - T.: O'qituvchi. 1999.
2. Mirzàyàv S. ÕÕ àsr o'zbàk àdàbiyoti. - T.: O'qituvchi, 2004 .

Erkin Vohidov hozirgi o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning sharq mumtoz adabiyoti an'analari izidan borib, zamondoshlari ma'naviy dunyosini ochib beruvchi g'azallari, yuksak insoniylik ruhi bilan yo'g'rilgan she'rlari, urush fojealari haqida bahs etuvchi "Nido", hayot jumboqlari, inson qismati haqidagi falsafiy mushohadalarga boy "Ruhlar isyoni", "Istambul fojeasi" asarlari, tomoshabinlarni xushnud etgan "Oltin devor" komediyasi, shuningdek, I.Gyote, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiydan qilgan tarjimalari, ayniqsa, "Eron taronalari" bilan "Faust" tarjimasi adabiyotimizda, ma'naviy hayotimizda ulkan voqea bo'ldi.

Erkin Vohidov Farg'ona viloyatining Oltiariq rayonida 1936-yilning 28-dekabrida o'qituvchi oilasida dunyoga keldi. Otasi Cho'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro'-e'tiborli, ma'rifatli, faol kishilari edilar. Afsus, ular uzoq yashamadilar. Urushdan og'ir yarador bo'lib qaytgan ota, so'ng ona dunyodan o'tdi,

bo'lg'usi shoirning opasi va ukasi ham go'dakligida vafot etgan edi. Ikki qisqa umrning yolg'iz yodgori bo'lib Erkin toshkentlik tog'asi Karim Sahiboyev qo'lida qoldi. Uning o'spirinlik, yoshlik yillari Toshkentda o'tdi. Erkin ulg'aygan xonadon ma'rifatga, san'atga, adabiyotga tashna edi, bu xonadonda tez-tez shoir va xonandalar ishtirokida suhbatlar bo'lib turardi. Erkin Vohidovda nafosatga, she'riyatga mehr va mayl shu xonadonda shakllandi. Erkin juda erta qo'liga qalam oldi. 7-sinfda o'qib yurganida "Mushtum" jurnalida birinchi she'ri bosildi. Talabalik yillari o'quvchilar saroyida shoir G'ayratiy bosh bo'lgan to'garak mashg'ulotlariga qatnashib turdi. Bu to'garakda havaskor shoir adabiyotdan, she'riyatdan ilk saboqlar oldi. Maktabni tugatgach, Erkin Vohidov O'rta Osiyo Davlat Universitetining filologiya fakultetiga kirib o'qidi. 1960-yilda u o'qishni tamomlab, turli nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Avval "Yosh gvardiya" nashriyotida (1960-1963), so'ng G'.G'ulom nashriyotida (1963-1970) bosh muharrir, direktor bo'lib ishlaydi. Ayni chog'da "Yoshlik" oynomasiga boshchilik ham qiladi, respublika Oliy Majlis deputati ham bo'lgan.

**Shoir lirikasi**

Uning birinchi she'riy to'plami 1961-yilda "Tong nafasi" nomi bilan bosilib chiqqan. Shoirning ijodi bahs-munozaralar ichida kechdi. Shoir o'z qo'lidagi qurol – she'r, uning tabiati, el-yurt oldidagi burchi – vazifasi xususida ko'p o'ylaydi, she'r va shoir haqidagi qarashlarini bayon etadi. Bular xususida so'z ochganda, u har doim ijod mashaqqatlarini, shoir bo'lish oson emasligini eslatadi. Uningcha, shoirlik o'z ona yurtiga, xalqiga, inson zotiga bo'lgan fidoyi mehrining samarasidir. U "Shoirlik" she'rida yozadi:

*Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir,*
*Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir.*
*Shoirlik – jigarni ming pora etmak,*
*Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.*

Erkin Vohidov dastlab hayot, go'zallik, yoshlik, muhabbat kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Taqdir in'om etgan hayot, saodat, yoshlik, muhabbat sururini, hayotdan rizolikni to'lib-toshib kuyladi. Xalqimiz erishgan yutuqlar, uning shonli

tarixi, qo'lga kiritgan g'alabalari to'g'ri sida faxr-iftixorga to'la satrlar bitdi. Jumladan, "Yoshligim" g'azalida yoshlik sururidan jo'shib yozadi:

*Yoshligim, kel, kuyga to'lgan*

*Qalbim oltin sozi bo'l.*

*Men qo'shiq aytay to'lib,*

*Bir lahza jo'r ovozi bo'l.*

50-yillar oxiri va 60-yillarga kelib vaziyat o'zgara boshladi, inson shaxsiga hurmat, qalbiga e'tibor oshdi, kishining xilma-xil kechinmalari, jumladan, an'anaviy sevgi taronalarini kuylash uchun yo'l ochildi. Bu hol an'anaviy she'riy shakl, ayniqsa g'azalning jonlanishiga olib keldi. Tabiiyki, bu jarayon o'sha kezlari osonlikcha, silliq kechgani yo'q. Ba'zi munaqqidlar ishqiy kechinmani kuylash, ko'hna she'riy shakl - aruzga murojaat qilishni zamondan uzoqlashish deb atadi. Erkin Vohidov "Yoshlik devoni" (1967) kitobining "Debocha"sida shunday qarashlar bilan bahsga kirishadi:

*Istadim sayr aylamoqni*

*Men g'azal bo'stonida.*

*Kulmangiz, ne bor senga deb*

*Mir Alisher yonida.*

*She'riyat dunyosi keng,*

*Gulzori ko'p, bo'stoni ko'p.*

*Har ko'ngil arzini aytur*

*Neki bor imkonida.*

*Ey munaqqid, sen g'azalni*

*Ko'hna deb kamsitmagil.*

*Sevgi ham Odam Atodin*

*Qolgan inson qonida.*

Shu tariqa shoir inson qonidagi azaliy tabiiy tuyg'u – sevgini va necha asrlar muhabbatni kuylagan qadimiy g'azal shaklini himoya qiladi.

She'rda g'azal shunchaki she'riy shakl ma'nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg'ular ramzi tarzida ham qo'llangan:

*Barcha shodlik senga bo 'lsin,*
*Bor sitam, zorlik menga.*
*Barcha dildorlik senga-yu,*
*Barcha xushtorlik menga...*
*Bu jahonning rohatin ol,*
*Bor azobin menga ber,*
*Senga bo 'lsin barcha orom,*
*Barcha bedorlik menga.*

*( "Barcha shodlik senga bo 'lsin" )*

Shoir oshiq ko'ngilning ma'shuqaga bo'lgan mayli ifodasida xuddi mumtoz she'riyat namoyandalari kabi mubolaG'ani hadsiz oshiradi:

*Seni yotlar tugul hatto —*
*Qilurman rashk o 'zimdan ham.*
*Uzoqroq termulib qolsam*
*Bo 'lurman g 'ash ko 'zimdan ham.*
*Ko zim yongay senga nargis —*
*Ko 'zin tiksa chamanlarda.*
*Yashirmam, lolaga rashkim*
*Ayon bo 'lgay yuzimdan ham.*

*(„Rashkim")*

Oshiq yigitning dilrozlari, ma'shuqaning ta'rif-tavsifi har qancha mubolag'ador, romantik bo'yoqlar bilan zeb berilgan bo'lmasin, har ikkisi ham zamon va zamin farzandi, ular shoir aytmoqchi, "o'z zamonin zayli"ga itoat etadigan bizga zamondosh odamlardir.

Erkin Vohidovning yetuk asarlari yolg'ondan begonaligi, shafqatsiz haqiqati, rostgo'yligi va samimiyligi bilan hozirgi jahon taraqqiyparvar adabiyotining eng yaxshi namunalariga hamohangdir.

Shoirning "Inson" she'ridagi inson talqinini eslaylik. Shoir insonning bugungi kamoloti, inson dahosining zakovati — fan-texnika bobida erishilgan mislsiz zafarlar haqida yozadi:

*Minding ilm narvoniga,*
*Chiqding funun osmoniga,*
*Bu jahon ayvoniga*
*Arkon o'zing, vayron o'zing.*

Qarang, shoir fan-texnika taraqqiyoti tufayli bugungi kunda inson jahon ayvoniga "arkon" (ustun) darajasiga ko'tarilganini ayta turib, shu "arkon" ayni paytda "vayron" ekanini pisanda qilib o'tadi. So'ng bu fikrni rivojlantirib deydi:

*Zarrani ijod etib,*
*Dahshat balo bunyod etib,*
*Oqibatni yod etib,*
*Hayron o'zing, hayron o'zing.*

Yo'q, shoir insonning buyuk kashfiyoti oqibati nuqul dahshat-u balolardan iborat deb bilmaydi, buyuk kashfiyotlarni ezgulikka xizmat ettirish ham shu insonning o'z qo'lida, o'z ixtiyorida:

*Bog'i arz obod erur,*
*Sendin agar imdod erur,*
*Yo'qsa u barbod erur,*
*To'fon o'zing, to'g'on o'zing.*

Shoirning ona zamin qismati haqidagi alamli o'ylari "Sirdaryo o'lani" she'rida o'ziga xos tarzda ifodalangan. Bu she'rxalq o'lanlari ruhi, ohangida bitilgan: bir tomonda ona daryoning go'zal ta'rif-tavsifi, ikkinchi tomonda shoirning daryoning hozirgi holati, achchiq qismatidan bezovtaligi, tashvish-zorlari. Shoir nazarida Sirdaryo ko'hna Jayhun (Amudaryo) bilan birga ona vodiy hayoti, bori, quvonchi, alami, zori; yurt uchun ham tomir, ham yurak...

Bora-bora shoir ijodida o'shanday romantik jo'shqinlik, hayotsevarlik tuyg'ulari yoniga jiddiy realistik mushohadakorlik kelib qo'shila boshladi. Shoir hayotni nuqul

madh etish bilan cheklanmay, uning tub mohiyatiga, ichki ziddiyatlariga ham nigoh tashlaydi, qalamga olingan hodisani qarama-qarshiliklari, ziddiyatlari, manfiy va musbat tomonlari bilan birgalikda idrok etadi. Natijada shoir she'rlari o'ziga xos bahs-munozara tusini oladi. 70-80-yillarga kelib shoir sevgi, "hayot kuychisi"gina emas, ko'proq hayotning, inson qalbining badiiy tadqiqotchisi sifatida ko'rina boshladi. "Hozirgi yoshlar", "Inson", "Sirdaryo o'lani", "Arslon o'ynatuvchi" she'rlari, "Ruhlar isyoni", "Istambul fojiasi" singari dostonlari bu jihatdan shoir ijodida olg'a tashlangan qadam bo'ldi.

Hayotga, el-yurtga mehr — bu faqat shirin so'zlar, madhiyalar, hamd-u sanolar orqali ifodalanmaydi. Yetuk adabiyot, yuksak she'riyatda mehr-sadoqat hayotning teran tahlili orqaligina ro'y obga chiqadi. Hayotning shafqatsiz haqiqati, chigalliklari, xalqimiz, butun insoniyat oldida turgan o'tkir muammolami bor holicha ko'r sa-tadigan, odamlar ko'nglidagi dard, tili uchida turgan gap bor ovoz bilan aytilgan asarlargina butun xalqning diliga kirib boradi, koriga yaraydi. Shuni ham aytish kerakki, Erkin Vohidov ijodida goho madhiyabozlik, qasidachilik, ona yurtning "dunyoda tengsiz" ekani, xalqning "cheksiz erki va baxti"dan, "ulug' ishlari", "erishgan g'alabalari"dan o'rinsiz faxr-iftixor tuyg'usi bilan to'lib-toshgan she'rlar ham uchraydi. "O'zbekiston" faxriyasi, "Iftixor tuyg'usi", "O'zbekiston kommunistlari" she'rlarida ham shu hol mavjud.

Bora-bora shoir ijodida romantik jo'shqinlik, hayotsevarlik tuyg'ulari yoniga jiddiy realistik mushohadakorlik kelib qo'shila boshladi. Shoir hayotni madh etish bilan cheklanmay, uning tub mohiyatiga, ichki ziddiyatlariga ham nigoh tashlaydi. Natijada shoir she'rlari o'ziga õos bahs-munozara tusini oladi.

70-80-yillarga kelib shoir "hayot kuychisi"gina emas, ko'proq turmushning, inson qalbining badiiy tadqiqotchisi sifatida ko'rina boshlaydi.

"Tirik sayyoralar"dagi deyarli barcha she'rlarida, õususan, "Àrslon o'rgatuvchi" bilan "Biz ishlayapmiz"da lirik qahramonning kechinmalari, õatti-harakatlari, tashvish-u dardlari, kuzatishlari barcha murakkabliklari bilan poetik tahlildan o'tkaziladi. To'g'ri , shoir keyingi paytlarda yozgan ba'zi asarlarida

gohida bayonchilikka yo'l qo'yadi, hayotiy voqeani shunchaki qayd etish bilan shug'ullanadi, chuqur poetik umumlashmalar chiqarishdan qiynalganday qalam tebratadi, ammo bunday vaziyat uning ijodida hukmron mavqega ega emas, izlanish-intilishning asosini belgilamaydi, o'tkinchi, tasodifiy õarakter kasb etadi. "Tirik sayyoralar"dan o'rin olgan ayrim zaif she'rlar shunday õulosa chiqarishga olib keladi, undagi yetuk asarlar esa shoirning bundan ham yuksak dovonlarga ko'tarilishiga qodir ekanligini ko'r satadi. "Tirik sayyoralar" bilan Erkin Vohidov o'z ijodini yuksak cho'qqiga olib chiqdi. O'sha vaqtdagi Erkin Vohidov bilan bugungi Erkin Vohidov bir-biridan jiddiy farq qiladi. Agar u "Buyuk hayot tongi" dostoni bilan she'riyatda o'ziga õos shoir tuyg'ularini isbotlagan bo'lsa, "Yoshlik devoni" bilan iste'dodning Yangi qirralarini ochishga bel bog'lagan ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

Erkin Vohidov faqat ijtimoiy-ishqiy she'riyat yaratib qolmay, balki hajviy-yumoristik she'rlar muallifi hamdir. Uning "Manfaat falsafasi", "Majlis qiling", "Donish qishloq latifalari" kabi she'rlarida ham komil inson uchun kurash muammosi bosh g'oyani tashkil etadi. Erkin Vohidov bir qancha ajoyib dostonlar muallifi sifatida ham ma'lum va mashhur. Õususan, uning "Nido", "Ruhlar isyoni", "Baõmal" kabi dostonlari o'zining badiiy barkamolligi bilan alohida ajralib turadi.

"Ruhlar isyoni" falsafiy doston bo'lib, unda Bengal shoiri Nazrul Islom jasorati ulug'lanadi. Bu asar Nazrul Islomdek yorqin siymo, asl õalq farzandining shonli va achchiq qismatidan saboq chiqarib olishga chaqiriq bo'lib yangraydi.

Shoir Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni hozirgi o'zbek poemachiligining go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, u muallifning deyarli butun ijodidan o'sib, etilib chiqqandir. Avvalo, dostondagi hayot, zamon va inson mohiyati haqidagi yoniq misralar shoirning haroratiga to'liq lirikasini eslatadi. Asardagi kishini o'ziga rom etuvchi qiziqarli voqea va rivoyatlar tasviri esa shoirning "Nido", "Baõmal" singari liro-epik poemalarini yodga soladi.

"Ruhlar isyoni" dostoni ming yillar davomida kishilikni o'ylatib kelgan umumbashariy muammo, ya'ni insonning zamin va zamonda erkin nafas olishi hamda chinakam baõt topishi masalasi talqiniga bag'ishlangan. Mazkur masalani talqin etar ekan, shoir hayot haqiqatini butun murakkabligi, ziddiyatlari, shafqatsizliklari bilan bog'liq holda gavdalantirishga intilgan, jiddiy ijtimoiy-ma'naviy muammolarni dadil o'rtaga qo'y gan, teran falsafiy mushohadalarni, inson hamda Er kurrasining taqdiri to'g'risidagi alamli o'ylarini yuzaga chiqargan.

Doston kuchli qahramonlik pafosi bilan yo'g'rilgan. U butunicha epik doston bo'lmàsà-dà, àsàrdà inson qahramonligini ko'rsatuvchi voqealarga ma'lum darajada o'rin berilgan hamda bu epizodlardan shoir g'oyasini, falsafiy mushohadalarini, qalb tug'yonini ifodalashda vosita sifatida foydalanilgan. Bunday voqea sifatida ÕÕ asr boshlarida o'z she'rlari bilan butun Hindistonni larzaga solgan mashhur bengal shoiri Nazrul Islomning jasorati, fojiali hayot manzaralari tanlangan. Bu o'rinda shoir mashhur dramaturg Àbdurauf Fitrat an'analari izidan boradi. Bir vaqtlar Fitrat "Hind iõtilolchilari" nomli pyesasida voqealarni Hindiston zaminidan tanlab, o'zining mustamlakachilikka qarshi kurash, milliy iftiõor va ozod muhabbat haqidagi g'oyalarini ramziy yoki vositali usulda ifodalagan edi. "Ruhlar isyoni" dostonida voqealar uzoq Hindistonga ko'chirilishining boshqa sabablari ham bor, albatta. Ma'lumki, "Ruhlar isyoni" dostoni 80-yillarning boshlarida, ya'ni mamlakatimizda turg'unlik davri hukm surgan vaqtda yozilgan. U vaqtda demokratiya va oshkoralik haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Shunga ko'ra shoir o'zining yoniq, hur fikrlarini, inson erkinligi to'g'risidagi jo'shqin o'ylarini, ona tuprog'imizda hamma gapni aytaverish mumkin emasligini bevosita, ochiqdan-ochiq ifodalash qiyin edi. Doston muallifi jamiyatimizdagi illatlarga nisbatan qalbida jo'sh urgan isyonni vositali tarzda yuzaga chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Dostonda Nazrul Islom hayoti boshidan oõirigacha izchil ravishda chizib berilmaydi, balki shoir turmushidagi muhim, keskin onlar tanlab olinib, poetik tahlil qilinadi. Nazrul Islom bor-yo'g'i o'ttiz besh yoshigacha yonib ijod qiladi va o'z she'rlari

bilan Hindiston osmonida chaqmoqdek porlab, kishilar qalbiga nur sochadi. Shundan keyin yovuzlar, mustamlakachilar uni es-hushidan, tafakkuridan, go'zal õayollaridan, so'zlash qobiliyatidan, orzu-umidlaridan mahrum qiladilar. Nazrul Islom qolgan qirq yillik umrini mana shunday majruhlikda, azob-uqubatda kechiradi.

Shoir bu fojiani ko'rsatar ekan, uni vujudga keltirgan tariõiy sharoitni, ijtimoiy ildizlarini original va novatorona shaklda tahlildan o'tkazadi. Mana shu tahlil jarayonida u inson va jamiyat, shoir va zamon, iste'dod erki to'g'risidagi falsafiy mushohadalarini, teran g'oyalarini mufassal tarzda ro'yobga chiqara boradi:

*Shoir yurak –*
*Pok tilagi,*
*Imonidir basharning,*
*Armon to'la yurakdagi*
*Isyonidir basharning.*

Dostonning g'oyaviy falsafasi dunyodagi erksizlikka, haqsizlikka, zulmga, mustamlakachilikka nisbatan keskin isyon, norozilik ruhi bilan yo'G'rilgan. Bu isyon go'yo buyuk hind õalqining to'rt yuz yillik mustamlakaga nisbatan keskin noroziligi bilan hamohangdek namoyon bo'ladi. Nazrul Islom o'z õalqi qalbidagi mana shu isyonning yangroq bongi va qurboni edi. Uning qalbidagi tug'yonlar mana bunday yoniq misralarga ko'chadi:

Har nechakim zo'r iste'dod,
Toshqin ilhom,
U nega,
Õalqing yotsa chekib faryod,
Yaramasang kuniga.
Shoir esang,
Shoir bo'lib
Nega kelding hayotga,

Eling yotsa dardga to‘lib,
Kelolmasang najotga?!
Ne shoirsan,
Tashbehlarning
Bormi aslo keragi,
Bo‘lmasa el g‘ami – darding,
Yuraging – el yuragi?!

Nazrul Islom she’rlaridan birida: “Men isyonkor”, “Men qayg‘uli bu dunyoning notinch qolgan ruhiman”, – deb õitob qilgan edi.

Mana shu so‘zlar vositasida Erkin Vohidov jamiyatdagi turlicha fikrlovchi, siyosatga, she’riyatga va talantlarga har õil munosabatda bo‘luvchi shaõslarning rang-barang qiyofalarini chizadi. Ular orasida o‘zini siyosatdan, davrning murakkabliklaridan chetga tortuvchi munofiq, befarq, õudbin shaõslar, ayniqsa, õavflidir. Doston muallifi Nazrul Islom bilan mazkur shaõslar orasidagi zidlikni va ularning egoistik falsafasini o’sha munofiqlar tilidan quyidagicha ifodalaydi:

Ha, zulm bor,
Haqsizlik bor.
Barchaga bu ayondir,
Ammo buni zinhor-zinhor
Aytib bo‘lmas zamondir.
Hamma bilar,
Inson - erkin –
Yashashi shart poyidor.
Biz ham aytsak bo‘lar, lekin
Uyda bola-chaqa bor...

Bunday õudbinlik oqibatida õalq orasida jaholat, murosasozlik kuchayadi. Bu esa mustamlakachilarga qo’l keladi. Ular buyuk õalq orasiga diniy va irqiy nifoq soladilar, jaholat tufayli tug‘ilgan nizolarni kuchaytiradilar. Buni muallif poemaning shahrida ro‘y bergan fojiali qo‘zg‘alon, diniy adovat, to’qnashuvlar

vositasida Nazrul Islom qalbidagi tug'yonlar orqali yorqin ifodalaydi. Endi Nazrul "G'alayon" deb atalgan bobida 1926-yili Kalkutta Islom bizning ko'z o'ngimizda otashin so'zlari, qaynoq qalbi bilangina emas, balki faol faoliyati, kurashlari bilan ham jaholatda qolgan ōalqining ko'zini ochishga, o'zaro nizolarni bartaraf etishga intiluvchi qahramon qiyofasida namoyon bo'ladi. Lekin Nazrul Islom qahramonligi jaholat va zulmat saltanati ichra charaqlagan yolg'iz nur edi. U go'yo shamdek odamlarga nur sochib, o'zi yonib bitadi. Uning nuridan bahra olganlar Nazrul Islomni tushunish, unga jipslashish, G'oyalari uchun kurashish zarurligini anglab etmaydilar. Oqibatda shoir qalbi Yangi tug'yonlar, faryodlar, inson erki to'g'risidagi iztiroblar girdobiga aylanadi. Bu faryodlar inson qalbining, ruhining erkin bo'lishiga bongdek jaranglaydi:

Shoir bo'lsang,
Bo'lsin qalbing
Elga qurbon bo'lgudek,
Shoir bo'lsang,
Bo'lsin ōalqing
Senga qalqon bo'lgudek.
Shoir bo'lsang,
Seni eling
Qalbi bilan tinglasa,
Yod olmasa hamki she'ring,
Fidoliging anglasa.

Dostonning g'oyaviy falsafasidan a'yon bo'lishicha, inson erki, qadr-qimmati haqidagi ezgu o'y -ōayollar kishilar qalbida asrlar davomida yashab kelgan. Bu o'y -ōayollar, ōalqning asriy orzu-umidlari dostonga mahorat bilan singdirib yuborilgan rivoyat va afsonalar vositasida yuzaga chiqarilgan. Rivoyat va afsonalarda go'yo hind ōalqining ko'p asrlik murakkab tariōi manzaralari, mustamlakachilikka, zulmga, jaholatga qarshi kurash lavhalari hayajonga to'liq holda namoyon bo'ladi. Asarda o'tmish va tariō saboqlari hozirgi davr, ōususan,

mustamlakachilikning emirilishi voqealari bilan bog'liq holda yana bir karra tasdiqlanadi. Õalq taqdirining bunday izchil tasviri, mustamlakachilik emirilgandan keyin ham behush yursa-da, Nazrul Islom she'rlarining, g'oyalarining qadr topishi oqibatida inson erkka va baõtga erishuvi muqarrarligi to'g'ri sidagi ezgu orzusi ro'yobga chiqishiga kitoboonni ishontiradi. Bu g'oya ko'r ko'zni ochgan va shu tufayli jaholat qurboni bo'lgan hakim to'g'risidagi rivoyat vositasida yanada ishonarli ifodalanadi. Mazkur rivoyat bilan bog'liq quyidagi misralar Nazrul Islomning inson erki va baõti haqidagi orzulari muqarrar tantana qilishiga ishoradek yangraydi:

Shu olovdan
Elning, ajab,
Aql ko'zi ochildi.
O'kindilar,
Aza tutib
Yig'ladilar,
Kuydilar,
Donishmandga
Yillar o'tib,
Oltin haykal qo'ydilar...

Dostonga kirgan olti rivoyat uning mazmuniga mazmun qo'shib, jozibadorligini oshiradi. Bu rivoyatlar katta mazmun, tuyg'ularga boyligi, musiqiyligi bilan o'quvchi diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Sharqning buyuk hakamlari haqidagi bu rivoyatlar tafakkurimizni boyitadi. Erkin Vohidov Sharqning buyuk hakamlari haqidagi rivoyatlardan kelib chiqib, hind shoiri Nazrul Islomning ozodlik, erk uchun qanday kurashganligini tasvirlaydi. Dostonda so'z san'atining kuchi bilan tasvirlangan ozodlikka intiluvchi inson obrazi o'quvchi qalbini larzaga soladi.

Dostondan bu dunyoning ijodkori ham, hayotdagi bari ezgu ishlarning sohibi ham, barcha baõtsizliklarning sababchisi ham inson ekanligini anglaymiz. Shoir

aytganidek:

Haq uchun
Bosh tutgan tikka
Mardlar ruhi yor bo'lsin.
Bu dunyoda nohaqlikka
Ko'nmaganlar bor bo'lsin
Zo'rlik ko'rsang,
Qilma toqat,
Har boshda bir o'lim bor,
Fidoiylar umri faqat
Bu dunyoda poyidor.

"Ruhlar isyoni" dostoni oshkoralik va demokratiyani ancha oldindan ko'ra olgan shoirning qalb nidosidek jaranglaydi.

O'zbekiston ðalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" asari qahramonlik pafosi bilan sug'orilgan falsafiy ruhdagi liro-epik dostondir. U jahonda insonning chinakam erkinligi uchun kurashga da'vat etuvchi asar bo'lib, hozirgi o'zbek dostonchiligining jiddiy yutuqlaridan hisoblanadi.

Erkin Vohidov dramaturgiya sohasida ham unumli qalam tebratib, "Oltin devor" komediyasi bilan ðalqqa tanildi. Mazkur asar ijobiy baho qozonishining sababi shunda ediki, unda qiziqarli komik vaziyatlar-u ðarakterlar, keskin to'qnashuvlar-u ziddiyatli ruhiy kolliziyalar yaratish yo'li bilan muallif ma'naviy yuksaklik va aðloqiy poklik g'oyalarini ta'sirchan tarzda ifodalashga muvaffaq bo'lgan edi. Adibning "Istambul fojeasi" deb atalgan she'riy dramasi esa dastlabki komediyasi darajasida muvaffaqiyat qozonmadi. Buning sababi shunda ediki, dramatik harakatning o'ta sustligi oqibatida "Istambul fojeasi" pyesasi juda zerikarli chiqqan edi.

Erkin Vohidov otashin publisist va adabiyotshunos sifatida ham samarali ijod qilib kelmoqda. Uning "Shoiru, she'ru, shuur" kitobi shundan dalolat beradi. Uning tarjima sohasidagi mahorati buyuk nemis shoiri Gyotening "Faust" asari

tarjimasida (1974) yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Adabiyot oldidagi shu õizmatlari uchun Erkin Vohidov O'zbekiston Respublikasi õalq shoiri, Hamza mukofoti sovrindori bo'ldi.

**Savîllar:**

1. E.Vîhidîvning "Yoshlik davîni"da an'ana va pîetik mahîrat.
2. "Ruhlar isyoni" dîstînining g'îyaviy-badiiy õususiyatlari.

4"Shîir sha'ru shuur" asarida shîir pîetik îlami nimalarda ko'r inadi?

5. "Insîn" qasidasining mîhiyati nimada?
6. "O'zbagim" qasidasida yurt madhi qaysi satrlarda bo'rtib ko'r ingan?

## 13-MAVZU: ÀBDULLA ÎRIPÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI

(1941-2016)

**Ràjà:**

1. À.Îripîv hàyoti và ijîdi hàqidà mà'lumît.
2. Àbdullà Îripîv shà'riyatining g'îyaviy-bàdiiy õususiyatlàri: bàdiiy mukàmmallik và falsàfiy tàrànlik.
3. Àbdullà Îripîv shà'riyatidà diniy-fàlsàfiy mîtivlàr ifîdàsi.

**Tayanch tushunchalar:** Shoir lirikasining o'ziga xos xususiyatlari * Shakliy-uslubiy rangbaranglik * Zamonasoz she'rlar va ularning yaratilish sabablari * Insonparvarlik g'oyalari va poetik talqin * Muhabbat lirikasi * Ona haqidagi she'rlari * Vatan mavzui.

**Àdàbiyotlàr:**


1. Îripîv À. Hàj dàftàri. – T.: 1992.
2. Màliyàv S. Lirik fîjàlik. O'zbàk tili và àdàbiyoti, 1991, 3-sîn.
3. Kàrimîv N. và b. ÕÕ àsr o'zbàk àdàbiyoti tàriõi. – T.: O'qituvchi. 1999.
7. Mirzàyàv S. ÕÕ àsr o'zbàk àdàbiyoti. – T.: O'qituvchi, 2004 .


Abdulla Oripov atoqli o'zbek shoiri, davlat va jamoat arbobidir. XX asrning 60-yillaridan A.Oripov asarlari bilan boshlangan sifat o'zgarishlar o'zbek adabiyotini yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynadi.

Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'afur G'ulom ijodiy an'analarini davom ettirgan A.Oripov she'riyati o'zbek adabiyotini uzviy bir yaxlitlikda o'tmish va kelajak bilan bog'lab turadi.

Àbdullà Oripov 60-yillàrdà Erkin Vohidov, Omon Màtjon, Hàlimà Õudoyberdiyevà, Oydin Hojiyevà singàri ijodkorlàr bilàn bir qàtordà o'zbek àdàbiyotigà kirib keldi. Shoir ijodining ilk dàvridàn boshlàb o'z uslubi và o'zigà õos yangroq ovozi bilàn she'riyatimizdà yangilik yaràtib, ko'pchilikning diqqàtini o'zigà

jalb qildi.

Àbdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. Kenjatoy Abdullajon tirishqoq va shoirtabiat bo'lib ulg'ayishida oddiy dehqon Orifbobo va munis aya Turdi Karvon qizi ta'sirlari katta bo'ldi.

Xayolsevar, hayotsevar yigit maktabni oltin medal bilan bitirdi. U 1958-yilda Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo'limiga kirib, 1963-yilda tamomlagan. Adabiyotning nozik bilimdonlari Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov kabi ustozlar qo'lidagi talim-tarbiya; Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi talaba do'stlar muhiti; Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir singari san'atkorlardan bevosita va bilvosita olingan saboq g'unchalab kelayotgan Abdulla Oripov iste'dodiga barakali ta'sir ko'rsatdi.

Qishloqdagi ma'sumona ma'yus hayot, tabiat sokinligi, muhabbat kabi tuyg'ular uni shoirlikka undadi. Shoir ko'nglining ilhom bulog'i ochildi.

Shoirning ilk she'rlari talabalik davrida matbuotda e'lon qilina boshladi. Àbdulla Oripovning birinchi to'plami 1965-yilda "Mitti yulduz" nomi bilan bosilib chiqdi. Shoirning ba'zi ilk she'rlarida mavhumlik alomatlari, bahsli va ziddiyatli o'rinlar sezilardi. Biroq ularni g'oyaviy nuqson sifatida emas, balki o'sish qiyinchiliklari tarzida qabul qilish lozim. "Mitti yulduz" to'plami shoirning haqiqiy ijod yo'liga kirganligidan dalolat beruvchi kitob sifatida maydonga kelgan edi.

Àbdulla Oripov bu to'plamga kiritilgan she'rlarida tabiat manzaralari tasviriga ko'proq o'rin beradi. Masalan "Àrcha" she'rida shoir o'zining tuyg'ulari yuksak cho'qqiga ko'tarilganligini ko'rsatishga harakat qildi. Toshyo'nar usta nogahon archaning ustiga tosh tushirib yuboradi. Àmmo archa bukilmaydi. Yillar o'tib, qaytib kelgan usta hayratdan qotib qoladi: archa toshni boshida ko'targancha gurkirab o'sib turardi... Haqiqatdan uzoq bo'lgan bu voqea tasviri bilan shoir nima demoqchi? Bu she'rda butun hayot haqiqati namoyon bo'ladi.

A.Oripov dastlabki "Mitti yulduz" she'riy to'plami bilanoq butun O'zbekistonga mashhur bo'lib ketdi. Keyingi kitoblari bu ishonchni yanada mustahkamladi.

Dastlabki chog'larda Abdulla Oripov o'zining yashashdan kuzatgan maqsadlari va asosiy estetik prinsiplarini quyidagicha ifodalagan edi:

Men shoirman
Istasangiz shu.
O'zimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg'u
O'zgaga ham bermam ovozim.

Shoir A.Oripov "Mitti yulduz" she'riy to'plamidan keyin yana bir necha kitoblar e'lon qildi: "Ko'zlarim yo'lingda" (1966), "Onajon" (1969), "Chashma", "Ruhim" (1971), "O'zbekiston" (1972), "Hayrat" (1974), "Yurtim shamoli" (1976), "Najot qal'asi" (1980), "Yillar armoni" (1984), "Ishonch ko'priklari" (1989), "Munojot" (1992), "Dunyo" (1995), "Haj daftari" (1995), "Saylanma" (1996) shular jumlasidandir.

Buyuk Amir Temur siymosi A.Oripov qalbini, tafakkurini doimo to'lqinlantirib keldi. Istiqlol sharofati tufayli bu daho qiyofani butun murakkabligi, ulug'vorligi bilan, emin-erkin, xolis gavdalantirish imkoniyatiga ega bo'ldi: "Sohibqiron" (1996-1998) nomli she'riy dramasini yaratdi.

A.Oripov mustaqillik davrida Vatan, Erk, Ozodlikni tarannum etuvchi o'nlab yangi she'rlar yozdi. Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi to'lqinlar olib kirdi. Haj safari natijasida tug'ilgan hamda hikmatomuz hadislar talqiniga bag'ishlangan falsafiy-didaktik she'rlari so'nggi bosqich o'zbek adabiyoti ufqlarini yanada kengaytirdi.

Xalq o'zining sevimli shoirini jamoat va davlat ishlarida yuksak martabalarga, adabiy-madaniy hayotda yo'lboshchilik lavozimlariga ko'tardi.

U 1963-74-yillar oralig'ida nashriyotda, 1974-80-yillarda "Gulxan", "Sharq yulduzi" jurnallarida ishladi. Uzoq yillar Mualliflar huquqini himoya qilish xalqaro tashkilotining O'zbekiston bo'limini va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasini

boshqarib kelgan. U mamlakatning mustaqillik davri barcha chaqiriqlaridagi Oliy Majlis deputati bo'lgan.

Abdulla Oripov O'zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston Qahramonidir.

Bastakor Mutal Burxonov musiqasi, shoir Abdulla Oripov so'zi bilan ijro etiluvchi O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraganda tik turib hurmat bajo keltiramiz.

**Abdulla Oripov she'riyati**

Abdulla Oripov she'riyatining o'z qiyofasi bor. Samimiylik va hissiylik, lirik qahramonlar kuyunchakligi va dardchilligi; poetik ifodalardagi serbo'yoqlik va nafosat, tildagi dilbar o'ktamlik; ularning o'zaro uyg'unligidagi yaxlitlik A.Oripov asarlariga ajib joziba bag'ishlaydi:

Men kuyladim bu olam aro,
Sobit turgan xalqimni faqat.

Xalqni, Vatanni, fidoyi farzandlarning sevinch-tashvishlarini kuylash shoir ijodining asosiy yo'nalishidir. Uning uslubiga umumni umuman emas, aniqni tiniq kuylash xosdir.

Hozirgi kunda Abdulla Oripovni butun mamlakat yaoshi biladi va uning asarlarini sevib o'qiydi. U osonlikcha ijodiy kamolotga erishmagan, albatta. Zotan, shoir yoshligidanoq ijodiy ishga katta mas'uliyat bilan qaradi. Binobarin, ustoz A.Qahhor: "Abdullaning bitta oislati menga ma'qul. U faqat o'zi ko'rgan va o'zi bilgan narsalarnigina yozadi", – deb bejiz aytmagan. Buning ustiga, shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi. Chunki u she'riyatni vijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham u samimiy iolos va mamnuniyat bilan:

Boshin eggay hamisha
Ostonangda Abdullo,
Eng oliy baotim mening,
Onajonim, she'riyat,
Topgan toj-taotim mening,

Jonajonim she'riyat, –

deb kuylaydi.

**"Ayol" (1963)** she'riga nazar tashlaylik. Urushdan yori qaytmagan, butun umr firoqda qolgan, sadoqatda tanho yashab kelayotgan ayol obrazi asarning lirik qahramonidir:

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Hissiy shiddat, hayajon po'rtanasi, so'zlarda nafas olayotgan jon kitobxonni larzaga soladi. Bunday she'rlarni tuyg'u tug'yonlarisiz o'qish mumkin emas. Bu she'r har qanday, hatto johil odamning ham yuragidagi qorong'u burchaklarni yorita oladi. Unda balqigan toza samimiyat odamlarni bir-biriga yanada samimiyroq qiladi, insonga toza nazar bilan qarashni o'rgatadi. Poklik qadriga yetishga undaydi.

She'r nihoyasidagi to'rtlik ayol sha'niga, sadoqat hurmatiga, fidoyilik hikmatiga bitilgan qo'shiqday jaranglaydi:

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga yangi to'lqin, zalvorli salmoq, sermiqyos qudrat bilan bir qatorda yangi, serohang kuy, rangli zarb olib kirdi.

Uning she'rlaridagi intonatsion rang-tasvir g'oya va lirik qahramon xarakteridagi tiniqlikka putur yetkazmaydi, aksincha, ularning har bir harakat va holatdagi o'ziga xosliklarni ochishga bo'ysundiriladi.

"Sarob" (1966) she'ri chuqur insoniy iztiroblarni, umidlarni, hayotga chanqoq muhabbat bilan qorishiq ishtibohlarni va ulardan yangi unib chiquvchi umid kurtaklarini teran tasvirlash jihatidan qimmatlidir.

Ko'z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,

Har biriga marjon bo'lar achchiq unlarim.

Xira tuman orasida cho'g'day miltillar,

Jayron quvib jayron yanglig' o'tgan kunlarim. ...

Quyundayin charx urardik doim to'zonda,

Chang neligin bilmas edik o'shanda hali.

Onamizni o'ylar edik inson deganda,

Ammo ona tanholigin bilmasdin hali.

She'rning lirik qahramoni shoirning o'zi. Biroq u, ayni vaqtda, davr yoshlarining umumlashgan obrazi. Bu qahramon timsolida zamonga katta umid bilan qaragan, lekin umidlari erta xazon bo'la boshlagan, katta va'dalarga uchib, sarosimalar girdobida qolgan avlodning umumlashma qiyofasi aks etadi.

Qalbga sanchilib qolgan muqaddas umidlardan voz kechishning o'zi bo'ladimi? Lekin ular bo'lsa -chi? Yosh qalb ana shu ikki o't o'rtasida. Shamshir ikki tomonda bo'lgani bilan, ular o'rtasida qolgan ozurdajon bir o'zi-ku! Bu qahramonga oson emas. Buning ustiga mushohadakor, isyonkor, haqiqattalab bo'lsa bu qalb.

Shoir, lirik qahramon o'z-o'zini ichdan so'roqqa tutishda, zamondoshi, tengdoshini ruhan tahlil qilishda davom etadi. G'oyalar, va'dalar o'tkinchi bo'lishi mumkin, lekin yurt-chi, Vatan-chi? Shoir tuyg'ulari, azoblari ular bifan yuzma-yuz qoladi:

Men ham sening quyoshingda o'sib, ulg'aydim,

Qarzdorman, tuprog'ingda qoldirdim izlar,

Ammo ayting, qayda qoldi u yoshlik paytim,

Qayda qoldi men ishongan u o'zga hislar.

Faqat istiqlol sahifalariga kelib ochiq aytish mumkin bo'lgan bu dardlarni Abdulla Oripov chorak asr avval aytgan edi. Shuning uchun bu she'r yozilganida birmuncha tutilib va "Sarob" emas, "O'ylarim" degan nom bilan bosilgan edi.

XX asrning,60-yillaridagi shoir yuragi, uning timsolidagi yoshlar hayoti, tarixiy vaziyat, avlod qiyofasi asardagi badiiy haqiqatga mos tushadi.

AbdullaOripovning lirik qahramoni hech qachon haqiqat, adolat tushunchasini tayyor qabul qiladigan yoxud ma'qul kelmagani uchun, qo'lni bir siltab, inkor etadigan kishi emas. Bir qaraganda, haqiqat va adolat barchaga ayon, hammaga ravshan tushunchadek. Biroq uning inson qalbi orqali o'tish va ro'yobga chiqish jarayonlari shu qadar sir-sanoatli, jumboq, murakkab, ziddiyatliki, shoir lirik qahramonlari, ularning zamiriga yetishga intiluvchi, mushohadakor kishidir. Qahramonni adolatning turli holatlarda namoyon bo'lishidan tortib, uning xalq, tarix, alohida bir vijdon dunyosi bilan bog'lanish nuqtalarigacha qiziqtiradi. Maqsaddan kelib chiqib, ular asar mehvariga, turli kompozitsion nuqtalarga tortiladi. "Bahor", "Genetika" she'rlarida bu maqsadlar ruhiy dunyoga falsafiy nazar tashlash orqali namoyon bo'lsa, "Yurtim shamoli", "Malomat toshlari" she'rlarida bir qalbning yurt taqdiri, umuminsoniy qadriyatlar bilan kesishgan nuqtalarini badiiy yoritish orqali amalga oshiriladi.

**"Yurtim shamoli"(1969)da** shamol tushunchasi, shamol obrazi shoir talqinida, shunchaki biz bilgan ma'nodan tashqari, chuqur falsafiy umumlashma darajasiga ko'tariladi. Unda Vatan, adolat, tarix talotumlari va hokazolar bilan aloqador ma'nolar chirmashib ketadi:

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro'yoda,
Qancha bo'stonlarni sovurgan butkul.
Lekin sen bo'lmagin bog'lar zavoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Asar yaratilgan vaqtda "shamol" timsolining ayrim falsafiy nuqtalari jiddiy e'tibordan birmuncha chetda qoldi. Holbuki, bu nuqtalarga shoir katta ijtimoiy ma'no yuklagan edi. O, yurtim shamoli, sen bog'larning zavoli bo'lmagin, deyilgan poetik fikr zamiriga shoir ne-ne qalb bog'i, ne-ne xalq, millat bog'idagi qadriyatlarga zavol keltirayotgan zo'ravonlik "shamol"larini nazarda tutgan edi.

Ular bog'larni xazon qiladigan emas, jamoliga chiroy qo'shadigan shamollar bo'lishini orzu qilgan edi, shoir.

Qanday shamollar esmasin, shoir Vatan shamoli toza bo'lishini orzu qiladi.

A.Oripov — realist, haqiqatparast shoir, murakkab, ziddiyatli hayotning shabadalari haqida gapirganda haqiqatdan chekinmaydi. Chunki davr shamollari ichida o'zi ham borligini yaxshi tushunadi.

Adolatgo'y, haqiqatgo'y shoir oliy manzillarni orzu qilsa-da, ba'zilarga o'xshab, uni qo'l uzatsa yetadigan joyda deb tushunmaydi. Unga umuman yetuvi mumkinligiga ishtibohlar bildiradi. Bu bilan u o'zi qatori, millionlar qalbidagi iztiroblarni, ishtibohlarni obrazli, yorqin va ta'sirchan ifodalab beradi.

Eng asosiysi, shoir lirik qahramon kamoliga qat'iy ishonadi. Chunki uning zamirida xalq kamoli tajassum topadi:

Meni chorlayotir olis bir jamol,
Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.
Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shundoq keturman.
Lekin Abdullaning boqiy kamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

**"Malomat toshlari"** (1976) she'rida boshqa masala qo'yiladi, shunga munosib talqin usuli ham o'zgacha.

Asar shakli ham boshqacha. U masnaviy yo'lida yozilgan. Har ikki satr alohida-alohida qofiyalanib keladi. Mumtoz adabiyotimizdagi aksar buyuk falsafiy dostonlar shu yo'lda bitilgan "Malomat toshlari" shaklidayoq ana shu falsafiy mehr ufurib turadi. Asar g'oyasi, mazmuni, obrazlar tizimidagi teranlik, vazmin ohangdorlik, hissiy zamzamalarning zalvorli tahlili bu ruhni yanada kuchaytiradi:

Hushyor boq, to foniy umr kechadi,
Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.
Biri qora hasad yo g'araz toshi,
Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi

Mayliga qay biri kelmasin qachon,
Ulardan muddao hamisha ayon.

Bu toshlar ma'lum, ular hayotda hech qachon yo'qolmaydi. Ular kimgadir doimo ziyon-zahmat yetkazish harakatida.

Biroq dunyoda shunday tosh ham borki, u insonga behuda ozor yetkazmaydi, ko'ngil shishasini xiyonat bilan sindirmaydi. U vijdon tomonidan uyg'otiladigan malomat toshidir. U bilmay-netmay qay bir ko'ngilni beixtiyor og'ritib qo'yish tufayli dilga cho'kib qolgan azob. U shunday bir toshki:

Idrokning mavjiga tekkani zamon,
U mudroq ruhingga solgay g'alayon.

Inson qanchalik ehtiyotkor, pokdomon, savobtalab bo'lmasin, kimningdir ko'nglini u xohlagan darajada ololmay qolgan bo'lishi mumkin:

Insonning to fazl-u falokati bor,
Uning bir-biriga malomati bor

ekani shundan.

Shuning uchun ham:

Tashrifga ko'z tikkan bemorlardan to
Shohlar diligacha malomatdir jo.
Baxtsiz kimsalarning ko'zdagi yoshi,
Asli, yaratganga malomat toshi.

"Malomat toshlari" she'rining deyarli har bayti falsafiy hikmatlardan tashkil topgan, deyish mumkin. Ularda buyuk mumtoz adabiyotimiz g'oyalari, hikmatlarining ta'siri kuchli. Ular ichida, ayni vaqtda, A.Oripov debosi va san'ati bilan mumtoz adabiyot va an'analariga muayyan boylik bo'lib qo'shila oladigan falsafiy hikmatlar ham bor. Bular, XX asr o'zbek she'riyatida Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Bedil, Jomiy, Navoiy, Boburning bu boradagi an'analari munosib davom ettirilib, ularning benazir baytlari qatoridan kamtarin o'rin olishga sazovor baytlar ham bor ekaniga dalildir.

Biroq asar qimmati hikmatomuz baytlardangina iborat emas. She'r nihoyasiga borib, muhim bir umumlashma chiqariladi. Leytmotivi ana shu misralarda jo bo'ladi:

Mudroq vijdon uchun, soxta shon uchun,
Behuda to'kilgan qancha qon uchun,
Zaminning tuzalmas jarohati deb,
Moviy dunyolarning halovati deb,
Bir kun egilmasmi, odamzod boshi,
Bizga ham yog'masmi malomat toshi.

Mana bu malomat toshlari, shoir talqinicha, eng dahshatlidir. E'tibor bersangiz, A.Oripov sho'ro davridagi mudroq vijdonlarni, soxta shon uchun olib borilgan kurashlarni, o'sha vaqtdayoq — bundan deyarli o'ttiz yil avval (1976) ustalik bilan fosh etishga jur'at qilgan. She'rdagi behuda to'kilgan qonlarning uvoli tutmaydimi (inqilob to'ntaruvi, "bosmachi" milliy istiqlolchilarning mahv etilishi va h. k.) deyilgan o'tkir fikr, hozirgi – XXI asr tongida, jahon miqyosida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inson ruhiyatidagi iztiroblarni umumlashgan miqyosda ko'rsatish "Malomat toshlari" uchun, bu muammoning alohida qalb bilan Vatan to'qinishidagi ko'rinishini tasvirlash "Yurtim shamoli" uchun xos bolsa, inson ruhiyatidagi tovlanishlarning yanada intim qirralarini, nozik tovlanishlarini aks ettirish "Birinchi muhabbatim", "Chuvaladi o'ylarim sensiz" kabi she'rlar uchun xarakterlidir. Umuman, bu she'rlar A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?", "Jo'nar bo'ldim men bundan diltang", "U qo'shiq kuyladi yor sha'niga mast", "Uni ko'rsam qora quyun qoplar dilimni" , "Muhabbat", "Xayr endi", "Kuz manzaralari" singari she'rlari bilan ajib bir yaxlitlikda shoirning muhabbat lirikasini tashkil etadi.

"Chuvaladi, o'larim sensiz" muhabbatning nozik adolariga bag'ishlangan she'rdir:

Chuvaladi o'ylarim sensiz,
Xayolimga taroq urgayman.
Mening qo'lim yetmagan yulduz,

Tushlarimda seni ko‘r gayman.

Sevgi haqidagi aksar she’rlarda bo‘lganidek, oshiq mahbubasiga yetolmasligidan zorlanadi, Chunki mahbuba qo‘l yetmas darajada baland. Romantik xayollar oshiqni sevgilisi tomon — ko‘klarga ko‘tarmoqchi, bunga yigit ham rozi. Lekin ko‘klarga uchguvchi — xayol, asl sevgining o‘zi yerda-ku, axir. Sevgi ham, sevgilisi ham shu zaminda. Muhabbatimiz ro‘parama-ro‘para, yuzma-yuz bo‘lib turgan bir paytda, biz uni olislardan, ko‘klardan qidirishimiz insofdanmi?

Mahshargacha mayliga, ketay,
Ketay, mayli, bo‘lib ovora.
Seni so‘rab qo‘ymasa netay,
Yerda qolgan sevgi bechora.

A.Oripov she’riyati o‘zbek milliy badiiy tafakkuri va ruhiyati taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shoir ayni vaqtda, alohida qahramon timsolida ruhiyatning insoniyatga aloqador turfa jihatlarini, nuqtalarini ochishga usta.

“Qo‘riqxona” she’ridagi lirik qahramon ichki olamining boyligi, tafakkurining uchqur va o‘tkirligi bilan ajralib turadi. U dolzarb, sermiqyos muammolarni mustaqil tahlil eta bilishi jihatidan, umuman, XX asrning mushohadakor, kuyunchak kishisidir. O‘simlig-u hayvonotning kamyobini asrash uchuri qo‘riqxonalar yaratyapmiz, deydi lirik qahramon. Bu — yaxshi, biroq ulardan ham kamyobroq bo‘lib borayotgan, ulardan ham muhimroq muammolar-chi? Axir, ne-ne halol, pok, toza tuyg‘ular o‘tmaslashib boryapti, sof qalblar kamayib ketmoqda. Shularni ehtiyot qilib, asrab-avaylab, qo‘riqlaylik, axir.

Bu fikr-g‘oyalar she’rda badiiy go‘zal, milliy yo‘sinda talqin qilinadi. Ezgulik tojdor turnadek kamyob bo‘lib ketmasin, hayo otashga duch kelgan palapondek kuyib nobud bo‘lmasin, imonni odamlar qor odamdek qidirib yurishmasin, bulbul maqomini boyqush da’vo qilgandek, go‘zal tuyg‘ular o‘rnini xudbinlik, dilozorlik egallamasin. Bularning barchasini avaylab, asramoq zarur.

Bunday umumbashariy qadriyatlarni ehtiyot qilishga chorlayotgan lrik qahramonlar o‘zbek milliy tafakkuri va ruhiyati takomiliga ham jiddiy ta’sir

ko'rsatadi. Chunki bunday qahramon tabiatida davr va zamonning muhim ma'naviy muammolari o'z ifodasini topadi:

To'qayga o't ketsa, yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg'iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun,
Yovuzlikdan zada qo'riqxonadir.

Shoirning lirik qahramonlari shu tariqa mehrparvar, o'zgalar mehriga kuyunchak, ayni paytda, o'zlari ham mehrga doimo maxtal kishilardir.

A.Oripovning bunday she'rlari, qahramonlari doimo milliy o'ziga xosdir.

"Oyoqlangan qo'ziday dovdirar yelda maysa", "Jaloliddin samani bo'lib, sakrab o'ting Amudaryodan", "Yassaviy hokpoyidan aylab oling tummorlar", "Ufqda sarobdan otashin baldoq", "Salmog'i "Quvaning anoricha" bo'lgan yer shari" – shu va shu kabi betakror, o'xshashi yo'q milliy obrazlar va ularni yuzaga keltiruvchi milliy tafakkur yo'sini Abdulla Oripov she'rlaridagi shiddatli ohang qanotlarida o'z muallifini yuksaklarga ko'taradi.

Yuqoridagi she'rlar qatoriga Vatanning oqqush qo'shiqlaridek jaranglovchi "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "O'zbekiston" kabi she'rlarni; istiqlol davrida yaratilgan "Vatan", "Xalq" "Temur", "Adolat oftobi", "Erk haqqi" singari manzumalarni; "Bedorlik" (1999), "Shoir yuragi" (2003) kabi yangi to'plamlardagi asarlarni; buyuk italyan shoiri Aligeri Dantening "Ilohiy komediya"sidek jahon adabiyotining mumtoz namunasi tarjimasini qo'ysak, A.Oripov ijodining naqadar serraiqyos ekani yanada oydin bo'ladi.

Abdulla Oripov she'rlarida falsafiy teranlik bilan jo'shqin lirizm uyg'unlashib ketgan. Uning "O'zbekiston", "Munojot"ni tinglab", "Avlodlarga maktub", "O'ylarim", "Bahor", "Birinchi muhabbatim", "Yuzma-yuz", "Otello", "Kuz", "Saraton", "Dengizga" va boshqa qator she'rlarida mana shu xususiyat yaqqol seziladi. Bu fusunkor va teran she'rlar o'zbek milliy adabiyotining mumtoz namunalari bo'lib, yuksak badiiyligi, mantiqan kuchliligi, jo'shqinligi, yoqimliligi va lirik tuyg'ularga boyligi bilan ajralib turadi:

Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy,

Asrlar g'amini so'ylar "Munojot".

Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga

Qanday chiday olgan ekan odamzod.

Ko'rinadiki, Abdulla Oripov fikrlar va ehtiroslar shoiridir. Uning ijodiy qamrovi keng, fikri teran va mustaqil, badiiy mushohadalari kuchli, ehtirosi jo'shqin, parvozi yuksak. U loqaydlikni bilmaydi. Ana shunga ko'ra, shoir she'rlari jo'shqinligi va lirik tuyg'ularga boyligi bilan o'quvchilarni maftun etadi.

**"Jannatga yo'l"** dramatik dostoni anashu asarlar ichida salmoqli o'rin egallaydi. "Jannatga yo' l" asari nazm va dramaturgiyaning yetakchi dramatik dostoni xususiyatlarini o'zida istifoda etgan dramatik doston janriga mansub.

Afsonaviy-mifologik va fantastik mavzu asosida yaratilgan asar-dagi voqea-hodisalar narigi dunyouda sodir bo'ladi. Lekin bu yozuvchi qo'llagan bir usul ekanini unutmaslik kerak. Aslida mifologik libosda realistik maqsad harakat qiladi, ya'ni adib afsonaviy naql vositalari orqali biz yashab turgan shu dunyo muammolarini talqin etadi.

Komil inson, ezgulik, yomonlik, oxirat singari qadriyatlarning azaliy mezonlari jonli timsollar — jonli obrazlar orqali ko'rsatiladi. Muallif maqsadlarini ifodalovchi ramziy ma'no asar nomiga jo qilingan. Inson tasavvuridagi oliy ideal, oliy xilqat jannat ekan, bu joyga eltuvchi yo'l, shoir talqini va tasviricha, siz bilan biz yashayotgan shu tiriklik dunyosidagi ezgulik, mehr-muruvvat, diyonatda; ota-ona, yaqinlar, umuman, odamlar oldidagi ularning har biriga munosib qarzni uzish va burchni ado etishda. Alloh oldidagi qarz, avvalambor, uning bandasi oldida uzilmog'i kerak, U dunyoning ochqichi shu dunyoda. Tiriklik dunyosidagi qilmishlar, nojo'y a ishlar uchun bu yorug' olamda tegishli ajr olishga ulgurilmasa-da, oxiratda u oqizmay-tomizmay olinishi, shubhasizdir.

Bu g'oya dostonda Yigit, Ona, Ota, Do'st singari obrazlar orqali ochilib boradi. Asar asosida muhim bir badiiy konsepsiya yotadi: ezgulik faqat imkon borida yoxud imkon boricha ro'yobga chiqariladigan xohish emas. Ezgulik insonda, albatta, amalga

oshirilishi zarur ehtiyoj bo'lmog'i kerak. A.Oripov ezgulikni bu dunyoda yashab o'tib, u dunyoga tushgan qahramonlar timsolida ana shunday talqin etadi. Mezon tarozusida gunoh va savoblar o'lchanar ekan, hayotda qilgan ezguliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Nainki yomonlik, balki hatto yomonlarga befarqlik, do'st u yoqda tursin, begonani hasadgo'y lardan himoya qilish o'rniga, o'z tinchiigini ko'zlab, dumini quruqqa olib qochishdagi nomardlik shoirning komil ishonchiga ko'ra, ko'zga ko'r inmaydigan in-sofsizlikdir.

Shuning uchun bu dunyoda silliqqina, kamtargina yurgan dostonning ayrim qahramonlari u dunyoda munosib jazosini olayotgan kishilar sifatida tasvirlanadi.

Ezgu ishlarni amalga oshirish va yomonlikka ayovsizlik asarda inson burchini belgilaydigan ikki asosiy omil sifatida belgilanadi. Bu hol Yigitning Tarozibon bilan suhbatida, Ota bilan Yigit dardlashuvida, Ona monologlarida, Do'st va Yigit muloqotida yaqqol ochilib boradi.

Yaxshi amallarning inson qismatidagi o'rnini tasvirlashga adib katta kuch sarflaydi va buni go'zal obrazli vositalarda ishonarli dalillab beradi. Ota-ona hurmati ulug'langan sahnalarda bu masala yanada teran aks etadi. Chunonchi, hayotlik dimyosida ota-onani behurmat qilish u yoqda tursin, xato qilib bir bor sensiragani uchun yetti marta hajga borgan kishi jannatga noil bo'lolmay qoladi.

Shoir timsolida komil inson qiyofasi. Savob — yaxshi. Savob –mo'tabar. Biroq savobdan savobning farqi bor ekan.

Soydagi toshqinda yigit bir qizaloqni qutqardi, biroq o'zi bevaqt vafot etdi. Tarozibon hisob-kitobiga ko'r a, tasodif tufayli yoki faqat ayrim hollarda qilingan savobli ishning o'zigina jannatga tushish uchun yetarli bo'lolmaydi. “Savob degan narsa axir tasodif emas, yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi”, deb yozadi shoir.

Dostonda markaziy qahramon sifatida ijodkor shaxsning o'ziga xos qiyofasi yaratildi. Ijodkor hamisha el g'amida, haqiqat yo'lida ezgu ishlar qilishi, ezgu so'zlar aytishi lozim ekani ma'lum. Biroq mazkur fikr asarda qahramonga “narigi dunyoda” ko'rsatilgan munosabat orqali original yo'sinda taiqin etiladi.

Bosh qahramon Yigit hayotligida shoir bo'lgan. Mezon tarozisi yonida fe'l-atvori tekshirilganda jannatga tushish uchun ikki paysa yetmasligi ayon bo'ladi. Holbuki, u odamlardan yaxshiligini sira ayamagan, Halol, Insofli, Imonli. Unday bo'lsa, Yigitning gunohi nimada? Tarozibon ma'lum qilishicha, yigit hayotligida shoir ekan, odamlarning boshiga yetgan hasadgo'y, qora yurak, tuhmatchi, pismiqlarni ba'zan ko'ra-bila turib, ularga qarshi kurashmagan, fosh etmagan. Azob ko'rganlarning dardini kuylash, ularni himoya qilish o'rniga, gul-u yulduzga she'r bitish bilan andarmon bo'lib yuravergan. Haqiqat tarozisining e'tiroficha, bu ish gunoh sanalar ekan.

Fitratning "Qiyomat"idagi Pochamir gunoh-savob o'lchovida Tarozibon bilan obdon tortishsa, A.Oripovning Yigiti gunohlarini bo'yniga oladi. Bu – shoir Yigit obraziga A.Oripov nainki asar yozilgan davr shoiri haqidagi xalq orzu-umidini, balki ijodkor shaxs haqidagi o'z idealini ham asarga singdirganini ko'rsatadi.

Ota bilan dardlashuv, Ona sog'inchi Yigit obrazi ochilishida muhim rol o'ynaydi. A.Oripov — nozik realist. Ota — u dunyoda ham ota, ona — u dunyoda ham ona ekan-da. Ikkovlari u dunyoda ham farzandlariga jon kuydirish bilan ovora. Tamom pokdomon eding, o'zing ham boshqalardan jabr ko'rgansan, jabr chekkanlarga keragicha yordam berolmaganing noilojliging tufayli edi, – deydi Ota. Yigitning esa, bu masalada endi chuqurroq o'z falsafasi bor. Uning shu holatdagi fikrlariga muallif katta ma'no yuklaydi. Yigit shunday xulosaga keldi: insonning faqat pokdomonligi hali butkul gunohsizlik uchun asos bo'lolmas ekan. o'zgalarning azob chekishiga sababchi bo'lgan kimsalarga qarshi kurashmaslik o'sha azoblarni keltirib chiqaruvchi sabablarga sheriklik kabidir. Shoir esa, shunday mukarram zotdirki, hayotdagi yaramaslikka, qabihlikka qarshi kurashish uning xohishi emas, burchidir. Bu ishni amalga oshirmagan ekan, demak, toptalgan or-nomus uchun, yomonlar tufayli ojiz-bechoralarning azobda qolgani uchun u ham aybdordir, gunohkordir.

A.Oripov hayotdagi murakkablik, ziddiyatlarni "u dunyo"dagi qahramonlar orqali ham namoyon etish lozimligini unutmaydi. Bu e'tibor xarakter hayotiyligi, haqqoniyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Muallif Yigitning yaxshi niyatlarni amalga oshira olmagani sabablari bo'lganini ko'rsatadi. U ham ne-ne ig'volarga uchragan, sadoqatli odamlarga muhtoj, gohi yolg'iz, gohida nochor edi.

Yolg'iz edi dunyoda u, lekin chinakam Yolg'izlatib qo'ygan edi hayot beshafqat.

Ona tilidan shoir o'g'li haqida aytilgan bu fikrda nainki asardagi Yigit obrazi, balki jumla jahondagi aksar buyuk shoirlarga xos holatlar ifodasini topadi.

Dostonda Yigit va Do'st obrazlari orqali do'stlik ulug'lanadi. Murakkab vaziyatga tushib qolgan ikki do'stning bir-biriga cheksiz sadoqatini ko'rsatish orqali A.Oripov inson umri mohiyatidagi go'zallik va qudratning asosi do'stlikdadir, degan g'oyani ilgari suradi.

Àbdullà Oripovning "Jànnàtgà yo'l" dràmàtik dostonidà qiyomàt và oõiràt, do'zaõ và jànnàt, sàvob và gunohlàrni o'lchàydigàn àfsonàviy tàrozi singàri tushunchàlàr và fàntàstik voqeàlàr hàqidà hikoya qilinàdi. Yigit, Onà, Otà, Do'st, O'spirin, Qàriya singàri hàyotiy qàhràmonlàr bilàn birgà dostondà Tàrozibon, Fàrishtà, Hur qiz, Yugurdàk, Sàdo kàbi ràmziy obràzlàr hàm yaràtilgàn. Bulàr orqàli shoir àdolàt và to'g'rilikkà, vijdon và insofgà, àõloq-odob và yaõshilikkà doir umuminsoniy qàdriyatlàrni, olijànob fàzilàtlàrni tàrg'ib-tàshviq etishdà diniy tushunchàlàrdàn hàm, ràmziy obràzlàrdàn hàm donolik bilàn foydàlànà olgàn. Shoirning dostondàn ko'zlàgàn màqsàdi oõirgi misràlàrdà ifodàlàngàn:

Bir rivoyat bàhonà-yu, doston so'ylàdim,
Turli-tumàn tàqdirlàrni àylàb mujàssàm,
Odàmlàrgà ibràt bo'lsin, deya o'ylàdim.

Inson và uning hàyoti hàqidàgi fàlsàfiy o'ylàrgà hàmdà ulàrning Yangichà tàlqinigà boyligi sàbàbli "Jànnàtgà yo'l" dostoni và umumàn, màzkur àsàr kiritilgàn "Nàjot qàl'àsi" kitobi Àbdullà Oripov ijodining gumànistik mohiyati chuqurlàshgànligidàn dàlolàt beràdi. Shu bilàn birgà màzkur kitob shoir ijodiy yo'lining etuklik bosqichi boshlàngànligini bildiruvchi jiddiy àdàbiyot hodisàsi sifàtidà màydongà kelgàn edi và respublikàning "Hàmzà" nomidàgi dàvlàt mukofotigà sàzovor bo'lgàn edi. Shoir o'zi àytgànidek, hàqiqiy insoniylik, ilm và

zakovat, mehr-muhabbat insonni doimo yaõshilik va ezgulikka undaydi.

Õuddi mana shu g'oyalar shoirning "Haj daftari" turkum she'rlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan:

Tegirmon toshidek aylandi taqdir,
Karvonlar to'zg'idi, sarbonlar basir,
Bandi bo'lgan edi, Ulug'yurt, aõir,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Àvj oldi ig'vo-yu firib, razolat,
Yig'ladi bir chetda yetim adolat.
Bormi saodatga, aõir, kafolat,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Shoir yaratgan dostonlardan yana biri "Ranjkom" (1988) deb ataladi. Shoir bunda falsafiy g'oyalarni ilgari suradi.

Azizim, dil qasriga beso'roq kira ko'rma,
Unda qo'sh-qo'sh ilonlar, ajdaholar yotadi.
Sen birovni toptay deb behuda ot surma –
Har kimning o'z quyoshi, o'z ufqiga botadi...

Dostonda jamiyatdagi insonlarning hayotidagi go'zallikni toptashga bo'lgan harakat qiluvchilar shirkati tuzilishi ko'rsatiladi. Doston voqeasi "Ranjkom" a'zolarining o'zaro suhbati va farrosh ayoldan dakki yeb, sharmanda bo'lishi asosiga qurilgan. Ko'rinadiki, "Ranjkom" dostonida noreal hayot hodisasi aks etgan, õayoliy tashkilot a'zolarining kirdikorlarini ko'rsatishga harakat qilingan.

Àbdulla Oripovning **"Hakim va ajal"** (1980) dostonida esa asar g'oyasini gavdalantirishda uzoq o'tmish manzaralaridan o'rinli foydalanilgan. Jahon tibbiyot ilmining buyuk dahosi Àbu Àli ibn Sino haqida yozilgan bu dostonda umuman, inson hayotiga taalluqli va abadiy zamonaviy bo'lgan muammolar ko'tarilgan. Unda hayot va inson, ilm va o'lim, olijanoblik va hasadgo'ylik haqidagi teran ijtimoiy fikrlar badiiy tarzda gavdalantirilgan.

Dostonda hakimning hasadgo'y shogirdi Mirzo malikaga bo'lgan muhabbatini yuragiga sig'dira olmay ustozini o'ldiradi va dunyo, sukut ichra bo'lgan donishmand tanasining uyg'onishini kutadi:

Bu sukutning tugaydigan zamoni yo'qdir,
Bu umrning poyoni yo'q, u vaqtdan holi.
Ko'radi-yu, so'zlay desa zaboni yo'qdir,
Eshitadi, turay desa yo'qdir majoli.

A.Oripovning she'riyatidagi o'ziga õoslik uning ajoyib obrazlar topa olishida ham ko'rinadi. Masalan, shoir "Sabrning tagi sariq oltin" maqoliga o'õshab ketadigan nasihatomuz "Shoshmaslik haqida ballada" yaratgan va kutilmagan timsollar topa olish mahoratini yaqqol namoyon qilgan:

Zaminga shoshmasdan qadam qo'y, bo'tam,
Shoshmasdan aylanar erning o'zi ham.

Abdulla Oripovning estetik qarashlaridan ayon bo'lishicha, lirika insoniyat badiiy tafakkuri, yaratgan va yaratadigan mo'jizalardan biri bo'lib, kishining olam va borliqqa hissiy emosional munosabati orqali odamlarni ezgulikka, ruhiyatni poklashga chorlovchi ma'naviy boylik hisoblanadi. Har bir millat o'zining mana shunday ma'naviy boyligiga ega. Mana shunday boyliklar tarjimoni shoirdir. Nodir iste'dod egasi A.Oripov tarjimon sifatida A.Pushkin, T.G.Shevchenko, V.Charens, N.Ganjaviy, Q.Quliev she'rlarini, Dantening "Ilohiy komediya" asarini tarjima qildi. Ayniqsa, Dantening "Ilohiy komediya"sidagi falsafiy qarashlar va majoziy timsollar A.Oripov she'riyatiga, õususan, "Jannatga yo'l" dostoni maydonga kelishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan edi. Bunday ta'sirlanishni shoir quyidagi misralarda ifodalagan edi:

Endi õush suvlarda ko'targum elkan,
Daho iqtidorim charõ urar tag'in,
G'addor mavjlarda u adashib elgan.

Abdulla Qodiriy o'zining mashhur asarida "Moziyga qaytib ish ko'rmoq õayrlidir" deb aytib o'tadi. A.Oripov shoir sifatidagi yaratgan she'r va

dostonlaridan tashqari dramaturgiyaga ham qo'l urdi. U "Sohibqiron" dramasini yozdi. Drama besh pardadan iborat bo'lib, adib o'tmishdagi buyuk bobokalonimiz Temurning davlat boshqaruvi, hayoti va tuyg'ularini ko'rsatib berishga harakat qiladi. "Men nimani ko'rib, his etgan bo'lsam, shuni qalamga olishga harakat qilganman", – deydi shoir. Shu ma'noda A.Oripovning insonning sir-sinoatini bilishga, badiiy inkishof etishga, murakkab ruhiy olami manzaralarini chizishga bo'lgan harakati, yurak mohiyatini ochishga ishtiyoqi mudom she'rlarida aks etadi:

Inson qalbi bilan hazillashmang siz,
Unda ona yashar, yashaydi vatan.
Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,
Hayhot! Qo'zg'almasin bu qalb daf'atan!..

Shîir ijîdigà bir nàzàr








## Sàvîllàr:

1. À.İripîv dîstînlàridà umuminsîniy g‘îyalàr qàysi o‘rinlàrdà ko‘rinàdi?
2. Shîir shà’rlàridà lirik mànlik nimàlàrdà nàmîyon bo‘làdi?
3. “Rànjkîm” àsàridà kinîyaviy ruh nimàlàrdà nàmîyon bo‘lgàn?
4. “Hàj dàftàri” kitîbidàgi shà’rlàrdàn nàmunàlàr tàhlil qiling.
5. Muhàbbàt lirikàsi àks etgàn shà’rlàrini àyting.

## 14-MAVZU: O‘TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI

(1941-2013)

**Rāja:**

1. O‘.Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma’lumot.
2. O‘.Hoshimov hikoyalarida ma’naviy-ruhiy olam talqinining o‘ziga xosligi
3. O‘.Hoshimov qissalarida ma’naviy axloqiy muammolarning badiiy talqini.
4. Yozuvchi romanlarida inson qismati, ma’naviy va ruhiy muammolar talqini.

**Tayanch tushunchalar:** O‘tkir Hîshimîv bugungi o‘zbāk ādabiyotining pāshqādām vakıllāridān biri * “Lîv etib ālangā bilān bîshlāngān ijîd” tāqdiri * Ādib qissālārining jīzibā sirlāri * “Dunyoning ishlāri”

**Adabiyotlar:**


1. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2009.
2. Karimov N. va b. XX asr o‘zbāk adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
3. Mirzaāv S. XX asr o‘zbāk adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2004 .


Noyob iste’dod sohibi O‘tkir Hoshimov ādabiyotgā Ābdullā Oripov, Omon Muōtorov, Shukur Ōolmirzāyev singāri bir qātor tengdoshlāri bilān birgā kirib keldi. O‘shā pāytdā ādabiyotimizning Oybek, G‘āfur G‘ulom, Ābdullā Qāhhor, Māqsud Shāyōzodā singāri ulkān yozuvchilāri hāyot bo‘lib, ulārning nāzārigā tushish hāmmāgā hām nāsib qilāvermāsdi. O‘tkir Hoshimov esā Ābdullā Qāhhordek māshhur sān’ātkor e’tiborini jālb qilgān yoshlārdān edi.

O‘tkir Hîshimîv 1941-yilning 5-āvgust kuni Tîshkāntning Do‘mbirîbîd dāgān jîyidā tug‘ildi. Uning bîbîsi-yu bîbîkalînlāri ziyoli, o‘qimishli îdāmlār bo‘lishgān, sāvdî-sîtiq bilān shug‘ullānishgān, bā’zilāri durust-durust hunārlārning egāsi bo‘lishgān. Jumlādān, O‘tkirning ājdîdlāridān bā’zilāri Bāshyog‘îchdāgi Ābulqîsim mādrāsāsini qurishdā qātnāshgān. Bu mādrāsādā Tîshkāntning ko‘pginā ātîqli îdāmlāri qātîridā buyuk ādibimiz Ābdullā Qîdiriy hām o‘qigān.

O‘tkirning îtasi îddiy ishchi bo‘lgan — u umrining ko‘p qismini Tîshkânt to‘qimachilik kombinatida ishlab o‘tkazgan. “Îtam eskicha alifbîdagi kitîblarni ham, zamînaviy gazatalarni ham muttasil o‘qib bîrar, kamgap, õiyla tajang, ammî nihîyatda haqparast îdam edi...” Îtasidagi bunday haqparastlik kayinchalik farzandiga ham o‘tgan bo‘lsa. asarlaridagi jig‘ibiyrînlik, haqsizlikni yonib qîralash, adîlatni himîya qılish shu îta marîs haqparastlıkning îqibati bo‘lsa na ajab?

O‘tkir Õîshimîv “Mashaqqatli safar” dagan tarjimayi holida îtasi bilan bîg‘liq bo‘lgan yana bir muhim va ibratli hîlni ta’kidlaydi: “Îtamdan qattiq hayiqar edik. Îtam birîn marta ham bir tarsaki urgan emas. Îtamni qattiq izzat qilishni înam o‘rgatgan. “Hîzır adang kaladilar, uyni supurib qo‘y”, “Adangni jahllari yomîn, tinch o‘tiringlar”, “Adangni katminiga tagma”, “Adangni siatiga qo‘l tagizma...” Bilmadim, hîzirgi zamînaviy îilalarga bu hîlat faîdalizm bo‘lib tuyular, ammî bizning îilamizda îta shaõsiga sig‘inish farzandlarga ziyon kaltirganini eslay îlmayman”.

Bo‘lg‘uvsi adibning înasi uy bakasi edi. Hakima Hîshimîva madrasa ko‘rmagan bo‘lsa ham g‘îyatda zahni o‘tkir, juda õushfa’l ayol bo‘lgan. “Înam esa îtamning aksicha nihîyatda yuvîsh, juda mahribîn edi, qo‘shnining mushugi tug‘sa ham jîni îg‘rigandir dab achinar, ko‘chada birîn bîla yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa, albatta, tapasiga bîrib bîshini silar, birîn sabab bilan biz — bîlalarni qarg‘asa, o‘zi ham yig‘lab yubîrar, o‘sha zahîti ko‘nglimizni îlishga harakat qilardi. U nihîyatda farishtali, diyonatli ayol bo‘lgani uchun mahalla-ko‘yda uni yosh-u qari baravar hurmat qilardi. Îdamlar o‘rtasida bu ajîyib insîn “Pîshshaîyi” dagan nîm bilan shuhrat tîpgandi.

O‘tkir mahalladagi hashar yo‘li bilan qurilgan bir qavatli maktabda o‘qigan. U maktabga borganida urush tugaganiga bor-yo‘gi uch yil bo‘lgan, mamlakat og‘ir jarohatlarini hali davolab ulgurmagan edi. Kiyim-kechakning tayini yo‘q, qorin bir kun to‘q bo‘lsa, bir kun chalaqursoq. Bolalar o‘qish bilan bir qatorda ro‘zg‘or tebratishda ko‘maklashishga majbur. Shuning uchun O‘tkir ham har kuni bo‘lmasa-da, kunora tikroq bolalar bilan birga eshak minib, olis Beshyog‘och bozoriga qatnaydi, uzummi, nokmi, olmami sotib, ro‘zg‘orga zarur narsalarni xarid qiladi.

Lekin bu qiyinchiliklar O'tkirning hafsala bilan o'qishiga halal bermaydi. 5-sinfda o'qib yurgan kezlarida u adabiyotga qiziqa boshlaydi, she'rlar mashq qiladi, hikoyalar qoralaydi. Yillar o'tgani sari yozuvchi bo'lish ishtiyoqi uning asosiy orzusiga aylanadi. Maktabni oltin medal bilan bitirgan O'tkir "yozuvchi tayyorlaydigan" o'quv yurtini izlay-izlay, uni Toshkent dorulfununining filologiya fakultetidan, to'g'rirog'i, uning jurnalistika bo'limidan topadi.

1959-64-yillar Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida ta'lim oldi. Keyinchalik u "Toshkent haqiqati", "Sovet O'zbekistoni", 1966-yildan "Toshkent oqshomi" ro'znomasi muharririyatida bo'lim mudiri, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishladi, Oliy Majlis deputati ham bo'lgan. O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. O'tkir Hoshimovning "Po'lat chavandoz" deb atalgan birinchi kitobchasi 1962-yili hali talabalik davridayoq bosmadan chiqqan edi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'liga borib tegdi. Uning ilk qissasi "Cho'l havosi" (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o'sha paytda juda yaxshi fikr bildirgan. O'tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo'lida u "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi", – deb bashorat qilgan edi. Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma'naviyati, ruhiyati, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko'ringan edi. Roman, qissa, hikoyalarida so'z san'atining azaliy bosh muammosi – inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi. Muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko'p o'rinlarda personajlar ruhiyatidagi g'oyat nafis jarayonlarni san'atkorona ifoda etardi. "Cho'l havosi", "Muhabbat", "Nigora", "Shamol esaveradi" nomli hikoya va qissalar shundan dalolatdir.

Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga ko'proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma'naviyat, ruhiyat tahliliga bag'ishlangan asarlar ustida ish olib bordi. Yozuvchining shu yo'nalishdagi "Qalbingga quloq sol" (1973), ayniqsa,

"Bahor qaytmaydi" (1970), "Dunyoning ishlari" (1982) qissalari unga katta shuhrat keltirdi.

"Bahor qaytmaydi" (1970) qissasida yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum õudbin yigitning tanazzul tariõini, ruhiy-ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yo'liga kirganligini ko'ramiz.

Àlbatta, "Bahîr qaytmaydi" qissasi haqida, ayniqsa, uning badiiy qimmati to'g'ri sida muayyan bahs yuritish mumkin. Jumladan, qissaning tugallanmasi ayrim kitîbõînlarga ma'qul kalmasligi mumkin. Qissa îõirida Àlimardînning halîk bo'lishi shartmidi? Àdib "yaõshilik, albatta, taqdirlanadi, yomînlik, albatta, jazîlanadi" dagan aqidaga amal qilmayaptimi? Àõir, hayotda Àlimardîndak îdamlar hamma vaqt ham vijdîn azîbiga tushavarmaydi. Ularning o'z jîniga qasd etishi bundan ham kamrîq ro'y baradi. Lakin bu mulîhazalar shunchaki mulîhazalar, õîlîs. Àsarni qanday tugatish to'laligicha muallifning iõtiyorida.

Ikkinchidan, Àlimardîn, mabîdî, halikatga uchramay, sîg' qîlganida ham, asarning umumiy qimmatiga putur yatmagan bo'lardi. Õullas, gap õitimada emas, balki qissa qahramînlarining ko'z o'ngimizda sîdir bo'ladigan munîsabatlarida, shu munîsabatlar zamiridagi hayot haqiqatida. Tabiat Àlimardînga babahî na'mat atî etgan. U katta ista'dîd egasi. U ista'dîdini ishga sîlib, milliînlab îdamlarning ko'nglini îvlashi, ularga zavq-shavq ulashishi mumkin. Lakin Àlimardîn bunday qilmaydi. U o'z ista'dîdiga ham, o'zining taqdiriga ham, sadîqatli do'sti Ànvarning, savimli rafiqasi Muqaddamning, jîndan ìrtiq ko'rgan o'g'li Shavkatjînning taqdiriga ham bapisand qaraydi. Nagaki, u bîlaligidan faqat o'zini o'ylaydigan, faqat o'z jînining huzurini ko'zlaydigan õudbin bo'lib o'sgan. Kayin esa, shuhrat uning bîshini aylantirib qo'ygan. U ista'dîdini chakana pullash yo'liga kiradi, o'z ustida ishlamaydi, izlanmaydi, o'zini hammadan yuqîri qo'yadi. Ànvar uning ko'ziga bo'sh-bayov, landavur ko'rinadi. Muqaddamga uylangach, uni õo'rlay bîshlaydi, o'ziga o'zi mahliyo bo'lib, tîmîshabinlarni, muõlislarini ham mansimay qo'yadi. E'tiqîdsizlik,

màs'uliyatsizlik, o'tkinchi màyllàrgà bàrilish, umuminsîniy qàdriyatlàrni mànsimàslik Àlimàrdînni fijiagà îlib kàlàdi.

Qissàning tà'sir kuchini tà'minlàydigàn îmil shundàki, muàllif bîshqà îbràzlàr kàbi bîsh qàhràmîn Àlimàrdînni hàm turfà õil rànglàr bilàn tàsvirlàydi, U hàyotidà qànchà àdàshmàsin, õàtîlàri tufàyli yaqinlàri bîshigà qànchà kulfàt kàltirmàsin, bàribir insîn. Àsàr dàvîmidà birîr sàhifàdà biz Àlimàrdînning õàtti-hàràkàtlàridà sun'iylik ko'rmàymiz, hàyot màntig'igà zid kàluvchi sifàtlàrgà ro'bàro' kàlib rànjimàymiz. Àlimàrdîn õàtîlàri ko'pàyib, bîshi bàrk ko'chàgà kirgàni sàyin undàn õàlîs bo'lishni hàm o'ylàydi. Hàr qàndày îdàmdà bo'làdigàndàk, o'z-o'zini tàhlil qilish, o'z qilmishlàrini sàrhisîb etish Àlimàrdînni hàm o'zidà insînni qidirishgà màjbur qilàdi. Bu esà undàgi vijdînning uyg'înishi edi. To'g'ri, bu uyg'înish hàddàn tàshqàri kàchikkàni uchun uning bîshigà tushgàn fîjiàning îldini îlîlmàydi. Làkin bu qàhràmîngà muàyyan jîzibà bàõsh etàdiki, ungà ishînchimizni mustàhkàmlàydi. Hàr hîldà, kitîbõîn Àlimàrdîndàn nàfràtlànishdàn ko'rà ungà àchinàdi, ungà ràhmi kàlàdi, shundày istà'dîd egàsining o'tkinchi hàvàslàrgà qurbîn bo'lib kàtgànigà, u bilàn birgà Ànvàr và Muqàddàmning hàm turmush zàrbàlàrigà duchîr bo'lgànigà àfsuslànàdi, qissàning qimmàtli tîmîni hàm shundà. Õuddi shu tààssuf tuyg'usi kitîbõîn qàlbini yumshàtàdi, ungà mà'nàviy sàbîq bo'làdi.

O'tkir Hoshimov àsàrdàn-àsàrgà o'sib bordi. Undà nàfosàt tuyg'usi behàd kuchli. Hàtto u àldàngàn odàmning mà'nàviy inqirozi, fojeàsi, hàlokàti tàsviridà hàm shu tuyg'usini sàqlàb qolàdi. Àyniqsà, u yaõshi, oliyjànob, mà'nàviy bàrkàmol odàmlàr qàlbi tàhlilidà o'zini nihoyatdà erkin his etàdi. Uning ijobiy qàhràmonlàri àksàri go'dàkdày beg'ubor, nàfosàt tuyg'usigà boy, hissiyotli, o'tà tà'sirchàn odàmlàrdir. Yozuvchi ijodigà õos liro-romàntik tàronà uning "Dunyoning ishlàri" qissàsidà eng bàlànd pàrdàlàrdà jàrànglàdi. Bu àsàr onà hàqidàgi, onà qàlbining cheksiz sàõovàti to'g'risidàgi o'zigà õos qàsidàdir. Àsàrdàgi Onà – fàrzàndi, uning oromi, bàõti uchun jonini, jàhonini berishgà tàyyor. U ming-minglàb o'zbek onàlàrining timsoligà àylàndi. Hàr bir o'zbek kitobõoni undà o'z onàsining qàndàydir fàzilàtini topgàndek bo'làdi.

Qissadagi "Àllà", "Oq marmar, qora marmar" kabi novellalarda onaning farzandi qalbida qoldirgan armonlari haqida o'tkir yozilgan. Kishi bularni o'qir ekan, tasvirdan ko'ngli allanechuk bo'lib ketadi.

**"Dunyoning ishlàri"** bir qarashda àvtîbiîgràfik qissaga o'õshaydi. Unda muallif o'z înasi to'g'risida, urush yillarida kàchgan bilaligi to'g'risida hikîya qiladi. Làkin yozuvchining àsîsiy niyati o'zi uchun eng aziz siymî Înaning àniq, pîrtràtini chizish, uning hayot yo'lini bayon etish sha'niga maqtîvlàr aytib, õitirasini abadiylashtirish va shu yo'l bilan farzandlik burchini o'tashgina emàs. Àgàr shunday bo'lsa, "Dunyoning ishlàri" înaga bag'ishlangan ko'pgina àsarlardan farq qilmaydigan jo'ngina àsar bo'lib qîlardi.

"Dunyoning ishlàri' fàlsafiy umumlashmalarga bîy, îddiy insîn hayotining turli muhim jihatlari haqida o'ylashga chîrlaydigan, yuksàk hissiy pardalarda yozilgan lirik-psiõîlîgik qissàdir. Muallif bir vaqtlar o'zbàklar hayotida kàng tarqalgan, hozir hàm tàz-tàz uchrab turàdigan îddiy, maishiy vîqàalarni tasvirlar ekan, shu tasvir jarayonida Înà îbrazini chizar ekan, õàlq hayotining nàgizi ma'naviy-aõlîqiy e'tiqîdlarni badiiy tahlil etishni bîsh maqsad qilib qo'yadi.

Muallif o'qib yurgan kàzlarida astrînîmiya darsida bir haqiqatni kashf etganini yozadi: "Îyning o'zi nur sîchmas ekan. Bu dunyoda îftîb bîrligi uchun ham îy nur sîchib turar ekan". Yozuvchi tabiatning bu hîdisasini îdamlar hayotiga qiyoslaydi va go'yoki har bir îdamni nurlantirib turadigan îftîb bîr, bu îftîb — muhabbat, màhr, shafqat, vijdîn, ezgulik kabi aqidalardirki, ular asrlardan asrlarga, avlîdlardan avlîdlarga o'tib, insîn hayotiga tàran mazmun va go'zallik baõsh etib kàlmîqda, bu e'tiqîdlar, dastavval, înalarimiz siymîsida tugal mujassam tîpadi, dàgan fikrni îlg'a suradi. "Dunyoning ishlàri" qissasining yuksàk gîyaviy-tarbiyaviy ahamiyatini bàlgilagan, uni bugungi adabiyotning pàshqadam asarlariga hamîhang qilgan àsîsiy fàlsafiy-aõlîqiy kîntsàptsiya ana shunday.

Muallif Înà îbrazini yaratishda o'ziga õîs yo'l tanlagan-u birîq Înaning pîrtràtini to'la chizmaydi. Biz ayrim dàtallar îrqaligina uning qo'llaridan dîim sut hidi anqib turishini, jussasi kichikligini, bo'yi tandir tàpasiga yatmasligini bilib îlamiz.

Qissada Înaning tarjimayi hîli ham tasvirlangan emas. Biz uning farrîshlik qilganidan îgîh bo'lamiz, õîlîs. Uning savîdi ham kitîbõin uchun qîrîng'i qiladi. Har hîlda uning îlam haqidagi tasavvuri o'z îilasi, qarindîsh-urug'lari, mahalla dîirasi bilan chaklangan. Uning umri ro'zg'îr ishlari bilan, bîlalarini yuvib-tarab, yadirib-ichirish tashvishi bilan o'tgan.

Õullas, "bu dunyoda kamsuqumgina yashab o'tgan" Îna ko'pgina o'zbak ayollaridan hach narsasi bilan farq qilmaydi. Lakin biz Înaning ana shu kamsuqum, îddiy hayotini ma'naviyatdan hîli dab, uning o'zini zabun va mushtipar dab atay îlmaymiz. Aksincha, nigîhining o'tkirligi, fikrining taranligi tufayli ko'z o'ngimizda Înaning hayoti batakrîr ulug'virlik kasb etadi, zo'r qudratga ega bo'lgan ibratga aylanadi. Îddiy hayotiy vîqaalar silsilasida Înaning ruhiy pîkligi, tubsiz ma'naviyati, insîniy go'zalligi îchiladi.

Îddiy o'zbak ayoliga yuksak ma'naviyat bag'ishlaydigan, îftîb bo'lib uni nurlantiradigan kuch nimada? Bu kuch — Înaning hayotiga salmîqli ma'nî kasb etadigan, uning õulq-atvîrini, yashash tarzini balgilaydigan e'tiqîdlarida.

Îna qalbida hammaga yatib îrtadigan adîqsiz mahr bîr, u bu ulug' tuyg'uni farzandlariga singdirishni istaydi. Uning e'tiqodiga ko'ra insînni insîn qiladigan, qalbini îlivday isitib, îftîbday nurlantiradigan qudrat — muhabbat. Îna farzandining qalbida hayotga, uning jamiki ehsînlariga muhabbat dîimî to'lqin urib turishini õîhlaydi. Shuning uchun farzandi aqlini tanir-tanimas unga ma'naviyatimizdan sabîqlar bara bîshlaydi. Bu sabîqlar dastlab har õil rivîyatlardan, purhikmat afsînalardan chiqadigan mantiqiy õulîsalar tarzida bo'ladi. "Qînqusni yaõshi ko'rgin", – daydi Îna farzandiga. "Qînqus o'zimizning anhîr.. Undan o'zimiz suv ichamiz". "Jînivîrlarni yaõshi ko'rish karak, bîlam", dab o'git qiladi Îna. Lakin hamma narsadan ko'ra îrtiqrîq îdamlarni savish karak. Insînlarga muhabbat Îna uchun mavhum tuyg'u emas. "Îdam, eng avval, o'zining yaqinlarini yaõshi ko'rishi karak. Dunyoda yaõshi îdamlar ko'p. Judayam ko'p. Àmmî san adangni, îpangni, akalaringni... maniyam yaõshi ko'rmasang, dunyoda hach kimni yaõshi

ko'rmaydigan bo'lib qîlasan". Îna uchun hayot — buyuk na'mat. Insîn esa, shu hayotning zab-ziynati.

Înaning bu e'tiqîdida õalqning asrlar sinîvidan o'tgan, sayqallashib, uzil-kasil bir shaklga kirgan tabiiy insînparvarligi ifîdalangan. Îna insînga, uning yaõshiligiga, ma'naviy barkamîlligiga astîydil ishînadi va bu ishînch uning îlam bilan, îdamlar bilan munîsabatini zimdan bîshqarib turadi. Îna o'zgalarning õatti-harakatini bahîlaganda, yaõshi-yomînligini aniqlaganda sîdda, lakin salmîqli mazînlarga tayanadi. U o'g'liga îftîb haqidagi ertakni aytib barib, undan "kim yar yuzini tîzalasa, o'sha eng yaõshi îdam" dagan õulîsa chiqaradi. Bîlaning murg'ak tasavvuri buni darrîv înasining farrîshligi bilan bîg'laydi. Yozuvchi esa, bu hikmatning ramziy ma'nîsiga ishira qiladi. Yaõshi îdam hamma vaqt bîshqalarga yaõshilik qilishi, hach kimdan mahr-shafqatini ayamasligi karak. Aksincha, o'zgalarning dardini his etmaslik, qahri qattiqlik, bag'ritîshlik yomon îdamning balgisi.

Mahallaning bîyvachchasiga aylangan prîrab yigit To'õtavîy qamalib qolganida, Îna uning hadamay qutulib kalib qîlishiga umid bildiradi. O'g'il esa "ko'pchilikning haqiga õiyonat qilgan qallîbni maqtagan" înasidan ranjiydi. Shunda Îna o'g'lining ko'ziga diqqat bilan tikilib qîladi va anchadan kayin "qahring shunaqa qattiqmi" – daydi. Bu õitibda o'kinch aralash taassuf îhangini ilg'ab îlish qiyin emas. Lakin bu o'rinda Îna o'g'lini qallîbga nisbatan shafqatli bo'lishga undayotgani yo'q — u "o'qimishli, har narsani biladigan" o'g'lidan ko'ra hayot hîdisalariga chuqurrîq nazar tashlaydi. "Înasida nima gunîh? qîn bîsimi bo'lsa, ertaga puf etib dumalab katsa, shunga suyunasanmi? Îna-ku bu..." Bu qisqa dialîgdan kitîbõin Înadagi insîniylik tuyg'usi naqadar taran ekanini payqab îladi.

Îna îbrazini jîzibadîr etgan muhim jihatlardan yana biri shuki, u nasihat qilish, îddiy haqiqatlarni ta'kidlash, bo'lar-bo'lmasga targash bilan farzandlariga tarbiya barmaydi, balki o'zi buyuk e'tiqîdlarga amal qilib yashashi bilan, ibrati bilan ularning îlam va îdam haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Uning butun hayoti tavarak-atrîfidagilarga saõiylik bilan mahr-muhabbat ulashish asîsiga qurilgan.

Înа mаhrining pîyonsizligi, hаyotbаõsh muhаbbаtining qudrаti, аyniqsа, uning bîlаlаrgа munîsаbаtidа yaõshi îchilgаn. Înа fаqаt o'z fаrzаndlаrinigina emаs, bаlki bîshqа bîlаlаrni hаm yaõshi ko'rаdi. U hаr bir go'dаk qаrshisidа, mаhrgа tаshnа hаr bir bîlа îldidа o'zini qаrzdîr dаb bilаdi vа qo'lidаn kаlgаnichа qаrzini uzishgа tirishаdi. Înа uchun îdаmiylikni bаlgilаydigаn аsîsiy mа'yorlаrdаn biri hаm bîlаlаrgа mаhribînlik vа mushfiqlik bilаn munîsаbаtdа bo'lishdir. U hаmishа bîlаlаr chаhrаsidа õushnudlik vа shîdînlik bаlqib turishini istаydi, go'dаk yig'isigа bаfаrq qаrаy olmаydi. "Yig'lаb turgаn bîlаning bаgînаsi bo'lаdimi? Yig'lаb turgаn nîrаsidаgа rаhmi kаlmаgаn îdаm îdаmmi?" Înаning аnа shu sîddа, lаkin bаnihîya dînî fаlsаfаsidа hаm õаlqimizning muhim mа'nаviy e'tiqîdi ifîdаlаngаn.

Mа'lumki, o'zbаklаrning qаdimiy аn'аnаlаridаn biri bîlаjînlikdir. Fаrzаnd, bîlа — õаlq uchun insîn zîtini dаvîm ettiruvchi îmilginа emаs, hаyot mаnguligining, nаvqirînligining hаm rаmzidir. Shuning uchun hаm mustаqil hаyot yo'ligа hаli qаdаm qo'ymаgаn, îngi ulg'аyib ulgurmаgаn zаif vа îjiz go'dаkkа g'аmõo'rlik qilish, uni mаhr bilаn pаrvаrishlаsh hаr bir insîn uchun hаm fаrz, hаm qаrz. Bu e'tiqîddа õаlq insîniyligining hаm, õаlq nаkbinligining hаm mîhiyati mujаssаm. Înаning bîlаlаrgа, fаrzаndlаrigа muhаbbаti shunchаki îddiy muhаbbаt emаs, bаlki tîm mа'nîdаgi fidîyi muhаbbаtdir. Înа fаrzаndlаri uchun hаr qаndаy mushkulîtni bo'ynigа îlishgа, hаmishа ulаr uchun bаlîgаrdîn bo'lishgа, hаttî shirin jînidаn hаm kаchishgа tаyyor. Înа muhаbbаtining fidîyiligi "Gilаm pаypîq" hikîyasidа g'îyat tа'sirchаn tаsvirlаngаn: qish kunlаridаn biridа o'g'li shаmîllаb, qаttiq isitmаlаb qîlаdi. Înа o'zining jîni ko'zigа ko'rinmаy, sаrpîychаn hîldа o'g'lini tаbibnikigа ko'tаrib bîrаdi. O'g'lining hаyoti sаqlаb qîlinаdi, аmmî înа bir umrgа bîd kаsаligа chаlinаdi.

Înаning fаrzаndigа muhаbbаti bаpîyon, lаkin bu ko'r -ko'rînа sаvgi emаs. O'rni kаlgаndа u o'g'lini tаrgаydi hаm, kiyiydi hаm. Bir gаl o'g'li zаrdа bilаn tаlqînni to'kib yubîrgаndа, Înа uni "Nîn-ku bu, аhmîq! Gunîh bo'lаdi-ku!", dаb urishаdi. Yanа bir gаl fîlbinnikidаgi guvîhligi yolg'în chiqib qîlgаni uchun o'g'li Înаdаn qаttiq dаkki yаydi: "Bir bаgunîhgа tuhmаt qilgаndаn ko'rа o'lgаnim yaõshi emаsmi! Bu shаrmаndаlikkа qаndаy chidаymаn?!"

Înada vijdîn tuyg'usi g'îyatda o'tkir. U halîl, pîk ayolgina emas, ayni chîg'da to'g'ri, adîlatli hamdir. Hayotda har õil vîqaalar bo'ladi. Îna ham ba'zan adashishi, o'zgalarga îzìr yatkazib qo'yishi, hatto o'zi istamagan hîlda birîvga tuhmat qilishi mumkin. Bunday hollarda Îna õatîsini tuzatmaguncha, birîr yo'l bilan gunîhini yuvmaguncha tinib-tinchimaydi, ruhiy iztirîblar iskanjasida qiynaladi. Înaning bu õislati, ayniqsa, "Îltin baldîq" nîvallasida yaõshi ifîdalangan. Înaning yana bir õislati muhim: u bîylikka hirs qo'ygan emas, nafsini tiyib yashaydi. Ba'zi ayollar kabi latta-puttaga sig'inmaydi, harîm-harish yo'llar bilan davlat îrttirishga urinmadi. U, umuman, harîmdan hazar qiladi, o'g'irlikni, takinõo'rlikni dunyodagi eng yomîn illat dab biladi. Îna uchun iymîn, vijdîn, îlijanîblik kabi tushunchalar mîl-u dunyoga binî qo'yishni, ista'mîlchilik psiõîlîgiyasini inkîr etuvchi tushunchalardir.

"Dunyoning ishlari" qissasiga jîziba baõsh etgan îmillardan biri — muallifning samimiyati. U qissaning birîn jîyida sun'iylikka yo'l qo'ymaydi, îvîzini ko'tarmaydi, hayqirmaydi. U înasiga taran muhabbatini ham, pîyonsiz hurmatini ham haqqîniy ifîdalaydi. Ayni chîg'da, kitîbõînlardan o'z õatîlarini ham yashirmaydi. Muallif înasi õayotligida uni yatarli e'zîzlamagani uchun taassuf tuyg'ularini ham îshkîra tasvirlaydi. Muallif bularning barchasidan muayyan õulîsalar chiqaradi va ularni o'zining iztirîbli o'ylari sifatida kitîbõînga havîla etadi. Bu jihatdan ayniqsa "Îq marmar, qîra marmar" dab nîmlangan so'nggi nîvalla õaraktarlidir. Bahor fasli o'g'il îna qabrini ziyorat qilgani bîradi. Qabristînda înalar õîtirasiga o'rnatilgan marmar lavhalar ko'p. Ularga farzandlarning dil tubidan chiqqan eng rîst so'zlari yozilgan. Bularning bari yaõshi. Birîq muallifni bîshqa narsa o'ylatadi: "Har gal ularni o'qiganda bir narsani o'ylayman. Mana shu so'zlarni yurak-yuragi, iztirîb bilan aytgan farzand înasi xasta ekanligida qanchalik ko'nglini îlîldi ekan? Õîtiniga qimmatbahî po'stin îlib barayotganida, înasiga bir kiyimlik ko'ylak qo'shib îlish yodidan chiqmadimikan? O'z uyini chat el mabali bilan to'ldirib qo'yganida înasiga ham bo'yradakkina gilamcha sîvg'a qilishni unutmadimikan? Qizini tug'ilgan kunida atlas ko'ylak, o'G'lini valîsipad bilan qutlaganida înasiga îddiy bir paypîq îlib barishni esidan chiqarmadimikan?"

Muallifning zamîndîshlariga qaratilgan bu murîjaati hammaning g'îyaviy ôulîsasidak tuyuladi. Unda îdamlar hayotining muhim, eng zarur jihatlaridan biri ifîdalangan: biz hammamiz yoshimizdan, jinsimizdan, mavqayimizdan qat'i nazar, Îna mahriga, yaqinlarimizning, qarindîsh-urug'larimizning, do'st-u birîdarlarimizning mahriga mushtîqmiz...

O'tkir Hoshimovning "Oq kamalak" to'plami ham hayotiy muammolar, to'g'rirog'i, turmush tashvishlari to'g'risida bahs yuritadi.

Yozuvchining birinchi romani – "Nur borki, soya bor" 1977-yili nashr qilindi. Roman chiqishi hamono turli fikr-mulohazalarga sabab bo'ldi. Asarda ko'pgina hayotiy, muhim ahamiyatga ega muammolar ko'tarilgan edi. Bular azaldan kishilik jamiyatining falsafasi bo'lmish "nur" va "soya"lar orasidagi kurash, tortishuv fonida yoritiladi.

Àsar o'z davrida adabiy tanqidchilik tomonidan iliq kutib olindi, unga munosib baho berildi, faqat romanga keskin to'qnashuvlar va kolliziyalar etishmasligi qayd qilindi. Bundan tashqari, O'tkir Hoshimov O'rta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan "To'ylar muborak", "Sizdan ugina, bizdan bugina", "Inson sadoqati", "Qatag'on" kabi pyesalarining muallifidir.

O'tkir Hoshimov E.Ōeminguey, K.Simonov, À.Kuprin, O.Berggols singari yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari qardosh ōalqlar va ōorijiy tillarga tarjima qilingan.

Ijodkor 80-yillar o'zbek publisistikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adiblardan biridir. Uning odob-aōloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko'rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir.

Muallifni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko'proq azaliy ma'naviy muammolar, inson taqdiri, uning qalbi jumboqlari qiziqtiradi. Bu narsa "Ikki eshik orasi" romanida ayniqsa, ravshan ko'rindi. Bu bilan adib ijodiy yo'lining etuklik bosqichi boshlandi.

Yozuvchining **"Ikki eshik orasi"** romani ham kitobōonlar tomonidan iliq kutib

olindi. Roman 1986-yilning eng yaõshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgandi. "Ikki eshik orasi" romanida o'z davrining muhim muammolari qalamga olindi, o'sha yillar voqea-hodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og'irliklarini yelkasida ko'targan, unda mardona qolib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o'zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar – urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan Yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma'no yuklashga intilgan. Õususan, u "Ikki eshik orasi" deganda inson umrini, ya'ni tug'ilgandan o'lgungacha bosib o'tgan yo'lni ko'zda tutadi. Muallifning g'oyaviy falsafasiga ko'ra bu yo'l juda murakkab va ziddiyatli bo'lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o'tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko'pchilik qahramonlar, õususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan õuddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo'lib, ko'p jihatdan yozuvchining g'oyaviy maqsadini ta'sirchan ifodalashga õizmat qilgan. Muallif falsafasiga ko'ra o'z umrini sharaf bilan bosib o'tmog'i uchun insondan katta matonat va jasorat talab qilinishining sababi shundaki, u o'z hayoti davomida og'ir kurashlar girdobidan, engib bo'lmas to'siqlardan o'tishga majbur bo'ladi. Asarda õuddi shunday inson hayotining to'siqlari, illatlari sifatida Umar zakonchi, Ra'no, Zuhra kabi shaõslar timsoli yaratilgan bo'lib, ular romandagi kurashlar, to'qnashuvlar, ma'naviy iõtiloflar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon tug'dirgan.

Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o't ochish istagi O'tkir Hoshimovni "Ikki eshik orasi" romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning "Ikki karra ikki – besh" qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgarigi asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. "Ikki karra ikki – besh" qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot

tig'ini hayotdagi martabali kishilarga, katta rahbarlarga, õususan, raislarga qaratgani va ularning ma'naviy tubanligini ro'yi-rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchiqissaning ko'p sahifalari ta'sirchan va qiziqarli bo'lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash san'atining etishmaganligi va ayniqsa, raisning o'g'li o'z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaõshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o'zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko'tarilmay qoldi.

Yuqorida tilga olingan so'nggi ikki asarida O'tkir Hoshimovning inson ma'naviy olamini, psiõologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan.

Ichki monologlar qo'llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanida yanada ustalik bilan foydalandi. "Tushda kechgan umrlar" romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash'um "qatag'on" qilish manzaralari, 80-yillarda Afg'oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo'lgan "o'zbek ishi" mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog'lashda, ular orasiga "biriktirish nuqtasini" topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

Romandagi Rustam, Shahnoza kabi qahramonlar ruhiy olamining talqini õuddi shunday õulosa chiqarishga imkon beradi. Faqat roman kompozisiyasining nomukammalligi uning adabiyotda juda katta hodisa darajasiga ko'tarilishiga xalaqit bergandek tuyuladi. Kompozisiyadagi tarqoqlik, ayniqsa, Rossiyadan yuborilgan kishilar hayotiga, faoliyatiga bog'liq voqealarning, tafsilotlarning asosiy sujet chiziqlariga uzviy bog'lab yuborilmaganida yaqqol seziladi.

Shunga qaramay, yozuvchining so'nggi asarlari O'tkir Hoshimovning hozirgi o'zbek nasridagi sermahsul ijodkorlardan biri darajasiga ko'tarilganligidan guvohlik beradi.




**Savollar:**

1. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchining mahorati nimalarda ko'rinadi?

2. Yozuvchi g'oyasini ochishda badiiy dåtalning o'rni qanday?

3. Yozuvchi ona siymosini qaysi asarlarida aks ettirgan?

4. "Dunyoning ishlari" qissasining yozuvchi ijodiy faoliyatini o'rganishdagi ahamiyati nimada?

5. Yozuvchi dramalarining ijtimoiy ahamiyati nimalar bilan bålgilanadi?

## 15-MAVZU: TOG'AY MUROD HAYOTI VA IJODI

(1948-2003)

1. Tîg'ay Murîd hayoti va ijîdi.
2. T. Murodning nasriy asarlari.
3. T. Murod asarlarida milliylik nafasi.

**Tayanch tushunchalar:** 70—80-yillar yosh adabiy avlîdi nasrining yatakchi ijîdkîri * Sîf milliy o'zbak qissalari * Nasrdagi qo'shiqlar * Îna tılimizning yangi jilîlari * "Îtamdan qîlgan dalalar" — o'zbak dahqîniga qo'yilgan o'ziga õîs haykal

**Adabiyotlar:**


1. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – T.: Sharq,1993.
2. Murod T. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – T.: Sharq, 2003.
4. Murod T. Ot kishnagan oqshom. – T.: Sharq, 2007.
5. Karimov N. va b. XX asr o'zbak adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
6. Mirzayav S. XX asr o'zbak adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 2004.


Àdabiy taõallusi Tog'ay Murîd, asl ism sharifi Tîg'aymurîd Mangnîrîv bo'lgan bu nîyob ista'dîd egasi 70-yillari adabiyot maydîniga kirib kaldi. Dastlab mayda hikîyalar yozib yurdi. Ularda o'ziga õîs ista'dîd jilîlari bîrligini birîv payqadi, birîv payqamadi. 1976-yili "Yulduzlar mangu yonadi" dagan qissasi "Sharq yulduzi"da e'lîn etildi-yu, birdaniga uning nîmi el îg'ziga tushdi, muhîkamalarda, maqîlalarda asar "yılning eng yaõshi qissasi" dab e'tirîf etildi. So'ng birin-katin "Ît kıshnagan oqshîm" (1979), "Îydinda yurgan îdamlar" (1980), "Mîmî yar qo'shig'i" (1985) qıssalari chiqdi. Bu asarlarning har biri adabiyot îsmînida guyo mîmàqaldıriqdak yangradi, kang jamîatchilik e'tibîrini tîrtdi, qizg'in bahs-munîzaralarga asîs bo'ldi. Bu qıssalari uchun Tîg'ay Murîd Raspublika Yozuvchilar uyushmasi Îybak nîmidagi mukîfîti bilan taqdirlandi.

Tog'ay Murîd 1986-1991-yillari "Îtamdan qîlgan dalalar" rîmani ustida ishladi, asar 1993-yili dunyo yuzini ko'rdi. Rîman 1994-yili istiqlîl davri o'zbak

adabiyotining ilk yatuk namunasi sifatida Àbdulla Qîdiriy nîmidagi davlat mukîfîtiga sazîvîr bo'ldi.

Tig'ay Murîd badiiy tarjima bilan ham shug'ullangan. J.Lîndînning "Bîyning qizi" dramasi va qatîr hikîyalarini, E.Satîn-Tîmpsînning hayvînît dunyosi haqidagi mashhur "Yovvîyi yo'rg'a" kitîbini mahorat bilan o'zbakchalashtirgan.

Tog'ay Murîdning birinchi qissasi — "Yulduzlar mangu yonadi" asarining ilk satrlarida Õo'jasîat qishlîg'i tilga îlinadi, qissa vîqaalari ayni shu qishlîqda bo'lib o'tadi. Yozuvchining bîshqa barcha hikiya va qissalari ayni o'sha qishlîq, qîlavarsa Danîv tumani, Surõîn vîhasi îdamlari hayotidan bahs etadi.

Tîg'ay Murîd Suroîndaryo vilîyati, Danîv tumaniga qarashli o'sha Õo'jasîat qishlîg'ida tug'ilgan. Kayinchalik Tîshkantga kalib univarsitatning jurnalistika fakultatida o'qigan. Univarsitatni tugatib, Raspublika radiîsi "Vatandîshlar" tahririyatida muharrir (1972-1976), "O'zbakiston fizkulturachisi" gazatasida tarjimîn (1976- 1978), "Fan va turmush" jurnalida muharrir (1982-1984) bo'lib ishlagan, sibiq sîvat armiyasi safida õizmat qilib qaytgach (1973-74-yillar), Mîskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil îlgan (1985-1987), Tîshkantda oila qurib, ko'pdan shu yarda yashab kalgan bo'lsa-da, butun vujudi, fikri-õayoli bilan tug'ilib o'sgan yurtiga bîg'langan. Badiiy ijîd, asarlari uchun ilhîm, mavzu va qahramînlarni asîsan o'sha manbadan îladi. Surõîn kîlîriti asarlariga o'ziga õîs batakrîr ruh, îhang, jîziba baõsh etadi.

Àbdulla Qîdiriydan bîshlangan yangi o'zbak nasri 60-70 yil davîmida, garchi unda o'ziga õîs ista'dîd mo'l bo'lsa-da, til ifîda bîbida, asîsan Qîdiriy kashfiyotlari dîirasida rivîjlandi. Tîg'ay Murîd asarlaridagi ifîda, hikîya yo'sini esa 70 yillik milliy o'zbak nasrida tamîmila bîshqacha, o'zgacha o'zanni tashkil etadi. "Îydinda yurgan îdamlar"dan îlingan mana bu parchaga razm sîlib ko'raylik:

"Înamiz sahar mahali îtamizni uyg'îtdi.

Îtamiz bîzîr îtlandi.

Înamiz zim-ziyo îlamga bîqdi...

Îy hâli tug'mâdi. Shu înâ, îlâm zimistîn bo'ldi. Înâmiz îy tug'ajâk târafgâ qârab turdi-turdi-dâ... o'zini îygâ mângzâdi, tâqdirini îlamgâ mângzâdi!

"Îydâ mândâyin tug'mâdi. Îlâmdâ tâqdirimdâyin zim-ziyo bo'ldi..." dâya o'ksidi.

Înâmiz îtâmiz bilân õushlashdi. – Mâyli, õush bîrsin, õush kâlsin, – dâdi.

Îtâmiz zim-ziyogâ singib kâtdi.

Înâmiz dârvîzâ qirrâsigâ pâshînâsini qo'ydi. O'ksib-o'ksib yig'lâdi...

Ko'châdâ echki mâ'râdi.

Înâmiz qâyrilib qârâdi.

Echkilâri ko'châgâ tizilib chiqdi.

Înâmiz echkilârni ichkâri qâytârdi. Dârvîzâni ichkâridân zânjirlâdi. Zânjirdân cho'p o'tkâzdi.

Supâgâ kâlib o'tirdi. Pâshînâsini tizzâlârigâ qo'ydi.

Tâg'i yig'lâdi..."

Qismân mumtîz âdâbiyotimizdâgi sâj yo'lini, ko'prîq õalq dîstînlâridâgi nâsriy ifîdâ, hikîya qilish yo'sinlârini eslâtâdigân, âslidâ fâqât Tîg'ây Murîdgâgina õîs. XX âsr zâmînâviy o'zbâk tili, yangi o'zbâk nâsri mâhsuli bo'lmish bu õil bâdiiy mâtn âdâbiyotimizdâ tâmîmilâ yangi, nîyob hîdisâ. Mâtndâgi gâplârning tuzilish târzi, îhângi, so'z vâ jumlâlârning tâkrîriy kâlishi, õalq tilining râng-bârâng tîvlânishi, nîzik lutf, qîchiriqlâr, gîh hâzin kâyfiyat, gîh tâbâssum uyg'ituvchi ifîdâlâr, birginâ jumlâ, birginâ tashbâh îrqâli butun bîblârgâ tâtigulik vîqâa, drâmâ, ruhiy hîlât-kâchinmâlârning jînli gâvdâlântirilishi — bulârning bârchâsi yâtuk shâ'riyat, dîstînchilik tâjribâlârini yodgâ tushirâdi.

Âtîqli âdib Sâid Âhmâd "Tog'ay Murîdning qo'shiqlâri" mâqîlâsidâ: "Tîg'ây Murîd qissâ bitmâydi, nâzârimdâ, bîr îvîzi bilân qo'shiq âytâdi. Bu qo'shiqdâ âvj pârdâlâr bîr, nîlishlâr bîr, sâvt bîr" – dâb yozgânidâ to'lâ hâq. Bu õususiyat uning rîmânigâ hâm õîs. Qishlîq îdâmlârining udumlâri, mâishiy hâyoti, kâsb-kîri, mâhnâtini butun tâfsilîtlâri, etnik ikir-chikirlâri bilân ko'rsâtish-ifîdâlash, shuningdâk jînivîrlârni tâvsiflâsh bîbidâ Tîg'ây Murîd jâhîn âdâbiyotidâgi "nâturâl mâktâb"

namoyandalari bilan bamalil ballasha iladi. Shunisi muhimki, yozuvchi asarlaridagi ayni shunday o'rinlar ham shiirina, musiqiy ruh-ihang bilan yo'g'rilgan. Shu tariqa Tîg'ay Murîd nasri hach kimnikiga o'oshamaydigan batakrîr musiqiy, sha'riy ritm, hissiy-ruhiy îhangga, balkim ko'zga ko'rinmas, andazalarga sîlib bo'lmas g'arîyib vaznga ega. Mana shu ōususiyat, fazilatlarni nazarda tutmay turib yozuvchi asarlarini anglash, ular tahliliga kirishish mumkin emas.

Tîg'ay Murîd rîman va qissalari mavzu mundarijasi, badiiyligi, qahramînlari jihatidan ham o'ziga ōis. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ōalq kurashchi-pîlvînlari, "Ît kishnagan îqshîm"da chavandîz-ulîqchilar hayoti qalamga îlinadi. Bu hayotni muallif tashqaridan emas, ichdan turib, "kurashchi-pîlvîn", "chavandîz-ulîqchi" bo'lib qalamga îladi. Zîtan, yozuvchi o'zining hayot va ijîd yo'li haqida "Man" dab sarlavhalangan maqolasida yozganidak, polvînlik ajdîdida, qînida bîr, u go'dakligidan davralarda kurashib katta bo'lgan; chavandîzlik ham uning uchun bagîna emas. "Ît kishnagan îqshîm"ni yozishga kirishishdan burun yozuvchi, kach kuz kunlarining birida tug'ilgan yurtiga yo'l îladi, Sattîr chavandîz dagich bilan til tîpishadi. U Tog'ayga bir ît tîpib baradi, yozuvchi Tîg'ay Murîd endi îtlanib chavandîzga aylanadi, Sattîr chavandîz bilan qishlîqma-qishlîq, to'yma-to'y, ko'pkarima-ko'pkari yuradi; kunduzlari turli yurtlardan kalmish chavandîzlar bilan ko'pkari chîpadi, nacha bîr îtlardan yiqiladi; îladi, îldiradi. Kachalari to'y ōînalarda chavandîzlar bilan gurung qiladi. U iftiōîr bilan: "Chavandîzlar do'mbira chalib, ko'pkarilardan so'yladi, îtlardan so'yladi, chavandîzlardan so'yladi.

Uzun qish ko'pkariōîna — ish jîyim bo'ldi, chavandîzlar — hamōînam bo'ldi, îtlar — birîdarim bo'ldi.

Nnhîyat, ko'klamda "Ît kishnagan îqshîm" nîmli ikkinchi qissamni jurnalga ko'tarib kaldim",— dab yozadi.

Bu ikki qissa shunchaki yozuvchi diliga yaqin, o'zi yaōshi biladigan hammafas îdamlar hayoti haqidagi lavhalardan ibîrat emas. Har ikki qissada ham yorqin ōaraktarlar, kîntsaptual îbrazlar bîr. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi Bo'ri pîlvîn, Tilîvbardi pîlvîn, Abil pîlvînlarning halîlligi, mardligi, tantiligi kishida iftiōîr,

qavas uyg'îtadi, ular ōalqimizning eng yaōshi fazilatlarini o'zlarida mujassam etadılar. "Ît kishnagan îqshîm" qissasi Ziyodulla degan o'ta kamsuqum, ko'rimsiz yigit timsîlida ham yuksak îlijanîblik, ma'naviy pîklik va adîlatparvarlik tuyg'u-ōislatlari ulug'lanadi; bunday babahî ōislatlardan mahrum, ma'naviy tuban kimsalar esa yozuvchining qahriga uchraydi. Shu bilan barîbar bu qissada insîn va jîndîrlar, aniqrîh'i chavandîzlar va îtlar dunyosi îrasidagi birîdarlik, uyg'unlik g'îyasi ilgari suriladi. Yozuvchi talqinicha, sîddadil, pîkdil chavandîzlar kabi yaōshi îtlar ham adîlat tuyg'usiga ega. Qissa qahramîni Ziyodulla kalning Tarlîni uning eng yaqin do'sti, sirdîshi, insînlardan ko'rmagan mahr-îqibatni shu îtidan ko'radi. Bu îtni yozuvchi ōuddi tirik îdamday o'ziga ōîs "ōaraktari", "qismati" bilan gavdalantiradi. Yozuvchi Said Ahmad yozganiday, Tîg'ay Murîdning Tarlîni Tîlstîyning Ōîlstîmari, Aytmatîvning Gulsarisi qatîriga kalib qo'shildi.

Galdagi qissasi "Îydinda yurgan îdamlar"da adib sho'rî davri adabiyotida avj îlgan so'z san'atini, qahramînlarni haddan tashqari mafkuraviylashtirish, ijtimîiylashtirish tamîyiliga zid yo'ldan bîrgani uchun bîshda aqidaparast tanqidchilarning qattiq qarshiligi va e'tirîziga uchradi. Yozuvchining bu asari markazida ham îddiy qishlîq kishilari turadi. Qissa kînfliktini g'îyat intim-shaōsiy drama farzandsizlik iztirîblari tashkil etadi. Asarda ana shu ōususiy-shaōsiy fîjia, dard umuminsîniy iztirîb darajasiga ko'tariladi, insînning ijtimîiyotdan ōîli sîf tuyg'u kachinmalarini, tabiiy hayotini muallif birinchi planga îlib chiqadi. qissada Qîplîn bilan Îymîmî îrasidagi îilaviy sadîqat, ishqiy munîsabatlar haqida, balandparvîz gaplar yo'q. Bu bir juft pîkiza insînni farzand vajidan bir-biridan judî etmîqchi bo'ladilar, o'zlari ham bunga mîyillik ko'rsatadilar. Birîq ular allaqachîn et bilan tirnîqqa, yaōlit bir vujudga aylanib katganlar, bu ikki shaōs bir-biridan ayri yashay îlmaydilar. Yozuvchi Qîplîn bilan Îymîmîning tirnîq ilinjida o'tkazgan iztirîblarga to'la hayotini va bir-biriga chaksiz sadîqatini îydindagi îy nuriga, qandaydir sirli-sahrli ilîhiy tuyg'ularga o'rab tasvirlaydi. Hayotning qîq o'zidan îlingan bu ikki shaōs îdam bîlasi emas, balki farishtalarni eslatadi. Qissaning tug'ilish tariōi ham ilîhiy-

ruhiy hîlatlâr bilân bîg'liq. "Yurtimiz tîg' etâgidâ So'fi Îlloyor qâbri bîr. Shu qâbr qâbatidâ tîg' chîrbîg' bîr.

Mân bir qishni înâ-yurtim chîrbîg'idâ qishlâdim. So'fi Îllîyor bîbî bilân qâbatmâ-qâbât yotib, "Îydindâ yurgân îdâmlâr" nîmli qissâ bitib kâldim",— dâb eslâydi muâllif.

"Mîmî yâr qo'shig'I" yozuvchining âvvâlgi qissâlâridân birmunchâ fârq qilâdi. Bu âsâr înâ zâmındân uzilib qîlgân ijîdkîr qismâtidân bâhs etâdi. Birîq bu qissâdâ hâm Tog'ay Murîd ijîdigâ õîs tâbiiylik, sîddâlik sun'iylik, bâlândpârvîzlik sîõtâ nâzîkâtgâ qârshi qo'yilâdi; hâqiqâtni yozuvchi o'zi uchun ârdîqli îddiy qishlîq îdâmlâridân izlâydi, ulârning sîddâ, sâmimiy hâyot târzini ulug'lâydi, qîrâ mâhnât kishilârigâ hâmdârdlik tuyg'ulâri âsârdâ ufurib turâdi.

Adabiyot va san'atda davr talabi va ijod ma'suliyati, xalq ulug'vorligini anglash, tarixni teran bilish bilan bog'liqligi, ijod jarayonida mazmunga nisbatan hayot materialini cheklash bilan, estetik ideal ifodasi, xarakterning asosiy belgilari singari masalalar o'tmishda ham, bugungi kunda ham mashhur so'z san'atkorlarining e'tiboridan chetda turmagan.

Tog'ay Murod Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olgan davrida o'qish-o'rganish jarayonida bo'sh vaqt topib, o'zbek ziyolilarining qayg'usi bilan yashadi. "O'zbeklar ishi" yuzasidan o'tkazilgan ko'plab tergov hujjatlari bilan tanishdi. Uzun kunlar sud binolarida bo'lib o'zbek xalqining ziyolilariga nisbatan bo'layotgan qo'pol munosabatlar, adolatsizliklarni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Unda yangicha yo'sinda kattaroq janrga qo'l urish istagi paydo bo'lgan, bunga hayotiy tajriba va ijodiy mahorat to'plab ulgurgan edi.

1987-yilda Moskvadan qaytgan yozuvchi roman ustida ish boshlamoqchi bo'ldi-yu mavjud tajribalarining o'zi hali yetarli emasligini his etdi. U maktabda, talabalikda, mehnat faoliyati davomida paxta yig'im-terimida qatnashgan, Denovda, Xo'jasoat qishlog'ida o'sgan bo'lsa-da, yaratilajak asar jiddiy tayyorgarlikni talab etar edi. O'quvchilik davri bilan bog'liq xotiralarni xayolda jonlantiribgina bunga

erishib bo'lmasdi, albatta. Nosir paxtachilik va qishloq xo'jaligiga oid o'zi tanisha olgan manbalarni-da bir qur ko'zdan kechirdi. Taassufki, ularda xalq hayoti, ruhiyati, xarakterini yaratishda o'zbek dehqonining to'laqonli obrazini aks ettirishda qo'l keladigan jihatlar to'la ifodasini topmagan edi.

Qoniqmaslik hissi nosirni Oltinsoy tumanidagi Aliqulov dala shiyponiga yetakladi. Olti oy muddatda shu shiyponda dehqonlar bilan yonma-yon yashadi. Ular bilan bir xil kiyinib mehnat qilish, ovqatlanish orqali yaqindan tanisha bordi. Chigit ekish, yaganalash, chopiq qilish, o'toq qilish, go'ng berish, suv taratish, g'o'za chilpishdan tortib paxta terishgacha oddiy xalq bilan birgalikda mehnat qildi. Tungi sug'orish pallasida shiyponlarda uxlab qoldi, o'qariq bo'ylarida, yonboshlab uzoq suhbatlarga quloq tutdi, ba'zan charchagan paytlarida yolg'iz o'zi paxtazor egatlarida mizg'ib oldi. Oftobda kuyish va chang yutish nimaligini o'z ko'zi bilan ko'rib, guvohi bo'ldi. Shundan keyingina "Otamdan qolgan dalalar" romanini yozib tugatdi. Yozuvchi bu ish bilan 1986-1992 yillar davomida band bo'ldi.

Romanning qo'lyozma nusxasi 1991-yilda tugagan bo'lsa ham, oqqa ko'chirish uchun anchagina vaqt sarflangan. Muallif kitobning ilk sahifasiga tubandagi bag'ishlovni yozib qo'ygan. "Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi – ozod O'zbekiston uchun bitdim". Asar 263 sahifadan iborat bo'lib, tarkibiy tuzilishi jihatidan o'nta bobdan tashkil topgan. Unga muallifning hayot va ijod yo'li haqidagi o'ziga xos "Ma'lumotnoma"si ham ilova qilingan.

"Otamdan qolgan dalalar" – ramziy roman. So'nggi yillargacha o'zbek nasri bir jihatdan davr taqozosi, ikkinchi tomondan ayrim ijodkorlarda yetarlicha jur'at taqchilligi bois anchagina yakrang bo'lib kelgan edi. Keyingi yillarda nasrimiz mavzu jihatidan-da, mazmun nutayi nazaridan-da, janr jihatidan-da anchagina rang-baranglik kasb eta bormoqda. Ijtimoiy hayotda bo'layotgan keskin o'zgarishlar ijodkorlarni izlanuvchanlikka, kurashchanlik, fidoiylikka undadi. Adabiyotning barcha ko'rinishlarida loqaydlik, jur'atsizlik, shaxsning parchalanishiga qarshi keskin va jiddiy kurash boshlandi. O'ziga xos va mos bo'lgan yo'llar kashf etishga urinayotgan, bunga bir daraja erishayotgan yozuvchilarimiz safi ancha kengayib borayotgani

quvonchli holdir. Chunki so'z san'atida mahoratni to'la namoyon etishgina badiiyat olamini yanada kengaytiradi, adabiyotimizni jahoniy katta nasr sari yetaklaydi. Badiiy uslubini yangilab borayotganlar safida Tog'ay Murod nomi ham mavjuddir.

T.Murod o'z avlodining taniqli vakili sifatida adabiyotimizga yonib kirdi. Said Ahmad ta'biri bilan aytganda u "rassom adib," "bastakor adib" sifatida "muhabbat qo'shiqlari" yaratayotgan, o'zbek adabiyotiga mutlaqo yangi, original, badiiy baquvvat obrazlarni dadil olib kirayotgan adibdir[7]. U adabiyotimizning katta avlodi nazariga tushdi, o'z kitobxonlarini topdi. U o'ziga xos mashaqqatli yo'ldan borib, janr-shakl jihatidan, mavzu-uslub e'tibori bilan izlanishlar qilishga talpinmoqda. Ma'lum darajada bunga erishib, o'quvchilari qalbida zavq-shavq uyg'otdi, yangicha tafakkurni shakllantirishga ulush qo'shdi.

O'zbek xalqining qadimiy an'analarini tiklash, milliy G'ururni bo'y-basti bilan ko'r satishga urinish, jafokash, mehnatkash va sodda kishilar siymosini yaratish orqali o'z zamondoshlarining tashvish va quvonchlaridan bahs etish nosir tezda adabiyot ixlosmandlari nazariga tushishining bosh sabablaridir. U o'quvchini aslo zeriktirmaslikni uddalay olar ekan, bu obrazlarining samimiy mehrga yo'g'rilganligi, mavzuga alohida muhabbat bilan uslubiy yondashganligini ko'rsatadi. Davr jarayonlari uning qahramonlari qalbi orqali kechiriladi.

Jaydari kishilar qalbidagi e'tiqodga sadoqat ko'r satilar ekan, haq va haqsizlik, adolat va adovat o'rtasidagi azaliy kurash aks etadi. Hayot manzarasining yorqin ifodasini har bir portret, peyzaj, detal tasviridan izlanishi yurtdoshlarimizning turfa qiyofalarini yaratish imkonini beradi. Tog'ay Murod uslubiga xos ayrim jihatlar adabiyotshunoslarning e'tiboridan chetda qolmagan.[8] Shunga qaramasdan, hozirgi o'zbek nasridagi izlanish va yangilanish jarayonini alohida ijodkor misolida davr tuyg'usi va milliy istiqlol mafkurasi taqozosiga ko'ra ko'zdan kechirish ijodiy individuallik haqidagi qarashlarimizni yanada kengaytiradi.

---

[7] Said Ahmad. Tog'ay Murodning qo'shiqlari. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. T.: 1994, -B.44.
Qo'shjonov M. Ijod mas'uliyati. T.: 1981.

[8] Qo'shjonov M. Ijod mas'uliyati. T.: 1981.; Mirzayev I. Badiiy uslub sehri. Samarqand., 2000. va b.

T.Murod yaratgan asarlarning badiiy-estetik ta'siri kuchli. U shakliy izlanishlarda ancha mustaqil bo'lib hayot manzaralarini haqqoniy tasvirlaydi. Ma'rifatli kitobxon u yaratgan asarlarni sevib mutolaa kilsa-da, ko'pchilik bu asarlarning ancha noan'anaviyligidan so'zlaydi. Bugungi kunda ularni hamma ham birday tushuna olmaydi. Chunki an'anaviy nasrga nigohi o'rgangan oddiy kitobxon uchun mazkur tipdagi asarlarni o'qish maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Buning sabablarini "Otamdan qolgan dalalar" romani misolida quyidagicha izohlashni lozim topdik:

Birinchidan, roman jahon adabiyotining peshqadam vakillari yaratayotgan aynan shu tipdagi asarlarga anchagina yaqin turadi.

Ikkinchidan, mazkur roman o'ziga xos milliy, o'zbekona ruh bilan sug'orilgan.

Uchinchidan, roman voqealari sokingina hikoya qilinmaydi. Aksincha, hayot voqea-hodisalari, holat va harakatlar tasvirida anchagina keskin o'tishlarni, sujet va ohang shiddatini kuzatish mumkin. Bunday faktorlar yozuvchining nasrdagi izlanishlari bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga chiqmoqda. Shakl mazmunni ifodalash vositasi bo'lgani bois mazmun o'zgarishi yangicha shaklni ham talab qiladi. Shakl va mazmun mutanosibligi hamda muvofiqligining saqlanishi xarakterlar ruhiy olamini yanada teranroq aks ettirish, poetik g'oyani roman mag'ziga singdirish imkonini bergan.

To'rtinchidan, etnik xususiyatlarni nosir to'la aks ettira oladi. Soddadil, tanti surxondaryoliklarning tabiatida, fe'l-atvorida mavjud bo'lgan o'ziga xos keskirlikni ifodalay biladi.

Beshinchidan, romandagi tabiat obrazlari inson ruhiyatini ochishga bo'ysundirilgan.

Oltinchidan, romanning badiiy tili sheva-lahjalariga nihoyatda boy bo'lib, sujet chiziqlari, monolog va uning turfa ko'rinishlari, xususan, ichki monolog va dialoglarning mag'izdorligi ta'minlangan.

Yettinchidan, T.Murod o'ziga xos tasvir uslubiga mos tarzda romanga muvofiq shakl tanlagan. Obrazlar talqinida haqqoniylikni ta'minlay olgan.

Sakkizinchidan, roman jozibali badiiy ifodalarga nihoyatda boy. Asarning tili xalqchil va ravshandir. Romanda fikr mavhumligi uchramaydi.

To'qqizinchidan, tasvirda qisqalik va aniqlik ta'minlangan, detallar o'rinli qo'llangan.

O'ninchidan, nafaqat jamiyatning o'zida, balki odamlar tabiatida, atrof-muhitda sodir bo'layotgan nuqsonlarning tub ildizlari va mohiyati haqqoniy ko'r satilgan.

"Otamdan qolgan dalalar" romani uchun Tog'ay Murod O'zbekiston Respublikasi Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofotini olishga musharraf bo'ldi. Bu iste'dod sohibi o'quvchilar qalbini larzaga keltira olganligining bayon qilgan, ko'rsata olgan haqiqatlariga ishontira olganligining, ular qalbini tizginsiz ehtiroslarga burkaganligining haqli e'tirofidir[9].

Stilistika – badiiy nutqning turli uslublari haqidagi talimot bo'lib, inson nutqi, poetik til xususiyatlari, badiiy til va uning ifoda vositalarini o'rganadi. Badiiy nutqqa xos u yoki bu hodisaning ahamiyati va rolini to'g'ri anglashda biz ko'pincha stilistikaning xulosalariga tayanamiz[10]. Mazkur o'rinda stilistika atamasini badiiy asarning tili va uslubi, ta'sirchan vositalari ma'nosida qo'llamoqdamiz. Muayyan yozuvchining ifoda uslubini o'rganish keng ma'noda adabiy-badiiy san'at uslubini ham tadqiq etish bo'lib, hamisha dolzarb muammo sanalgan. Muayyan janr, xususan, roman badiiy matni poetikasi tahlili Z.Pardayeva haqli ta'kidlaganiday, "Roman stilistikasiga xos bo'lgan barcha badiiy komponentlar tahlilidir"[11].

Atoulloh Husayniyning ma'lumot berishicha, "..."saj" lug'atta kabutar, musicha va hokazolarning ovozidur... ovozlar bir-biriga o'xshashu muvofiq bo'lganidek, "saj" bo'laklari ham bir-biriga mushobihu (monand) muvofiqtur"[12]. Mutaxassislar "saj"ni ko'pincha nasriy qofiya va ohangdoshlik usuli sifatida tilga oladilar. Mazkur ma'naviy-lafziy san'atni maxsus o'rgangan B.Sarimsoqovning fikricha, "saj" "...muayyan asardagi mazmunni yorqin ifodalabgina qolmay, balki nozik so'z

---

[9] Yoqubov I. Iste'dod va mahorat. Filologik tadqiqotlar ilmiy to'plami. – Toshkent: 2002. - B.12-15.

[10] Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T.:, "O'qituvchi, 1983, -B.310."

[11] Pardayeva Z. Hozirgi o'zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari. DDA., T.: 2003., -B.41.

[12] Ataulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Adabiyot va san'at nashriyoti. T.:, 1981.-B. 65-66.

uyinlari, ifodaning ohangdorligini ta'minlashda ham muhim rol uynaydi"[13]. "Saj" quyidagi uch turga bo'linadi:

1. To'liq "saj" ("Saj"i mutavoziy). 2. Qofiyali "saj" ("Saj"i mutarraf). 3. Vazndosh "saj" ("Saj"i mutavozin).

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida qo'llanilgan "saj" uslubini o'rganishga urinishlar bo'lgan esa-da, uning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" (T., 2001) romani bu yo'nalishda tadqiq qilinmagan. Ma'lumki, badiiy nasr tili obrazli til. Shuning uchun ham badiiy-tasviriy vositalar, xususan, "saj"dan unumli foydalaniladi. Nasrda "saj"ning qo'llanishi haqida gap ketar ekan, yozuvchining ijodiy maqsadi, mahorati, muayyan asarning xarakteri singari masalalarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Ifoda soddaligi o'ziga xos ijodiy tamoyil bo'lib, unga intilish va erishish nosir iste'dodining yuksakligi, asar tilining boyligini ko'r satadi. T.Murod "saj"ni tashqi bezak, jimjimadorlik va fikrni balandparvoz ifodalash maqsadida emas, balki fikrni ixcham, lo'nda, ravon va ta'sirchan ifodalash uchun qo'llaydi. Shu boisdan ham romanlardagi "saj" yozuvchi uslubi va o'z tabiatiga ko'r a sub'ektiv-emotsional uslubga mansubdir.

Romanlar matnidagi "saj"ni shartli ravishda ikkiga ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunki aksariyat "saj"lar bevosita adibning o'z qalamiga mansub bo'lsa , ayrim hollarda muayyan munosabat vositasida romanlarga xalq maqol, matal va iboralari bilan birgalikda ham muayyan qism "saj"lar kirib kelgan. Har ikkala holda ham ular fikr ixchamligi va lo'ndaligiga xizmat qiladi.

"Otamdan qolgan dalalar" romanida bayon Dehqonqul tilidan olib borilgani sababli keltirilgan sajlar ham shu bayonchi tilidan beriladi. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida esa voqealar bayonida muallif nutqi yetakchilik qiladi. Shu boisdan ham sajlangan parchalarni berishda har ikkala romanda bayonchi munosabati nuqtai nazaridan muayyan tafovut kuzatiladi. "ajlangan maqollarni keltirishda esa personaj nutqiga xos xususiyatlar: mazmunni zidlash, o'xshatish, qiyoslash, mantiqiy

[13] Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. "Fan". T., 1978.-B.12.

mazmunga alohida urg'u berish singari holatlar ko'zga tashlanadi. Ayrim misollarga murojaat kilamiz:

Qofiyali "saj" ( "Saj"i mutarraf) qo'llangan o'rinlar

A)" Otamdan qolgan dalalar" romanida:

Donador dala namdor dala bo'ladi Oqpodsho momomiz sochidan buraydi. Oqpodsho momomiz sochidan sudraydi Qabatini paypaslaydi. Nima gapligini payqaydi. Sapchib tashqarilaydi.

B) "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida:

Birov oting nima demaydi! Birov holing nima. demaydi Bolasini silkib-silkib oldi. Jerkib-jerkib oldi.

Vazndosh "saj" ("Saj"i mutavozin) qo'llangan o'rinlar

A) "Otamdan qolgan dalalar" romanida:

Yo'l ariq yoqalab o'tadi. Yo'l majnuntol soyalab o'tadi. Uyimizda nimamizdir yo'qday bo'ldi. uyimizda nimamizdir kamday bo'ldi... Unda kimim yo'q bo'ldi, unda nimam yo'q bo'ldi? Jug'rofiya dala boshini olib turadi. Kimyo dala adog'ini olib turadi.

B) "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida:

Boshi aylandi. Ko'z oldi tebrandi. Botir firqa marhumlar shahri oralab yurdi. Marhumlar yo'lagi bo'ylab yurdi.

Albatta, har ikkala romandan ham bunday misollami ko'plab keltirish mumkin. Biroq gap ularning sonida emas, balki sifatidadir. "Saj"lardan ko'rinadiki, nosir ko'pincha o'rin joy tasviri va tavsifida, qahramonlarning harakat va holatlari ifodasida yoki voqea-hodisalarga sub'ektiv emotsional munosabat bildirgan paytlarida sajga murojaat qilar ekan. Ko'pincha fe'l va uning funktsional shakllaridan, shuningdek, ot, sifat, olmosh, ravish kabi mustaqil so'z turkumlaridan foydalaniladi. Romanlarda qo'llanilgan sajlar ritmik, semantik va evfonik (hamohanglik, ohangdoshlik) funktsiya bajaradi. Quruq ritorika uchun xizmat qilmaydi.

"Saj"langan maqolning bevosita o'zidan foydalanilgan o'rinlar:

Ma'lumki maqollar folklor janrlari orasida o'zining qisqa, siqiq hajmda nozik mazmun ifodalashi jihatidan ajralib turadi. Semantik tabiatiga ko'ra majoziy ma'noda; ham ko'chma, ham real mazmunda; ko'chimsiz semantika asosida qo'llanila olish imkoniga egadirlar. Gap bu o'rinda umuman maqol yoki uning poetikasiga xos xususiyatlar haqida emas, balki tarkibida saj' san'ati mavjud maqollardan bugungi o'zbek realistik nasrida foydalanish xususida, T.Murodning ularni istifoda etish mahorati haqida bormoqda. Lekin shunisi ham borki, nosir qo'llagan maqollar hozir nutqimizda mavjud holida keltirilganligi bois, uning poetikasi haqidagi gapimiz ma'lum ma'noda maqol poetikasi bilan bog'liq nazariy qarashlardan, uning tarixiy poetikasidan tamomila ajrala olmaydi ham.

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida qo'llanilgan "Otangni ko'rdim ahmadi forig', enangni ko'rdim tovoni yoriq". "Boshidan o'tmaganni qoshidan o'tma". "Otning o'limi itning bayrami" kabi maqollar saj'langandir.

Ko'rinadiki, T.Murod har ikkala romanda ham saj san'atidan o'rinli foydalana olgan. Romanlarda ko'pincha saj ning mutarraf va mutavozin turlari qo'llanganligi ular matni stilistikasi ritmik tahlilidan ayon bo'lmoqda. Faqatgina xalq maqollariga murojaat qilingan o'rinlardagina to'liq saj ko'zga tashlanadi. Ayrim hollarda saj qo'llashda nosir xalq ertaklari uslubiga-da yaqinlashadi;

"Qodir qulni chevarasi. Xolmat malayni nevarasi. Eson xizmatkorni bolasi Botir qo'shchi tumandan ayrilib keldi." Bunday holda saj'ning ichki kofiyalanishiga tayanib muallif bosh qahramonni ta'rif-tavsif qiladi. Qofiyali saj' orqali uning ijtimoiy kelib chiqishi haqida ma'lumot beradi. Mazkur hol personaj nutqidan bayon olib borilganda ham yuzaga chiqadi. Nosir o'zining ziyoli haqidagi kontseptsiyasini Botir firqa tilidan shunday beradi: "Imon bilan yashaguvchi, nohaqlikka chidolmovchi, xo'rlik-zolimlikdan nafratlanuvchi, chin inson bo'lib yashaguvchi zot asl ziyolidir." Romanni ayrim qismlari o'rtasidagi uyg'unlik va mutanosiblikni, badiiy unsurlarning o'zaro monandligi ya'ni asar arxitektonikasini poetik tahlil etish, muayyan janr stilistikasidagi nasriy saj' va uning qo'llanish doirasi bilangina cheklanmaydi. Lirik va erkin nasrning sinkretik uyg'unligini kuzatish ham ritmik ohangdorlik, g'oyaviy-

badiiy ta'sirchanlik, falsafiy mushohadakorlik singari jihatlarni inkishof etishda muhim ahamiyat kasb etadi.[14]







[14] Yoqubov I. Roman stilistikasida saj' őňčoăč. Ŕăăčĺĺ òàôàĺĺóð ââ àààààĺ æàõà¸i ĺeiĺĺ óéiĺàiĺ. – Ò.: 2003,' 2.-Á. 17-20.




**Sàvîllàr:**

1. Tig'ày Murîd ijîdining o'zigà õîsligi nimàlàrdà ko'rinàdi?
2. Qissàlàridàgi milliy ruhni bàlgilîvchi îmillàr nimàlàrdàn ibîràt?
3. Yozuvchi qissàlàrining ijtimîiy àhàmiyati nimàdà?
4. Tig'ày Murîd ijîdining àdàbiyotdà và insîn mà'nàviy îlàmidà tutgàn o'rni nimàdà?

## ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni (Xalq so'zi, 2017 yil, 8- fevral)
3. Mirziyoyev Sh . Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh . Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va Xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari" to'g'ri sida ( Xalq so'zi, 2017 yil, 21-aprel)
6. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi. 2005
7. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
8. Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
9. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. –T.: Fan, 2015
10. Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Mumtoz so'z, 2016
11. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Sano-standart, 2018.
12. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma., –T.: 2006.
13. Hojiahmedov A. Mumtoz adabiyoti malohati. –T.: Sharq. 1990
14. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar: N.Rahmonov. – T.: O'zMU, 2002.

15. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. –T.: O'zbek iston, 2014
16. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – T.: Noshir, 2012
17. Jabborov N. Ma`rifat nadir. –T.: Ma'naviyat, 2010
18. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat – T.: Ma`naviyat, 2015
19. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.; Ma'naviyat, 2000
20. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: SHarq, 2008
21. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T., 2010
22. Yo'ldoshev Q. Yopiq so'z. –T.: Yangi asr avlodi. 2006
23. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. – Yozuvchi, 2000
24. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: Muharrir,2010
25. Adabiyot enseklopediyasi /Tuzuvchi: H.Boltaboyev.–T.: Mumtoz so'z, 2015
26. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy- ilmiy maqolalar to'plami. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2016.

**Internet saytlari**

27. http://www.kutubxona .uz
28. http://www.literature .uz
29. http://www.ziyonet .uz
30. http://www.alishernavoiy.uz

## MUNDARIJA


KIRISH 4

1-MAVZU: YANGI O'ZBEK ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, YETAKCHI BELGILARI. YANGI O'ZBEK ADABIYOTINI DAVRLASHTIRISH 6

2-MAVZU: G'AFUR G'ULOM O'ZBEK ADABIYOTINING YETUK NAMOYANDALARIDAN BIRI SIFATIDA 15

3-MAVZU: OYBEK HAYOTI VA IJODI (1905-1968) 21

4-MAVZU: ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI (1907 -1968) 42

5-MAVZU: HAMID OLIMJON HAYOTI VA IJODI (1909-1944) 61

6-MAVZU: MAQSUD SHAYXZODA (1908-1967) 81

7-MAVZU: MIRTEMIR HAYOTI VA IJODI ( 1910-1978 ) 90

8-MAVZU: ZULFIYA HAYOTI VA IJODI (1915–1996) 104

9-MAVZU: SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI (1920-2007) 110

10-MÀVZU: ÎDIL YOQUBÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI (1926-2009) 123

11-MAVZU: PIRIMQUL QÎDIRÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI (1928-2010) 128

12-MAVZU: ERKIN VÎHIDÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI (1936-2016) 133

13-MAVZU: ÀBDULLA ÎRIPÎV HÀYOTI VÀ IJÎDI (1941-2016) 147

14-MAVZU: O'TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI (1941-2013) 167

15-MAVZU: TOG'AY MUROD HAYOTI VA IJODI (1948-2003) 182

ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR RO'YXATI 197

**Omanova M.A. Qodirova M.**

# O‘ZBEK ADABIYOTI

**FANIDAN**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

Bosishga ruxsat etildi. 26.08.2021 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 6.25, Adadi 50. Buyurtma № 48
Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani, Bunyodkor ko`chasi 27 uy.